

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG‘LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
OLYIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI**



IJTIMOYIY FANLAR KAFEDRASI

KASBIY PSIXOLOGIYA

FANIDAN O‘QUV-USLUBIY MAJMUA

Bilim sohalari: 500 000 - Sog‘liqni saqlash va ijtimoiy ta‘miot
100 000- Gumanitar soha
Ta‘lim sohalari: 510 000 - Sog‘liqni saqlash
110 000-Pedagogika
Ta‘lim yunalishi: 5111 000 – Kasb ta‘limi 551 0500 - Farmatsiya
(farmatsevtika ishi)

Toshkent - 2020

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
OLIV VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI
TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI



IJTIMOIV FANLAR KAFEDRASI

KASBIY PSIXOLOGIYA

FANIDAN O'QUV-USLUBIV MAJMUA

Bilim sohalari: 500 000 - Sog'liqni saqlash va ijtimoiy ta'miio
100 000- Gumanitar soha

Ta'lim sohalari: 510 000 - Sog'liqni saqlash
110 000-Pedagogika

Ta'lim yunalishi: 5111 000 – Kasb ta'limi (551 0500 - Farmatsiya
(farmatsevtika ishi))

Toshkent - 2020

Fanning o`quv dasturi O`zbekiston Respublikasi Sog`liqni saqlash vazirligining 2019 yil "02" 09 dagi 231-sonli buyrug`i bilan tasdiqlangan " Kasbiy psixologiya" fani dasturi asosida tayyorlangan.

Tuzuvchi:

L.B.Sultonova

Ijtimoiy fanlar kafedrasida katta o`qituvchisi


Taqrizchi:

S.To`ychieva

Tillar kafedrasida mudiri, p.f.n, dotsent

Fanning o`quv-uslubiy majmuasi Ijtimoiy fanlar soha uslubiy Kengashining 2020 yil " 30 " 06 dagi 20 -sonli yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Soha uslubiy kengash raisi:

 K.K. Ismailov

Fanning o`quv-uslubiy majmuasi institut Markaziy uslubiy kengashida ko`rib chiqildi va tasdiqlandi 2020 yil " 07 " 07 dagi 12 -sonli yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.


Markaziy uslubiy kengash raisi:



Z.A. Yuldashev

Fanning o`quv-uslubiy majmuasi institut Kengashida " 09 " 07 dagi 12 -sonli yig`ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

Kengash kotibi:

 V.R. Xaydarov

Kirish

«Ta'lim to'g'risi»dagi qonun va «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi»da kasb-hunar haqida alohida ma'lumotlar mavjud. Kasb-hunar egalari qadimdan e'zozlab kelingan. Bizning davrimizda ularga bo'lgan hurmat- ehtirom yanada ortdi. Jonajon O'zbekistonimizda bilimdon, mustaqil fikrlovchi, ijodiy izlanuvchi, yuqori malakali, madaniyatli, turli sohalar bo'yicha malakali mutaxassislar ko'proq talab qilinmoqda.

Xalqimizning boy intellektual merosi va umuminsoniy qadriyatlar asosida zamonaviy madaniyat, iqtisodiyot, fan-texnika va texnologiyaning yangi yutuqlari asosida mukammal tayyorgarlikdan o'tgan kadrlarni tayyorlaShning yangi tizimini ShakllantiriSh o'zbekiston Respublikasi taraqqiyotining muhim Shartlaridan biridir.

Inson bolasi kamolga etgani sari ilmga, ma'rifatga talpinadi. Ammo kelajagimiz egalari bo'lgan yoShlarga ta'lim beriSh ularni o'qitiSh bilan bog'liq ayrim muammolar bugungi kunda kiShini o'ylantirib qo'yayotgani tabiiy. Chunki zamonaviy Shiddatkor jamiyat esa etuk bilimdon mutaxassis kadrlarga muhtoj bo'lib boraveradi. Eng muhimi Shuni anglab etiShimiz kerakki, kadrlar masalasini hal etmas ekanmiz, sa'i-harakatlarimiz kutilgan natijalarni beriShi, hayotimiz ma'naviyatimiz o'zgariShi qiyin kechadi.

Yoshlarning kasb tanlaShga pedagogik-psixologik bilim, ko'nikma, malakalar, Shuningdek, jamiyatning ta'siri orqali tayyorlaSh va tarbiyalash lozim. Mazkur jarayonda Shaxsdan kasbga doir bilimlarga ega bo'liSh talab qilinadi. Shuning uchun ham o'quvchilarni kasblar olamiga doir bilimlar bilan qurollantiriSh hamda amaliy ko'nikma va malakalarni hosil qilish lozim. Buning uchun kasblarga doir qo'llanmalar, tarqatma materallar bilan ta'minlaSh lozim. Shundagina kasb tanlaSh jarayonida yuzaga keladigan turli qiyinchilik, ziddiyat, to'siqlarni oldini olgan holda yoShlarni ongli raviShda kasbga yo'llaSh imkoniga ega bo'lamiz.

Kasbiy psixologiya shaxsda kasbga doir bilim, ko'nikma, malakalarni Shuningdek, ulardagi mavjud tuShuncha, tasavvurlarini boyitishga xizmat qiladi. Shuningdek kasbiy psixologiyaning asosiy muammosi predmeti, maqsad, vazifalari, Sharq allomalari o'zbek psixologlarining kasb tanlaSh, kasbga yo'naltiriSh borasidagi fikrlari, kasb psixologiyasining tadqiqot metodlari, kasb tuShunchasi va uni psixologik tizimlaSh, professiografiya, kasbiy motiv va motivatsiya, Shaxsning kasbiy kamoloti, mehnat va kasbiy kamolot, kasbiy sifatlar va kasbiy identifikatsiya masalasi, kasbiy o'zlikni anglaShdagi ziddiyatlar, xodimlar attestatsiyasining psixologik aspektlari va Shunga doir ilmiy nazariy ma'lumotlar keltirilgan.

1-mavzu. Kasbiy psixologiya fanining shakllanish tarixi va predmeti.
1.1 dars. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari

R e j a :

1. Psixologiya fani va uning asosiy tarmoqlari .
2. Kasbiy psixologiya fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
3. Kasbiy psixologik bilimlarning inson faoliyati uchun ahamiyati

T a y a n c h s o ' z v a i b o r a l a r :

Psixologiya, kasb psixologiyasi, rux, aks ettiriSh, psixika, Aristotel, refleks, empirizm, faktlar, jarayonlar, individual xususiyatlar, vazifalar, psixik holatlar. prinsip, determinizm, ong, faoliyat, amaliyot, nazariya, soha, ijtimoiy psixologiya, psixika, tadqiqot, psixik taraqqiyot, ijtimoiy borliq.

Psixologiya fani va uning asosiy tarmoqlari .

Psixologiya lotincha "*psyuxe*"-ruh, "*logos*"-fan, ta'limot degan so'zlardan olingan bo'lib, psixologiya fani inson ruhi haqidagi ta'limotdir. Boshqacha qilib aytganda psixologiya ruhshunoslik, insonshunoslik haqidagi fandır.

Har qanday inson kundalik hayotida odamlar bilan uchrashib, muloqotga kirishar ekan, u o'zining bosiq yoki qiziqqon, beparvo yoki qiziquvchan, mehribon yoki bag'ritosh, jahldor yoki bosiq va hokazolardan iborat ichki va tashqi ruhiy olamini namoyon qiladi. Bu ruhiy holatlar ongli va ongsiz tarzda namoyon bo'ladi. Ana shu holatlarning barchasi insonning psixikasini tashkil qiladi.

Inson psixikasi moddiy va ma'naviy borliqdagi narsa va hodisalarni jonli in'ikos etuvchi murakkab jarayon bo'lib, u insoniyatning uzoq davom etgan fiziologik rivoji uyg'unligining mahsuli hisoblanadi

Psixika - yuqori darajada tashkil topgan materiyaning tizimli xossasi (xususiyati), subekt tomonidan obektiv borliqni faol aks ettiriSh, mazkur borliq manzaralarini subekt o'zidan uzoqlashtirmay ifodalashi, xuddi shu asnoda o'z xulqi va faoliyatini shaxsan boshqarishdir. Psixikada o'tmishning, hozirgi davr va kelgusi zamonning hodisalari ifodalangan, tartibga solingan¹. Psixikaning asosiy vazifalari - aks ettirish - faoliyat va xatti-harakatlarni boshqarishdir.

Uning namoyon bo'lish shakllari va ularning o'zaro bog'liqligi psixik (bilish) jarayonlar (sezgi, idrok, xotira, tafakkur, xayol, nutq va diqqat), psixologik holatlar (hissiyot, emotsiya, e'tiqodlilik, bardamlik, tetiklik, qiziquvchanlik, hayratlanish, ishonchlilik, ijodiy ruhlanish), shaxsning xususiyatlari (yo'naliShlar, temperament, xarakter, qobiliyat, iqtidor, aqliy salohiyat, xulq motivatsiyasi, ish uslubi, mas'uliyat)da kuzatiladi.

Psixologiya - psixikaning kelib chiqishi, rivojlanish qonuniyatlari, shuningdek insondagi onglilik va ongsizlik fenomenlarining xilma-xil ko'riniShlarini o'rganuvchi fan.

Psixologiya fanining obektiga psixika, ong va ongsizlik, shaxs va uning faolligi kirsar, uning predmetini ana shu obekt haqidagi muayyan bilimlar tashkil qiladi (Obekt - kishilarning diqqatini o'ziga tortadigan moddiy va ma'naviy borliq. Predmet - moddiy va ma'naviy borliq haqidagi bilimlar majmuasi va o'rganiladigan masalalar).

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, kasbiy psixologiya psixologiya tarkibida yuzaga kelgan bo'lib, aniq faoliyat, ya'ni ichki iShlar idoralari faoliyatidagi psixologik jihatlarning muhim tomonlarini o'rganishga bag'ishlangan fan hisoblanadi.

Kasbiy psixologiya ilmiy-amaliy fan bo'lib, umumiy psixologiyaning qonuniyatlarini

o'rganadi va bu fanni samaradorligini o'ShiriSh uchun tavsiyalar ishlab chiqadi.

Kasbiy psixologiya fani kasb doirasidagi munosabatlar, odamlarning psixik faoliyatini huquqiy boshqarish mexanizmlari va qonuniyatlarini o'rganuvchi fandır. Bunda guvohlar, xolislar, jabrlanuvchi, gumonlanuvchilarning ko'rsatmalari hamda so'roq olib boriShning psixologik asoslarini o'rganish *maqsad* qilib qo'yilgan.

Kasbiy psixologiya fanining maqsadi - kasb xodimlari faoliyatining taraqqiyot qonuniyatlari, turli toifadagi shaxslar bilan o'zaro munosabatlar jarayonida psixologik bilimlardan foydalana olish ko'nikma va malakalarini shakllantirishdan iboratdir.

Psixologiya, falsafadek juda qadimiy fanlardandır va juda boy tarixga egadır. Psixologiya dastlab falsafa doirasida faoliyat ko'rsatgan. Psixologiya juda uzoq tarixga ega. Dastlabki psixologik tasavvurlar Qadimgi sharq mamlakatlarida, Xitoy, Hindiston, Misr kabi mamlakatlarda vujudga kelgan. Psixologik tasavvurlarning vujudga keliShida odamlar o'rtasida farqlarning mavjud ekanligi, ammo bu farqlarning sabablari aniq bo'lmaganligi bilan bog'liq.

Kishining psixikasi haqidagi ta'limotni birinchi marta Aristotel (eramizdan avvalgi 384-322 yillar) «**Ruh haqida**» degan kitobida bayon qilgan. Shu sababli Aristotel alohida fan bo'lgan psixologiyaga asos solgan olim yoki psixologiya fanining «otasi» deb hisoblanadi. U bir qancha asarlar yozib, ularda psixologiya masalalari bo'yicha o'z qarashlarini bayon qiladi. Aristotel ruh tan bilan uzviy bog'langan, deb hisoblaydi. «Ruh-deydi u-o'z taiatiga ko'ra hukmron asosdir, tana esa tobe narsadir». Aristoteldan keyin Demokrit, undan keyin Epikur (342-271 yillar), Rim Shoiri va faylasufi Lukretsiy Karr (99-95 yillar) psixologiya fanining rivojlanishiga o'z nazariyalari bilan hissa qo'shdilar. Lukresiy psixik hodisalarning tanaga bog'liqligini tajribada asoslab berdi.

Vilgelm Vund 1879 yili Leypsigda birinchi eksperimental psixologiya amaliysini tashkil qildi. Oradan ko'p o'tmay, 1881 yili Berlin universiteti qoshida eksperimental psixologiya instituti tashkil qildi.

Psixologiya inson ruhiyatining o'ziga xos xususiyatlari ko'rinishlari va rivojlanishning umumiy qonuniyatlarini tadbqiq etadi.

Ruhiyat bu insonning ichki tuzilishi, ichki dunyosi, qobiliyatlari, barcha sohadagi imkoniyatlari kabilarni qamrab oladi. Tor ma'noda ichki dunyo tushuniladi.

Psixologiya o'zining predmetini to'rt bo'limga bo'lib o'rganadi:

1. Psixologiyaning asosiy masalalari.
2. Bilish jarayoni.
3. Shaxsning hissiy-irodaviy xususiyatlari.
4. Shaxsning individual tipologik xususiyatlari.

Birinchi bo'lim, psixologiyaning asosiy masalalarida

- a) fan predmeti;
- b) vazifalari, prinsiplari, tarixi, metodlari, sohalari o'rganiladi.

Psixologiya o'z vazifalarini amalga oshirishda konkret prinsiplarga tayanadi. Prinsip tamoyil degan ma'noni anglatadi. Prinsiplar ikkiga bo'linib, ya'ni asosiy prinsiplarga hamda yordamchi prinsiplarga tayangan holda tadqiqot ishlari olib boriladi.

Psixologiyaning sohalari. Psixologiya fani ijtimoiy hayotning barcha sohalarida amal qiladi. Chunki qaerda inson faoliyat ko'rsatar ekan, o'sha erda inson ruhiyati bilan bog'liq muammolar yuzaga chiqadi.

Hozirgi kunda psixologiyaning 400dan ziyod sohalari faoliyat ko'rsatmoqda. Masalan: umumiy psixologiya, meditsina psixologiyasi, sport, muhandislik, oila, harbiy, yuridik, aviasiya, kosmik, yoSh davrlar psixologiyasi, pedagogik, etnopsixologiya, differensial psixologiya va hokazolar.

umumiy psixologiya-psixik faoliyatning umumiy qonuniyatlari va ularning o'ziga xos jihatlarini o'rganadigan maxsus soha;

pedagogik psixologiya-kishiga ta'lim va tarbiya berishning psixologik qonuniyatlarini o'rganishni o'z predmeti deb biladi;

yosh davrlar psixologiyasi-turli yoshdagi odamlarning tug'ilgandan to umrining oxirigacha psixik rivojlaniSh jarayonini, shaxsning shakllaniShi va o'zaro munosablari qonuniyatlarini individning yoShiga mos tarzda o'zgarishi tamoyillarini o'rganadi;

ijtimoiy psixologiya-odamlarning jamiyatdagi birgalikdagi ish faoliyatlari natijasida ularda hosil bo'ladigan tasavvurlar, fikrlar, e'tiqodlar, hissiy kechinmalar va xulq-atvorlarini o'rganadi;

mehnat psixologiyasi-kishi mehnat faoliyatining psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda taShkil etishning psixologik jihatlarini, qonuniyatlarini o'rganadi;

muhandislik psixologiyasi-avtomatlashtirilgan boshqaruv sistemalari operatorining faoliyatini, odam-texnika o'rtasida funksiyalarni taqsimlash va muvofiqlashtirishning xususiyatlarini o'rganadi;

yuridik psixologiya-xuquq sistemasining amal qilishi bilan bog'liq masalalarning psixologik asoslarini o'rganadi;

harbiy psixologiya - kishining harbiy harakatlar sharoitida namoyon bo'ladigan xulq-atvorini, zobitlar bilanoddiy askarlar o'rtasidagi munosabatlarning psixologik jihatlarini o'rganadi;

savdo psixologiyasi-jamiyatda tijoratning psixologik shart-sharoitlari, extiyojning individual, yoshga, jinsga oid xususiyatlarini, xaridorga xizmat ko'rsatishning psixologik omillarini aniqlaydi. Bu sohadan ajrab chiqqan, modalar psixologiyasi inson didi va uning xulqda aks etishi kabi qator masalalarni o'rganadi;

tibbiyot psixologiyasi-shifokor faoliyati psixologiyasini, bemor xulq-atvorining psixologik jihatlarini o'rganadi.

Kasbiy psixologiyasi fanining predmeti, maqsad va vazifalari.

Har bir inson hayotida kasbiy faoliyat muhim ahamiyatga ega. Ota-onalar farzandlarining ilk qadamlaridanoq uning kelajagi to'g'risida o'ylab qolishadi. Farzandlarining qiziqish va qobiliyatlarini kuzatish orqali ularning kasbiy kelajagini aniqlashga harakat qiladilar. Ayniqsa, maktabda beriladigan ta'lim-tarbiya o'quvchining turli fanlarga bo'lgan tanlovli munosabatini keltirib chiqaradi, ayrim bolalarda esa qaysidir fanlarga bo'lgan qiziqishi tez seziladi, ya'ni tasviriy, musiqaviy va hokazolar. O'smirlik davriga kelib, muammo yanada kuchayadi. Ko'pgina o'quvchilar va ota-onalarga qanday kasbni tanlashlari oldindan ma'lum bo'ladi: ular "Men shifokor bo'laman", "Bizning o'g'limiz, qizimiz, tibbiyot insitutiga hujjat topshiradi. Shunday bo'lsada, kasbiy maqsadlarning aniqligi va ularni ruyobga chiqishi bo'yicha xavotirlanish holatlari sezilib turadi. Omadsizlikka uchrasa-chi ayrim o'quvchilar uchun to'qqizinchi sinfni bitirgach, kasbiy yo'nalishlarini tanlash - eng dolzarb masala bo'lib qoladi.

Ko'pgina maktab bitiruvchilari kelajakda kim bo'lsam ekan yoki qaysi sohani mutaxassisi bo'lsam ekan - degan savolni o'z oldilariga qo'yib, kasb tanlash muammosiga duch keliShadi. Natijada o'quvchilar tomonidan mutaxassisliklar tasodifan tanlanadi. hech qanday maxsus tayyorgarlikka ega bo'lmasdan yoki kasbiy kelajagini tuShunib etmasdan maktab bitiruvchilarining bir qismi darhol ishga joylashadi. Bunda kasb dunyosida o'z o'rnini qidirish o'zgacha ma'noga ega bo'ladi. Kasb hunar kollejiga kirgan yoshlar uchun kasb tanlash muammosi to'liq echilmagan bo'ladi. Ularning bir qismi tanlovning to'g'riligiga o'qishning birinchi yilidayoq ikkilanib qolishadi, boshqalari - mustaqil kasbiy faoliyatning boshida, ayrimlari-kasb bo'yicha 3-4 yil ishlagandan keyin, yoshlarning ayrimlari kasb maktabini bitirib, egallagan kasbi bo'yicha ish

topa olmaydilar va ishsizlar qatoriga qoʻshilib qoladi. Demak, ular uchun kasb tanlash muammosi yana dolzarb boʻlib qolaveradi. Psixologik toliqish, xavotirlanish, kelajakka nisbatan ishonchsizlik, bilan qarash mehnat olamida oʻzini topishida maʼlum qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Kasbiy tayyorgarlikka ega boʻlgan oʻquvchilar oldida ishga joylashish muammosi paydo boʻladi. Kishilarning individual-psixologik xususiyatlarini kasb talablari boʻyicha kasbiy tayyorgarligiga mosligini aniqlash uchun qator mutaxassisliklar boʻyicha kasbiy tanlov oʻtkaziladi.

Boʻlajak mutaxassis shaxsida yangi aʼzolari orasida, turli yoshdagi kishilar boʻlgan jamoaga kirish, kasbiy faoliyatga koʻnikish, yangi ijtimoiy rolni tushunib olish yana muammolarni keltirib chiqaradi. Moslashuv bosqichiga kasbiy ijtimoiy etuklik va ijtimoiylashuv shakli kiritiladi. Oʻzgargan kasbiy vaziyat yangi psixologik xususiyatlar va sifatlarning shakllanishiga olib keladi. Shaxs psixologik tuzilishidagi keskin oʻzgarishlar kishining hayotini ham oʻzgartiradi.

Shaxsning kasbiy rivojlanishi turli xilda namoyon boʻlishini qanday tushuntirib bersa boʻladi. Nega bir kishi hayoti davomida maʼlum bir kasbga sodiq qoladi, boshqasi esa yillar davomida mehnat turlarini oʻzgartirib turadi. Kasbni oʻzgartirish sabablari (qanday) nimada, mutaxassislarining kasbiy rivojlanishi, lavozimlardan koʻtarilishi qanday omillarga bogʻliq? Qanday qilib kasb ustasi boʻlish mumkin? Insonning kasbiy hayotini oʻzgarishida shu savollarga javob berish kerak boʻladi. Shu bois talaygina muammolar ishsizlikni keltirib chiqaradi. Bu esa ertangi kunga boʻlgan ishonchsizlik psixologik zoʻriqishni kuchaytiradi. Bunda koʻpgina ishsizlar uchun kasbini oʻzgartirish muammosi kelib chiqadi. Yangi kasbni shakllanishi jarayonida kasbiy qarashlar shaxs xususiyatlarining oʻzgarishini talab etadi.

Bir xil kasbiy faoliyati jarayonida mutaxassisda muhim kasbiy fazilatlar rivojlana boshlaydi. Shaxsning oʻz kasbiy ustasi boʻlishi faoliyat mahsuldorligiga taʼsir etadi. qanday qilib mutaxassisning ishga boʻlgan layoqatini saqlab qolish, gohida esa tiklash mumkin. Maʼlumki, mutaxassis muntazam ravishda kasbiy psixologik tomonidan yordamga muhtoj boʻladi.

Jamiyatimiz uchun dolzarb psixologik muammolardan biri-bu ishchining nafaqaga chiqishi hisoblanadi. Ijtimoiy-iqtisodiy shart-sharoitlarning oʻzgarishi yangi ijtimoiy vazifa-nafaqaxoʻrlar uchun psixologik qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi.

Shaxsning kasbga boʻlgan moslahuvida normativ boʻlmagan vaziyatlarni hal etishda psixologiya muhim ahamiyatga ega. Aynan u shaxs va kasb oʻrtasida optimal munosabatlarni oʻrnatishda yordam berishi, kishilarni kasblar dunyosi bilan tanishtirishi lozim.

Keng tarqalgan taʼriflarga koʻra psixologiya - psixik faktlar, ularning qonuniyatlari va mexanizmlarini oʻrganadi. Shuningdek, psixologiya inson faoliyati va xulq-atvorida obʼektiv reallikning aks etishi qonuniyatlari haqidagi fan. Psixologiya sohasida amalga oshirilgan ilmiy tadqiqotlar va oʻrganilgan nazariy manbalar, shuningdek fanlararo oʻzaro integratsiya jarayonlari psixologiya tarmogʻida koʻpgina oʻz predmetiga ega boʻlgan sohalarni ajralib chiqishiga turtki boʻldi. Ular jumlasiga kasb psixologiyasini kiritishimiz mumkin. Kasb psixologiyasining **predmeti** - shaxsning kasbiy shakllanish mexanizmi, qonuniyatlari hamda psixologik xususiyatlarini oʻrganishdir. Bundan kelib chiqqan holda **kasb psixologiyasi** - bu shaxsda kasbiy maqsadlarni tanlash, kasb egallaish, mutaxassisning kasbiy rivojlanishiga doir qonuniyatlarni, shuningdek, shaxsning mehnatga layoqatlilik darajalarini oʻrganuvchi psixologiya fanining sohasidan biridir, - deb aytish mumkin. Kasb psixologiyasining **obʼekti** - shaxsning kasb bilan hamkorligi yoki oʻzaro bogʻliqligidan iborat. Kasb psixologiyasi psixologiya fanining mustaqil sohasi boʻlib, u oʻzining tadqiqot predmeti va obʼektiga ega. Shu jihatdan aynan u mehnat psixologiyasi, muhandislik psixologiyasi, yoʻsh davrlari psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlarining obʼekti va predmetidan farqlanadi. **Mehnat psixologiyasi**-inson psixik faoliyatining

takomillashishi va qonuniyatlarini o'rganuvchi psixologiya sohasi bo'lib, u mehnat jarayonida shaxsdagi jarayon, holatlar va xususiyatlarni o'rganadi.

Shaxsning "inson-kasb" tizimida kasbiy rivojlanishi muhandislik psixologiyasi - inson va texnik tuzilmalar o'rtasidagi informasion aloqa vositalari va jarayonlarini o'rganuvchi psixologiya tarmoqidir. **Pedagogik psixologiya** - shaxsga ta'lim-tarbiya berishning qonuniyatlari va muammolarini o'rganuvchi psixologiya sohasi. Mehnat psixologiyasi va kasb psixologiyasi predmetlarini farqini alohida ta'kidlash lozim. E.A.Klimov, mehnat psixologiyasiga quyidagicha tavsif beradi: **mehnat psixologiyasi** fan sifatida bu insonning sub'ekt sifatida faoliyat ko'rsatishi va shakllanishi sohasidagi vazifalarni echish usullari, yo'llari va sharoitlarini o'rganuvchi psixologiya yo'nalishidir. **Kasb psixologiyasi** shaxsning kasbiy jihatdan shakllanishini o'rganadi. Bunda shaxs rivojlanishi kasbiy shakllanishi sifatida ko'rib chiqiladi. Kasb psixologiyasi-mehnat psixologiyasining kasblarni psixologik komponentlarini yoki muayyan kasbda ishlovchilarga nisbatan qo'yiladigan psixologik talablarni o'rganish hamda ilmiy tahlil hilish bilan shug'ullanuvchi bo'limidan iborat. **Kasb psixologiyasi** inson uchun kasbiy faoliyatning ahamiyatini o'rganib, shaxsning kasbiy shakllanishini tadqiq etadi, shuningdek, yoshlikda kasbiy tasavvurlarni rivojlaniShini, kasbiy etuklik determinantalarini ayniqsa, kasbga kirishish va uning hayotga bo'lgan ta'sirini o'rganadi. Kasb psixologiyasining **muhim aspektlari** - bu kasbiy faoliyatning tahlili, kasbiy maqsadlar, vaziyatlar, qiyinchiliklarini o'rganishi, kasbiy talablarni aniqlashdan iborat.

Kasb psixologiyasining predmetining ta'rifiga asosanib, uning quyidagi **vazifalarini** ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq:

1. Shaxsning kasbiy shakllanishi asosiy tushunchalari va tadqiqot tamoyillarini, o'zining faoliyatiga tegishli uslublarini asoslash;
2. Kasb psixologiyasi predmetiga mos bo'lgan tadqiqot usullarini ishlab chiqish va o'ziga xos uslublarini tuzish;
3. Kasblarning tavsifiy tuzilmasini psixologik tahlil qilish, kasblarni proektlash usublari va tamoyillarini ishlab chiqish;
4. Shaxsning kasbiy shakllanishi qonuniyatlari va psixologik mexanizmlarini tadqiq etish, kasbiy shakllanishdagi inqirozlarni tahlil etish;
5. Shaxsning kasbiy rivojlanish monitoringni yuritish, bu borada psixodiagnostik vositalarni ishlab chiqish hamda mutaxassislarni attestasiyadan o'tkazish;
7. Shaxsning kasbiy shakllanishiga psixologik yordam hamda insonning kasbiy hayoti davomida yordam berish, qo'llab-quvvatlash;
8. Kasbiy maslahat, kasbiy ma'lumotning shaxsiy rivojlantiruvchi psixologik jihatlari, attestatsiyadan o'tkazish, kasbiy rivojlanish psixotexnikasi, kasbiy korreksiya va reabilitatsiya, kasbdan ketishga psixologik tayyorgarlik borasidagi bilimlar bilan qurollantirishdan iborat.

Kasb psixologiyasining metodologik asosi - bu shaxsning kasbiy shakllanish konsepsiyasidir. Mazkur konsepsiyaning asosiy mohiyati Shundaki, kasb tanlash jarayonida shaxs miqdor va sifat jihatidan rivojlanib boradi ya'ni ular o'z yo'naliShini boyitib boradi, Shu orqali tajriba va salohiyat shakllanadi. Kasbiy shakllanish jarayonida inqirozlar, to'qnashuvlar, bo'lib o'tishi mumkin. Bu jarayonning tezligi biologik va ijtimoiy omillarga, shuningdek tasodifiy holatlarga, hayotiy muhim kasbiy voqealarga bog'liq bo'ladi.

Kasbiy shakllanish - bu shaxs rivojlanishining katta bir qismini o'z ichiga olib, u kasbiy maqsadlarning tarkib topishidan boshlab, kasbiy hayotning tugallanguncha bo'lgan

davrni o'z ichiga oladi. Kasbiy shakllanish - bu shaxsning kasb tanlash jarayonidagi kasbiy ta'limga tayyorlanish, shuningdek kasbiy faoliyat jarayonidagi rivojlanish hisoblanadi.

Kasbiy shakllanish yo'li va tezligi bir guruh omillar bilan belgilanadi. Ularga yosh, individual-psixologik, kasbiy texnologik va ijtimoiy-iqtisodiy omillarni kiritish mumkin.

Kasbiy rivojlanish - bu yo'naliSh salohiyat va muhim kasbiy sifatlarning boyib borishi, mehnat faoliyati samaradorligini oshirib borish bilan belgilanadi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kundagi taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizga bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan, raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablariga og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatanparvar, iymon - e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishsin.

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislarga muxtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatiga qarab hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ngra kasbga yo'llash kerak.

Respublikamiz aholisining aksariyati agar xo'jalik sohasi bilan shug'ullanayotganligi tufayli uning tarmokdariga oid mutaxassislarni tayyorlash uchun kasbning psixologik xususiyatlari, mehnat ko'nikmalari va malakalari bilan bo'lg'usi ixtisos egalarini qurollantirish muhim ijtimoiy vazifalardan biridir. Bo'lg'usi agronomni kasbiy tayyorlash, kasb- hunar oldiga ko'yiladigan talablarga mutanosib insonlar qilib shakllantirish davlat ahamiyatiga molik muammo bo'lib hisoblanadi.

O'zbekistonning issiq iqlim sharoitining biologik-tibbiy jihatlari birmuncha o'rganilganligiga qaramay, ularning mexanizmlari, akseleratsiya hodisasi, qishloq aholisining jismoniy rivojlanishi, mehnatkashlarning issiq sharoitga moslashishlari, mehnatni tashkil qilishning oqilona yo'llari, mehnat unumdorligini oshirishning samarali usullari, ekologiyaning o'zgarishiga o'xshash muammolar qariyb o'rganilmagan. Quyidagi mavzular yuqoridagi muammolarni aksariyatiga javob berishga xizmat qiladi. Inson-tabiati munosabatini o'zida aks ettiradi, shaxs omili va uning hozirgi davrda ishlab chiqarishda hisobga olish mehnat samaradorligini oshirish, kasb mahoratini takomillashtirish uchun negiz bo'lib hisoblanadi. Kasb- hunar mohiyatini ochib beruvchi professiogramma, professiografiya, psixogramma asosida qishloq xo'jalik mutaxassislarni tayyorlash uchun agrar oliy o'quv yurtlarini intilmoqlari lozim. Zero, yuksak texnologiyani boshqarishga layoqatli, ijodiy, mustaqil fikrlovchi, shaxslararo munosabatlarni tashkil qilishga o'quvli mutaxassislar etishtirishga erishilsa, ezgu niyatlar ijtimoiy hayotda qaror topgan bo'lar edi.

Ijtimoiy taraqqiyotni ro'yobga chiqarish uchun mamlakatda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash va ularni jahon standartlari darajasiga ko'tarmoq lozim, fan va texnikaning bugungi kun taraqqiyotiga javob berish uchun keng saviyali, bilimdon, o'z kasbining fidoiy kishisini kamol toptirish orqali davlatimizda bozor iqtisodiyotiga bardosh beradigan raqobatbardosh mahsulotlar yaratuvchi kasb egalarini shakllantirish joiz. Toki ular davr talablarsh og'ishmay javob beradigan, qiziqishi keng, malakasi mustahkam, xotirasi barqaror, fikr yuritishi puxta, izlanuvchan, mehnatsevar, vatatparvar, iymon-e'tiqodli insonlar bo'lib voyaga etishsin.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, o'rta maktab o'quvchilarining hammasi kasb tanlashga kelganda oqilona va to'g'ri yo'l tutadi, deb bo'lmaydi, albatta. Ulardan ba'zilari tavakkalligiga ish tutsalar, ayrimlari ota ona kasbini tanlaydilar yoki ko'zga tashlanib turgan yaqqol namunalariga

taqlid qiladilar, goho sevimli kishilari izidan borishni mo'ljallaydilar.

Ko'pchilik o'quvchilar ta'lim jarayonida fan asoslarini egallab, muayyan tasavvur hosil qiladilar, o'zlari yoqtirgan kasb-hunarlar haqida o'ylaydilar.

Maktab o'quvchilarining mayllari, havaslari, intilishlari, xohishlari, motivlari, ezgu-niyatlari xususan kasbkorga bo'lgan qiziqishlari, motivlari, ehtiyojlari tug'ilishi psixologiya fanining shaxs muammosi bilan uzviy bog'liqdir. SHaxs psixologiyasini o'rganish o'quvchilarni kasb tanlashga yo'llash demakdir. O'quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo'llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to'g'risidagi hujjatlarda o'quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o'z imkoniyatlarini o'zi baholash orqali) o'rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta'kidlanadi. SHunga ko'ra psixolog olimlar, msgodistlar, tashxis Markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo'l-yo'riqlari va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shaxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko'lami orttirilishi lozim. Bu borada Respublika tashxis markazining 2003 yil ma'lumotlari juda qiziqarli va ba'zan munozaralidir. Bularni quyidagi raqamlarda ham ko'rish mumkin: Respublika bo'yicha 9-sinflarni bitirgan o'quvchilarning 8,00 %ga sanoat yo'nalishlariga yo'llanma berilgan bo'lsa, ularning atigi 3% o'qishga joylashgan. Sog'liqni saqlash sohalariga esa 12,60% yo'llanma berilgan bo'lsa, amalda ularning 4,80 % o'qishga kirgan. Maorif sohalariga esa 9,60 % yo'llanma berilgan bo'lib, ularning 4,00%gina o'qishga joylashganlar (Maktab va hayot jurnaliga ilova 2003 yil, 24-39 betlar).

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o'quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so'ng kasbga yo'llash kerak.

Hozirgi davrda xalq ta'limi bo'limlarida, ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta'minlash muassasalarida, kollejlar va Oliy O'quv YUrtlarida yoshlarga kasb tanlash yo'lini ko'rsatadigan maxsus kasb-hunar kabinetlari tashkil etilgan. Bu borada Respublika tashxis markazining, hamda joylardagi uning bo'limlarining faoliyati ibratlidir. Bundan tashqari malakali psixologlar va pedagoglar (shu jumladan mahalla tarbiyachisi), murabbiylar, muxandislar va texniklar har bir kasb-hunarning o'ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi.

Lekin yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra o'quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi. Psixologlar, bundan tashqari, o'quvchilarning aql idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, akllari mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari shuningdek, bu sohada ilmiy- tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki psixologiya fani o'quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam beradigan, yo'l-yo'riqlar va tavsiyalar, mukammal qo'llanmalar, aksariyat kasb-hunarning professiogrammasini hali to'liq ishlab chiqqan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar etarli miqdorda yaratilgan. Shaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya'ni shaxsning bilish qobiliyatlari, aql-idroki, aql-zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo'li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqligi to'g'risida aniq fikr bildirish muayyan tavsiyalar berish mumkin.

Keyingi yillarda o'tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo'llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Buni biz viloyatlar kesimida hamda Respublika bo'yicha 9 sinf bitiruvchilariga sohalar bo'yicha tavsiyanomalar berishda ko'rdik.

Darhaqiqat, maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik

tashxis ishlarini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar boshlandi. O‘ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o‘quvchilarni kasb-hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug‘ullanadigan maktab amaliyotchi psixologi shtatlarni tashkil etishdan iborat bo‘lishi lozim. Chunki, bu mutaxassislarsiz maktabda mazkur ishlar haqida gapirish ham mumkin emas. Maktabda olib borilayotgan kasb-hunarga yo‘naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samarasi bevosita shu ikki mutaxassisning olib borayotgan ishlarining ko‘lami, ularning saviyasi va malaka ko‘rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko‘p jihatdan bog‘liq bo‘lishi barchamizga ayondir.

Ommaviy kasblarga bag‘ishlangan o‘quv-uslubiy adabiyotlar va kasb-hunar to‘g‘risidagi kinofilmlar, spravochniklar kamligi, psixologik-diaagnostik tadqiqotlar o‘tkazishga yordam beradigan zamonaviy apparat va asboblardan ta‘minlash yaxshi yo‘lga qo‘yilmaganligi, shaxsning muayyan kasbga yaroqliligini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlari etarlicha olib borilmayotganligi shunday kamchiliklar jumlasiga kiradi.

O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va qo‘shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to‘g‘risida ma‘ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko‘rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

Ilk o‘spirinlar va katta o‘smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo‘lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo‘lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko‘p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat‘iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin.

SHuni ham aytib o‘tish o‘rinliki, maktab o‘quvchilari kasb tanlash borasidagi o‘z qarorlarini, ko‘pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko‘pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar.

Maktabdagi kasb-hunarga yo‘naltirish ishlarining samarali bo‘lishini maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasisiz tasavvur qilib bo‘lmaydi. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi «O‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirish xonasi to‘g‘risidagi Nizom» asosida tashkil etiladi va I jihozlanadi. Mazkur nizomda maktab kasb-hunarga yo‘naltirish xonasining vazifalari, unda o‘tkaziladigan tadbirlar, stend va unda ma‘lumotlar bo‘lishligi haqida aytib o‘tilgan. Maktabning kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi mazkur xonaning mudiri hisoblanadi.

Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o‘quvchilarni kasb-hunarga yo‘naltirishni ta‘minlovchi barcha ma‘lumotlar bankini yaratishdan iborat. Bu maqsadda kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan kasbiy axborotlar, kasblar ro‘yxati, tasnifi, hududiy kasblar ro‘yxati, kasblarga bo‘lgan ehtiyoj va boshqa kasbiy tashxis metodikalari, tavsiya yo‘riqnomalardan foydalaniladi. Maktab kasb-hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisi tomonidan o‘quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma‘lumotlarni to‘liqroq anglab etishi shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg‘or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma‘ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Ushbu tadbirlar o‘quvchining shu kasbga bo‘lgan qiziqishini yanada qat‘iylashishini vujudga keltiradi.

O‘quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb – hunarini o‘z qobiliyatlariga yarasha to‘g‘ri tanlashlariga erishish uchun maktab o‘qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptik va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo‘lishi, fan asoslarini turmush bilan bog‘lab o‘rganilishi, to‘garak va

qo‘shimcha yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb – hunar to‘g‘risida ma‘ruzalar o‘qilishi, suhbatlar, munozaralar o‘tkazilishi, sayoxatlar, uchrashuvlar, kasb – hunar fotoko‘rgazmalarini tashkil qilishlari zarur.

Mavzu bo‘yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

1. Kasbiy psixologiya predmeti, nazariy va amaliy vazifalari nimalardan iborat?
2. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.
3. Kasbiy psixologiya qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?
4. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.
5. Kasbiy psixologiya qanday fanlar bilan o‘zaro bog‘liq?
6. Abu Nasr Forobiy “Baxt – saodatga erishuv” asarida yoshlarning kasb – hunar va ish tajribani egallashi to‘g‘risida qanday qarashlarni bayon etgan?
7. Kasb – hunarga yo‘naltiruvchi mutaxassisning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
8. Sharq mutafakkirlarining qaysilari o‘z mulohazalarida turli kasblarga oid fikrlar bildirganlar va bunga misollar keltiring.

Test savollari

1. Pedagogik kasbini tanlagan kishi kanday sifatlarga ega bulishi kerak?
 - A) Sog‘lom bo‘lishi, so‘zlarni tug‘ri va yaxshi talaffuz qila olishi
 - B) Bolalarni yoqtirishi, xushmuomalalilik, kuzatuvchi, keng fikr yurituvchi, jismonan baquvvat va sog‘lom, asablari mustaxkam.
 - S) Bolalarni yoqtirishi, o‘z fanini mustaxkam egallashi, nutqi ravon
 - D) Tugri javob yo‘q
2. “Kasbiy psixologiya” – bu
 - A) Ta‘lim – tarbiyaning shaxsga samarali ta‘sir etuvchi omillari, qonuniyatlari va mexanizmlarini o‘rganuvchi fandır;
 - B) psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishi hamda psixik chuqurroq aks ettirishdan iborat;
 - V) Inson uzoq umr ko‘rishning sirlarini – gerontopsixologik qonuniyatlarni ochish va targ‘ib qiluvchi fandır.
3. “Kasbiy psixologiya” fanining muhim vazifalari nimalardan iborat.
 - A) Psixik jarayonlarning namoyon bo‘lishi va rivojlanishini o‘rganadi;
 - B) Inson bilish faoliyati rivojlanishi, unga o‘zini qurshab turgan borliqni yanada chuqurroq aks ettirishdan iborat;
 - V) Maktabdagi ta‘lim jarayonini yanada takomillashtirishning psixologik asoslarini ishlab chiqarishdan iboratdir.
4. Inson ruhiyati, tana va qalbning birligi, inson organizmi tuzilishi, undagi nerv faoliyati va ularning tarmoqlanishi haqida qimmatli ma‘lumotlarni bizgacha qoldirgan donishmand kim?
 - A) Yusuf Xos Xojib;
 - B) Abu Ali Ibn Sino;
 - V) Abu Rayxon Beruniy.

1-mavzu. Kasbiy psixologiya fanining shakllanish tarixi va predmeti.

1.2-dars. Kasbiy psixologiya fanining shakllanish tarixi

Reja :

1. Kasb psixologiyasining shakllanish tarixi
2. Kasbiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.
3. Kasb-hunar egallashning ishtimoiy tarixiy va metodologik muammolari

Tayanch so'z va iboralar :

Psixologiya, kasb psixologiyasi, rux, aks ettirish, psixika, psixotexnika, Aristotel, J. Krites, D. Super, G.V. Kudryavsev, E.A. Klimov, B.F. Lomov, K.K. Platonov, K.M. Gurevich, differensial diagnostic, psixoanalitik, qaror qabul qilish nazariyasi, taraqqiyot nazariyasi, tipologik yunalishlar.

KASB PSIXOLOGIYASINI SHAKLLANISH TARIXI

Psixologiyaning mustaqil sohasi sifatida kasb psixologiyasini shakllanishida bir qancha siyosiy, iqtisodiy va ilmiy-tadqiqiy sabablarning o'zni muhim hisoblanadi. Ular sirasiga quyidagi sabablarni keltirib o'tish maqsadga muvofiqdir.

Psixologiya fani doirasida shaxsning kasb bilan hamkorligi yuzasidan ko'p tomonlama tadqiqotlar olib boriladi. Asosan bu muammolar mehnat psixologiyasi, pedagogik psixologiya va yosh davrlar psixologiyasi fanlari tomonidan o'rganilgan. Bu muammolar echimining metodologik jihatdan asoslanishi psixologiya sohasida olib borilgan fundamental ishlarda aks etgan. Menat psixologiyasi kasbiy layoqat, kasbiy diagnostika, kasbiy ko'nikma va malakalarning shakllanishi masalalarini o'rganadi.

Yosh davrlar psixologiyasi shaxsiy va kasbiy rivojlanishi, kasbiy o'zlikni anglashdagi inqirozlarning psixologik xususiyatlari va kelishmovchiliklari masalalarini o'rganadi. Ta'kidlash mumkin-ki, insonning kasblar olami bilan hamkorligi to'planib, psixologiyaning turli sohalarida o'rganilib borilgan. Bugungi kunga kelib, bu bilimlarni bitta ilmiy yo'nalishi - kasblar psixologiyasini shakllantirish uchun sharoit yaratiladi. Shunday qilib, 1990-yillar boshida siyosiy, iqtisodiy va ilmiy sabablar tufayli psixologiyaning yangi sohasi-kasblar psixologiyasi vujudga keldi.

Kasblar psixologiyasining mustaqil fan sifatida shakllanishini **3 bosqichini** ajratish mumkin :

1.XIX-asrning oxirida mehnatni ilmiy tashkillashtirishning psixologik masalalarini hal qiladigan **psixotexnika** yo'nalishini paydo bo'lishi, shuningdek, psixotexnika taraqqiyotining asosiy masalalari bu mehnat sharoitlari, avariya va shikastlanishni kamaytirish, ishlab chiqarish ta'limining shakllanishi masalalariga e'tiborning kuchayishidir.

2.XX-asr boshlarida mustaqil ilmiy soha mehnat psixologiyasining rivojlanishi va bu boradagi kasbiy tadqiqot masalalari, inson psixologiyasining mehnatda namoyon bo'lishi va shakllanishi shuningdek, kasbiy tanlov, kasbiy maslahat va mehnat ekspertizasi masalalariga doir bilimlarni yuzaga kelishi.

3.XX-asrning 70-yillarida inson va kasb hamkorligi muammolarining hal qiluvchi mehnat psixologiyasi va industrial psixologiyadagi vazifalarning paydo bo'lishi, mehnat psixologiyasining bu sohasi profpsixologiya yoki kasblar psixologiyasi deb nomlanish boshladi. Kasb psixologiyasi doirasida kasbiy maslahat, kasb tanlash, va kasbshunoslik bo'yicha tadqiqotlar birlashtirilgan. Mustaqil ilmiy fan sifatida kasb psixologiyasi yuzaga keldi va bu AQSHlik olimlar **J. Krites** va **D. Super** ishlarida ko'zga tashlangan. Ammo chet el tajribasi asosida to'plangan ma'lumotlardan to'g'ridan-to'g'ri foydalanish imkoniyati bo'lmaydi. Kasb psixologiyasiga taxminan XX-asrdan boshlab asos solinib kelingan. Bunga ko'proq insonlarni

o‘z qobiliyatlari, ehtiyojlari, hohish, istaklari, imkoniyatlari, individual xususiyatlari va hokazolarni hisobga olmagan tarzda kasblar olami haqidagi bilimlarga ega bo‘lmaganliklari natijasida qaysidir ma’noda ongsiz ravishda kasb tanlashlariga sabab bo‘lgan. Biroq keyinchalik rus psixologi **E. A. Klimov** o‘z tadqiqot ishlarida aynan shu masalaga, ya’ni “kasb tanlash”, “kasbga yo‘naltirish” kabi masalalarga e’tiborini qaratib, bu borada tadqiqot ishini olib borgan. Xususan, misol sifatida **Differensial diagnostik so‘rovnoma** (DDS) metodikasini ishlab chiqqan. E.A.Klimovdan tashqari ham ko‘p chet el olimlari bu masala bo‘yicha ish olib borganlar. Asta-sekin jamiyatda kasb tanlashga nisbatan ongli yondoshishlar kuzatila boshlandi. Ya’ni ularning barchasi kasb psixologiyasining shakllanishiga olib keladi.

Kasbiy psixologiyani ajralib chiqishi hozirgi kunda shaxsning kasbiy mehnatga o‘rganib ketishi emas, balki alohida **kasbiy bilim, ko‘nikma va malaka hamda umuman kasblar olamiga kirib borishiga** asoslanadi. Tadqiqot muammosining asoslari shaxsning kasbiy xulq-atvorini, shuningdek, kasbiy tayyorgarlikni boshlang‘ich rivojlanishidan toki kasbiy hayotni tark etgunga qadar bo‘lgan jarayonlarni ochib bergan. Kasb psixologiyasi masalalarini o‘rganishga **G.V.Kudryavsev, E.A.Klimov, B.F.Lomov, K.K.Platonov, K.M.Gurevich** va boshqalar o‘z hissalarini qo‘shib kelmoqdalar. Mehnatni tashkillashtirishda **F.Teylor** tomonidan ishlab chiqilgan tizimi keng tarqaldi. Mehnat jarayonidan tashqari bu tizimda ishchining kasbiy layoqatiga katta e’tibor berilgan.

Kasbiy o‘zlikni anglatish va kasbiy layoqat masalalarini echimini topilishi-psixologiyani yangi sohasi psixotexnikaning rivojlanishiga olib keldi. **1920-yillarda** esa mehnat jarayoni, inson va texnikaning rivojlanishiga turtki bo‘ldi. Bu jarayonda insonning psixika va ishlab chiqarish texnologiyasiga moslashuvi jarayoniga katta e’tibor berilgan. **Shaxs va kasb** hamkorligi kasbiy shakllanishning o‘zagi deb hisoblana boshlandi. Kasb egallash va ayniqsa kasbiy faoliyatni bajarish jarayonida ishchi shaxsida va faoliyat tuzilmasida o‘zgarishlar bo‘lib o‘tadi, ya’ni shaxs o‘z kasbni ustasi bo‘lib kasbning mazmuni va xususiyatini o‘zgartiradi.

XX asrning boshlarida Amerika va Evropa mamlakatlarida mehnat maxsuldorligini oshirish, ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash jarayonida yuzaga kelgan bo‘lib, buning natijasida psixologiyani insonparvarlik g‘oyalarini singdirish yuz berdi va natijada shaxs to‘g‘risida zamonaviy nazariyalari vujudga keldi. Bunday bog‘likdik shaxs nazariyasi bilan kasbiy rivojlanish psixologiyasi o‘rtasida aloqa o‘rnatishga olib keldi. Oqibatda kasbiy rivojlanish muammolarini o‘rganishga turlicha yondashadigan beshta asosiy yunalishi shakllandi.

Bular:

- 1) differensial diagnostik,
- 2) psixoanalitik,
- 3) qaror qabul qilish nazariyasi,
- 4) taraqqiyot nazariyasi
- 5) tipologik yunalishlar.

Differensial - diagnostik yunalish buyicha izlanishlarda shaxsning kasbiy faoliyat samaradorligini ta’minlash omillariga, kasbga ta’sir kursatuvchi individual psixologik xususiyatlarga va kasbga qo‘yilgan talablarga asosiy e’tibor qaratiladi. Shuningdek, unda kasb tanlashning asosini ratsional va ongli faoliyat ta’skil etish to‘g‘risidagi qarashlar o‘z aksini topgan (F.Parkinson). Bu yo‘nalishda kasbiy rivojlanishga psixotexnik yondashuvni tadbiq etilganligi diqqatga sazovordir (G.Myunstenbergning, fikricha, individual sifatlar oddiy ijrochilik operatsiyalarning yig‘indisi xisoblanadi). Leypsig maktabi psixologlari kasbiy ta’lim uchun eng muximi individual sifatlarni tarbiyalashdir, degan g‘oyani ilgari surishdi.

Psixoanalitik yunalish vakillari kasbiy rivojlaniShning psixodinamik jixatlarini tahlil qilish bilan shug'ullandilar. Ular kasb tanlash va kasbiy rivojlanish asosida tabiiy extiyojlardan tortib kompleks psixodinamik mexanizmlar va shaxs tuzili stansiyalarigacha bo'lgan turli xil extiyojlar yotadi, degan g'oya bilan chiqdilar (U.Mozer, L.Zondi, E.Bordin, E.Rou).

Qaror qabul qiliSh nazariyasi vakillari kasb tanlash jarayonini o'rganish uchun yunalganlik ustanovkalarini tadqiq etishga e'tibor qaratdilar. Ularning qarashlariga ko'ra, xar qanday kasbni tanlash kasbiy alternativa va qaror qabul qilishga yunaltirilgan tizimdan iborat (X.Tome, G.Ris, P.Siller, D.Tideman, O.Xar). Bu g'oya vakillari kasb tanlashning sabablari sifatida tanlangan kasbning e'tiborlilik, kasbiy malakalarni talab kilish darajasi shaxsning kasbga davogarlik darajasi, kasbiy ustanovlarning realligini e'tirof etishadi.¹

Taraqqiyot nazariyasi yunalishi vakillari rivojlanish nazariyasiga asoslanib ish tutishgan. Bu yunalishning izlanishlari akademik psixologik xarakterga ega bo'lib, ilk izlanishlar o'spirinlarni kasb izlashi bilan bog'lik xususiyatlarini asoslashga qaratilgan edi. Ushbu yunalish vakillaridan D.Syuper, Sh.Byuler va E.Ginsbergning ilk ishlariga tayanib, kasbiy rivojlanish bir nechta bosqichlarga ajratiladi:

- 1) vujudga kelish bosqichi (tug'ilgandan to 14 yoshgacha), kasbiy fantaziyalarga tayanib kasb tanlanadi;
- 2) tadqiq etish bosqichi (15-24 yosh), shaxs o'zining imkoniyatlariga mos kasbni tanlashni niyat kiladi;
- 3) Shakllanish bosqichi (25-44 yosh), barqaror shaxsiy pozitsiyaga mos kasbiy faoliyat maydoni o'rnatiladi;
- 4) saqlash bosqichi (45-64 yosh). Bu davrda shaxsning kasbiy faoliyati xech qayoqqa og'masdan aniqlangan kasbiy faoliyat maydoni bo'yicha kechadi;
- 5) pasayish bosqichi (65 yoSh). Bu bosqichda yangi kasbiy faoliyat roli paydo bulib, boshqalarning kasbiy faoliyatini kuzatish etakchi o'ringa chiqadi .

Tipologik yo'nalish vakillari kasbiy faoliyatni tipologiyalashtirshga e'tibor qaratadilar (E.Shpranger, D.Xolland). Xolland o'z tipologiyasida shaxsning kompleks mo'ljal olishga yo'naltirilgan bir qator tiplarini ajratishga erishdi: 1. Realistik orientatsiya; 2. Intellektual orientatsiya; 3. Ijtimoiy orientatsiya; 4. Konvensional orientatsiya; 5. Tadbirkorlik orientatsiyasi.

Kasbiy psixologiyaning boshqa fanlar bilan bog'liqligi.

Falsafa. Tabiat, jamiyat va inson tafakkurining rivojlaniShiga oid bo'lgan umumiy qonuniyatlar va prinsiplarni psixologiya falsafaning bazasidan oladi va shu bilan birga o'zi ham inson ongi va tafakkuri qonuniyatlari sohasidagi yutuqlari bilan falsafani boy ma'lumotlarga ega bo'liShiga yordam beradi.

Yosh davrlar psixologiyasi va pedagogik psixologiya fanlari mushtarak, bir – biriga uzviy bog'liqdir, chunki ularning har ikkisi, bitta, umumiy jarayonni – ulg'ayib borayotgan insonning psixik faoliyati hamda uning xulq – atvorini tadqiq etadi. Biroq, shunday bo'lsada, bu ikki fan psixologiya ilmining mustaqil sohalari hisoblanib, ularning har biri o'z predmeti va tadqiqot vazifalariga egadir. Yosh davrlari psixologiyasi ontogenezdagi turli yosh davrlari psixik taraqqiyotining umumiy qonuniyatlarini, psixik rivojlanishini hmada psixologik xususiyatlarini o'rganadi.

¹ **Davis S. F. Handbook of Research Methods in Experimental Psychology. - Blackwell PublShing Ltd, 2003. -p.10.**

Ontogenez – (yunoncha ontoz – mavjud, jon, zot; jenezis – kelib chiqish, paydo bo‘lish) – individning paydo bo‘lishidan, umrining oxirigacha psixik rivojlanish jarayoni.

Yoshning ulg‘ayib borishi, psixik jarayonlarning inson rivojlanishidagi qonuniyatlari, undagi etakchi omillar hamda inson hayot yo‘lining turli bosqichlarida uning shaxsiga xos xususiyatlar – yoshdavlari psixologiya fanining tadqiqot predmeti hisoblanadi. Ma‘lumki, shaxs tarkib topish jarayonining psixologik qonuniyatlarini, unig ilmiy asoslarini mukammal bilmay turib, ta‘lim va tarbiyaning nazariy hamda amaliy masalalarini muvaffaqiyatli hal etib bo‘lmaydi. Yosh davrlari psixologiyasi fani bu borada ham o‘z – o‘ziga tegishli masalalarni tor eksperimental ravishda o‘rganish bilangina cheklanib qolmay, balki, o‘z muammolarini inson hayoti va faoliyatining tabiiy Sharoitlarida, bolaga beriladigan ta‘lim va tarbiyaning mazmun – mohiyatidan kelib chiqqan holda o‘rgansa, yanada muvaffaqiyatli rivojlanishi, tabiiydir.

Yosh davrlar psixologiyasi fanining amaliy vazifalarini esa psixik jarayonlarning namoyon bo‘lishi va rivojlanishi, shuningdek, inson shaxsi psixologik xususiyatlarining tarkib topishi qonuniyatlarini o‘rganishda qo‘lga kirgan ilmiy dalillarini ta‘lim – tarbiya sohalariga tadbiiq etish tashkil etadi.

Sotsiologiya. Psixologiyadan mustaqil ravishda ajralib chiqqan ijtimoiy psixologiyaning sotsiologiya bilan aloqasi uzviy bo‘lib, ular jamiyatda ijtimoiy taraqqiyot va progressni ta‘minlashga xizmat qiladi.

Pedagogika bilan psixologiyaning o‘zaro hamkorligi va aloqasi an‘anaviy va azaliy bo‘lib, ularning yosh avlod tarbiyasini zamon talablari ruhida amalga oshirishdagi roli o‘ziga xosdir.

Iqtisodiyot va psixologiyaning o‘zaro va hamkorligi ham yangilik bo‘lib, ayniqsa, bozor munosabatlariga bosqichma-bosqich o‘tish sharoitida iqtisodiy ong hamda iqtisodiy xulqning o‘ziga xos namoyon bo‘lish qonuniyatlarini o‘rganishda ikkala fan teng xizmat qiladi.

Kasb-hunar egallashning ishtimoiy tarixiy va metodologik muammolari

Shaxs psixologiyasini o‘rganish o‘quvchilarni kasb tanlashga yo‘llash demakdir. o‘quvchilarning individual tipologik xususiyatlari, yoshi va jinsini hisobga olgan holda ularning har birini oqilona kasbga yo‘llash shaxs psixologiyasining muhim vazifalaridan biridir. Bozor iqtisodiyotiga asoslangan jamiyat qurish to‘g‘risidagi hujjatlarda o‘quvchilarni mustaqil kasb tanlashga (o‘z imkoniyatlarini o‘zi baholash orqali) o‘rgatish juda muhim va zarur vazifa ekanligi ta‘kidlanadi. Shunga ko‘ra psixolog olimlar, msgodistlar, tashxis Markazi xodimlari keng jamoatchilik bilan birgalikda kasbga doir bilimlarni keng tashviqot qilishlari, kasb-kor tanlashga oid yo‘l-yo‘riqlari va metodlar ishlab chiqishlari, kasb tanlash maslahatlari rasmiy shaxobchalari kengaytirilishi, professiogramma, professiografiya, psixogrammalar ko‘lami orttirilishi lozim. Bu borada Respublika tashxis markazining 2003 yil ma‘lumotlari juda qiziqarli va ba‘zan munozaralidir. Bularni quyidagi raqamlarda ham ko‘rish mumkin: Respublika bo‘yicha 9-sinflarni bitirgan o‘quvchilarning 8,00 %ga sanoat yo‘nalishlariga yo‘llanma berilgan bo‘lsa, ularning atigi 3% o‘qishga joylashgan. Sog‘liqni saqlash sohalariga esa 12,60% yo‘llanma berilgan bo‘lsa, amalda ularning 4,80 % o‘qishga kirgan. Maorif sohalariga esa 9,60 % yo‘llanma berilgan bo‘lib, ularning 4,00%gina o‘qishga joylashganlar (Maktab va hayot jurnaliga ilova 2003 yil, 24-39 betlar).

Kasb tanlash faoliyatini oqilona tashkil etish uchun mamlakatimiz qaysi soha mutaxassislariga muhtojligini nazarda tutish va shunga yarasha maktab o‘quvchilarini ularning mayli, intilishi, qiziqishi, imkoniyati, aqliy va jismoniy qobiliyatlariga qarab, hamda u yoki bu kasbga yaroqliligini aniqlab, so‘ng kasbga yo‘llash kerak.

Hozirgi davrda xalq ta'limi bo'limlarida, ishlab chiqarishda, aholini ish bilan ta'minlash muassasalarida, kollejlarda va oliy o'quv yurtlarida yoshlarga kasb tanlash yo'lini ko'rsatadigan maxsus kasb-hunar kabinetlari tashkil etilgan. Bu borada Respublika tashxis markazining, hamda joylardagi uning bo'limlarining faoliyati ibratlidir. Bundan tashqari malakali psixologlar va pedagoglar (shu jumladan mahalla tarbiyachisi), murabbiylar, muxandislar va texniklar har bir kasb-hunarning o'ziga xos tomonlari haqida malakaviy maslahatlar tashkil qilishadi.

Lekin yoshlarning kasb-hunar tanlashi asosan o'rta maktabdan boshlanadi, shunga ko'ra o'quvchilar kichik jamoasi bilan psixologlar oldida turli yoshdagi jinsdagi maktab o'quvchilarini kasbga qiziqtirish, mehnat qobiliyatlarini rivojlantirish, ichki imkoniyatlarini ishga solish (o'zini-o'zi namoyon etish) kabi muhim vazifa turibdi. Psixologlar, bundan tashqari, o'quvchilarning aql idroki, qobiliyatlarini hamda muayyan kasbga yaroqlilik darajasini aniqlash metodlari, usullari, texnologiyasi, akllari mezonlari va tarkibiy qismlarini ishlab chiqishlari shuningdek, bu sohada ilmiy-tadqiqot ishlari olib borishlari zarur.

Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki psixologiya fani o'quvchilarning kasb-hunar tanlashiga yordam beradigan, yo'l-yo'riqlar va tavsiyalar, mukammal qo'llanmalar, aksariyat kasb-hunarning professiogrammasini hali to'liq ishlab chiqqan emas. Lekin shaxs psixologiyasiga oid amaliy va nazariy materiallar etarli miqdorda yaratilgan. SHaxs psixologiyasi masalalarini yoritish, ya'ni shaxsning bilish qobiliyatlari, aql-idroki, aql-zakovati, individual tipologik xususiyatlari, ruhiy holatlarini aniqlash yo'li bilan uning nimalarga qodir, qanday kasb-hunarga yaroqligi to'g'risida aniq fikr bildirish muayyan tavsiyalar berish mumkin.

Keyingi yillarda o'tkazilgan kuzatishlar Respublikamizda yoshlarni kasbga yo'llash sohasida talay kamchiliklar borligini ko'rsatdi. Buni biz viloyatlar kesimida hamda Respublika bo'yicha 9 sinf bitiruvchilariga sohalar bo'yicha tavsiyanomalar berishda ko'rdik.

Darhaqiqat, maktabda o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarini amalga oshirishdagi dastlabki qadamlar boshlandi. o'ylaymizki, ana shu dastlabki qadam maktablarda kasb-hunarga yo'naltirish ishlarini olib boruvchi mutaxassis hamda o'quvchilarni kasb-hunarga qiziqishi, moyilligi va layoqatini aniqlash bilan shug'ullanadigan maktab amaliyotchi psixologi shtatlarni tashkil etishdan iborat bo'lishi lozim. chunki, bu mutaxassislarsiz maktabda mazkur ishlar haqida gapirish ham mumkin emas. Maktabda olib borilayotgan kasb-hunarga yo'naltirish va psixologik-pedagogik tashxis ishlarining samarasi bevosita shu ikki mutaxassisning olib borayotgan ishlarining ko'lami, ularning saviyasi va malaka ko'rsatkichi hamda faoliyatining aniqligiga ko'p jihatdan bog'liq bo'lishligi barchamizga ayondir.

Ommaviy kasblarga bag'ishlangan o'quv-uslubiy adabiyotlar va kasb-hunar to'g'risidagi kinofilmlar, spravochniklar kamligi, psixologik-diaagnostik tadqiqotlar o'tkazishga yordam beradigan zamonaviy apparat va asboblarda bilan ta'minlash yaxshi yo'lga qo'yilmaganligi, shaxsning muayyan kasbga yaroqliligini aniqlash borasida ilmiy-tadqiqot ishlari etarlicha olib borilmayotganligi shunday kamchiliklar jumlasiga kiradi.

O'quvchilarni mustaqil mehnat faoliyatiga puxta tayyorlash va ularning kasb-hunarini o'z qobiliyatlariga yarasha to'g'ri tanlashlariga erishish uchun maktab o'qituvchilarining pedagogik mahorati, bilim saviyasi, didaktik (shuningdek, akademik, tashkilotchilik, perseptiv va h.k.) qobiliyatlari yuksak bo'lishi, fan asoslarini turmush bilan bog'lab o'rganilishi, to'garak va qo'shimcha, yordamchi kurslar oqilona uyushtirilishi, maktablarda kasb-hunar to'g'risida ma'ruzalar o'qilishi, suhbatlar, munozaralar o'tkazilishi, sayohatlar, uchrashuvlar, kasb-hunar fotoko'rgazmalari tashkil qilishlari zarur.

Ilk o'spirinlar va katta o'smirlarning kasb tanlashi katta hayotiy ahamiyatga ega bo'lgan ham shaxsiy, ham ijtimoiy muammo bo'lganligidan bu jarayonda ota-onalar, jamoatchilik va turli kasb ustalari ham faol qatnashishlari kerak, chunki yoshlar ko'p hollarda kattalarning maslahatlari va tavsiyalarini hisobga olgan holda qat'iy bir fikrga, qarorga kelishlari mumkin. Shuni ham aytib o'tish o'rinliki, maktab o'quvchilari kasb tanlash borasidagi o'z qarorlarini, ko'pincha, har tomonlama dalillab bera olmaydilar, biroq ularning ko'pchiligi bu masalaga ongli ravishda yondashishga intiladilar.

Maktabdagi kasb-hunarga yo'naltirish ishlarining samarali bo'lishini maktabning kasb-hunarga yo'naltirish xonasisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Maktabning kasb-hunarga yo'naltirish xonasi «o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirish xonasi to'g'risidagi Nizom» asosida tashkil etiladi va I jihatdan mazkur nizomda maktab kasb-hunarga yo'naltirish xonasining vazifalari, unda o'tkaziladigan tadbirlar, stend va unda ma'lumotlar bo'lishligi haqida aytib o'tilgan. Maktabning kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi mazkur xonaning mudiri hisoblanadi.

Maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisining asosiy vazifasi o'quvchilarni kasb-hunarga yo'naltirishni ta'minlovchi barcha ma'lumotlar bankini yaratishdan iborat. Bu maqsadda kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassis tuman (shahar) tashxis Markazidan olgan kasbiy axborotlar, kasblar ro'yxati, tasnifi, hududiy kasblar ro'yxati, kasblarga bo'lgan ehtiyoj va boshqa kasbiy tashxis metodikalari, tavsiya yo'riqnomalardan foydalaniladi. Maktab kasb-hunarga yo'naltiruvchi mutaxassisi tomonidan o'quvchilarni kasbiy qiziqishlarini rivojlantirish, kasblar haqidagi ma'lumotlarni to'liqroq anglab etishi shuningdek, ularning kasb tanlashdagi reallikni vujudga keltirish maqsadida maktabda ilg'or kasb egalari, kasb faxriylari, kasb sulolalari bilan uchrashuvlar, davra suhbatlari, kechalar va ma'ruzalar tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ushbu tadbirlar o'quvchining shu kasbga bo'lgan qiziqishini yanada qat'iy qilishini vujudga keltiradi.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

1. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.
2. Kasbiy psixologiya qanday fanlar bilan o'zaro bog'liq?
3. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.

Kasbiy psixologiya fanining shakllanish tarixi va predmeti :

1.3-dars : Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalalari

R e j a :

1. Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalalari
2. O'zbek psixologlari tadqiqotlarida kasb tanlash kasbga yonaltirish muammolari

Sharq allomalari asarlarida kasb-hunar va kasb tanlash masalalari

Sharqda yoshlarga ta'lim va tarbiya berish, ularga kasb-hunar O'rganish qadimiy an'analaridan hisoblanadi. Ayniqsa, hunarmand va kosiblar me'mor va naqqoshlar, deqqon va

chorvadorlar, O`z farzandlari yoki shogirdlarini tarbiyalashga kasb-sirlarini O`rganishga juda katta ahamiyat berganlar. Xalqimizning yosh avlod tarbiyasiga bu qadar e`tibor berishini ko`rsatuvchi turli-tuman naqlar va rivoyatlar maqollarning asrlar osha to`planib kelganligini ham alohida qayd etish O`rinlidir. Jumladan, "Ustozdan O`zmagan shogird, shogird emas", "Hunarli kishi xor bo`lmas" yoki "Bir yigitga etmish hunar oz" kabi ko`plab hikmatli so`zlar borki, ular qadim-qadimdan ota-bobolarimiz yosh avlodni ruhan va jismonan barkamol hamda O`ziga munosib biror-bir kasb-kor egasi bo`lib etishishlariga da`vat etib kelganlarining yaqqol isbotidir. SHarq mutafakkirlari ta`limotida O`g`il va qizlarga ta`lim va tarbiya berish bilan birga ularni kasb-hunarga O`rgatish g`oyasi ham muhim O`rin egallaydi. Bundan ko`rinadiki, kasb tanlash, kasbga yo`naltirish masalalari hozirgi kun uchun yangilik bo`lmay, balki azaliy muammo sifatida O`rganib kelinmoqda. Jumladan, Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Jomiy, Ahmad Donish, Davoniy va boshqalar tomonidan yozilgan asarlarda muammo atroflicha talqin qilingan. Buyuk qomusiy olim Abu Nasr Forobiy kasb-hunar to`g`risida ilk fikrlarini bildirib, qimmatli maslahatlarni berganlar, chunonchi ta`lim-so`z va ko`nikmalar majmui, tarbiya esa amaliy malakalardan iborat ish-harakat ekanligini, muayyan kasb- hunarga berilgan, u bilan qiziqqan kishilar shu kasb-hunarning chinakam shaydosi bo`lishini aytgan. Bu mulohazalardan ko`rinib turibdiki, kasb-hunar insoniyat uchun azaldan juda zarur hayotiy vosita bo`lib kelgan. Abu Nasr Forobiyning ta`kidlashicha, "ta`lim-degan so`z xalqlar va shaharliklar O`rtasida nazariy fazilatlarini birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar O`rtasidagi tug`ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so`zdir. Ta`lim faqat so`z va O`rganish bilangina bo`ladi. Tarbiyachi esa amaliy ish tajriba bilan, ya`ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo`lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo`lishi, O`rganishidir" - deydi. Forobiy ta`lim-tarbiya ishlarini ikki yo`l bilan amalga oshirishni nazarda tutadi. "Amaliy fazilatlar va amaliy san`at kasb-hunarlar va ularni bajarishga odatlantirish masalasi"ga kelganda, bu odam ikki yo`l bilan hosil qilinadi; bulardan birinchisi - qanoatbaxsh so`zlar, chorlovchi, ilhomlantiruvchi so`zlar yordamida odatda hosil qilinadi, malakalar vujudga keltiriladi, odamdagi

g`ayrat, intilish harakatga aylantiriladi. Ikkinchi yo`l yoki usul - majbur etish yo`li. Bu usul gapga ko`nmovchi qaysar shaharliklar va boshqa sahroiylar xalqlarga nisbatan qo`llaniladi. CHunki ular O`z istaklarigacha so`z bilan g`ayratga kiradiganlardan emaslar. Ulardan birortasi nazariy bilimlarni O`rgatishga kirishsa, uning fazilati yaxshi bo`ladi. Kasb-hunarlarini va juz`iy san`atlarni egallashga intilish bo`lmasa bunday odamlarni majbur etmaslik kerak. CHunki shahar xalqlariga tarbiya berishdan maqsad - ularni fazilat egasi qilish va san`at aqllariga aylantirishdir. Tabiblik kasbining moyasi inson tani va uning a`zovidir. Uning maqsadi shu a`zolar uchun kerakli bo`lgan sog`lomlikni hosil qilish va ularni kasal bo`lishdan saqlashdir. Tabiblik uchun zarur bo`lgan faoliyat agar u kasal bo`lsa, sog`lig`ini tiklashdir. Bu ishni asbob va vositalarsiz amalga oshirish mumkin emas. Tabiblar kasalliklarning har biri uchun dori-darmon topadilar.

Tabiblik hunari etti turli bilimni O`z ichiga oladi.

- 1) inson a`zolarini ayrim-ayrim jihatlarini O`rganish;
- 2) salomatlik holati, ularning ta`sirlanishini O`rganish ;
- 3) turli kasalliklarning sabablari va ular bilan bog`liq bo`lgan tasodifiy hodisalarni O`rganish;
- 4) salomatlik va kasallikning belgilari, sabablari, dalillari, butun badanda, ayrim a`zolarida ko`rinadigan kasallik alomatlarini O`rganish va bilish;
- 5) sodda va murakkab dorilarni bilish, tabiblik hunarida ishlatiladigan asboblarni O`rganish va ularni ishlata olish;
- 6) sog`lom badanda salomatlikni saqlash uchun zarur bo`lgan qonun-qoida harakatlarni O`rganishni bilish;
- 7) badanda sog`lik-salomatlikni tiklash uchun zarur bo`lgan qonun-qoida va harakatlarni bilish.

Forobiyning fikricha, insonning kasb-hunar va san'atdagi fazilatiga kelsak, bu fazilat tug'ma emasdir, aks holda uning fikru-fazilatida mutlaqo kuch va ulug'lik bo'lmas edi. Agar kasb-hunar fazilati tug'ma bo'lganda podshohlar ham O'zlari ishlab va harakat qilib emas, balki podshohlik ularga faqat tabiiy ravishda muyassar bo'lgan, tabiat talab qilgan tabiiy majburiy bo'lib qolar edi.

Nazariy va buyuk fikriy fazilat ulug' tug'ma fazilat va ulug' (kasb-hunar) fazilati odat - malaka bo'lib qolgan odamda bu fazilatlar irodani hosil qilishning va odatga aylantirishning sababi bo'ladi, bunday odamlar cheksiz, juda kuchli tabiat va irodaga egadirlar. Agar insonda mana shunday go'zal xususiyatlar yoki fazilatlar birlashsa, uyg'unlashsa, shundan so'ng u O'zidagidek go'zal fazilat va irodani xalqlar va shahar ahillarida hosil qilish yo'llarini O'rganishi kerak. Lekin xalqlar va shahar aqillarida axloq, odob, rasm-rusm, kasb-hunar, odat va irodani hosil qilgani uchun insondan zo'r kuch va qudrat talab qilinadi. Bu ikki yo'l bilan, ya'ni ta'lim va tarbiya yo'li bilan hosil qilinadi. Ta'lim degan so'z xalqlar va shaharliklar O'rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar O'rtasidagi tug'ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so'zdir. Ta'lim so'z va O'rganish yo'li bilangina bo'ladi. Tarbiya esa amaliy ish va tajriba bilan O'rgatishdir. YA'ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalaridan iborat bo'lgan ish-harakatlariga kasb-hunarga qiziqsalar, shu qiziqish ularni butunlay kasb-hunarga jalb etsa, demak, ular kasb-hunarning chinakam oshiqi bo'ladilar. Maqsadni amalga oshirishda jahd va g'ayrat mo'ljallanganligini bajarishda zo'r ta'sirga egadir. Nazariy bilimlarni yo ustozlar yoki hikmatlar O'rgatadilar. YOshlar yuqorida aytib O'tilgan narsalar, kasb-hunar shu tajriba jahd va g'ayratga ega bo'lganlari va shu narsalarni O'z vujudlarida singdirganlaridan so'ng ularni asta-sekin egallay boradilar hamda yuqorida aytib O'tilgan fazilatlarini aniqlab borib, nazariy bilimlarning hammasida mantiqiy fikrlash yo'lini ishlatishga odatlanadilar. SHu tartibda bolalarga O'rgatish yo'li bilan ular kamolga etguncha ana shu fazilatlar aniqlanadi va tarbiya qilinadi. Forobiyning fikricha, baxtning turli darajalarining bir-biridan afzalligi uch xil alomatga qarab aniqlanadi. Biz quyida ko'rib chiqyotgan hunar va san'atlarning bir-biridan afzalligi ham xuddi shu alomatlarga qarab aniqlanadi. Hunar va san'atlar qaysi tur va sohalarga taalluqli ekanligiga ko'ra bir-biridan afzal ko'rinadi. Masalan bo'z to'qish, shoyi to'qish, attorlik, hovli supurish, raqs san'ati, fiqx ilmi, tabiblik yoki so'z san'ati bir-biridan qanchalik afzal bo'lsa, baxtga erishuv darajalari ham shunga O'xshashdir. Bundan tashqari bir turdagi san'at, hunar sohiblari ham malaka miqdori jihatidan farqlanishi mumkin. Masalan, bir hattot O'z hunarining ko'pgina sirlarini bilishi, keng bilim egasi bo'lishi mumkin. Boshqa biri O'z hunari sirlarini kamroq bilishi mumkin. Mazkur hunar xattotlikni yaxshi egallash uchun hattot tilni, so'z san'atini, husnixatni va hisob-kitob, riyoziyotni puxta bilishi zarur. SHu hunar egalaridan biri, masalan, husnixatni va riyoziyotni yaxshi biladi, boshqasi ishni, so'z san'atini va husnixatning ba'zi jihatlarini yaxshi biladi, uchinchisi - mana shu ilmlarning hammasida moqir. Xattotning sifat jihatidan bir-biridan afzalligi shundaki, masalan, husnixat san'atini egallagan ikki xattotdan biri O'zi tanlagan shu sohada kuchliroq, biri kuchsizroq bo'lishi mumkin. Bu sifatdagi afzallikdir. Baxtlilik darajasiga erishuvda ham insonlar yuqoridagiga O'xshash bir-biridan afzalroq bo'lishi mumkin. Boshqa shaharlarning aqolisiga kelsak, bu odamlarning fe'li yomon bo'lganligi uchun hunarlari ham ularning ko'ngli yomonligini tuzata olmaydi. Yomon xattot tabiatdan badbaxtligi tufayli yozuvi ham tobora xunuklashib boraveradi, uning hunarlari san'ati tobora orqaga ketaveradi.

Abu Rayhon Beruniy inson kamolotida mehnat va mehnat tarbiyasi haqida muhim fikrlarni bayon etadi. U har bir hunar egasini mehnatiga qarab turlarga bo'ladi. Og'ir mehnat sifatida binokor, ko'mir qazuvchi, hunarmand, fan sohiblari mehnatini keltiradi. Ayniqsa, ilm aqli-olimlar mehnatiga alohida e'tibor berish, hayrihoh bo'lishga chaqiradi, ularni ma'rifat tarqatuvchilar jamiyat ravnaqiga hissa qo'shuvchilar deb biladi. SHu bilan birga og'ir mehnat qiluvchi konchilar er ostida gavhar izlovchilar, dehqonlar haqida gapirib, ularning mehnatini rag'batlantirib turish kerak deydi. Ayniqsa, podshohlar bunday mehnat aqliga g'amxo'r bo'lishi kerakligini alohida eslatadi. CHunki ana shu mehnat ahli ular hukmronligining

tayanchi deb ta'kidlaydi. Beruniy bolalarni mehnatga O'rgatish metodlari, yo'llari haqida ham fikr yuritadi. Masalan, bolalarni eng kichik yoshdan mehnatga O'rgatish kerak, deydi. Mehnat tarbiyasi O'sha davr tarbiya an'anasiga binoan vorislikka katta, ahamiyat beradi. Hunarmandchilikning bunday yakka holda O'rgatilishi malakali kasb egalari e'tibor beradi. chiqishiga yordam bergan, halol va vijdonan mehnat qilishga yo'llaganki, bu insonning kamolga etishida muhim pog'ona bo'lgan. Zero, qadimdan har bir etuk inson shohmi yoki oddiy fuqaromani hunarning bir yoki bir necha turini bilishi zarur sanalgan. SHunga buyuk shaxslar ham, beklar ham, mol-mulk egalari bo'lgan boylar ham oddiy fuqaro ham O'z farzandini bilimli bo'lishi bilan birga hunarli bo'lishiga ham e'tibor bergan va bu yozilmagan qonunga barcha birdek amal qilgan. CHunki kishilik jamiyati paydo

bo'lgandan boshlab, kishilar O'z mehnati va hunari bilan kun kechirishga majbur bo'lgan va bu hayot taqozosi asoratida qabul qilingan. SHuning uchun ham Beruniy inson har tomonlama kamolga etishi uchun u ilmi bo'lishi bilan birga mehnatsevar va hunar egasi bo'lishi ham kerak deydi. Abu Ali ibn Sinoning mehnatsevarlik tarbiyasi borasidagi fikrlari ham diqqatga sazovordir. Jumladan, u har bir bolani biror hunarga O'rgatmoq shart, deydi. YOsh yigit biror hunarni O'rgansa, uni hayotga tatbiq eta olsa va mustaqil hunar tufayli oilani ta'minlaydigan bo'lsagina otasi uni uylantirib qO'ymoqi lozim, deb hisoblaydi. O'spirin hunar egallashi bilan unda nafaqat axloqiy hislar, balki xarakterning irodaviy xislatlari ham tarkib topa boshlaydi. hunar egallash orqali O'spirinlardan sabr-bardoshlik, chidamlilik, mehnatsevarlik, ishbilarmonlik, tadbirkorlik, zukkolik kabi insoniy sifatlar shakllanadi.

Ibn Sino har bir insonning mijozidan kelib chiqqan holda unga alohida e'tibor berish kerakligini ta'kidlashi tufayli juda katta amaliy ish qilganligiga guvoh bo'lish mumkin. Uning fikricha, har bir inson faqat unga tegishli bo'lgan xususiyatlariga egadir, unga O'xshash insonlar kamdan-kam bo'ladi.

YUsof Xos Hojibning O'sha davrda kosib hunarmandlarga naqadar hayrihohligi O'z-O'zidan emasdi. CHunonchi, davlatning tinch osoyishtaligi, jahonda tutgan mavqei, boyligi, xalqning farovonligi ana shu toifadagi kishilarga bog'liq edi. Zero, kasb-hunar ta'limning ijtimoiy-siyosiy, moddiy va madaniy taraqqiyotining O'lchov birligi sanalardi. YUsof Xos Hojib jamiyat taraqqiyoti va xalq farovonligida muhim O'ringa ega bo'lgan dehqonlar, chorvadorlar, savdogarlar, tabiblar, olimlar haqida ham muhim fikrlar bayon etadi va har birining jamiyatdagi O'rnini ko'rsatib beradi. CHunonchi, dehqonlar va chorvadorlarning ham ijtimoiy, iqtisodiy hayotda tutgan O'rnini yuqori baholaydi va ular mehnati eng ulug' va sharaflil muqaddas ekanligini ta'riflaydi. KO'rinib turibdiki, olim jamiyatning rivojlanishiga hissa qO'shgan har bir kasb-hunar egasini ulug'laydi va ularni qadrlash zarurligini ta'kidlaydi.

Kaykovus jamiyat taraqqiyotida ilm bilan birga kasb-hunarning zarurligini ta'kidlaydi: "Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa-yu, ammo hunari bo'lmasa, u haloyiqning izzat va hurmatidan noumid bo'lur. Ulug'lik aql va bilim qiladur, nasl-nasab qila emas. Ismni senga ota va onang qO'ymishlar, sen unga qarra bo'lmasin. Ammo sen hunar bilan bir nomga ega bo'lg'il". SHuning uchun ham asarda turli kasb egalari ulug'lanadi. Kasb-hunar O'rganishni bilim olish bilan qO'shib olib borishni tavsiya etadi. Fanni amaliyot bilan uzviy aloqada deb qaraydi. Kaykovusning bu qarashlari O'sha davrning ilg'or qarashlaridan sanaladi. Kaykovusning "Qobusnoma" asarida kasb-hunar haqida bir qator fikr mulohazalar keltiriladi. Aynan keltirilgan fikrlardan kasb-hunarning inson hayotidagi O'rnini mohiyati yuzasidan qarashlari ilgari surilgan. Ey farzand ogoh bo'liki, hunarsiz kishi hamisha foydasiz bo'lur va hech kishiga naf' etkurmas. Bilursanki, tikanli butaning tani bordur, ammo soyasi yo'qdir. hunarsiz kishi ham tikanli buta yanglig' na O'ziga va na O'zgaga foyda berur. Agar kishi har qancha oliy nasab va asl bo'lsa ammo hunari bo'lmasa xaloyiqning izzat va hurmatidin noumid bo'lur. Agar kishida ham nasab gavhari va hunar bezak bo'lmasa undan battaroqdir. Jahd qilg'il asl bo'lsa unga qarra bo'lmag'il, nedinkim tan gavhari ziynati bilan ziynatlangan bo'lmasa u hech narsaga arzimagusidir. Andoqkim debdurlar: ulug'lik aql va donishmandlik biladur, gavhar va nasab bila bo'lmas". Asarda munajjimlik, er O'lchash, musiqa, tibbiyot

sohasidagi kasb egalarining faoliyati ilmiy nuqtai nazaridan yoritiladi. Ayniqsa, tibbiyot ilmiga oid qarashlari Kaykovusning zukko, donishmand, har tomonlama etuk, bilimga ega kishi bo'lganligidan dalolat beradi. Ayniqsa, uning turli kasb-hunar vakillari haqidagi fikrlari amaliyotga tatbiq etishda O'ta muhimligi bilan diqqatga sazovor. Masalan, "Dabirlik va kotiblik zikrida" bobida yozma nutqni yaxshi egallash, chiroyli yozish va mashq qilishni maslahat beradi. U xat yozishda saj'ga rioya etish, har bir so'zni

yoqimli, tushunarli, qishayozish, zukko va sezgir bo'lishni ta'kidlaydi. hattotlikning ulug' hunar ekanligi, ammo bu hunarda hech qachon soxtalik, pastkashlik qilmaslikni, sir saqlashni tavsiya etadi va bu borada ibratli hikoyatlar keltiriladi. Sa'diy bilim olish bilan birga hunarning hali inson uchun qay darajada afzalligini uqtiradi. Chunki "hunar qaynar buloq, tuganmas davlat, - deydi u, agar hunarmand molidan mahrum bo'lsa qayg'usi yo'qdir. hunarmand qaerga borsa, qadrlanadi va uyning to'ridan joy oladi. hunarsiz odam esa, hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi". Bu – Sa'diyning inson uchun ilm-hunarning qay darajada ulug'ligini ta'kidlovchi fikrlarining ifodasidir. Sa'diyning "Guliston" asari axloqiy ta'limoti bilan ayniqsa mashhurdir. Zero, mazkur asarda insoniylik, saxovat, qanoat, adolat kabi xislatlar ulug'lanadi.

Jomiy ham xuddi Forobiy singari biror foydali kasb-hunarni egallashni yoshlarning asosiy burchi deb hisoblaydi. U bir odam ikki ishni eplay olmasligini ta'kidlaydi, faqat muayyan bir hunar bilan shug'ullanish uni puxta o'zlashtirish lozimligi haqida gapiradi. Jomiy hunar egallashni u bilan shug'ullanishni har qanday boylikdan afzal ko'radi, yoshlarni hunar egallashga chaqiradi. Jomiy O'sha davrda bilim va hunar egallamay, O'zining nasl-nasabi bilan maqtanib yurgan ota-onasining molu davlatiga ishonib taralla-bedod qilib yurgan yoshlarni qattiq tanqid qiladi. Uning fikricha, bunday yoshlar biror ijobiy fazilatga ega emas, ular hosil bermaydigan mevasiz daraxtga O'xshaydilar, bunday odamlarning jamiyatga nafi tegmaydi. Jomiy bilim-hunarsiz kishini O'tindan boshqaga yaramaydigan mevasiz daraxtga O'xshatadi. U har bir yoshni ota obr'o'si, shon-shuhratidan mag'rurlanmay, O'z yo'lini tanlashiga, ilmu-hunar O'rganishga undaydi. SHuningdek, hunar O'rganish har bir kishi uchun u yoshmi, keksami, shohmi, fuqaromi, barchaga barobar, - deb ta'kidlaydi. Demak, Jomiy inson uchun ilmu-hunarning qay darajada zarurligini to'g'ri talqin qilgan. Alloma ilm va hunarni e'zozlagan rahbar ham O'z elining e'zozida bo'lishi, bunday O'lka gullab yashnashi

mumkinligini uqtiradi. SHuningdek, Abdurahmon Jomiy mehnatkash insonni ulug'laydi, ayniqsa, dehqonlar mehnati haqida fikr yuritarkan, ular moddiy ne'matlar yaratish bilan jamiyatda hurmatga sazovor ekanligini ta'kidlaydi. SHarqning qomusiy olimlaridan Davoniy bolalarning kasb-hunar egallashi to'g'risida ham e'tiborga sazovor fikrlar bildirgan. Muallim talabalarning qobiliyatini qaysi kasb bilan qiziqishini juda yaxshi bilishi lozim. Agar bola ma'lum bir kasb-hunar yoki ilm bilan shug'ullansa, uni har tomonlama qO'llab-quvvatlash va bu ilm yoki kasbni egallash uchun kerakli shart-sharoitni yaratib berish lozim. har bir kishining, deb yozadi Davoniy, hamma kasbni egallashga qobiliyati bo'lmaydi, balki muayyan odamning kasbga qobiliyati bo'ladi. Bir kasb-hunarni O'rganishga intiluvchilar butun iste'dodlarini ana shu kasbni egallashga qaratadilar, natijada O'z sevgan kasb-hunarlarini tezda va puxta o'zlashtirib oladilar. Davoniyning bu fikrlari Forobiyning quyidagi fikrlariga juda O'xshab ketadi: "Kasb-hunarni egallash va kamolotga erishishga O'z ixtiyoricha havas bilan intilgan kishilar haqiqiy fazilat egalari va haqiqiy san'at ahllaridir". Agar kishining muayyan bir kasbga ishtiyoqi bo'lmasa uni hech vaqt shu kasbni egallash uchun majbur qilmaslik kerak, aks holda u faqat O'zini qiynashi mumkin. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi, ya'ni ular kishining ruhiy (ma'naviy) quvvatiga bog'liq bo'lib, birinchisi, inson aqliga tegishlidir, bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi, ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi. Bunga astronomiya, matematika, tibbiyot va geometriya fanlari bilan shug'ullanish kiradi. Uchinchisi, kishining shijoati va jasurligi namoyon bo'ladigan kasblardir: bular - dushmanga qarshi kurash, chegarani qO'riqlash va

boshqalardir. Ustoz olim biror ish yoki kasb bilan shug'ullanishni hohlamaydigan kishilarni tanqid qiladi. U ham

xuddi Jomiy singari O'z otasining boyligiga ishonib kasb-hunar egallamagan yoshlarni qoralaydi. U yoshlarni mehnat, hunar egallashga chaqiradi, uningcha, kishi faqat mehnatda kamolot va baxt-saodatga erishishi mumkin. SHunday qilib, Davoniy kasb-hunar egallashni kishining eng gO'zal fazilatlaridan biri, deb hisobladi. Inson kasb-hunarni egallashga uni takomillashtirishga intilish bilan jamiyatga ham foyda keltiradi, demak bunday kishi har qanday tahsinga sazovordir. U kishilarni eng avvalo kasb-hunariga qarab toifalarga bo'ladi. Birinchi toifaga qalam ahillarini olimlar, noiblar, munajjimlar, qozilar, injenerlar, musulmon qonunshunoslarini; ikkinchi toifaga harbiylarni; uchinchi toifaga esa savdogarlar, hunarmandlar va boshqalarni kiritadi. TO'rtinchi toifaga esa dehqonlar, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchilardan iboratligini ko'rsatib o'tadi. Davoniy ayniqsa dehqonchilik kasbini ulug'laydi. Xuddi Alisher Navoiy singari Davoniy ham dehqonlar mehnatiga yuqori baho beradi, chunki dehqonlar hamma toifadagi kishilarni oziq-ovqat, moddiy boylik bilan ta'minlovchi kishilar hisoblanadi. Ularning g'ayratisiz inson zoti xuddi mayda savdogarlar singari yo'q bo'lib ketadi, chunki boshqa toifadagi kishilar hayot kechirish uchun ularchalik narsa yarata olmaydilar, balki bunyod qilingan narsalarni boshqa kishiga beradilar, bir joydan ikkinchi joyga olib boradilar, yoki shaklini O'zgartiradilar. Davoniyning kasb-hunar egallash to'g'risida ijobiy qarashlaridan biri shuki, u birinchi navbatda

oddiy xalq mehnatini, xususan, dehqon mehnatini kuylaydi, inson faqat O'z halol mehnati tufayli baxt-saodatga erishuvi barkamol shaxs bo'lib etishishi mumkinligini isbotladi. SHuning uchun u kasb-hunar egalarini doimo hurmatlash, mehnatini qadrlashga chaqiradi. Davoniy bolalarning aqliy qobiliyatlarini rivojlantirish kasb-hunarga O'rganishi haqida ham himmatli fikrlarni bildirgan. Davoniy muallimning bolalarni qaysi kasbga qiziqishi, qobiliyatini yaxshi bilishi zarurligi haqida gapirib, bola qiziqib, biror hunar yoki ilm bilan shug'ullansa, unga har qanday sharoitda ham imkoniyat yaratib berish kerak, deb uqtiradi. Albatta, hamma kasblarni egallab bo'lmaydi, ammo har bir odamning biror kasbga qobiliyati bo'ladi deydi olim. Biror kasbni egallab olishga intilgan kishi butun iste'dodini sarf etib, ana shu kasbni tezda O'rganib oladi. Bunday fikrni buyuk mutafakkir Forobiy ham O'z vaqtida ta'kidlab O'tgan edi. Agar u yoki bu shaxsning muayyan kasb-hunarga ishtiyoqi bo'lmasa, uni majbur qilish mumkin emas, aks holda u O'zini qiynaydi va bu kasb-hunar unga baxt-saodat keltirmaydi, deydi. Davoniy insonga foyda keltiradigan kasb-hunarni uchga bo'ladi: buni kishilarning ruhiy quvvatiga bog'lagan holda tushuntiradi: birinchisini inson aqliga tegishlisi deb ko'rsatadi va bunga vazirlik kasbini kiritadi. Ikkinchisi, ta'lim-tarbiya natijasida vujudga keladi, deb bunga astronomiya, matematika, tibbiyot, geometriya fanlari bilan shug'ullanishni kiritadi. Uchinchisiga, kishilarning shijoati, jasurligi bilan bog'liq kasblarni, ya'ni dushmanga qarshi kurash, chegarani qo'riqlash va boshqalarni kiritadi. Olim kasbi bo'lmagan biror kasb bilan shug'ullanmaydigan kishilarni qattiq tanqid qiladi. Otasining mol-mulkiga ishonib, kasb-hunar egallamaydigan yoshlarni qoralaydi. Mehnat qilish hunar egallashni tarqib qilar ekan, mehnat inson kamoloti va baxt-saodati manbai deb hisoblaydi. Davoniyning kasb-hunar haqidagi qarashlari shu bilan ahamiyatliki, u odiy xalq mehnatini, dehqon mehnatini ulug'laydi. Insonning faqat mehnati tufayligina baxt-saodatga erishish mumkinligini, mehnat insonning shaxs sifatida kamol topishining bir mezoni ekanligini isbotlaydi. O'zining ta'lim-tarbiya, axloq nafosatga doir fikr mulohazalari bilan XIX asrda shuhrat qozongan

Ahmad Donish O'qituvchilik kasbi haqida bir qancha fikr mulohazalarni bildiradi.

Ahmad Donish kasb tanlash, kasb yo'naltirish kasb egalari xususidagi fikrlarini ko'zdan kechirar ekanmiz, uning O'qituvchilik kasbi xususidagi qarashlarida axloq masalasiga katta e'tibor berganligini ko'ramiz. U O'qituvchini talabalarga kuchli ta'sir etuvchi deb biladi. Uning ta'kidlashicha, O'qituvchilik kasbini tanlaganlarning nopoklik niyatida bo'lishi g'oyatda zararlidir, chunki ular O'zlaridagi axloqiy buzqlikni yosh avlod O'rtasida tarqatadilar. Demak, Ahmad Donish O'qituvchining axloqiy qiyofasiga katta e'tibor beradi. U

O`qituvchidan yosh avlod manfaatini birinchi O`ringa qO`yishni talab qiladi. O`qituvchi O`quvchi va talabalarga kO`p bilim berish O`z bilimini oshirish va chuqurlashtirish uchun O`z ustilarida kO`p ishlashlari lozimligini aytadi. Bundan kO`rinadiki, Ahmad Donish O`qituvchi kasbga nisbatan jiddiy talab qO`yadi. U gO`zal axloqlilik va chuqur bilimdonlikni O`qituvchining gO`zal sifati deb biladi. Xulosa O`rnida shuni ta`kidlash lozimki, sharq allomalari asarlaridagi kasb tanlash, kasbga yo`naltirish borasidagi fikrlarni O`rganish, ularni amaliy hayotga tadbiiq etish, O`sib kelayotgan yosh avlodni ongli kasb tanlashga yordam beradi. Bu esa bolalarni yoshligidanoq kasb-hunarga O`rgatish jamiyatning asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. SHuningdek, ularda kasbga xos tushuncha, tasavvur va bilimlarini boyishiga xizmat qiladi.

O`ZBEK PSIXOLOGLARI TADQIQOTLARIDA KASB TANLASH, KASBGA YO`NALTIRISH MUAMMOLARI

Kasbiy konsultatsiyalar shaxs xossalari, xususiyatlari, sifatlari tashxis metodlarini ishlab chiqish psixologiya fanining markaziy vazifalaridan biridir. Respublikamizda tashxisning bunday metodikalarini yaratishda ma`lum tajriba tO`plangan. Masalan, O`quvchilarni psixologik O`rganish metodikasi (V.A.Tokareva S.SH.Aytmetova) shaxsni O`rganish metodlari (M.G.Davletshin tahriri ostida B.R.Qodirov va K.B.Qodirovlar ishlab chiqqan) O`quvchilarni kasb tanlash vazifalarini hal etish uchun tashxislash metodlari, R.Z.Gaynutdinov rahbarligida yaratilgan turli kasblar uchun asosli professiogrammalardir. O`zbekistonda kasbiy orientasiya ishi tajribasi bir necha marta umumlashtirilgan "YOshlarni kasbga yo`naltirishni takomillashtirish muammolari" Respublika konferensiyasi, mehnat ta`lim-tarbiyasi va kasbga yo`naltirishni takomillashtirish masalalari bO`yicha konferensiya, "YOshlar O`rtasida kasbiy ishlarning psixologik jihatlari" simpoziumi, qishloq yoshlari orasida ommaviy kasbga yo`naltirish ishlarini takomillashtirishga bahishlangan ilmiy amaliy konferensiya, respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi va boshqalarni misol tariqasida keltirib O`tish mumkin. "Inson-kasb-ishlab chiqarish muhiti" tizimi O`z-O`zicha kO`p boSHichli, kO`p qirrali, juda murakkab bO`lib, respublikamizda ushbu tizimda davlat miqyosida inson omiliga g`amxO`rlik qilinadi. Kadrlar tayyorlash sohasida davlat siyosati har tomonlama rivojlangan shaxs fuqaroni uzluksiz ta`lim tizimi orqali tarbiyalashni kO`zda tutadi. SHunday qilib, insonning kasbiy shakllanish muammolarini O`rganish ham fundamental, ham amaliy tadqiqotlarning dolzarb vazifalaridan sanaladi. R.Z.Gaynutdinov rahbarligida kasbiy tiklanishning turli muammolariga bag`ishlangan qator tadqiqotlar amalga oshirilgan. D.N.Arziqulovning dissertasion tadqiqotida Agrar universitet talabalarining kasbiy shakllanish boSHichlari psixologik xususiyatlarini O`rganishga asosiy e`tibor qaratildi. Boshqa kasblarga ham taalluqli bO`lgan muhim xulosalar kasbiy tiklanishning har bir boSHichida ajratilgan shaxsiy xossalari bilan kasbiy sifatlar O`rtasida statistik ahamiyatli bog`liqlik borligi haqidagi fikrlardir. Rivojlanishning turli boSHichlarida shaxsning alohida xossalari ustuvorligi, ularning shaxsiy-kasbiy adaptasiyasining ifodalash O`zini kasb bilan identifikatsiyalash kO`rsatkichi sanaladi. SH.Q.Saparovning O`qituvchilarining shaxsiy-kasbiy xususiyatlarini O`rganishga bag`ishlangan tadqiqotida ta`kidlanadiki ularning shakllanishi va rivojlanishi ularning kasbiy faoliyatida amalga oshadi ya`ni namoyon bO`lish darajasi va sifati O`qituvchilarning yoshi va ish stajiga uzviy bog`liqdir. SHuningdek, muallif jins va kasbiy faoliyatning motivasion asosi kabi omillarni kO`rsatadi. "YUtuqqa erishishga ehtiyojning yuqori darajasi tendensiyasi asosan 10 yilgacha staji bO`lgan 30-35 yoshgacha O`qituvchilarda namoyon bO`ladi. Keyin faoliyatda yutuqqa erishish ehtiyoji barqarorlashib O`rtacha qiymatlar darajasida boradi". YU.M.Asadovning dissertasiyasida umumta`lim maktabi O`qituvchisining malaka oshirish tizimidan kasbiy-shaxsiy O`sish yo`nalishini belgilovchi psixologik xususiyatlari O`rganiladi. Bu boSHichda mahoratni mustahkamlash, kasbiy tiklanish samaradorligi kO`p jihatdan psixologik xususiyatlarga bog`liq. Muallifning psixologiyada umume`tirof etilgan asosiy xulosalaridan biri "shaxsning individual-psixologik xususiyatlari insonning aniq faoliyatida namoyon bO`lib, shu faoliyatning omili bO`la oladi,

unda takomillashib, maqsadga erishish vositasi sifatida faoliyatni qayta ishlashda psixofiziologik asos, O`z imkoniyatlarini baholaydigan vosita sifatida ham xizmat qiladi". Bunday shaxs xususiyatlari ekstrovertlik, interovertlik, neyrotizm, O`zini O`zi baholash, xavotirlik, emosional potensial (barqarorlik), emosional jalb qilinganlik sanaladi. YU.M.Asadov tomonidan olib borilgan tadqiqot ishida maktab ta'limini rivojlantirish davlat umummilliy Dasturi talablaridan kelib chiqqan holda kasb mahorati rivojlanishi omillari sifatida O`qituvchining individual-psixologik xususiyatlarini O`rganishning dolzarbligi ilgari surilgan. Unda O`qituvchi kasb mahoratining yaxlit komponentlarini tasniflovchi "O`qituvchining kasb mahorati", "O`qituvchining individual-psixologik xususiyatlari", "O`qituvchining psixologik tipi" kabi tushunchalarni belgilovchi O`qituvchining individual-psixologik xususiyatlarni psixologik tiplarda integrallashuvi va ularning malaka oshirish tashkiliy shakllarini tanlash motivasiyasiga ta'sirini izohlovchi individual-psixologik xususiyatlarning o`qituvchi kasb mahoratini rivojlantirish omillari sifatida ahamiyatini ochib beruvchi ilmiy asoslangan ma'lumotlar keltirilgan. Dissertant B.N.Sirliiev "o`rta maxsus kasb-hunar o`quv yurtlari ustalari kasbiy kamolotining psixologik jihatlari" mavzusidagi tadqiqot ishi kasb-hunar o`quv yurtlarining ustalari misolida kasbiy kamoloti va kasbiy o`zini-o`zi belgilanishning dolzarb muammolarini tadqiq qilishga bag'ishlangan. Tadqiqot ishida ishlab chiqarish ustalarini kasbiy moslashish, adaptasiya va kasbiy mahorat boshichlarida tayyorlashni va ularning shaxsiy-kasbiy o`sislarini takomillashtirish muammosining psixologik jihatlari ochib beriladi. B.N.Sirliiev fikricha ustalarning kasbiy tiklanish ko`rsatkichlari sifatida qo`yidagi individual psixologik xususiyatlar: muloqotga kirishuvchanlik, emosional barqarorlik, dominantlik, ijtimoiy etuklik, ijtimoiy jasurlik, ishonuvchanlik, ishonch, mustaqillik, o`zini o`zi nazorat va boshqa xususiyatlar, shuningdek, pedagogik bilim va malakalarni hosil bo`lishi, ta'limni tashkil etish bilan bog`liq bilim va malakalar, o`quv hujjatlari bilan ishlash va boshqalarni shakllanishi hamda rivojlanishining namoyon bo`lish darajalari bilan belgilanadi. Tadqiqot natijalari asosida shaxslilik, individual-psixologik, motivasion xususiyatlari hunar ta'limi ustalarining pedagogik ko`nikmasi, bilimi bilan chambarchas bog`liqigi isbotlab berildi. Muallif tomonidan tadbiiq qilingan tadqiqot metodlari asosida muloqatmandlik, emosional barqarorlik, usunlikka intilish, onglilik dadillik, ishonuvchanlik, ekstravertlik, o`zini o`zi nazorat qilish, muvaffaqiyatga erishish ehtiyoji va boshqalar hunar ta'limi ustalarining faoliyatlarida kasbiy ahamiyatli ekanligi haqida aniq xulosalar chiqarildi. Ularning optimal darajada namoyon bo`lishi 10 yillik mehnat faoliyatiga ega bo`lgan va yoshi 35 dan katta hunar ta'limi ustalarining ma'lum bir jinsga mansubligi, shuningdek, ayollarda erkak hamkasblariga nisbatan ko`proq bezovtalanish, neyrotizm xususiyatlari kamroq ekstraponutiv xususiyatlar va O`zini-O`zi past baholashlari namoyon bo`lishi kuzatiladi. R.Z.Gaynutdinovning doktorlik dissertasiyasida O`qituvchi pedagogik faoliyati komponentlari realizasiyasi darajasi, shaxsiy xossalari, omillari tahlili asosida kasbiy faoliyatning samaradorligini belgilovchi quyidagi mezonlarini ajratish mumkin. Ular:

- shaxsiy-professional komponentlikning O`z-O`ziga nisbati;
- O`zini O`zi dolzarblashga intilish;
- emosional barqarorlik va kasbiy identifikasiya;
- O`z-O`ziga hurmat va "Men" ning ichki muvofiqligi;
- dinamizm, yutuqlarga erishish ehtiyoji, ekstrovertlik, atrofdagilarning O`ziga nisbatan pozitiv munosabatini kutish;
- internallik (ichki nazorat darajasi).

SHaxsiy xossalar namoyon bo`lishining yuqori darajalari pedagogik faoliyat komponentlarini ijodiy realizasiyalaydigan progressiv O`qituvchi tipini tiklanishiga ko`maklashadi. Ular tadqiqotda ishtirok etganlarning 33,1% ini tashkil etgan. SHaxsiy-kasbiy xossalar namoyon bo`lishi O`rtacha ko`rsatkichlari pedagogik faoliyat komponentlari realizasiyasi O`rtacha darajasiga to`g`ri keladi. Bunday standart tipdagi O`qituvchilar 48,1 % ni tashkil etgan. O`z "Meni" uchun past ko`rsatkichga ega O`qituvchilar O`z kasbiy faoliyatida etarlicha komponentga ega

emas va ular 18,8% ni tashkil etgan. SHu tariqa faoliyat sub'ektining shaxsiy sifatleri bilan kasbiy muvaffaqiyatlilikning bog'liqligi O'z isbotini topgan.

F.S.Ismagilovning mutaxassislarining kasbiy tajribasi va bozor iqtisodiyoti shakllanish davrida uni boshqarishga bag'ishlangan dissertasiyasida kO'rsatilishicha, kasbiy tajriba samaradorligi mezoni mutaxassisning raqobatbardoshligi sanaladi. Raqobatbardoshlilik mutaxassisning professional xususiyati sifatida mehnat bozorida va tashkilotda uning ustunligini talab qiladi. Respublikamiz miqiyosida yuridik psixologiya doirasida bajarilgan tadqiqotlar alohida O'rin tutadi. E.YU.Agzamova (2001) tadqiqoti ichki ishlar xodimlarining shaxsiy-psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishini belgilovchi omillarni O'rganishga bag'ishlangan. IIV xodimlari kasbiy tiklanishida O'ziga xoslik mavjud bo'lsada, umumpsixologik qonuniyatlar ham mavjudligi isbotlangan. Ular shaxsiy tavsifnomalar ahamiyatligidan iborat. Tadqiqotchi II xodimlari shaxsining individual psixologik xususiyatlari namoyon bo'lishiga ta'sir etuvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib kO'rsatadi:

- psixologik ishonchlilik va barqarorlik;
- kasbiy sezgirlilik va idroklilik;
- sub'ektiv nazorat.

I.R.Ergashevning tergovchining dastlabki tergov qatnashchilari bilan muloqot psixologiyasini O'rganishga bag'ishlangan tadqiqotida bizning ilmiy qiziqishlarimiz nuqtai nazaridan muhim xulosa shuki, tergovchilarning dastlabki tergov qatnashchilari bilan psixologik aloqa O'rnatishida samaradorlik hal qiluvchi darajada ularning kasbiy muloqotga kasbiy-psixologik tayyorlanganligi darajasiga bog'liq. Kasb tanlashga tayyorlikning psixologik jihatlari va kasbiy diagnostika muammolariga doir tadqiqot ishi K.B.Qodirov tomonidan olib borilgan. Bunda asosiy qoida kasbiy yo'nalganlik umuman moyilliklarda, qiziqish va qadriyatlarda ifodalanib, kasbiy rivojlanishning mazmuniy tomoni sanaladi. Kasb tanlash chog'ida psixologik tayyorgarlik yoki etuklik kasbiy O'zini O'zi anglashning muhim omili bo'lib, kasbni to'g'ri tanlashga yordamlashadi va kuch, barqarorlik, keskinlikda namoyon bo'ladi, bu onglilik, mustaqillik bilan ta'minlanadi va kasbiy tanlovning formal-dinamik jihatiga kiradi. SHunday qilib, kasbiy tanlovning barcha mazmuniy va formal-dinamik jihatlari, umuman shaxsning kasbiy rivojlanishi ma'lum strategiyasi shakllanishiga kO'maklashadi. SHu bilan birga K.B.Qodirov tadqiqotining emperik qismi ma'lumotlariga asoslanib xulosa qiladiki, intellektual qobiliyatlar, shaxs motivlari, yo'nalganlik, moyillik tendensiya va boshqalar bilan uzviy bog'liqlikda bo'lib, yoshlarning kasbiy tiklanish asosi sanaladi. SHaxs atrof-muhitga, qadriyatlarga, faoliyat turlari mazmuniga tanlab, shu jumladan, O'z aqliy imkoniyatlariga muvofiq munosabatda bo'ladi. Bizningcha, buni aqliy imkoniyatlar sifatida emas, ularning psixologiyadagi a'nanaviy talqindan foydalanilsa, O'zini O'zi anglash, refleksiv jarayonlarining shakllanganligi va rivojlanganligi darajasi sifatida ta'riflash aniqroq bo'lardi.

Dissertant R.Z.Asomova "Kasb tanlash motivasiyasi va uning dinamikasi" nomli ilmiy izlanishida kasb tanlash motivlari mexanizmlari, ularning birlamchi manbalari, harakatlantiruvchi kuchlari, dinamikasi va shaxsning individualligi masalalari atroflicha ochib berilgan. SHuningdek, kasbiy motivlarning mutaxassisni kasbiy tayyorgarligi O'rtasidagi bog'liqlik, hamda kasbiy va O'quv motivlari O'rtasidagi O'zaro aloqadorlik masalalari ham keng doirada tadqiq qilingan. U.S.Jumaev tomonidan "O'smirlarda kasb tanlashga munosabat tizimi shakllanishining ijtimoiy-psixologik xususiyatlari" mavzusidagi nomzodlik ishida kichik, real guruh a'zolari O'smirlarda kasb tanlashga munosabat va uning umumta'lim maktab O'quvchilarida shakllanishi, namoyon bo'lishi va dinamikasi ilk bor tadqiq qilindi. SHuningdek, faoliyatlari jarayonida kasb tanlashga munosabat tizimi kO'rsatkichlari (O'rtacha umumiy va qiyosiy-tipik) tahlil etildi va tegishli amaliy tavsiyalar ishlab chiqildi, kasb tanlashga munosabat tizimining yosh xususiyatlari tavsiflab berildi. R.B.Abduraxmonovning "Pedagog va psixologlarda kasbiy yo'nalganlikning kamol topishi" mavzusidagi dissertasion ishida kasbiy pedagogik va psixologik yo'nalganlik komponentlari

aniqlangan va oliy O`quv yurtida tayyorgarlik davrida uning shakllanish dinamikasi O`rganilgan. Tadqiqot natijalari oliy O`quv yurtida olingan bilimning talablari, shaxslilik motivlari, ustanovkalari va qadriyatlar tizimiga kirib borishidan yaqqol dalolat beradi. Bolaga kognitiv, emosional va xulq-atvor komponentlarining uyg'unligi tarzida namoyon bo`ladigan ijtimoiy-psixologik ustanovka sifatidagi munosabatni O`rganish psixologiya uchun yangilik hisoblanadi. Bundan tashqari ishda birinchi marotaba faoliyat turining almashinuvida, ya'ni, maktab psixologlarini qayta tayyorlashda kasbiy yo`nalganlikning O`zgarish muammosi tadqiq etilgan. Dissertant N.G'.Muratalievaning "BO`lg'usi boshlanqich sinf O`qituvchilarning shaxslilik yo`nalishi" mavzusidagi tadqiqot ishida shaxslilik yo`nalishi bo`lg'usi boshlanq'ich sinf O`qituvchilarining kasbiy etilishida muhim omil ekanligi aniqlandi. Unda O`quv jarayonida shaxslilik yo`nalishining rivojlanish dinamikasi hamda pedagogik ijtimoiy persepsiya xususiyatlari aniqlangan. Shuningdek, shaxsga yo`naltirilgan yondoshuv nuqtai nazaridan bo`lg'usi boshlanqich sinf O`qituvchilarining oliy O`quv yurtida tayyorgarlik jarayonida kasbiy etilish sharoitida shaxslilik yo`nalishi tadqiq etilgan. I.N.Aslonov tomonidan "Bojxona tizimi faoliyati samaradorligini oshirishda kadrlarning shaxsiy psixologik tayyorgarligi omillari (muomala jarayoni misolida)" olib borgan tadqiqot ishida bojxona xodimlarining kasbiy faoliyat doirasida ularning kasbiy muomalasi mohiyati va mazmuni belgilab berildi, bojxona xizmati xodimining samarali muomalasiga ta'sir etuvchi psixologik qiyinchiliklar va to`siqlar tahlil etildi va ularga aniqliklar kiritildi. SHuningdek, bojxona xodimining kasbiy faoliyati xususiyatlarini inobatga olgan holda ularda samarali professional muomala malakasi va ko`nikmalarini shakllantirish bo`yicha amaliy takliflar hamda tashkiliy-metodik vositalar ishlab chiqiladi. SHunday qilib, yurtimiz psixologlarining kasbiy tiklanishining turli bo`shichlarini O`rganishga bag'ishlangan tadqiqotlari tahlilida rivojlanishning shaxsiy omillari, shaxsning kasbiy faoliyati doirasida tiklanishining hal qiluvchi rolga asosiy e'tibor qaratiladi. Anglanilganlik mustaqillikning rivojlanish darajasi, ya'ni, ijtimoiy etuklikni hisobga olish ko`p jihatdan O`quvchilarda kasbiy tiklanish mexanizmini O`rganish imkonini beradi. YUqoridagi fikrlardan ko`rinadiki, respublikamiz psixologlari tomonidan kasbga yo`naltirish, kasb tanlash masalalariga doir bir qator ilmiy izlanishlar olib borilgan. Bu esa muammoni turli jihatlarini yanada chuqurroq O`rganish imkonini beradi. SHu bilan birga yosh avlodni ongli ravishda to`g'ri kasb tanlashga yo`naltirish, kasb tanlashda uchraydigan xato va kamchiliklarni oldini olish hamda kasbiy O`zlikni shakllantirish doirasida echimi topilmagan muammolar ham talaygina. SHu bois respublikamiz psixolog olimlari tomonidan bu borada bir qator ilmiy izlanishlar olib borilmoqda.

Mavzu bo`yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar

1. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.
3. Kasbiy psixologiya qanday fanlar bilan o`zaro bog`liq?
4. Fan sifatida kasbiy psixologiyaning vujudga kelishi, uning rivojlanish tarixi va hozirgi holati qandayligi haqida gapiring.
5. Kasbiy psixologiya qanday fanlar bilan o`zaro bog`liq?
6. Abu Nasr Forobiy "Baxt – saodatga erishuv" asarida yoshlarning kasb – hunar va ish tajribani egallashi to`g`risida qanday qarashlarni bayon etgan?
7. Kasb – hunarga yo`naltiruvchi mutaxassisning asosiy vazifasi nimalardan iborat?
8. Sharq mutafakkirlarining qaysilari o`z mulohazalarida turli kasblarga oid fikrlar bildirganlar va bunga misollar keltiring.

2-Mavzu: 2.1 Kasbiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari.

Reja:

1. Psixologiya metodlari haqida umumiy tushuncha.
2. Genetik usullar.
3. Praksimmetrik usullar.
4. Psixometrik usullar.

Asosiy tushunchalar:

Metod, empirik (amaliy) metod, kuzatish metodi, test, genetik usullar, praksimmetrik usullar, psixometrik usullar, eksperimental usullar.

Psixologiya metodlari haqida umumiy tushuncha.

Psixologik tadqiqot metodlari psixologiya amal qiladigan nazariy prinsiplarga va psixologiya hal etayotgan aniq vazifalarga bog'liq ekanligini ko'rsatib beradi. Psixologiyada empirik metodlarni qo'llash muammosini ko'rib chiqilayotganda ularni psixologik metodlar tizimidagi o'rnini aniqlashdan boshlash kerak.

Psixologiya fanining asosiy metodlari

Kuzatish metodi	Tashqi (obyektiv kuzatish) Ichki (subyektiv, o'z-o'zini kuzatish) Erkin kuzatuv Standartlashtirilgan Guruh ichida kuzatish Guruh tashqarisida kuzatish
So'roq metodi	Og'zaki Yozma Erkin (suhbat) Standartlashtirilgan
Test metodi	Test-so'rov Test-topshiriq Proektiv test Sotsiometrik test
Eksperiment	Tabiiy Lobaratoriya
Modellashtirish	Matematik Mantiqiy Texnik Kibernetik

Psixologiyada boshqa fanlar analogiyasi bilan uchta metodlar tasnifini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir:

<i>Empirik, tekshirish subyekt va obyektining tashqi real munosabatlari amalga oshiriladi.</i>	<i>Ma'lumotlar hisoblanadi, obyekt sharoitini asboblarda yordamida o'rganadi.</i>
<i>Nazariy, subyekt obyektning hayotiy modeli bilan o'zaro munosabatda bo'ladi.</i>	<i>Nazariy metodlardan foydalanish natijasi tabiiy til belgisi yoki ochiq sxematik shaklidagi predmet haqidagi bilim bilan qo'shilgan.</i>
<i>Interpretatsiya (qayta ishlash) va tasvirlash, bunda subyekt «tashqaridan» obyektning simvolik</i>	<i>– qayta ishlash- tushuntirish metodi- bu nazariy va eksperimental metodlarni</i>

<i>belgisi hayoli bilan munosabatda bo'ladi.</i>	<i>qo'llanilishda, ularning o'zaro munosabati natijalarining «uchrashish joyi»dir.</i>
--	--

Eksperimental psixologik metodlariga murojaat qilishdan oldin ularni umumiy-ilmiy pozitsiyalarini ko'rib chiqamiz. Barcha metodlar ma'lumotlar olish uchun ishlatiladi. Ular aktiv va passivlarga ajratilgan. Aktivlariga laboratoriya eksperimentlari va ularning modifikatsiyasi, kvazi-eksperiment kiradi. Passivlariga – kuzatish, kichik metod, faoliyat mahsuli analizi, o'lchash va korrelyatsion kuzatuvlar, ma'lumotlar yig'ish metodi va h.k. Birinchi metodda kuzatuv, hodisa va jarayonlar bilan faol tanishtiradi.

Albatta obyektga ta'sir etgan holda, ikkinchi metod jarayoni esa uni faqat ro'yxat qilish bilan chegaralanadi. Kuzatuvchi ro'yxatni to'g'ridan-to'g'ri yoki savolnoma asosida yozib boradi. Xuddi shu narsa ta'sir qilish jarayonida ham qo'llanilishi mumkin. Eksperiment jarayonida to'g'ridan-to'g'ri muloqot metodi orqali o'tkaziladi. Bu ikkinchi jarayon psixologik eksperiment metodlaridir. Uchinchi jarayonda eksperimentator kuzatuv jarayonida tabiiy usullardan yoki «tushunish metodi»dan to'g'ridan-to'g'ri kuzatuvchiga nisbatan qo'llaydi. Eksperiment jarayonida kuzatuvchi vazifalarni faol bajaradi. Kuzatish, so'rov davomida esa unga hech qanday vazifa berilmaydi va u o'zini erkin tutadi.

Kuzatish metodining asosiy afzalligi shundan iboratki, kuzatish tabiiy sharoitda o'tkaziladi, kuzatish kuzatilayotgan shaxslarning odatdagi xulq-atvorlarini o'zgartirmaydi. Kuzatishni bitta odam ustida ham va bir guruh shaxslar ustida ham olib borish mumkin. Bu metod bolalar bog'chasi guruhlaridagi yoki maktab sinfidagi bolalarni o'rganish uchun qulaydir. Kuzatish metodining kamchiligi uning anchagina mehnat talab qilishidir. Tadqiqotchi psixologni xulq-atvorning istalgan qiyofada emas, balki aniq tadqiqot vazifalari bilan bog'liq holda namoyon bo'lishigina qiziqtiradi. Shuning uchun kuzatiluvchi shaxs xususiyatlari va psixik holatlarining o'ziga kerakli tarzda namoyon bo'lishini kutib turishi kerak. Bundan tashqari, psixik xususiyatlarning yakka holda namoyon bo'lishini kuzatish va qayd qilish etarli emas. Tadqiqotchi u yoki bu xususiyatlarning xarakterligiga, tipikligiga ishonch hosil qilishi kerak. Bundan tashqari eksperimental psixologiyada quyidagi metodlardan foydalanish mumkin.

Eksperiment metodining asosiy farqi va afzalligi shundan iboratki, bunda tadqiqotchi o'z hoxishi bilan qandaydir psixik jarayon yoki xususiyatni yuzaga keltirib psixik hodisaning tashqi sharoitga bog'liqligini tekshirib ko'rish mumkin. Eksperiment metodining ana shu afzalligi uning psixologiyada keng qo'llanilishi bilan tushuntiriladi. Empirik, ya'ni tajriba yo'li bilan qo'lga kiritilgan faktlarning asosiy ko'pchiligi psixologiyada eksperimental yo'l bilan olingandir. Biroq har qanday tadqiqot qilinadigan vazifalarga eksperimentni qo'llab bo'lmaydi. Masalan, agarda psixik jarayonlar va funksiyalar ko'proq eksperiment yo'li bilan o'rganilsa, shaxsning birmuncha soddaxususiyatlari (temperament, qobiliyatlar) ham shu metodda o'rganiladi. Lekin xarakterning va qobiliyatlarining murakkab turlarini hali eksperiment metodi bilan o'rganib bo'lmaydi.

Suhbat metodi. Bu metod tadqiqotning turli bosqichlarida qo'llaniladi: masalan, dastlabki tanishish bosqichida ham boshqa metodlar, ayniqsa, kuzatish metodi orqali qo'lga kiritilgan xulosalarni aniqlashda qo'llaniladi. Suhbat metodidan mohirlik bilan foydalanish juda qimmatli natijalarga erishishga yordam berishi mumkin.

Intervyu metodi. Psixologiya fanidagi bu metod sotsiologiyada keng qo'llaniladigan anketa metodidan farq qiladi. Xuddi suhbat metodi kabi intervyu metodi ham so'roq-javob metodiga tegishlidir. Ko'pincha intervyu uchun savollarni sotsiologik anketalar tipiga o'xshatib, ya'ni ko'p

masalalar yuzasidan ko'plab javoblar olishni ko'zlab tuziladi. Intervyu metodiga bunday tarzda yondashish tadqiqotning faqat birinchi bosqichiga, muammo bilan dastlabki tanishish bosqichiga to'g'ri keladi. Biroq bilimlarni va o'rganilayotgan psixik xususiyatlarni strukturasi hisobga olib tuzilgan savollar o'rganilayotgan xususiyatlar strukturalari hamda darajalarini bundan keyin aniqlash uchun juda qimmatli natijalar berishi mumkin.

Ekspert baholash metodi. Bu metod shaxs psixologiyasida keng qo'llaniladi. Ekspertlar sifatida tekshirilayotgan kishilarni yaxshi biladigan shaxslar – bolalar bog'chasi va maktab-internatlarning tarbiyachilarini, sinf rahbarlari, ishlab chiqarish, texnika bilim yurtlarining masterlari, ishlab chiqarishdagi masterlar, ilmiy jamoa rahbarlari, harbiy komandirlar, administratorlar, sport trenerlari qatnashishlari mumkin. Ekspert baholarni ko'proq xususiyatlarning sifat jihatidan namoyon bo'lishlarini tasvirlash emas (buni ekspertlar bilan qilinadigan keyingi suhbatlarda o'tkazilsa ancha foydaliroq bo'ladi), balki o'rganilayotgan xususiyatlarning ifodalanishini miqdoriy baholash tarzida, ya'ni u yoki bu xususiyat yoki xulq-atvor elementlari darajalarini baholash tarzida o'tkazilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Ekspertlar umumlashtirish bilan bog'liq bo'lmagan xulq-atvor elementlarining ancha-muncha mayda qismlari ifodalanganligini qayd qilishi lozim. Umumlashtirish – ekspertning emas, balki tadqiqotchining ishidir.

O'z-o'zini kuzatish metodi. XVIII-XIX asrlar empirik psixologiyasi tomonidan kamsitilgan bu metod so'nggi yillarda yana ma'lum ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Chunonchi, suhbat va so'roq-javob metodlarini o'z-o'zini kuzatish metodi orqali olingan ma'lumotlarsiz qo'llab bo'lmaydi. Buni suhbat va shaxsiy savol-javob o'tkazish uchun savollar tuzishda hisobga olish zarur. Lekin o'z-o'zini kuzatish, garchi psixologik tadqiqotlarning asosiy metodi bo'lmasa-da, mustaqil ahamiyatga ega bo'lishi mumkin. O'z-o'zini kuzatish metodi psixik holatlarni, ya'ni tetik kayfiyatni, achchiqlanishni, ishchanlikni, kasb bilan bog'liq bo'lgan sermahsul ishlarni o'rganishda ayniqsa foydali bo'lishi mumkin.

Testlar metodi. Testlar, ya'ni ozmi yoki ko'pmi standartlashtirilgan (birxillashtirilgan) shaxs xususiyatlarini qisqa muddatli sinash metodlari yaxshi yoki yomon asoslangan bo'lishi mumkin. Yaxshi asoslangan test – bu oldindan o'tkazilgan katta eksperimentlar natijasidir. Nazariy jihatdan asoslangan va eksperimental jihatdan muhokama qilingan testlar tadqiqotchi uchun ilmiy va amaliy ahamiyat kasb etishi mumkin.

Arxiv metodi. Amerika ilmiy adabiyotlarida «Arxivlik metodi» degan atama qabul qilingan, bunday tadqiqotlarni o'tkazuvchi psixolog sinaluvchining aktual xulqini kuzatmaydi va o'lchamaydi, kundalik qaydnomalarni va yozuvlarni, arxiv materiallarini, mehnat, o'quv yoki ijodiy faoliyatini analiz qilinadi. Ko'p hollarda uni «faoliyat mahsullarini o'rganish» yoki «praksimetrik metod» deb ifodalanadi. Tadqiqotchi tadqiqotlar matnini, faoliyatning predmetli mahsulotini turli xil maqsadlarda o'tkazishi mumkin. Maqsadlar joriy qilishning aniq usullarini arxivlik metodi uning xilma-xilligini ajratib ko'rsatadi.

Kashiy psixologiya metodlari haqida umumiy tushuncha

Metod so'zi - yunoncha **methodos** bo'lib **tadqiqot, tekshirish** degan ma'noni beradi. Nazarimizda yuqoridagilarga yana yo'l, usul so'zlarini ham kiritish mumkin. Metodlar tadqiqot ishlarida ham, bilim berishda ham qo'llaniladi.

Psixologiya fanining empirik (amaliy metodlari turkumidan muhim o'rin egallagan diagnostik xususiyatli metodlaridan biri - **kuzatish** metodidir. Mazkur metod fanimizning eng qadimgi tadqiqot vositasi bo'lib hisoblanib, uzoq o'tmish zamonidan to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri bo'lib, keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob'ekti, ko'lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlari o'rganiSh

imkoniyati tug'ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

Tarjimai hol metodi inson psixikasini suhbat va tajriba metodlari vositasida o'rganib bo'lmaydigan jihatlarini ochishda yordam beradi. Mazkur metod orqali, masalan, ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar: musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod, salohiyat kabi fazilatlarini kuzatiladi. Inson ongining namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos individual va ijtimoiy xususiyatlari atoqli shaxslar bildirgan mulohazalarida, asarlarida o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu - tavsiflari orqali avloddan - avlodga o'tadi. Xuddi shu ijtimoiy uzluksizlik natijasida ajdodlar bilan avlodlar o'rtasida vorislik hodisasi ijtimoiy psixologik voqelik vujudga keladi va ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning uyg'unligini ta'minlaydi.

Kasb psixologiyasi metodlari asosan ikkita metodologik tamoyillarga asoslanadi:

Sub'ektiv tamoyil - o'zini o'zgartirishga qaratilgan kasbiy shakllanishga erishishni ta'minlovchi tamoyil. Sub'ektiv metodlar (o'zini o'zi kuzatish);

Ob'ektiv tamoyil - psixik hodisalarni tashqi tomonlama anglashning turli tadqiqiy vositalari orqali kasbiy shakllanish belgilarini o'rganishni nazarda tutuvchi tamoyil. Ob'ektiv metodlar (kuzatishning xar xil turlari; eksperimental, testlar, savol-javob, so'rovnomalalar)

Tadqiqiy metodlarning 2 ta turi mavjud;

1. Longityud
2. Kesimli

Longityud metodi – ma'lum kishilar guruhi yoki aniq kishilarning bir xil belgilariga ko'ra psixik xususiyatlarini davomli va muntazam o'rganishni nazarda tutadi. Longityud metodi - kasbiy shakllanishda individual yo'lni o'rganishga yordam beradi. Mazkur metod yordamida shaxsning obro' orttirishi uning faoliyatidagi turli xildagi tanqidiy holatlarini aniqlaydi.

Kesimli metod – ma'lumotlarni tadqiqotda qatnashuvchilarning turli guruhlariga nisbatan taqqoslash xosdir. Bu metod orqali sinovdan o'tayotgalarining ko'p miqdorini qisqa vaqt ichida qamrab olishi mumkin. Kesimli tadqiqotlarni o'tkazishda savol-javob usullari, testlar tajribalar keng qo'llaniladi. Psixologiyada qo'llaniladigan tadqiqot usullari kelib chiqishiga ko'ra umumpsixologik ko'rinishga ega, lekin spetsifik xususiyatiga ega emas. Kasb psixologiyasi yosh psixologiyasiga yondosh ekanligini hisobga olsak, bu o'z navbatida shakllanib bo'lgan metodlarni o'zlashtirishga olib keladi. Barcha tadqiqotlarda keng doirada metodlarni qo'llash o'ziga xos tadqiqiy metodlarni yaratilishiga olib keladi. Kasb psixologiyasi tadqiqot metodlarining tizimlanishi, ularning qo'llanishi sohasini aniqlash shuningdek, sifat, xususiyatini ko'rib chiqish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Psixologiya fanida yagona umuman olganda, tadqiqotlar metodlarining to'liq tasnifi mavjud emas. Ko'pincha, alohida metodlar yoki psixologiyada ma'lum muammoni hal etishga tavsiya etiladigan metodlar ro'yxati beriladi.

Kasb psixologiyasi oldida quyidagi tadqiqiy masalalar turibdi:

1 guruhi - shaxsning kasbiy shakllanishi bu murakkab, ba'zida esa dramatik jarayonning psixologik xususiyatlarini tasvirlashdan iborat. Bu jarayonni tadqiq etish uchun longityud, savol-javob, psixobiografiya, tanqidiy voqealar metodlarini qo'llash to'g'ri bo'ladi. Bu metodlar guruhini genetik metodlarga kiritishi mumkin.

2 guruhi - kasblarning psixologik tavsifi, kasbning psixologik mazmunini tadqiq etish, faoliyat mahsuldorligini o'rganish, mehnat metodi, hujjatlarni o'rganish, kuzatilayotganlarni savol-javob orqali o'rganish metodi, shuningdek, professiografiya yo'li bilan amalga oshirilishi mumkin. Bu uslublar guruhi praksimetrik uslublarga tegishlidir.

3 guruhi - muhim kasbiy ko'rsatkich faoliyat va shaxs belgilarini o'lchash. Bu tadqiqiy masalani hal qilish uchun maxsus qobiliyat testlari, muvaffaqiyat va ta'lim testlari qo'llaniladi. Bu psixometrik usullar guruhidir.

4 guruhi - kasbiy shakllanishning xususiyatlarini, qonuniyat va mexanizmlarini tushuntirishdan iborat. Bu vazifani bajarish usullari eksperimental usullardir: ya'ni laboratoriya, modellashtiruvchi va tabiiy eksperimentlardir.

5 guruh - usullari tadqiqiy ma'lumotlarga miqdoriy ishlov berishga yo'naltirilgan. Ularga matematik ishlov berish usullari kiradi: ya'ni korrelyasion, faktorli tahlil va boshqalar.

GENETIK USULLAR

Genetik metodlar uzoq vaqt davomida shaxs kasbiy rivojlanishining o'zgarishlarini tadqiq etish uchun mo'ljallangan. Kasb psixologiyada longityud metod, psixobiografiya, individning kasbiy shakllanishini monografik tasvirlash usullaridan keng foydalaniladi. Longityud metod - bir xil yoshdagi sinaluvchilarning ularni rivojlanishi jarayonini ko'p marotabali tizimli ravishda o'rganishdan iborat. **Longityud metodi** insonlardagi turli xususiyat va sifatlarni o'rganish maqsadida yillar davomida o'tkaziladi. Longityud metodi psixologiyada XX asrning 20-yillarida shakllana boshladi va asosan psixik genezisi va bolalar, yoshlar psixik pragnozini ilmiy jihatdan asoslab berish uchun qo'llanilgan. Keyingi yillarda (20-30 yil davomida o'tkazilgan) davomli longityud tadqiqotlari jarayonida deyarli qo'llanilmagan. Longityud metod bir vaqtning o'zida boshqa metodlarni qo'llanilishini ham nazarda tutadi. Jumladan, kuzatish, savol-javoblar, test, psixografiya, praksimetriya va hokazo. Longityud metodi yordamida olingan natijalar shaxsning yoshiga, ish stajiga, tadqiqot o'tkazilgandagi ijtimoiy iqtisodiy sharoitlariga hamda kasbiy faoliyat turiga bog'liq bo'ladi. Longityud metodini kasb psixologiyasida qo'llash orqali shaxs kasbiy shakllanishining individual o'zgarishlarini o'rganish imkonini beradi shuningdek, kasbiy faoliyatda rivojlanish, obro'-e'tibor qozonishning yo'l-yo'riq va vositalarini aniqlash imkonini beradi. Longityudni qo'llashdagi qiyinchiliklardan biri sinovda ishtirok etayotganlarni tanlash hamda ularning sonining ko'pligi va kamligida bilinadi. Keyingi muammo o'lchovlar o'rtasidagi oraliq masofalar hisoblanadi. Bu metod orqali insonlarda tadqiqotlar gohida bir yil ayrim vaqtlarda esa undan ham uzoq vaqtlar oralig'ida o'tkazilgan. Shaxsning kasbiy shakllanishini o'rganishda tadqiqot intervali sifatida kasbiy rivojlanish fazalari va bosqichlarini ajratib olish mumkin. Longityud metodidagi muammolardan biri uning davriyligini belgilash bo'lib, bunda u 5-yildan 50 yilgacha davom etishi mumkin. Klassik longityud sifatida 1928 yildan bugungi kungacha davom etib kelayotgan Kaliforniya longityudini misol sifatida keltirish mumkin. Longityud metodning kamchiligi uning davriyligidadir. Shaxsiy va kasbiy o'zgarishlar tasodifiy yoki drammatik voqealarga bog'liq bo'lishi mumkin. Yillar davomida tekshiriluvchilar sonining qisqarishi, o'rganilayotgan jarayonlarning mazmun mohiyati kengayib boradi. Longityud metodining qo'llanilishini chegaralovchi omillardan biri shaxsni o'rganish uchun ko'p vaqt ketishidir. Longityud metodining kamchiliklarini boshqa psixobiografik usullarni qo'llash yordamida bartaraf etish mumkin. Biografik usul - shaxs hayot yo'lini o'rganish va loyqalashtirish usullari, hayotiy dasturlar, kasbiy rejalar, kasbiy shaxsiy shakllanishining ssenariylarini ishlab chiqishga yo'naltirilgan. Biografik usullarga tarjimai hol, ma'lumotlarni o'rganish, kasbiy mehnatdan qoniqish va boshqalarni kiritish mumkin.

Kavzometriya - E.I.Golovaxa va A.A.Kromiklar tomonidan taklif etilgan usul bo'lib, u shaxsning psixologik vaqti va hayotiy sub'ektiv holatlarini tahlilini tadqiq etish metodi hisoblanadi. Bu intervyu quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi: biografik savol-javob, muhim voqealar ro'yxatini tuzish, voqealarni keltirib chiqargan sabablarini aniqlash va boshqalardir. Intervyu natijalari kavzometriya shaklida tasvirlanadi. Kavzometriya kasbiy muammo va inqirozlarni yechish uchun qo'llaniladi. **Psixobiografiya** -shaxslarning hayot yo'lini psixologik o'rganish metodi hisoblanadi. Avval psixobiografiya siyosatchilarining obro'-e'tiborini, kishilarning individual kasbiy biografiyalarini o'rganish maqsadida qo'llanilgan. Kasb psixologiyada psixobiografiyani qo'shlar haqida qimmatli ma'lumotlarni olish imkonini beradi.

Anamnez metod - bu insoning mehnat sub'ekti sifatida rivojlanish tarixi haqidagi ma'lumotlarni yig'adi. Bu usul E.A.Klimov tomonidan batafsil ko'rib chiqilgan. Kasbiy anamnez mehnat motivlarini o'rganish, tanqidiy voqealarni aniqlash, kasbiy faoliyatda obro'-e'tibor qozonishni oldindan tashxis qilishda qo'llaniladi. Anamnez tik tadqiqot o'z ichiga suhbat tizimini olgani uchun, suhbat metodiga qo'yiladigan talablar bu usulga ham tadbiiq etiladi.

PRAKSIMMETRIK USULLAR

Faoliyat mahsulotlari va jarayonlarini tahlil etish yo'llari bo'lib, unga B.G.Ananev xronometriya, profesiografiya, bajarilgan ishlar va buyumlar bahosini izohlashlarni kiritadi. Kasb psixologiyasining bu guruhidan quyidagi usullar muhim ahamiyatga ega. **Topshiriqlar tahlili** - bu kuzatilayotgan inson va uning yashirin kasbiy xulqining yo'nalganligini psixologik jihatlarini tadqiq qilish metodidir. Topshiriqlarni tahlil etish metod F.Teylor tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib, tasvirlash va tahlil etish maqsadida qo'llanilgan. Topshiriqlarni tahlil etish hamda bajarilgan ishlarni tahlil etish metodi ham muhandislik psixologiyasida keng qo'llaniladi. Uning mohiyati shunda-ki, tadqiqotchi ishchining qoniqarsiz xulqini tasvirlaydi.

Hujjatlarni o'rganish metod - mehnat jarayoni ishchilar tarkibi, ularning kasbiy tayyorgarligi va malakasi to'g'risidagi ob'ektiv ma'lumotlarni yig'ish metodi hisoblanadi. Bu ma'lumotlar quyidagi hujjatlardan olinadi:

"Ishchilar harakatlarini tasvirlovchi texnologik kartalar, ishning bajarilish usullarini sifatiga quyiladigan talablar;

"Insonga psixofiziologik va psixologik ta'sir ko'rsatadigan asbob-uskunalarining texnik tavsifnomasi;

"Yoshi, staji, ma'lumoti, kasbiy tayyorgarligi, kadrlar qo'nimsizligi uning sabablari va hokozolar xaqidagi ma'lumotlar;

"Ishlab chiqarishdagi avariya va travmalar shuningdek, ishchilar sog'ligining holati to'g'risidagi ma'lumot.

Mehnat metod - bu kasbiy faoliyatni to'g'ridan-to'g'ri ish joyida o'rganishga qaratilgan tadqiqot metodidir. Kasbiy faoliyatni egallagan va bajaruvchisi sifatida psixolog ham tadqiqotchi ham ishchi sifatida faoliyat olib boradi. Har bir ish kunidan keyin standartlashgan sxema bo'yicha bayonnoma to'ldiriladi. Ish joyida tadqiqot olib borish usullari samaraliroq hisoblanadi. Tadqiqotchi standart kuzatish chizmasi asosida ishchining faoliyatini o'rganadi. Bu usullarning afzaligi kasbiy realikka maksimal darajada yaqin bo'lishidir.

KUZATISH - ma'lumotlarni psixik hodisalarning qayd etish yo'llari orqali to'plashdan iborat. Kuzatish ikki turda bo'ladi-formallashgan kuzatuv va erkin kuzatuv. Erkin kuzatuv tadqiqotning boshlang'ich bosqichlarida qo'llaniladi, u o'rganilayotgan masala mohiyatiga chuqurroq kirib borish imkonini beradi. Formallashgan kuzatuv standart dastur asosida olib boriladi hamda kuzatilayotgan voqealar bayonnomada qayd etilgan holda alohida elementlarga bo'linadi. Tadqiqot metod sifatida kuzatishning xususiyati shunda-ki, ma'lumotlarni to'plash, turli sezgi organlari yordamida amalga oshiriladi, ya'ni ko'rish, eshitish, hid bilish va hokazo. Chunki kasbiy faoliyatda hidlar, shovqinlar va shunga o'xshash holatlar tez kuzatiladi va ular sinovdagilarning psixik holatiga hamda faoliyat mahsuldorligiga, mehnatdan qoniqishiga ta'sir etadi. Kuzatilayotgan jarayonda tadqiqotchining ishtirok etish darajasiga ko'ra, kiritilgan kuzatish va tomonli kuzatishga ajratiladi. Kiritilgan kuzatuvda tadqiqotchi guruh tarkibiga kirib, shu guruhning barcha faoliyat turlarini bajaradi. Tomonli kuzatishda tadqiqotchi kuzatilayotgan hodisalardan chetda turib kino yoki videokamera tushirgan holda psixik hodisalarni tahlil etadi. Kasb psixologiyasining tadqiqot metodi sifatida kuzatish ish o'rnini tashkil etish va umuman faoliyatdagi vaziyatga baho berish, sinovdagilarning kirishimlilik xususiyatlarini tahlil qilish, uning kasbiy xulqi, kasbiy ta'limi va malakasiga baho berishda qo'llaniladi. Kuzatishning negativ holatlari olingan ma'lumotlarning etarli darajada ishonchli emasligi chunki, tadqiqot paytida ba'zida hodisalar ko'p uchraydi va kuzatilayotgan voqealarga aralashib ketish ehtimoli mavjud bo'ladi. Kuzatish paytida sinovdagilarga tadqiqot vazifalari haqida ma'lumot berishga to'g'ri keladi, bu esa ularning kasbiy xulqi va faoliyatiga o'zgartirish kiritishlariga olib keladi. Undan tashqari, ishchilar, rahbarlar ham tadqiqot natijalari ularning ish jarayonlariga salbiy ta'sir ko'rsatishidan qo'rqishadi.

PSIXOMETRIK USULLAR

Psixometriya-psixik voqea va hodisalarning miqdoriy tomonining nisbati va tavsiflarini o'rganadi. Psixometriyaning muhim belgisi psixik jarayonlarning individual farqlar, empirik dalillar dinamikasini, parametrlarini o'lchash texnologiyasining standartlashganligidir.

Psixometriya ishonchliligi bilan ajralib turuvchi psixodiagnostik metodikalarini yaratishga yo'naltirilgan. Psixometrik usullar tarkibiga psixologik test ham kiradi.

TEST - psixologik diagnostika metod bo'lib, u ma'lum ma'noga ega bo'lgan standart savol va masalalardan iborat. Test intellektual va maxsus qobiliyatlarini, shaxsning psixofiziologik xususiyatlari va sifatlarining rivojlanishini, kasbiy layoqatni aniqlash, kasbiy ekspertiza va reabilitatsiya shuningdek, kasbiy maslahatlar jarayonida qo'llaniladi.

Test o'tkazish 3 bosqichga ajratiladi:

- test, savolnomasini tanlash (tadqiqot masalasi bilan belgilanadi);
- test o'tkazishda etika normalariga rioya qilgan holda ko'rsatmaga muvofiq tashkil etish;
- olingan ma'lumotlarni qayta ishlash va natijalarni o'rganish.

Kasb psixologiyasida maxsus qobiliyatlarning diagnostikasi va kasbiy yutuqlar muhim ahamiyat kasb etadi. An'anaviy intellektual testlar akademik qobiliyatlarni o'rganishga qaratilgan. Vakant (bo'sh) o'rinlarga nomzodlarni kasbiy tanlovi uchun ishonchli usullarga bo'lgan ehtiyoj psixologlarni maxsus qobiliyatlarni diagnostika qilish uchun test ishlab chiqildi. Ishlab chiqarishning turli sohalari ishchilarning oldiga o'ziga xos talablarni qo'yadi. Kasbiy tanlov, kasbiy maslahat, kadrlarni joylashuvi, vakant ishchi o'rinlarini to'ldirish maqsadida muhim kasbiy psixofiziologik xususiyatlar, psixologik sifatlar, kasbiy malakalarni aniqlash imkonini beruvchi testlar bo'lishi lozim. Kasbiy yutuqlar testi faoliyatning ma'lum bir turini egallash darajasini o'lchash yoki kasbiy tayyorgarlik natijalarini tashxis qilish maqsadida qo'llaniladi. Maxsus qobiliyatlar testi asosan kasbiy tanlov uchun qo'llaniladi. Ayniqsa, sensor qobiliyatlar diagnostikasi xususiyatlarini ko'rib chiqamiz. Ko'pgina, kasblar sensor sohaning xususan ko'rish va eshitishning yuqori darajada rivojlanishini talab qiladi. Vizual qobiliyatlar testi muhim kasbiy belgilarga bog'liq holda ko'rish o'tkirligini, ranglarni farqlay olish va ularning ichki xususiyatlari o'rtasidagi bog'liqliklar darajasini aniqlaydi. Eng keng tarqalgan ko'z o'tkirligini aniqlab beruvchi test - sinovda ishtirok etayotgan sinaluvchilarga bosma harflar tasvirlangan jadval ko'rsatiladi va tadqiqotchi tomonidan ko'rsatilayotgan harflarni aniqlash kerak bo'ladi. Eshitish qobiliyatlarini aniqlashda ovoz, signal ko'p hollarda odam ovozi eshittiriladi. Chuqurroq o'rganilishi maqsadida masalan, musiqiy eshitish qobiliyatini aniqlash testlari qo'llaniladi. Harakat qobiliyatlarini diagnostika qiliSh-harakat reaksiyalarini tasvirlash va koordinata tezligini aniqlash maqsadida qo'llaniladi. Bunday hollarda biz sensomotor diagnostikasini nazarda tutishimiz kerak, chunki aksariyat hollarda bu ko'rish orqali bajariladi. Chet elda barmoqlar mahoratini, buyumlarni o'ynata olish tezligi, qo'l mustahkamligi, reaksiya vaqti, qo'l harakatining tezligini tahlil etuvchi testlar keng tarqalgan. Motor testiga misol keltiramiz. Bunda tadqiqotda ishtirok etayotganlarning oldiga ikki seriyadan iborat bo'lgan to'g'ri burchakli taxta qo'yiladi. har qaysi seriyasida 48 tadan teshik bo'lib, seriyalardan biridagi teshiklar silindrlil sterjenlar bilan to'ldirilgan. Sinaluvchilarga imkon qadar sterjinlarni boshqa seriyalardagi teshiklarga olib o'tiSh taklif qilinadi. Bunday tadqiqotda ishtirok etayotgan kishi ma'lum vaqt davomida ishning qancha qismini bajara olgani hisobga olinadi. Shuningdek, ishchilar kasbiy tanlovida texnik qobiliyatlar testi muhim o'rin egallaydi. Texnik qobiliyatlar deganda - murakkab intellektual qobiliyatlar tushuniladi. Bu qobiliyatlar o'z ichiga keng tasavvurlar, texnik salohiyat va sensomotor malakalarini qamrab oladi. **Texnik qobiliyatlar testi** - injenerlar, mexaniklarni kasbiy tanlovida keng doirada qo'llaniladi. Bu borada A.A.Beknet va Minnesotski testlari keng tarqalgan. Maxsus qobiliyatlarining so'nggi guruhiga A.Anastazi kasbiylashgan qobiliyatlarni kiritadi. Ularni o'lchash uchun tuzilgan testlar faoliyatning ma'lum kasb sohasida shakllantiriladi. AQSHda Minnisota shtatida konselariya testi keng ommalashgan bo'lib, tartibni qabul qilish tezligi, ishbilarmonlik atamalar ro'yxatini bilishi, eshitishi, xabardorlik, savodxonlik chiroyli nutqqa egalik kabi qobiliyatlarni aniqlab beradi. Kasbiylashgan qobiliyatlarga shuningdek, badiiy, musiqaviy, tadqiqiy konstruktorlik, ishbilarmonlik, ijtimoiy va ijrochilik qobiliyatlari kiradi. **Yutuqlar testi** sinovdagilarning ma'lum bilim, ko'nikma va malakalarini egallanganlik darajasini aniqlab beradi. Iqtidor testlaridan farqli ravishda ular maxsus ta'lim dasturlarining kasbiy tayyorgarlikning ma'lum samaradorligiga, kasb egallashga bo'lgan ta'sirini o'lchaydi. Boshqacha qilib aytganda, yutuqlar testi asosan individning ta'lim yakunidagi so'nggi muvaffaqiyatlarini baholashga

yo'naltirilgan. Insonlarda yutuqlar testining 3 ta shaklini qo'llashadi: harakat testlari, yozma va og'zaki testlar. Bu testlarda aniq kasbiy faoliyatda eng muhim bo'lgan bir qator topshiriqlarni bajarish talab etiladi. Harakat testlari idoraviy kasblarda (texnik kotiba, mashinistka, stenografist va hokazolarda) keng qo'llaniladi. Yutuqlarning yozma testlari maxsus bilimlar ya'ni, savodxonlik uchun muhim bo'lgan kasblarda ishlatiladi. Mazkur testlar asosiy tushunchalar, mavzulardagi sinfiy belgilar, texnik tavsiflar, formulalarni o'rganilganligini o'lchashga yo'naltirgan. Standartlashgan baholash shakli ob'ektiv harakatga ega bo'lib, guruhiy ishlashga imkon beradi va ko'p vaqtni talab etmaydi. Kasbiy yutuqlarning og'zaki testlari - maxsus kasbiy bilimlarga tegishli bo'lgan standartlashgan savollar seriyasidan iborat. Savollar kasbiy faoliyatni tahlil etish, malakali ishchilarni kuzatish va har qaysi savolning muhimligi asosida tanlanadi. Yutuqlar testlarini kasbiy salohiyatni baholash maqsadida qo'llanishi AQSHda psixologlar attestatsiyasi tajribasidan ko'rish mumkin. Psixologlikka imtihon topshirish uchun nomzodlar universitetning psixolog ma'lumotga ega bo'lishlari va diplomli psixolog sifatida 2 yil ishlagan bo'lishlari shart. Imtihon ikki qisimdan iborat. Ettita faoliyat sohasi bo'yicha 100 ta topshiriqni bajarish: klinik psixologik, rivojlanish psixologiyasi, umumiy eksperimental psixologiya, test va statistik tahlil, ijtimoiy psixologiya va psixologik konsultatsiya. Beshta savolga tasviriy javoblar berish, ulardan bittasi - tadqiqot metodologiyasi bo'yicha va 4 tasi sanab o'tilgan 7 ta faoliyat sohalarning 2 tasi bo'yicha hamda bu sohalardan qaysi biridan topshirishini nomzodning o'zi tanlaydi. Har qaysi shtatda psixolog unvonini va amaliy faoliyatga litsenziya berishning o'ziga xos qonun-qoidalari mavjud. Ammo ularning hammasi o'zlarni psixolog deb nomlovchi salohiyatsiz psixologlardan jamiyatni chegaralash maqsadiga qaratilgan. Yutuqlar testining keng tarqalishi ular mutaxassislariga, ishchi kasbiy tayyorgarlik darajasini aniqlash hamda shaxsda kasbiy tanlashni kuzatish va kasbiy yutuqlarni bashorat qilish imkonini beradi.

Eksperiment metod - psixologik reallik mexanizmi va qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha asosiy metod hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan. Eksperimentning asosiy nomutaxassislik vazifasi - sabab-natija aloqalarini o'rganish va psixologik jaryonlar va hodisalarni tushuntirishdan iborat. Eksperiment o'tkazishda farq va rozilik qoidasini qo'llaydilar (J.S.Mill) A. B guruh voqealar guruhi ketidan D voqeasi kelsa ammo B, V ketidan A kelmasa, unda A, a, ning sababidir. Ikkala voqealar guruhidan birinchisi eksperimental sifatida ko'rib chiqiladi, ikkinchisi - nazorat guruhi deb ko'riladi. Ularni yagona farqlovchi voqea mustaqil o'zgaruvchi deyiladi va u jarayonning davomida turli o'zgarishlarga duch kelish mumkin .

Eksperimental tadqiqotni kasbiy tanlov misolida ko'rib chiqamiz. Korxonada mutaxassislar murakkab mexanik agregatlarni qabul qilishda ishlab turgan muhandislar ko'p deffektlarni o'tkazib yuborganliklari sabab, ishchilar orasidan nazoratchilarni tanlash zaruriyati kelib chiqadi. Eksperimentning mazmuni shundan iborat-ki nazoratchi uchun muhim bo'lgan qobiliyatlarni tashxis qilib beruvchi (diqqatni jamlay olish, mustaqillik, sensor farqlash darajasi, keng fikrlash) test loyiqalashtiriladi. Test tanlovchilar orqali nazoratchilarning eksperimental guruhi tuzildi. Eksperimental va nazorat guruhi ishlarini korreksion tahlil qilish asosida tasdiqlash, testning samaraliligini va nazoratchilarni tanlash va tayyorlash metodikasini aniqlash imkonini beradi. Psixologik tadqiqotlarda eksperiment natijalarini miqdoriy ifoda qilish masalasi eng qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun miqdoriy ma'lumotlar, odatda, absolyut emas, balki nisbiy ahamiyatga ega. Ular ikki guruh darajasini tasdiqlash imkonini beradi, ammo har qaysining absolyut tavsifini aniqlay olmaydi. Shunday bo'lsa-da, psixologiya fani real o'quv-kasbiy faoliyatida o'zgarishlarni kutmaydigan, imkoniyatlar beruvchi vaziyatlar yaratish orqali shaxsdagi o'zgarishlarni o'lchash uchun turli xil shakllarni yaratadi. Eksperimentni o'tkazishda o'rganilayotgan jarayon o'tadigan sharoitlarni keng miqiyosda o'zgartiriladi, o'zgaruvchan omillar ta'sirini ajratish, ularning o'zaro aloqasini aniqlash va shu tariqa psixik hodisalarning qonuniyatlari va mexanizmlarni o'rgatish mumkin. Eksperiment metodining muhim sifati shundaki-o'rganilayotgan jarayoniga to'g'ri baho berish, ma'lumotlarning miqdoriy hisobini olish imkonini beradi, bu esa tadqiqot natijalariga ishlov berish muhim statistik xulosa chiqarishga imkon beradi. Eksperimental usulning 3 turi mavjud: tabiiy, modellashtiruvchi va laboratoriya

eksperimentlaridir. Tabiiy eksperiment psixik hodisalarni odatiy tabiiy sharoitlarda o'rganishni nazarda tutadi (darsda, mehnat topshiriqini bajarish jarayonida va hokazo). Tabiiy eksperimentning afzalligi - tadqiqot maqsadlarining nisbatan yashirinligi, jarayonning norasmiy muhitda o'tishi va sinovdagilarning hayoti va faoliyatiga bevosita kirib borishi bilan belgilanadi. Modellashtiruvchi eksperiment ayrim mehnat jarayonlarining nazariy dinamikasi va murakkabligi tufayli real texnik moslamalarni odatiy ish tartibidagi usullarni o'rganib bo'lmaganligi tufayli qo'llaniladi. Bu jarayonlar anglanilgan holda o'rganilayotgan mehnat jarayonida ishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi uning tarkibiy qismlariga ajratiladi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi va shu tariqa modellashtirilgan sharoitlarda murakkab mehnat jarayoni o'rganiladi. Modellashtiruvchi eksperiment shaxsning kasbiy shakllanish jarayonidagi muhim kasbiy sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Laboratoriya eksperiment tadqiqotlarni maxsus asbob-uskunalari bilan jihozlangan psixologik laboratoriyada o'tkazishni nazarda tutadi. Eksperimentning bu turi odatda elementar psixik funksiyalarni o'rganish maqsadida qo'llaniladi ya'ni, sensor va motor reaksiyalari tanlov reaksiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Insonning ish-harakatlarini o'rganish borasida oxirgi 20 yil mobaynida videotexnika va turli antik mexanik moslamalar rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilgan. Bu bir tomondan videoga tushirish, streoskopik tushirish kabi usullarni keng qo'llashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan tayyorlov ishlari ya'ni, eksperimentni o'tkazish va materiallarni tahlil etish kabi ishlarni engillashtirishga xizmat qiladi. Videofotoregistratsiya metodining universalligiga qaramay tadqiqotlarda EHM va boshqa maxsus texnikaning qo'llanilishi bugungi kunda murakkab muammo bo'lib kelmoqda. Shakllantiruvchi eksperiment - bu usulning asosiy belgisi V.V Davidovning "psixikaning u yoki bu empirik shakllarining xususiyatlarini oddiygina ta'kidlab emas, balki ularni faol modellashtirib maxsus sharoitlarda namoyon etib, ular mohiyatini ochib berishi" kerak degan fikri bilan belgilanadi. Shakllantiruvchi eksperiment usullarini qo'llash o'quv-kasbiy jarayonlarning ma'lum tavsiflarini o'zgartirish va shu o'zgarishning ta'lim oluvchilarning yosh, intellektual xususiyatlariga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq. Mohiyatiga ko'ra, bu usul keng tadqiqot o'tkazish vositasi sifatida boshqa usullarni qo'llash orqali o'tkaziladi. Shakllantiruvchi eksperiment V.V. Davidov bergan tavsifiga ko'ra - birinchidan, ko'p sonli ya'ni, statistik muhim; ikkinchidan, u yoki bu konsepsiyani yuritish uchun amalga oshiriladigan; uchinchidan uzoq davomli va nihoyat pedagogik-nazariyotchi diagnostik metodistlarni o'zaro hamjihatligini ta'minlab beruvchi eksperimentdir. Shakllantiruvchi eksperiment kasbiy ta'limning optimal texnologiyalarida, korxonada kasbiy tayyorgarlikning samarali metodikasida, malaka oshirish tizimiga innavasion usullarni qo'llash jarayonida foydalaniladi.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Kasbiy psixologiyada tadqiqotlarni tashkil etish haqida ma'lumot bering.
2. Kasbiy psixologiya fanining metodlarini sanab bering
3. Inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va hayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida qo'llaniladigan metod nomini ayting.
4. Anketa metodidan qanday maqsadda foydalaniladi?
5. Kuzatishning ob'ekti va predmeti qanday tuzilishga ega?
6. Test metodining afzalliklari va kamchiliklarini nimada deb o'ylaysiz?
7. Longyuted metodi nima ?
8. Kesimli metodining afzalligi nimada ?

Kasbiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari.(davomi)

2.2-dars Kuzatish metodi. Eksperiment metod . Matematik ishlov berish usuli .

Reja:

1. Kasbiy psixologiya metodlari haqida umumiy tushuncha.
2. Kuzatish metodi: uning afzalligi va kamchiligi
3. Eksperiment metod

4. Matematik ishlov berish usuli .

Asosiy tushunchalar:

Metod, empirik (amaliy) metod, kuzatish metodi, test, eksperimental usullar, matematik ishlov berish usuli, F. Gilbert, "Ish kuni fotografiyasi"

Psixologiya fanining empirik (amaliy metodlari turkumidan muhim o'rin egallagan diagnostik xususiyatli metodlaridan biri - **kuzatish** metodidir. Mazkur metod fanimizning eng qadimgi tadqiqot vositasi bo'lib hisoblanib, uzoq o'tmish zamonidan to hozirgi davrgacha ilmiy izlanuvchilarning asosiy tekshiruv qurollaridan biri bo'lib, keng ko'lamda foydalanib kelinmoqda. Lekin bugungi kunda uning ob'ekti, ko'lami yanada kengaydi, murakkab psixologik jarayonlar, holatlar, hodisalar, kechinmalar, faoliyat va muomala xususiyatlari o'rganish imkoniyati tug'ildi, sifat hamda mazmun jihatidan katta o'zgarishlar yuzaga keldi.

Kuzatishning texnologiyasi takomillashdi, uning yangi shakllari, vositalari, usullari paydo bo'ldi, xolisonalik (ob'ektivlik) darajasi ortdi, ishonchliligini ifodalovchi mezonlar, o'lchovlar yaratildi. Buning natijasida kuzatish psixologiya fanining universal tadqiqot metodlari qatoriga kirib, uning barcha sohalarida qo'llanilmoqda, ayniqsa, tatbiqiy imkoniyatining yuksakligi, statistik hisoblashga beriluvchanligi xususiyati bilan boshqa metodlardan ajralib turadi.

YUqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda uning yoritilmay qolib ketgan jihatlari, tarkiblari, yordamchi jabhalari yuzasidan mulohaza yuritimiz.

Kuzatish metodining texnologiyasi quyidagilardan tashkil topadi:

- voqelik (atrof - muhit, inson shaxsi)ni kuzatish oqimini muayyan qismlarga, yo'nalishlarga ajratish (nemischa - lotincha «kvantifikatsiyalash», ya'ni zarur, birincha darajali jihatlarni saralash);

- kuzatishning ko'lami (hajmi), xususiyati va o'ziga xosligini aniqlash, ya'ni uning nimalarga qaratilganini belgilab olish;

- kuzatish jarayonida barcha holat, hodisa, alomat va tashqi qiyofa, ko'rinishning o'ziga xosligini qayd qilish (ularni yozma nutqda ifodalash, ya'ni fransuzcha - lotincha «fiksatsiyalash»);

- kuzatish davomida to'plangan omillar, ma'lumotlar, natijalarni matematik statistik metodlar yordami bilan hisoblab chiqish va miqdoriy tahlil yakunlari bo'yicha psixologik sifat talqinini amalga oshirish.

Psixologik kuzatish olib borishdan ko'zlangan maqsad mana bulardan iborat:

- kuzatiluvchi vaziyat, holat va ob'ektni maksadga muvofiq tanlash, uning oqilona ekanligiga ishonch hosil qilish;

- kuzatishning dasturini ishlab chiqish, uni amaliyotga tatbiq qilish, sxematik ifodalanishni yaratish, yig'ilgan natijalarni chizma asosida aks ettirish.

Kuzatishning ob'ekti va predmeti quyidagi tuzilishga ega:

- kuzatishning ob'ekti - inson, guruh, jama shaxslararo munosabatlar, emotsional - hissiy kechinmalar, hayvonot olami, shaxsning faoliyati ijodiyoti, muomalasi kabilarni o'rganishdan iboratdir.

- kuzatishning predmeti - insonning xilma-xil holati, jarayoni, harakatining kuchi, jadalligi uzluksizligi, dinamikasi, o'ziga xosligi, uning hamkorlikdagi harakati, undagi onglilik, ongsizlik, ongosti holatlarining kechishi, faoliyat va muomala kabilarni eksteriorizatsiyalashdan tashkil topgandir.

- amaliy va gnostik holatlar; nutq aktlari: ma'nosi, mazmuni, mohiyati, yo'nalishi,

chastotasi, ritmikasi, tempi, amplitudasi, davomiyligi, intensivligi, ekspressivligi, uning leksikasi, grammatikasi, fonetikasi, lingvistik qurilishi va boshqalar;

- noverbal nutq ifodasi: mimika, pantomimsh va vokal mimikasi (musiqa ma'nosini tana a'zolari orqali ifodalash);

- vegetativ reaksiyalarning ko'rinishi: rangni qizarishi, oqarishi, terlash, nafas olishning tezlashuvi, sekinlashuvi va qiyinlashuvi.

Kuzatishning bosqichma – bosqichliligi, tadrijiyligi (ierarxiyasi) tarkiblari quyidagilardan tashkil topadi:

- kuzatishning maqsadi, vazifalari, dasturi, qaydnomasi: bunda umumiy talablarga rioya qilish, yaxlit qayd qilish, kundalik, texnika vositalari (faktik holatlar), natijalarning tahlili, talqini va g'oyalarni ilgari surish.

Kuzatishni ifodalash uslublari: tajribalarda to'plangan ma'lumotlarni alomat, belgi va simvolika orqali aks ettirish (piktogramma, chizgi, jadval, anagramma) va turli shakl, xususiyatli bayonnomalar, qaydnomalar yuzaga keltirish.

Psixologiya fanida kuzatishning quyidagi turlaridan foydalanish mumkin: izchil, epizodli, dala sharoitli, laboratoriyaviy-sun'iy, tabiiy, xronologiyali, davriy, bir martali kabilar.

Insonning mehnat faoliyatini kuzatishda quyidagi vositalarni qo'llash maqsadga muvofiq:

- F.Gilbertning "**Ish kuni fotografiyasi**" metodikasi (rasmlarda ifodalangan ishchining harakatini kuzatish, ko'zdan kechirish orqali ularni tahlil qilish (sa'i-harakatlar bo'yicha tizim vujudga keltirish, ulardagi o'zgarishlarga binoan muayyan ketma-ketlikda joylashtirish);

- **A.K.Gostevning** xronokartasi (ikki yoki uch marta yarim soatdan smenada va smenadan keyin tekshiruv o'tkazish);

- talabalarda dars boshida, o'rtasida va oxirida yoki boshqa vaziyatlarda: yordamchi yumush bilan shug'ullanish holati, dam olish, uyqu va shu kabilar.

Kuzatish metodining bir necha xil shakllari mavjud bo'lib, vazifalariga qarab ularning har biridan foydalanish mumkin: aralashib yashirin kuzatish, kuzatiluvchining psixologik portretini yaratish, aralashib oshkora kuzatish (o'smirlarda yuqori natijalar beradi), xulq-atvor portretini tahlil qilish va hakazo.

Kuzatilgan ob'ektni qayd qilishning turlari va vositalari mavjuddir: kundaliklar, foto, video, kinoapparatlarning mahsullari, voqelikning musavvir tomonidan faktik ifodalanishi, ta'kidlovchi, ta'birlovchi, umumlashtiruvchi xususiyatlari majmuasi.

Kuzatish natijalarini umumlashtirishda ma'lumotlar miqdor va sifat jihatidan tahlil qilinadi, tajriba yakunlari bo'yicha g'oyalar, umumlashmalar, xossalar, qonuniyatlar, mexanizmlar, holatlarning ilmiy psixologik talqini amalga oshiriladi.

Kuzatish yakunida to'plangan ma'lumotlar ilmiy hisobot sifatida muayyan qoidalarga asoslangan holda quyidagi tartibda joylashtiriladi: kirish, metodikalarning tasnifi, natijalarning bosqichma-bosqich tahlili, ularning muhokamasi, izlanishlarning xotimasi va xulosalari, amaliy xususiyatga ega bo'lgan tavsiyalar, ko'rsatmalar berilishi, foydalaniladigan adabiyotlar ro'yxati va nihoyat ilovalar (har bir qism o'ziga xos yakunlangan, tugallangan ma'no anglatishi lozim).

Kuzatish metodi yordami bilan hatto nizoli (konfliktli) vaziyatlarni kuzatish ham mumkin. Nizoli vaziyatlar turli-tuman bo'lishidan qat'iy nazar kuzatish jarayonida ushbu holatlarga e'tibor berish zarur: nizoning mohiyatiga kirish, nizoning kuchayishi va uning tashqi va ichki omillari, nizoni pasaytirishga qaratilgan ta'sir o'tkazuvchi vositalardan foydalanganlik, nizo echimining topilishi, nizoli vaziyat bartaraf qilingandan keyingi psixologik holatning tasnifi.

Kuzatish jarayonida R.Beylzaning interaksiya metodikasini (bahs, munozara jarayonida o'zaro ta'sir o'tkazish imkoniyatini aniqlash uchun)qo'llash ijobiy natijalar beradi:

- umumiy muammo mohiyatiga guruh a'zolarini yo'naltirish;
- guruh a'zolari tomonidan muammoni echish yo'llarini baholash;
- bahs (munozara, diskussiya) jarayonini nazorat qilish;
- umumiy fikrga kelish uchun guruh qabul qilish;
- muammo echimiga erishishdagi guruh a'zolarining birdamligi va hamjihatligi.

Kuzatish yakunlari bo'yicha umumpsixologik xulosalar chiqarish, milliy, etnopsixologik, hududiy xususiyatlarni qat'iy ravishda sharhlash, yosh davrlari, jinsiy xususiyatlariga taalluqli mulohazalar bildirish- psixologik bilimlarning boyishiga olib keladi. Tajribalarda, kuzatishlarda to'plangan materiallar qiymatini oshirish uchun vujudga kelgan barcha omillarni psixologik tahlil qilish, statistik metodlardan unumli foydalanish zarur, toki bu mezonlar ma'lumotlarning ilmiylik darajasini yuksaltirishga xizmat qilsin.

Kuzatish natijalarini miqdoriy tahlil qilishda statistik metodlarni quyidagi tartibda qo'llash lozim:

- olingan natijalarni foizlar bo'yicha hisoblab chiqish;
- to'plangan ma'lumotlarning o'rtacha arifmetik qiymatini topish;
- son qatoridagi o'rtacha kvadrat og'ishni hisoblash (sigma);
- son qatoridagi miqdorlar tarqoqligini aniqlash (dispersiya);
- omillar o'rtasidagi muayyan munosabatlar mavjudligini (korrelyasion) tahlil qilish;
- ma'lumotlar, metodikalar ishonchlik darajasini aniqlash uchun Student mezonidan foydalanish lozim.

Ekspiriment metod - psixologik reallik mexanizmi va qonuniyatlarini o'rganish bo'yicha asosiy metod hisoblanadi. Uning asosiy mohiyati nazorat qilinadigan va boshqariladigan sharoitlarda yangi ilmiy bilimlarni olishga qaratilgan. Ekspirimentning asosiy nomutaxassislik vazifasi - sabab-natija aloqalarini o'rganish va psixologik jaryonlar va hodisalarni tushuntirishdan iborat. Ekspiriment o'tkazishda farq va rozilik qoidasini qo'llaydilar (J.S.Mill) A. B guruh voqealar guruhi ketidan D voqeasi kelsa ammo B, V ketidan A kelmasa, unda A, a, ning sababidir. Ikkala voqealar guruhidan birinchisi eksperimental sifatida ko'rib chiqiladi, ikkinchisi - nazorat guruhi deb ko'riladi. Ularni yagona farqlovchi voqea mustaqil o'zgaruvchi deyiladi va u jarayonning davomida turli o'zgarishlarga duch kelish mumkin .

Ekspirimental tadqiqotni kasbiy tanlov misolida ko'rib chiqamiz. Korxonada mutaxassislar murakkab mexanik agregatlarni qabul qilishda ishlab turgan muhandislar ko'p deffektlarni o'tkazib yuborganliklari sabab, ishchilar orasidan nazoratchilarni tanlash zaruriyati kelib chiqadi. Ekspirimentning mazmuni shundan iborat-ki nazoratchi uchun muhim bo'lgan qobiliyatlarni tashxis qilib beruvchi (diqqatni jamlay olish, mustaqillik, sensor farqlash darajasi, keng fikrlash) test loyiqalashtiriladi. Test tanlovchilar orqali nazoratchilarning eksperimental guruhi tuzildi. Ekspirimental va nazorat guruhi ishlarini korreksion tahlil qilish asosida tasdiqlash, testning samaraliligini va nazoratchilarni tanlash

va tayyorlash metodikasini aniqlash imkonini beradi. Psixologik tadqiqotlarda eksperiment natijalarini miqdoriy ifoda qilish masalasi eng qiyin masala hisoblanadi. Shuning uchun miqdoriy ma'lumotlar, odatda, absolyut emas, balki nisbiy ahamiyatga ega.

Ular ikki guruh darajasini tasdiqlash imkonini beradi, ammo har qaysining absolyut tavsifini aniqlay olmaydi. Shunday bo'lsa-da, psixologiya fani real o'quv-kasbiy faoliyatida o'zgarishlarni kutmaydigan, imkoniyatlar beruvchi vaziyatlar yaratish orqali shaxsdagi o'zgarishlarni o'lchash uchun turli xil shakllarni yaratadi. Eksperimentni o'tkazishda o'rganilayotgan jarayon o'tadigan sharoitlarni keng miqiyosda o'zgartiriladi, o'zgaruvchan omillar ta'sirini ajratish, ularning o'zaro aloqasini aniqlash va shu tariqa psixik hodisalarning qonuniyatlari va mexanizmlarni o'rgatish mumkin. Eksperiment metodining muhim sifati shundaki-o'rganilayotgan jarayoniga to'g'ri baho berish, ma'lumotlarning miqdoriy hisobini olish imkonini beradi, bu esa tadqiqot natijalariga ishlov berish muhim statistik xulosa chiqarishga imkon beradi.

Eksperimental usulning **3 turi** mavjud:

-tabiiy,

-modellashtiruvchi

-laboratoriya eksperimentlaridir.

Tabiiy eksperiment psixik hodisalarni odatiy tabiiy sharoitlarda o'rganishni nazarda tutadi (darsda, mehnat topshiriqini bajarish jarayonida va hokazo). Tabiiy eksperimentning afzalligi - tadqiqot maqsadlarining nisbatan yashirinligi, jarayonning norasmiy muhitda o'tishi va sinovdagilarning hayoti va faoliyatiga bevosita kirib borishi bilan belgilanadi.

Modellashtiruvchi eksperiment ayrim mehnat jarayonlarining nazariy dinamikasi va murakkabligi tufayli real texnik moslamalarni odatiy ish tartibidagi usullarni o'rganib bo'lmaganligi tufayli qo'llaniladi. Bu jarayonlar anglanilgan holda o'rganilayotgan mehnat jarayonida ishning muvaffaqiyatini belgilab beruvchi uning tarkibiy qismlariga ajratiladi, bu faoliyatni amalga oshirish uchun sun'iy sharoitlar yaratiladi va shu tariqa modellashtirilgan sharoitlarda murakkab mehnat jarayoni o'rganiladi. Modellashtiruvchi eksperiment shaxsning kasbiy shakllanish jarayonidagi muhim kasbiy sifatlarni o'rganishda qo'llaniladi. Laboratoriya eksperiment tadqiqotlarni maxsus asbob-uskunalari bilan jihozlangan psixologik laboratoriyada o'tkazishni nazarda tutadi. Eksperimentning bu turi odatda elementar psixik funksiyalarni o'rganish maqsadida qo'llaniladi ya'ni, sensor va motor reaksiyalari tanlov reaksiyalari va boshqalarni kiritish mumkin. Insonning ish-harakatlarini o'rganish borasida oxirgi 20 yil mobaynida videotexnika va turli antik mexanik moslamalar rivojlanishining yuqori darajasiga ko'tarilgan.

Bu bir tomondan videoga tushirish, stereoskopik tushirish kabi usullarni keng qo'llashga olib kelgan bo'lsa, boshqa tomondan tayyorlov ishlari ya'ni, eksperimentni o'tkazish va materiallarni tahlil etish kabi ishlarni engillashtirishga xizmat qiladi. Videofotoregistratsiya metodining universalligiga qaramay tadqiqotlarda EHM va boshqa maxsus texnikaning qo'llanilishi bugungi kunda murakkab muammo bo'lib kelmoqda. Shakllantiruvchi eksperiment - bu usulning asosiy belgisi **V.V Davidovning** "psixikaning u yoki bu empirik shakllarining xususiyatlarini oddiygina ta'kidlab emas, balki ularni faol modellashtirib maxsus sharoitlarda namoyon etib, ular mohiyatini ochib berishi" kerak degan fikri bilan belgilanadi. Shakllantiruvchi eksperiment usullarini qo'llash o'quv-kasbiy jarayonlarning ma'lum tavsiflarini o'zgartirish va shu o'zgarishning ta'lim oluvchilarning yosh, intellektual xususiyatlariga bo'lgan ta'siri bilan bog'liq.

Mohiyatiga ko'ra, bu usul keng tadqiqot o'tkazish vositasi sifatida boshqa usullarni qo'llash orqali o'tkaziladi. Shakllantiruvchi eksperiment V.V.Davidov bergan tavsifiga ko'ra - birinchidan, ko'p sonli ya'ni, statistik muhim; ikkinchidan, u yoki bu konsepsiyani yuritish uchun amalga oshiriladigan; uchinchidan uzoq davomli va nihoyat pedagogik-nazariyotchi diagnostik metodistlarni o'zaro hamjihatligini ta'minlab beruvchi eksperimentdir. Shakllantiruvchi eksperiment kasbiy ta'limning optimal texnologiyalarida, korxonada kasbiy tayyorgarlikning samarali metodikasida, malaka oshirish tizimiga innavasion usullarni qo'llash jarayonida foydalaniladi.

Matematik ishlov berish usullari

Miqdoriy ma'lumotlarga ishlov berish usullariga tadqiqot xulosalarini chiqarishning statistik usullari hamda ular o'rtasidagi ma'lum aloqalarini aniqlash, ilgari suralgan gipotezaning haqqoniyligini tekshirish kabilar hisoblanadi. Natijalarga matematik ishlov berish, tadqiqotlarning isbotlanganligini (reprezantligi) tanlab beradi.

Sifat ko'rsatkichlarining miqdoriy ishlov berilganlik bilan bir qatorda psixologik tadqiqotning ob'ektligi sezgilari darajada oshiriladi. Tadqiqot usullarining to'g'riligi nafaqat qo'llanilgan matematik apparatning takomillashganligiga balki, o'rganayotgan hodisa va ob'ektlarni real miqdoriy tavsiflarini qay darajada aks etishiga bog'liq. Bu talablarga rioya etmaslik, matematik o'lchovni oddiy formulalar o'yiniga aylantiradi.

Ta'lim yoki tarbiyaning u yoki bu amallarini yoki tomonlarini baholash uchun miqdoriy belgilarni topish - matematik muammo hisoblanmaydi. Bu vazifani tadqiqotchi psixologlar hal etishi kerak. Ammo bu masalani hal etish uchun o'lchov usullarining qo'llash chegaralari va sharoitlarini hisobga olib, psixologik hodisalarni to'g'ri o'lchash kerak bo'ladi. o'lchov – ma'lum qoidalarga muvofiq voqealar va ob'ektlarga raqamlarni qo'yib, yozish raqamli tavsiflarni, narsa - buyum va hodisalarga qo'shib yozilishining eng oddiy metod - ularni qayd etishdir. Qayd etishning mohiyati shundaki - qandaydir belgini ajratib kuzatish va eksperimentda shu belgisi bo'lgan predmet yoki hodisa paydo bo'lsa shu holat muntazam qayd etib boriladi. Masalan, o'qish sabablarini o'rganishda so'rovnoma asosida javobning u yoki bu variantini tanlangan talabalar sonini aniqlashadi qayd etish natijalariga statistik ishlov berish o'rganilayotgan hodisalarga nisbatan ayrim muhim umumlashgan va xulosalarni qilish imkonini beradi. Qayd etishning muhim xususiyati shundaki, u psixologik - pedagogik tadqiqotlarda ko'p uchraydigan qol bo'lib, ya'ni o'rganilayotgan hodisalarning belgilarini aniqlash, imkoni bo'lmagan hollarda ham miqdoriy jihatlarini tahlil qiladi. Masalan talabalarining bilim va malakalari darajasini, u yoki bu ma'naviy sifatlarining rivojlanishi bu ta'lim metodining samarali darajasini to'g'ri o'lchash qiyin. Ammo shunga tegishli voqealarni - xatolar, o'zini tutishi va hokazolarni qayd etib, bu sifatning ma'lum miqdoriy tavsifini olish mumkin. Demak, ular paydo bo'lishining qonuniyatlarini o'rganish mumkin. U yoki bu usulni tanlash tadqiqot predmeti va vazifalari bilan belgilanadi. har qaysi psixologik tadqiqotlarda o'zaro bir-birini to'ldiruvchi va haqqoniy xulosalar chiqarish imkonini beruvchi usullar kompleksi qo'llaniladi

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

- 1.Kasbiy psixologiya metodlari haqida umumiy tushuncha bering.
- 2.Kuzatish metodi:uning afzalligi ?
- 3.Kuzatish metodining kamchiligi nimada ?
- 4.Eksperiment metod qanday metod?
- 5.Matematik ishlov berish usulining ahamiyati nimada ?.
- 6.Kuzatishning ob'ekti va predmeti qanday tuzilishga ega?
- 7.Eksperiment metodning qanday turlarini bilasiz ?

Kasbiy psixologiyaning ilmiy tadqiqot metodlari.(davomi)

2.3-dars Test metodi. Biografiya metodi. Sotsiometriya metodi.

Reja:

1. Test metodi
2. Biografiya metodi
3. Sotsiometriya metodi.

Asosiy tushunchalar:

Metod, empirik(amaliy)metod, ,test metodi, praksimmetrik usullar, psixometrik usullar, test metodi ,biografiya metodi , Djon Moreno, sotsiometriya metodi, faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi,eksprimental usullar.

Intelektual testlar metodi

Ilmiy psixologik manbalarda qayd qilinishiga ko'ra, intellekt-lotincha so'zdan olingan bo'lib, u odatda aql-idrok, anglash, tushunish, fahmlash degan ma'noni anglatadi. Bizningcha, intellekt shaxsning muayyan darajada mustahkam, barqaror aqliy qobiliyatlari majmuasi tuzilishidan iboratdir.

O'z davrida AQSHlik psixolog F.Frimer intellekt oltita tarkibdan iborat, degan g'oyani ilg'a suradi va ularni quyidagicha tartibda joylashuvini ko'rsatib o'tadi:

- sonli operatsiyalariga nisbatan qobiliyatlilik;
- lug'at boyligi ko'lami;
- geometrik shakllar o'rtasidagi o'xshashlik va farqli tomonlarini ajratishga nisbatan uquvchanlik;
- shaxs nutqining tezligi yoki sur'ati;
- shaxsning fikrlashga, mulohaza yuritishga nisbatan qobiliyatlilik;
- xotiraning mahsuldorligi yoki noyob xislatlilik.

Yana bir salohiyatli psixolog L.Tyorstoun umumiy intellektning turli jabhalarini tadqiq qilib, ularni umumlashtirib «birlamchi aqliy potensiyalar» deb ataydi. Muallif etti xildagi potensiyalar o'zaro farqlanishini ta'qidlab o'tadi:

- insonning hisoblash qobiliyati ko'rsatkichi;
- og'zaki so'zni ixcham ifodalashining ko'rsatkichi, nutq yordami bilan tez o'qish hadisini egallaganligi;
- og'zaki ma'lumotlarni to'la idrok qilish yoki idrok qilingan so'zlarni tushunish, anglash;
- fazoviy operatsiyalarni amalga oshirish imkoniyati yoki shaxsning chamalash qobiliyati (uquvchanligi);
- xotiraning mustahkamligi yoki uning barqarorligi;
- fikrlashga, munozara yuritishga qobiliyatlilik;
- shaxs idrok qilishining tezligi yoki uning sur'ati.

Fransuz psixologi T.Ribo idrok ko'lamining kengayishi, bilimlarning ko'payishi, diqqatni bir vaqtning o'zida bir necha ob'ektga qarata olish – inson intellekti taraqqiyotiga olib

keladi va u uch bosqichdan iborat bo'lishi mumkin ekanligini ta'kidlaydi:

- shaxs imitatsiyasi yoki uning tashqi taqlidi,
- inson identifikatsiyasi (o'quvchining bilimlarini o'ziga singdirish jarayoni, uning shaxsiy fazilatlarini va xususiyatlarini o'zlashtirib borish va boshqalar),
- refleksiya (inson o'zini - o'zi anglash hamda bo'lg'usi faoliyatni amalga oshirish, muayyan rejalar tuzish, ularni maqsadga muvofiq hayot va faoliyatga tatbiq etish imkoniyatlari tug'ilishi kabilar).

Sh.Byuler intellektual taraqqiyot quyidagi bosqichlardan iborat bo'lishi shart deb hisoblaydi:

- sinkretizm (tushunchalarni bir - biridan ajrata olmaslik holati);
- agglyutinizm (maktab yoshiga yaqin bolalarda fantaziyaning kuchayishi, vaqtni noadekvat, noto'g'ri idrok qilish, har bir obrazlarni muayyan bo'laklariga binoan bir umumiyatga yaxlitlash, birlashtirish);
- xayolot (ijodiy xayol) yordamida inson o'zi tug'ilib o'sgan Vataniga biron - bir jihatdan yordam berishi;
- realiya (realizm, ya'ni atrof muhitdagi narsa va hodisalarga nisbatan yaqqol tuzilmani yaratish, turmush tajribalariga mumkin qadar yaqinlashib kelishdan iborat fikrlashning ko'rinishi singari).

Jahon psixologlari to'plagan ilmiy materiallarni umumlashtirib intellekt muammosini tadqiq qilishda diqqat - e'tiborni quyidagi omillarga qaratish lozim deb hisoblaymiz:

- intellektning yosh davr xususiyatlariga bog'liqligi;
- jins xususiyatiga va farzand dunyoga kelish tartibiga aloqadorligi;
- millat, etnos, elat va xalqqa taalluqliligi ;
- oilaning ijtimoiy - iqtisodiy statusi bilan uyg'unlashuvi;
- ota - onalarning ma'lumotlilik, ijtimoiy kelib chiqishi;
- biologik shartlangan shaxs fazilatlarini, sifatlarini, xislatlarini qanchalik rol o'ynashi va hokazolar.

Uzluksiz ravishda o'tkazilgan izlanishlar natijasida psixologiya fanida bir qator ilmiy nazariyalar (konsepsiyalar) vujudga keldiki, ularni har qaysisi intellekt muammosini o'ziga xos tarzda tushuntirishga va talqin qilishga olib keladi:

- muammo echimi uslubi va strategiyasi;
- intellektual operatsiyalar tizimi yoki tuzilmasi;
- vaziyatlarga nisbatan alohida yondashishning samaradorligi yoki mahsuldorligi (ma'naviy, miqdoriy va mantiqiy jabhalar), uning funksional tomonlari, yo'nalishlari;
- alohida, yakkahol yondashish, bilish jarayonining shaxsdan faollikni taqozo etish xususiyati, holati;
- kognitiv uslub shakllanishi imkoniyati boshqalar.

SHaxsiy kuzatishlarimizga qaraganda, intellekt taraqqiyoti mana bunday omillar bilan uzviy bog'lik ekanligi ko'zga yaqqol tashlanadi:

- bilish, o'qish motivlarining anglashilgan hamda yuksak regulyativ darajalarining mavjudligi, barqarorligi, puxtaligi;
- yangilikni qidirish, muammo echimini topish, muayyan vositalar tanlash hamda tadqiqiy ijodiy faollik namoyon bo'lishi;
- mustaqil echishlarga erishish ehtimollik darajasining yuksakligi;
- ilgari ketib echish imkonining mavjudligi va «aytib berish», luqma tashlash jarayonida erkinlik, qo'rqinch hissining yo'qligi;
- yuksak nafosat va did timsoli hamda namunasini yaratishga nisbatan qobiliyatlilik, ularni baholash va o'lchash funksiyasining tug'ilishi, uning boshqaruvchanligi.

Insoniyatning tarixiy rivojlanish jarayonida intellekt deb atalmish fenomenni o'rganish borasida ko'pgina ishlar qilingan. SHulardan biri intellektni o'rganish testlaridir. Ko'pgina mumtoz testlar shaxsning intellekt darajasini aniqlashda muhim rol o'ynab kelmoqda. Bular qatoriga Stenford-Bine shkalasini keltirib o'tish mumkin. Stenford-Bine shkalasi qiziqarli topshiriq va masalalardan tuzilgan bo'lib, tekshiriluvchilarning yoshiga qarab taqsimlangandir. Biz quyida ana shu intellekt test so'rovnomalari namunalari keltiramiz va ularni sharhlab berishga harakat qilamiz.

I. 4 yoshli bolalar uchun (har bir vazifani bajarish vaqti 2 oy):

- har xil uzunlikda kesilgan shakllar va narsalarni taqqoslash;
- turli tipdagi shakllar o'rtasidagi farqlarni aniqlash;
- 4ta tanga pulni sanab chiqish;
- kvadrat chiz va uni izohlab, tushuntir;
- berilgan savollarga to'g'ri, aniq va tushunarli qilib javob qaytarish talab etiladi,
- tashqaridan yordam berish man qilinadi;
- to'rtta raqamni to'g'ri va teskari sanash, takrorlash talab qilinadi.

II. 9 yoshli bolalar uchun (bajarish muddati 2 oy davomida):

- bugungi kun, hafta, oy, yil nomlarini aytib chiqish, tushuntirish;
- 5ta jism yoki predmetni guruhlarga ajratish (belgisiga qarab);
- xariddan keyin qaytim berilishini izohlash;
- 4ta raqamni teskarisiga takrorlash;
- berilgan 3 ta so'zdan gap tuzish (bola, daryo, koptok);
- uchta har xil so'zga qofiya tanlash;
- ma'lumki, har qanday psixologik testning diagnostik ahamiyati uning bir qancha umumiy talablarni qoniqtirishga bog'liqdir, jumladan, standartlashtirish, ishonchlilik, validlik. Ana shu talablarga suyangan holda Stenford – Bine shkalasini ham tahlil qilib chiqamiz.

Ushbu shkala tadqiqotchilar uchun ham har tomonlama yaxshi, qulay va ixcham qilib tayyorlangan. U barcha uchun tushunarli bo'lgan ko'rsatmaga va miqdoriy jihatdan natijalarni ishlab chiqish, hisoblash ishlanmasiga ega. Testlarning har birida uni o'tkazish yo'llari, vaqtning taqsimlanishi, tekshiriluvchilarga beriladigan og'zaki ko'rsatma va tegishli ko'rsatmalar, savollarni izohlash usullari batafsil aytib o'tilgan. Stenford-Bine testi kattalar uchun hamda uncha yoshi yuqori bo'lmagan sinaluvchilar uchun ishonchlidir. Lekin bolalik davridan tortib to o'spirinlik yoshigacha o'zgarib boradi. Masalan, ikki yarim yoshdan besh yoshgacha ishonchlilik koeffitsientlari 0,33 (140-149 ball bo'lganligi uchun)dan 0,91 (60-69 ball yiqqanlar uchun)gacha; 6 yoshdan 13 yoshgacha bo'lgan bolalar va o'quvchilarda ishonchlilik koeffitsientlari 0,91 (140-149 gacha ball to'plaganligi uchun)dan 0,98 (60-69 ball olganligi uchun)gacha o'zgarib turadi. SHuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, Stenford-Bine testiga kiritilgan har bir savol, topshiriq testning oldindan belgilangan maqsadni ochishga yo'naltirilgan bo'lib, pirovard natijada mazkur savollar oldindan ko'zlangan maqsadni darhol aniqlab bera oladi.

Inson intellektual taraqqiyotidagi tezkorlik, kutilmaganlik hodisalari nafaqat moddiy negiz xossalari bilan izohlanadi, balki idrok maydonining paydo bo'lishi, "sun'iy" tizimning vujudga kelishi, fazoviy aloqalar, biologik va psixologik imkoniyatlardan to'laroq foydalanish evaziga moddiy asosning ikkilanuvchi "tabiiy" va "sun'iy" manbalar bosh omil ekanligini ta'kidlab o'tish maqsadga muvofiq.

Endi sinaluvchilarning intellektual taraqqiyotiga ta'sir qiluvchi ijobiy va salbiy

omillar turkumi to'g'risida ma'lumot berib o'tamiz:

- bilim maskanlarida zamonaviy texnika vositalarining mavjudligi;
- turli xildagi to'garak, seksiya, bilim uylari faoliyat ko'rsatishi va unda zarur sharoitlarning yaratilganligi;
- oila muhitida yaratilgan moddiy va ma'naviy shart-sharoitlar hamda shaxslarni ruhan rag'batlantirish yo'lga qo'yilganligi;
- shaxslar bilan o'zaro muloqot o'rnatishning uzluksizligi va oilada shaxslararo iliq psixologik muhitning hukm surishi;
- turli televizion bahslar, zukkolik, ijodkorlik, tezkorlik bo'yicha musobaqalar uyushtirilishi va ularda qatnashish imkoniyati yaratilganligi;
- ortiqcha informatsion va xabarlar ko'lamini kamaytirish (masalan, avtomat o'yinlar, videolar);
- zararli odatlar va qiliqlar bilan shug'ullanmaslik muammosining qo'yilishi, uning echimi (ichish, chekish va boshqalar);
- bolalar va o'quvchilarni ro'zg'or ishlari bilan band qilib qo'yishlik va oila muhitida mehnatning shaxslararo oqilona taqsimlanganligi;
- hozirgi davrda ayrim kasblarning nufuzi kamayib ketayotganligi tufayli o'quvchilar va talabalar o'rtasida o'quv motivlariga kuchli ta'sir o'tkazayotganligi;
- kollej va oliy o'quv yurtlarida ta'lim-tarbiya tizimini yangicha, yangi pedagogik texnologiyalar asosida tubdan qurish zaruriyati mavjudligi;
- o'g'il va qizlarda vatanparvarlik va milliy iftixor tuyg'ulari barqarorligini ta'minlash va ularni shakllantirishning eng qulay yo'llarini izlab topish, loqaydlikning oldini olish,
- o'quvchilar va talabalar o'rtasida borliqqa, jamiyatga, shaxslararo munosabatga, isrofgarchilikka, fidoyilikka nisbatan qarashlarni keskin o'zgartirish masalalari vujudga kelmoqda.

Bizningcha, yuqorida ba'zi bir qusurli holatlarning oldini olish uchun intellektual testlar mohiyatiga milliy va umumbashariy fazilatlar to'g'risidagi g'oyalarni singdirish yuqori natijalar beradi.

Biografiya metodi

Inson psixikasini-ruhiyatini tadqiq qilish uchun uning hayoti, faoliyati, ijodiyoti to'g'risida og'zaki va yozma ma'lumotlar odamlarning tarjimai holi, kundaliklari, xatlari, esdaliklari muhim ahamiyatiga ega.

Shu bilan birga o'zgalardan tomonidan to'plangan tarjimai holga aloqador materiallar: esdaliklar, xatlar, rasmlar, tavsiflar, magnitofon ovozlari, fotolavhalar, hujjatli fil'mlar, videokamera tasviri, taqrizlar, tanbexlar ham o'rganilayotgan shaxsni to'laroq tasavvur etishga xizmat qiladi. Hatto shifokorning kasallik tarixi hujjati ham bolaning tug'ilganidan, ham to boshlang'ich ma'lumot olgunicha davr orlig'ida salomatlik darajasi qanday bo'lganligi to'g'risidagi omillar bilan tanishish imkonini beradigan material hisoblanadi.

Tarjimai hol metodi inson psixikasini suhbat va tajriba metodlari vositasida o'rganib bo'lmaydigan jihatlarni ochishda yordam beradi. Mazkur metod orqali, masalan, ijodiy xayol bilan bog'liq jarayonlar: musiqa, nafosat, tasviriy san'at, texnik ijodiyotning nozik turlari va shaxsning ma'naviyat, qadriyat, qobiliyat, iqtidor, iste'dod, salohiyat kabi fazilatlarini kuzatiladi. Inson ongining namoyon bo'lishi, rivojlanishi, o'ziga xos individual va ijtimoiy xususiyatlari atoqli shaxslar bildirgan mulohazalarida, asarlarida o'z ifodasini topadi. Allomalar to'g'risidagi ma'lumotlar zamondoshlari, izdoshlari, safdoshlarining ta'rifu - tavsiflari orqali

avloddan - avlodga o'tadi. Xuddi shu ijtimoiy uzluksizlik natijasida ajdodlar bilan avlodlar o'rtasida vorislik hodisasi ijtimoiy psixologik voqelik vujudga keladi va ijtimoiy tarixiy taraqqiyotning uyg'unligini ta'minlaydi.

Anketa metodi

Umumiy psixologiyada keng qo'llaniladigan metodlardan biri bo'lib, unda odamlarning psixologik xususiyatlari narsa va hodisalarga nisbatan munosabatlari o'rganiladi.

Anketa odatda 3 xil bo'lib, birinchi xilida anglashilgan motivlarni aniqlashga mo'ljallangan savollardan iborat bo'ladi, ikkinchi xilida esa faqat bittagina javob tanlash sharti bilan har bir savolga bir nechtdan tayyor javoblar ham beriladi. Uchinchi xil anketada sinaluvchiga havola qilinganda kamida to'rt- besh to'g'ri javoblari ballar yordamida baholanadi. Anketa metodidan odamlarning layoqatlarini muayyan sohaga qiziqishlari qobiliyatlarini, o'ziga, tengdoshlariga katta va kichiklariga munosabatlarini aniqlash maqsadida foydalaniladi. Anketa orqali shaxslarning xarakter xislatlari, xulq-atvorlarini tekshirish, sirdan turib baholash mumkin.

Tarqatilgan anketalar yig'ib olinib, elektron qisoblash mashinalari dasturiga muvofiqlashtirib atroflicha amaliy xulosalar chiqariladi. Anketa metodi inson psixikasining ayrim tomonlarini o'rganish uchun boy material to'plash imkonini beradi, lekin unda olinadigan ma'lumotlar doimo xolisona xususiyatga ega bo'lavermaydi. Bunga yo'l qo'ymaslik uchun anketa ichidagi nazorat vazifasini bajaruvchi to'g'ri va qarshi savollarni puxta ishlab chiqarish kerak.

Quyida anketa varaqasidan namuna keltirib o'tamiz.

1. Kursingizda eng yuqori obro'ga ega bo'lgan talaba qaysi?
2. Sizningcha, kursdoshlaringiz ichidan kim mehr, his-tuyg'usini uyg'ota oladi?
3. O'qish bilan bog'liq muammolar yuzasidan siz kimga murojaat qilishni xohlar edingiz?
4. Shaxsiy kechinmalaringiz haqida siz kim bilan fikr almashishni istar edingiz?
5. O'rtoqlaringiz ichidan kimni uyingizga mehmonga astoydil taklif qila olasiz?
- b. Kursdoshlaringiz ichida kim bilan mashg'ulotlarga birgalikda tayyorlanishni yoqtirasiz?
7. Qaysi kursdoshingiz bilan suhbatlashishni aslo yoqtirmaysiz?

Sotsiometriya metodi.

Bu tadqiqot metodiga AQSHlik **Djon Moreno** asos solgan bo'lib, kichik (birlamchi) guruh a'zolari o'rtasida emotsional, hissiy munosabatlarni bevosita o'rganish va darajasini o'lchashda qo'llaniladi. Mazkur metod yordamida muayyan guruhdagi har bir a'zoning o'zaro munosabatlarini aniqlash uchun uning faoliyatida kim bilan ishtirok etishi so'raladi. Olingan ma'lumotlar matritsa, grafik, sxema, jadval, diagramma shaklida ifodalanadi. Ulardaga mikdor ko'rsatkichlari guruhdagi odamlarning shaxslararo munosabatlari mazmuni yuzasidan ma'lum bir xulosa qiladi. Biroq ma'lumotlar guruhiy munosabatlarning tashqi ko'rinishini aks ettiradi xolos. Uni takomillashtirish maqsadida hozirgi vaqtda psixolog olimlar YAL.Kolominskiy va I.P.Volkov tomonidan sotsiometriyaning kichik guruhlar psixologiyasiga moslab o'zgartirilgan variantlari, ko'rinishlari ishlab chiqilganki, ular orqali shaxslarning bir-birini tanlashi motivlarini aniqlash mumkin. Ayniqsa sotsiometriyaning YAL.Kolominskiy ishlab chiqqan o'zgartirilgan varianti bolalar jamoasidagi shaxslararo munosabatlar to'g'risida to'la

axborot berishga yordam beradi.

Odatda o'quvchilardan quyidagicha savollarga javob berish talab qilinadi: «Sen sayohatga kim bilan birga borishni xohlaysan?», «Mashg'ulotlarga kim bilan birga tayyorlanishni istaysan?», «Kim bilan qo'shni bo'lib yashashni yoqtirasan?» sinaluvchi har uchta javobdan bittasini «eng ma'qul» deb tanlashi lozim. Unga avval, hammadan ko'ra ko'proq kim bilan birga bo'lishni xohlasang, o'shaning familiyasini yoz», «agar sen istagan shaxs to'g'ri kelmasa, yana kim bilan birga bo'lishni istasang, shuning familiyasini yoz», «aytilgan shartlarga binoan uchinchi shaxsning familiyasini yoz» deb uqtirish maqsadga muvofiq.

Guruhiy tabaqalanishni ko'rsatish uchun sotsiogramma to'rtta «maydon»ga ajratiladi. Qizlar doiracha bilan, o'g'il bolalar esa uchburchaklar bilan belgilanadi. Doiracha va uchburchaklar soni familiyalar soniga to'g'ri keladi. Guruh a'zolarining o'zaro munosabatlari doiracha va uchburchaklar strelkalar bilan bog'langanida o'z ifodasini topadi. Eng ko'p munosabatga ega bo'lgan sinaluvchi doiraning markazidan o'rin oladi. U guruh a'zolarining eng yoqimtoyi hisoblanadi. Shaxslar bilan aloqa o'rnatmagan sinaluvchi doiraning eng chetidan joy oladi. Oraliqdagi «maydon»larga o'rtacha va undan kamroq tanlangan tekshiriluvchilar joylashtiriladi. Shu yo'l bilan birinchidan shaxslararo munosabatning darajasi va ko'lami aniqlanadi, ikkinchidan qizlar bilan o'g'il bolalar o'rtasidagi ko'rsatkichlar taqqoslanadi. Natijalariga qarab guruhdagi munosabatlar va ularning o'ziga xosligi, psixologik mexanizmlari, barqarorligi, puxtaligi, o'zaro bir-birini taqozo etuvchanligi haqida xulosalar chiqariladi. SHu bilan birga nazariy va metodologik ahamiyatga molik g'oyalar, qonuniyatlar ilgari suriladi, amaliy ko'rsatmalar beriladi, aniq tavsifiyalar bildiriladi, mavzuning tadqiqot istiqboli to'g'risida mulohazalar yuritiladi.

Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi.

Bu metod psixologiyada inson xotirasi, tafakkuri, qobiliyati va xayolining xususiyatlarini aniqlash maqsadida keng qo'llaniladi. Odam chizgan rasmlar, yasagan o'yinchoqlar, modellar, to'qigan narsalar, tikkan qo'g'irchoqlar, to'qib, so'zlab berilgan hikoyalar, texnik konstruksiyalar sxemasini tushunish kabilarni tahlil qilish orqali ularning mantiqiy xotirasi, tafakkuri, badiiy va adabiy qobiliyati, ijodiy xayoli, texnik ijodi yuzasidan materiallar to'plash mumkin. Mazkur metodda ijod mahsulini yaratgan jismoniy shaxs bevosita ishtirok etmaydi. Tekshiriluvchi bilan tekshiruvchi o'rtasida muloqot o'rnatish uchun shaxsning psixikasi to'g'risida sirdan muayyan hukm va xulosa chiqariladi. Tekshiruvchi (o'qituvchi, murabbiy, psixolog) ekspert tariqasida shaxslar ijodiyotiga baho beradi, bunda mehnat mahsulining shakli, mazmuni, sifati, orginalligi, hajmi, xususiyati bilan keskin tafovut qilishi nazarda tutiladi. Ijodiy faoliyat mahsullarini tahlil qilish orqali har xil yoshdagi va kasbdagi odamlarning psixik xususiyatlari to'g'risida malumotlar to'plash mumkin.

Faoliyat mahsulotlarini o'rganish inson ruhiyatini o'rganish metodlari ichida o'ziga xos o'rinni tashkil etadi. Shuni ta'kidlab o'tish joizki, inson ruhiyatini o'rganish yuqorida bayon qilingan metodlardan tashqari yana ayrim qo'shimcha metodlardan ham foydalaniladi. E'tirof etish joizki, qo'llanilayotgan har bir metodning o'ziga xos ijobiy, afzal tomonlari bilan birgalikda qiyin va salbiy tomonlari ham mavjud. Shu bois konkret shaxs ruhiyatini o'rganish vaqtida yakka metodlar natijalari bilan kifoyalanib qolish mumkin emas. Ruhiyatni tekshirishda atroflilik, dinamiklik, ob'ektivlik, tekshiruvchining yosh xususiyatlarini inobatga olish va boshqa tamoyillarga suyanish darkor.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Test metodining qanday turlari mavjud ?
2. Biografiya metodi qachon qo'llaniladi ?
3. Sotsiometriya metodini afzalligi nimada ?.
4. Anketa metodi qachon va qanday maqsadda foydalaniladi?
5. Faoliyat mahsulini tahlil qilish metodi insonning qanday xususiyatini o'rganishga yordam beradi ?.

3-mavzu :Professografiya haqida tushuncha

3 /1-dars : Professiografiyaning mohiyati

Reja :

- 1.Professiografiyaning mohiyati.
- 2.Professiografiyaning guruhlari.
- 3.Professogramma va uning turlari.

Asosiy tushunchalar:

Professiografiya,psixogramma,professogramma,diagnostik professiografiyalash, metodik professiografiyalash

Professiografiyaning mohiyati.

1920 yillarning ikkinchi yarmida rus psixotexniklari tez suratlarda kasbiy faoliyatning tamoyil va usullarini ishlab chiqdilar. Shu tadqiqotlarni umumlashtirishi natijasida psixotexnikada maxsus yondoshuv professiografiyani shakllanishiga olib keldi. Bu yondashuvning mohiyati – “**kasblar tasviri**” umuman olganda **professiografiyani** o'rganish, kasbning psixologik tavsifi va loyihalashtirishini o'z ichiga oladi. Professiografiyada ma'lum mehnat jarayonini tashkil etuvchi ob'ektlar belgilari, mehnat sub'ekti, mehnat predmeti vazifalari, vositalari va sharoitlari o'rganiladi. Professiografiyaning asosiy tamoyillaridan biri kasbiy faoliyatni o'rganishda differensial yondashuv tamoyili hisoblanadi. Bu tamoyilning mohiyati professiografiyaning aniq amaliy masalalarini echishga bo'ysunishidir. Masalan, kasbiy konsultatsiya va kasbiy tanlov uchun shunday kasbiy muhim belgilarni ajratish kerakki, ular sinovdagilarning kasbiy layoqatiga ko'ra farqlanishi lozim. Malaka darajasini aniqlash uchun mehnat vazifalari, kasbiy bilim, malaka, ko'nikma tavsifi muhim ahamiyatga ega. Kasbiy toliqishni o'rganish uchun shunday belgilardan foydalanildiki, ular yordamida kasbiy toliqishning keltirib chiqaradigan omillarini aniqlaydi. Shunday qilib, professiografiyaning differensial tamoyili kasbning o'rganish usullarini uning tavsif, mazmuni, shuningdek, qo'llanilish sohasi ya'ni professiografiya o'tkazish xususiyatlari uning maqsadlari bilan belgilanadi.

Maqsadlari quyidagi faoliyat sohalari bilan bog'langan bo'lishi mumkin:

- 1) Ishchilar attestatsiyasi.
- 2) Yangi kasblar mutaxassisliklarni loyihalashtirish.
- 3) Profkonsultatsiyasi va mutaxassislar tanlovi.
- 4) Kasbiy ta'lim malaka tayyorgarligi va malaka oshirishni takomillashtirish.
- 5) Shaxs kasbiy rivojlanishi bo'yicha ilmiy tadqiqotlar.

Professiografiya natijalari **professiogrammada** aks etadi, u mehnat sharoitlari tasviri, ishchi huquq va majburiyatlari, muhim kasbiy sifatlari shuningdek, sog'lig'iga qarshi ko'rsatmalarni o'z ichiga oladi. Professiogrammaning muhim tarkibiy qismi - **psixogramma** bo'lib, u mutaxassisning motivatsion, iroda va emotsional sohasining tavsifi hisoblanadi. **Psixogramma** - kasbning psixologik portreti bo'lib, u aniq kasbda dolzarb bo'lgan psixologik funksiyalar guruhi bilan namoyon bo'ladi.

Professiografiyada turli-tuman usullar qo'llanadi:

- 1) Ijtimoiy (so'rovnomalar, savollar kiritilgan kuzatuv);
- 2) Psixologik (suhbat kuzatuv tajriba va ulardan kelib chiquvchi intervyu, shaxsiy so'rovnomalar testlar, tajribalar, psixobiografiyalar, faoliyat mahsulini o'rganish metodi);
- 3) Fiziologik (EKG. KER qonda arterial bosimni o'lchash antropometrik va texnik ma'lumotlar);
- 4) Texnologik jarayonlar ta'siri va boshqa usullar xilma - xilligidan vaqt, kuch va vaziyatlarni minimalligi bilan profesiogramma tadqiqotdagi savollarga javob beruvchi usullarni tanlash lozim. Usullar kompleksini ishlab chiqishda tizimni tashkil etuvchi omil tadqiqot maqsadi muhim rol o'ynaydi. Psixografiyalarni kasbga yo'naltirish uchun ishlab chiqayotganda kasbning umumiy professiografik va ijtimoiy-psixologik ta'siriga katta e'tibor beriladi. Mehnat Sharoitlaridan texnik, texnologik va ijtimoiy psixologik sharoitlari ancha chuqurroq o'rganiladi. Tadqiqotlarning muhim yo'nalishi bu shaxsning qobiliyatlari, psixofiziologik xususiyatlarini baholashdir. Professiogrammalarning kasbga yo'naltirish va kasbiy tanlov maqsadida ishlab chiqishda psixodiagnostik tadqiqotlar juda muhim hisoblanadi. qolgan tadqiqotlar o'quv - kasb muassasalarida talabalar, o'quvchilarni o'qishga qabul qilinadigan shaxslar ishlashi lozim bo'lgan sharoitlarni aniqlash uchun ahamiyatga ega. Ammo ular ham muhim hisoblanadi, chunki aniq majburiyatlarni va mehnat sharoitlarini bilmasdan, kasbga yo'naltirish, kasbiy yo'nalganligini tashkilihtirish va kasbga nisbatan layoqatini aniqlab bo'lmaydi.

Professiografik tadqiqotlarning keyingi yo'nalishi - toliqish monotoniya boshqa yomon holatlarni oldini olish, travmatizm bilan ko'zning ko'rish kasalligi va uning pasayishi maqsadida mehnat sharoitlari va tartibini o'rganishdir. Tadqiqotlarning asosiy maqsadi - mehnat sharoitlar va tartibini o'rganishi va shu bilan birga normal va patologik holatlar, shuningdek, shaxsning kasbiy muhim va faoliyatiga bo'lgan reaksiyasini tashxis qiladi. Bu kompleksga professiografik usullardan gigienik, tabiiy, psixologik va fiziologik usullar kiradi. Usullarni tanlashda kasbning to'liq o'rganilishi nazarda tutilishi kerak. Bunda professiografik tadqiqotlar yo'nalishlarida quyidagi professiografiya chizmasidan foydalanish tavsiya etiladi:

- 1) Ishlab chiqarish jarayoni bilan umumiy tanishuv uning o'rganish va tasviri.
- 2) Ish o'rinlarini tasvirlash, ish o'rnidagilarning faoliyatini psixologik qo'llash.
- 3) Ish-harakatlarining psixologik, fiziologik va antropometrik tahlili.
- 4) Mehnat jarayonining tahlili.
- 5) Ish kunining sur'ati xronometraj.
- 6) Faoliyatning individualligini o'rganish.
- 7) Xatoli harakatlar tahlili.
- 8) Sanitariya - gigienik mehnat sharoitlarini baholash.
- 9) Bir smena, hafta, uzoq davr manbaida ish qobiliyatini dinamikasi.

Professiografiyalar turli mazmuniga ega. Bu ular nima maqsadlarda tuzilganligiga bog'liq. Professiografik adabiyotlarni o'rganib va tizimli tahlil tamoyiliga tayangan holda umumlashgan **profesiogramma chizmasi** ishlab chiqilgan.

Formalashgan profesiogramma sxemasi:

- 1) Kasb yoki mutaxassislikning rasmiy qabul qilingan nomenklaturasi bo'yicha nomi.
- 2) Taksanomik ma'lumotlar: shakli, turi, sinfi, guruhi, mutaxassisligi.
- 3) Ish joyi nomi.
- 4) Kasbning shu soha bo'yicha kasbiy guruhidagi o'rni.
- 5) Lavozim bo'yicha ish haqqi va uni baholash.
- 6) Asosiy malaka va lavozim majburiyatlari.

- 7) Zaruriy ma'lumot.
- 8) Malaka diapazoni (razryadlar, sinflar va hokazo)shuningdek, ma'muriy, kasbiy, ilmiy rivojlanish istiqbollari.
- 9) Muammolarning asosiy xususiyatlari: doimiy yoki keng yoki tor doira ishlarini bilan muammoli turi (tor kasbiy taklif buyuruvchilar, mijozlar bilan odamlarga xizmat ko'rsatish sharoitiga va qo'l ostidagilarning rahbarlarga nisbatan va hokazo)
- 10) Kasbiy layoqat tufayli diskvalifikasiya hollarini aloqida kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat davridagi tavsifi.
- 11) Mehnat faoliyati asosiy xususiyatlarining tavsifi (yosh jihatdan cheklash va boshqa holatlar)

Psixogramma:

A) Umumiy mehnat tavsifi:

1. Ish kuni va sur'ati.
2. Mehnat dinamik omillarining tasviri va baholashi (ishga layoqat, toliqish, ishonchlilik, xatosizlik va boshqalar).
3. Mehnat sharoitlarini ish jarayonining dinamik jarayonlariga ta'siri.
4. Ish joyi va mehnat harakatlarining psixologik tavsifi.
5. Xato harakatlarining psixologik tahlili.

B) Psixik jarayonlarga qo'yiladigan talablar:

1. Psixomotorika
 1. Ishning turi, statik va dinamik yuklamalar.
 2. Ishchi harakatlar, gnostik, moslaShuv, bajaruvchi va boshqalar.
 3. Asosiy texnologik operasiyalarning vaqtincha va psixofiziologik tavsifi.
 4. Psixomotorikaga qo'yiladigan maxsus talablar.

2. Sensor va perseptiv sohalari:

1. Turli sensor modalliklarning sezgirligi.
2. Kasbiy muhim signallarni qabul qilish turlari, vaqt, harakat, tezlikni qabul qilish.
3. Sensor va perseptiv sohalarga qo'yiladigan maxsus talablar.

3. Anglash jarayonlarining kasbiy xususiyatlari:

1. Mehnat faoliyatining ishonchliligi va samarasiga tasavvurlarning ta'siri.
2. Ijodiy faoliyatga bo'lgan talablar.
3. Ustun fikrlash turlari.
4. Ish bajarilayotganda qaror qabul qilish xususiyatlari, mustaqillik masuliyati, o'zini - o'zi nazorat qila oliSh, stressga bardosh beriSh talablari.
5. Ustun keluvchi xotira turi. Xotiraga qo'yiladigan talablar.
6. Nutqqa qo'yiladigan talablar. Nutq xususiyatlari.
7. Diqqat va uning xususiyatlari.

V) Emotsional - iroda sohasiga qo'yiladigan talablar:

1. Ustun keluvchi emotsional holatlar tavsifi.
2. Mehnat asab - psixik zo'riqishning o'ziga xos darajasi.
3. Maxsus talablar.
4. Iroda va uning xususiyatlari.

G) Mehnat jarayonida tipik psixologik jarayonlar:

1. Monotaniya va toliqish.
2. Mehnat jarayonida somatik psixologik holatlar.
3. Shu kasbga xos bo'lgan shuningdek e'tiborli e'tiborsiz holatlar.

D) Muhim kasblar ansambli (asosiy sifatlar):

1. Shaxsning umumiy va spetsifik yo'nalishi tuzilmasi, kengligi, faolligi, bardoshliligi.
2. Ijtimoiy kasbiy masuliyat.
3. Optimizm.
4. Shaxsning istalmagan yoki istalgan xususiyati sifatida ishontirish xususiyati.
5. Shaxsning ma'naviy psixologik bardoshliligi.
6. Xarakter xususiyatlari (ijtimoiy faollik, prinsiplilik, qat'iyatlilik, mustaqillik, rostgo'ylik, mardlik, tashabbuskorlik, tartiblilik, jamoatchilik, optimizm, pessimizm).

E.M.Ivanova professiografiyaning 4 ta guruhini taklif etadi: ma'lumotli, diagnostik, prognostik va metodik.

Informatsion (ma'lumotli) professiografiya kasb tanlash zaruriyati oldida turgan shaxslar bilan kasbiy maslahat ishlari uchun mo'ljallangan. Ular qatoriga o'quvchilar, kasb bilim yurtlari bitiruvchilari, ishsizlar va kasblarni almashtirmoqchi bo'lganlar kirishi mumkin. Informatsion professiografiya ishlari maxsus kasbiy adabiyotlarni tahliliy va hujjatlarni o'rganish orqali amalga oshiriladi.

Diagnostik professiografiyalash mehnat samaradorligining pastligi mahsulot sifatining pastligi, avariya holati, travmatizm, kadrlar qo'nimsizligi sabablarini aniqlash uchun o'tkaziladi.

Diagnostik professiografiyalash quyidagi masalalarni o'z ichiga oladi.

1. Faoliyat mazmuni:

- 1) Mehnat predmeti va masalalari.
- 2) Ish natijalari sifatiga qo'yiladigan talablar.

2. Mehnat qurollari:

- 1) Ish turi va tartibi.
- 2) Boshqarish organlari.
- 3) Ish joyini tashkil etish.

3. Mehnat sub'ekting faoliyati:

- 1) Harakat turlari va ularning tavsifi.
- 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.
- 3) Kasb faoliyatiga xalaqit beruvchi omillar.
- 4) Mehnat jarayonida uchraydigan xatolar, brak, travmalar turi.

4. Mehnat sub'ekting faoliyati:

- 1) Ishchilarning o'zaro aloqalari tuzilmasi.
- 2) Ishni rejalaShtiriSh va nazorat.

Diagnostik professiografiyalash empirik ma'lumotlarni yig'ish usullari orqali amalga oshiriladi.

Prognostik professiografiyalaSh kasbiy faoliyatni takomillaShtiriSh bo'yicha asoslangan tavsiyalarni beriSh maqsadida qo'llaniladi.

1. Kasbning umumiy tavsifi:

- 1) Kasb rivojlanishi tarixi va istiqbollari.
- 2) Kasbiy faoliyatni bajarilishining ijtimoiy - iqtisodiy sharoitlari.
- 3) Kasbiy muhit.

2. Kasbiy dala va mazmuni va jihati:

- 1) Kasbiy dala tavsifi.
- 2) Kasbiy bilimni aniqlovchi omillar.
- 3) Kasbiy bilimni rivojlanishi prognozi.

3. Kasbiy ta'lim malaka oshirish:

- 1) Kasbiy ta'lim darajasi.
- 2) Kasbiy tayyorgarlik.
- 3) Malaka oshirish.

4. Ishchining kasbiy moyilligi:

- 1) Mutaxassislik sohasining kengligi.
- 2) Asosiy malakalar darajasi.
- 3) Mutaxassislik va kasbni o'zgartirish imkoniyati.

5. Kasb istiqbolini baholash:

- 1) Shaxsning kasbiy - psixologik potentsiali.
- 2) Ishchining kasbiy faolligi.
- 3) Kasbiy o'zini o'zi takomillashtirish karera.

Pragnostik professiografiyalash genetik usullarni, shuningdek modellashtiruvchi eksperimentlarni qo'llaydi.

Metodik professiografiyalash psixologga mehnat sub'ektining holati va muhim kasbiy sifatlarni o'rganish usullarini ishlab chiqish imkonini beradi. Tadqiqot maqsadi va vazifalariga ko'ra metodik professiografiyalash sxemasi ham o'zgaradi. Masalan, kasbiy mehnat va hordiq tartibi, kasbiy toliqish, befarqlik, passivlikka bo'lgan ta'sirini o'rganishda shunday sxema qo'llaniladi.

1. Mehnat sub'ekti faoliyatining mazmuni:

- 1) Haraktlar turi va ularning tavsifi.
- 2) Ishni rejalashtirish va bajarish xarakteri.
- 3) Emosional ko'rinishlar.
- 4) Ish joyidagi noqulaylik turlari.
- 5) Faoliyat jarayonida paydo bo'ladigan xatolar, brak travma turlari.

2. Mehnat sharoitlari:

- 1) Sanitariya - gigienik muhit (havo darajasi, chang, namgarlik va boshqa).
- 2) Jismoniy muhitning yoritilganligi, shovqin.
- 3) Ish tartibi.
- 4) Haq to'lash va rag'bat shakli.

Ta'limga yo'naltirilgan professiografiyalash - asosiga kasb sub'ektligi haqidagi g'oya qo'yiladi: kasb egasi, faoliyatning haqiqiy sub'ekti bo'lib, unga bir qator maxsus belgilar xos. Bu professiografiyalashning mualliflari uning mazmun - mohiyati va loyihalashtirish texnologiyalarini o'rganib chiqishdi.

O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvuriga ega bo'lmaganliklari boisidan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarining talab qilishini tushunib etmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi etmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishligini, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. SHuning uchun yuqorida bayon qilib o'tilgan hatolarga yo'l qo'yadilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko'ngilsiz xolatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik – psixologik va ijtimoiy xususiyatli umumiy tomonlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash.
2. O'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar – maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan

kasbga yoʻnaltirish metodikasini birgalikda koʻzdan kechirish.

3. Oʻspirinlarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish ; muayyan kasb oldiga qoʻyiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlarini hamda kasb oʻrganishning yoʻllari bilan tanishtirishni tashkil qilish.

4. Mehnat taʼlimi darslarida oʻquvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uygʻotish.

5. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

6. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.

7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan oʻspirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilar.

Hozirgi davrda tadqiqotchilar va amaliyotchilar tomonidan kasb tanlashning metodlari va metodikalari ishlab chiqilgan. Kasblarning xususiyatlariga qarab tasniflash va ularni maʼlum tartibga solib, tizimli ravishda tavsiflashga erishilgan. Ayniqsa, E.A.Klimovning yaratgan sxemasi bu oʻrinda alohida ahamiyat kasb etadi. U quyidagi kasb turlarini tavsiya qiladi.

1. Polizchi, chorvador, asalarichi, zootexnik, agronom, oʻrmon barpo etuvchi - bionik mutaxassisligi «inson - tabiat».

2. Slesar, tokar, montyor, konstruktor, radiotexnik, injener - texnika mutaxassisligi «inson - texnika».

3. Ofitsiant, sotuvchi, hamshira, oʻqituvchi, tarbiyachi, muhandis tashkilotchi – sotsionomik mutaxassisligi «inson - inson».

4. Boʻyoqchi, nusxa koʻchiruvchi, musiqachi, badiiy bezovchi yoki pardozlovchi, kompozitor, yozuvchi rassom - artonomik mutaxassisligi «inson - badiiy obraz».

E.A.Klimov insonning tabiat bilan munosabatga kirishishga moslashgan kasblarni

bionik mutaxassisligi, insonning texnika bilan munosabatda boʻlishi natijasida yuzaga keluvchi kasblarni texnika mutaxassisligi, insonning inson bilan muomalasi orqali vujudga kelgan kasb - hunarlarni sotsionomik mutaxassisligi va nihoyat insonni badiiy obrazlar yaratishga undovchi kasblarni artonomik mutaxassisligi deb ataydi.

Oddiyroq tilda ifodalaganda: a) insonni tabiatga xizmat qildirishga moʻljallangan kasblar; b) insonni texnikaga xizmat qildiruvchi kasblar; v) insonni inson xizmatiga moslashtirilgan kasblar; g) insonni badiiy obrazlar ustida ishlashga undovchi kasblar singari turlarga ajratish mumkin. Lekin mazkur kasblar tasnifi mavjud barcha kasblarni birma - bir sanab oʻtishni oʻz oldiga maqsad maqsad qilib qoʻymaganligi sababli, ularning koʻpchiligi oʻz ifodasini topmagan.

Kasb tanlashga yoʻllanma berishning va uni tashviqot qilishning usullaridan biri - koʻrgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar koʻrgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar va texnika toʻgaragi ishlarini koʻrgazmalarga qoʻyishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish mumkin. Oʻspirinlarda hosil boʻladigan praksik (lazzatlanish, rohatlanish) hislar kasbga mehrini oshiradi va unga nisbatan mustahkamlaydi.

Psixolog M.G.Davletshin kasb tanlashni uch boskichdan kelib chiqqan holda (kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbga yoʻnaltirish) shaxsning kasb - hunarga yaroqliligi (layoqati)ning ichki tomonlarini ochishga harakat qiladi: a) kadr tanlash davrida shaxsning umumiy yaroqliligi (layoqati); b) kasb-

hunar tanlashda uning qaysi kasb turiga loyiqligi; v) kasbga o'rgatishda shaxs sifatlarini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi haqidagi savollarga javob olishga intiladi. Muallifning fikricha, o'spirinning kasbga yaroqliligini aniqlaganda uch muhim narsaga etibor qilish maqsadga muvofiqdir: kasbga munosabat, qobiliyat, qo'nikma va malakalar. Odamning kasbga yaroqliligini aniqlashda uning qiziqishi, irodasi, qobiliyati, maxsus bilimi, ko'nikmalarining jips aloqasini ifodalagan holda olib qarash oqilona yo'ldir.

YUritilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb - hunar to'g'risida axborot, kasb haqida maslahat vositalari ongli kasb tanlash uchun etarli emas. SHuning uchun o'spirin o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kasb tanlashda o'z kuchini muayyan faoliyatda sinab ko'rishga imkoniyat yaratadi. Lekin bu bilan kifoyalanish, qanoat hosil qilish shart emas, balki boshqa yo'l va vositalarni qidirish, izlash darkor.

Mehnat psixologiyasi namoyondalari kasb tanlashning o'zgacha usullarini tavsiya qilmoqdalar. Jumladan, barcha fanlarni o'qitishda politexnik xususiyati va xossasini chuqurlashtirish; tabiiy - matematik sohadagi fanlarda atrofdagi ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanish; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llagan holda faoliyat uyushtirish o'quvchilarning kasbga nisbatan qiziqishini orttirish va mehnat qilishga ularni axloqan tayyorlash; fan asoslarini egallashda kasb haqida axborotlar berib borish; mehnat sohalari to'g'risida kasb tanlovchiga mustaqil tanishish sharoitini yaratishdir.

O'quvchilarni professiogramma bilan tanishtirishda bosh maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni, jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi: a) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayoli - xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak; b) asosiy mehnat operatsiyalari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarda ishlatish mumkin ekanligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun harakat qilish; v) asosiy qurollar va vositalar: qo'l aslahalaridan - slesar, xirurg, skripkachi, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi; g) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini o'rab turgan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazo.

YUqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda o'spirinlarning qiziqishi, mayli, ehtiyoji, iqtidori, malakasini hisobga olgan holda to'g'ri yo'naltirish mamlakat taraqqiyoti uchun puxta zamin hozirlaydi. Bu haqda "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"da ibratli fikrlar bildirilgan.

O'qituvchilik kasbining umumiy masalalari

Sobiq sovet psixologiyasida o'qituvchi kasbga oid qator tadqiqot ishlari olib borilgan, ularni I.V.Straxov, N.V.Kuzmina, A.I.SHcherbakov, F.N.Gonobolin, V.A.Krutetskiy, M.G.Davletshi; R.Z.Gaynutdinov kabilarning yondashuvlari muhim ahamiyatga ega. Pedagoglardan V.A.Slastenin, S.R.Rajabov, M.O.Ochilov singari olimlar bu sohaning rivojlanishiga o'ziga xos hissa qo'shganlar.

Bundan tashqari, sobiq sovet psixologiyasida kash — hunarga oid ma'lumotnomalar xaritasi ishlaya chiqilgan. Bu sohada G.F.Pavlyukning o'qituvchilya ixtisosligiga taalluqli munosiblik va nomunosibly ma'lumotnomalar xaritasi alohida ahamiyat kasb etadG Pedagogik ixtisos - ixtisoslikka munosiblikyup^ modifikatsiyasi xaritasi quyidagilarni aks ettiradi:

- 1) jamiyat ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksa darajadagi qarashlar, e'tiqodlar, ideallar shakllanganligi (jamoaviy) yo'nalganlikni ifodalov shaxsning ijtimoiy — siyosiy faolligi;
- 2) bolalarga nisbatan mehr — muhabbat, ularni ehtiyojlari va qiziqishlarini tushuni ko'nikmasining mavjudligi;

- 3) pedagogik kuzatuvchanlik (perseptiv qobiliyat)
- 4) hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalar odamlar xatti -harakatlarining xususiyatlari oqilona tushunish va izohlashga qobillik;
- 5) o'zgaruvchan shart - sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish qobiliyati;
- 6) tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarga ega;
- 7) umumiy va bilishga oid qiziqishlarning ko'pqirraliligi;
- 8) maqsadga erishish yo'lida irodaviy zo'r berishga tayyorlik va sobitqadamlilik kabilar.

O'qituvchilik kasbiga nomunosiblik xaritasida quyidagi omillar o'z aksini topadi (modifikatsiya bizniki - E.G.):

- 1) qarashlar, e'tiqod (maslak), ideallar ko'rsatkichining pastligi;
- 2) o'zgaralar hisobiga o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga tayyorlik, shaxsiyatparast, g'arazgo'y yo'nalishga egalik, o'z qiziqishlarini umumiyatdan ustun ko'rish;
- 3) bolalar (o'qituvchilar)ga loqayd, befarq munosabat;
- 4) aqliy taraqqiyot (intellektual) darajasining quyiligi (pastligi);
- 5) chidamlilik, topqirlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, sobitqadamlilikning mavjud emasligi, irodasizlik;
- 6) ayrim ruhiy kasalliklar alomatlarining mavjudligi;
- 7) nutq faoliyatida sezilarli nuqsonlarga egalik, eshitish sezgisi va qabul qilish, payqash hissining etishmasligi va boshqalar.

Professiogrammaning psixologik jihatlari to'g'risida mulohazalar yuritilganda mana bu tomonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

I. O'qishga munosabat va intellektual sifatlar: bilimlarning chuqurligi, turli o'quv fanlarini o'zlashtirishning intellektual (aqliy) imkoniyatlari, salohiyatlilik va qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga qobillik, ma'naviy qiziqishlarning ko'lami, fikrni bayon qila olish uquvi, o'qiganlilik, ma'lumotlilik.

II. Axloqiy - irodaviy fazilatlar: serharakatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, hissiy faollik, irodaviy qat'iyatlilik, odoblilik, ezgulik, mehr- muhabbat, dilkashlik, rostgo'ylik, haqgo'ylik, kamtarlik, xushmuomalalilik, vazminlik (bosiqlik).

III. Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so'ziga sodikdik, o'ziga tanqidiylik, prinsipallik, qiyinchilikni engish uquvi, tashabbuskorlik, amaliyotchanlik, do'stlar orasida nufuzga egalik.

IV. Pedagogika institutiga kiruvchilar uchun tavsiya motivlari: maktabdagi fan to'garaklari mashg'ulotlariga turg'un (barqaror) qiziqish; maxsus sinflar - (maktablar) mashg'uloti bilan ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish; havas va ota - onaga munosabat: jismoniy mehnatga munosabat; o'qituvchilik kasbiga moyillik va barqaror qiziqish: institutga kirish uchun tavsiya qilingan ixtisos va fakultet abituriyentni o'ziga tortuvchi (jalb qiluvchi) sevimli o'qituvchi va uning shaxs fazilatlarini; sevimli fan uni o'zlashtirishdagi yutuqlar; maktab va maktabdan tashqari o'qituvchining ijtimoiy va kasbiy faoliyati: ijtimoiy faoliyatda tashabbuskorlik va faollik darajasi; qaysidir masala bo'yicha o'quvchilar davrasida ma'ruza va chiqishlar qilish; qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish; kasb va ixtisoslik tanlashda mustaqillik va tashqi omillarning unga ta'siri; hukm va xulosa chiqarishda mustaqillik: o'qituvchi mehnatining hajmi bo'yicha tasavvur hosil qilish.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Professiografiya nima ?
2. Professiogramma va uning tuzilishi qanday?
3. Prognostik professiografiyalash nima?
4. Metodik professiografiyalash haqida nima bilasiz ?

5. Informatsion (ma'lumotli) professiografiya nima?

3-mavzu :Professografiya haqida tushuncha

3.3-dars : KASB PSIXOLOGIYASIDA KASBIY MOTIV VA MOTIVASIYA MASALALARI

Reja :

1. Kasbiy motiv va motivasiya
2. Kasbiy shakllanish jarayonida shaxs taraqqiyoti

Asosiy tushunchalar:

Kasbiy motiv, motivasiya, E.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy, E.S.CHuchunay

KASBIY MOTIV VA MOTIVASIYA MASALALARI

Kasbiy motiv va motivasiya muammosi xorij psixologlari tomonidan keng doirada tadqiq qilingan. Jumladan, kasbiy motivlar borasida E.A.Klimov, V.A.Kruteskiy, A.N.Vasilkova, E.Disi, V.Vrum, M.V.Dmitriy va boshqalarni kiritishimiz mumkin. SHaxsning ish faoliyati bilan bog'liq motivasiyalarni 3 guruhga ajratish mumkin; birinchisi - mehnat faoliyati motivlari, ikkinchisi - kasb tanlash motivlari va uchinchisi-ish joyini tanlash motivlari. Aniq faoliyat esa barchasini jamlangan holda izohlanadi, ya'ni, bunda mehnat faoliyati motivlari, kasb tanlash motivlarining shakllanishi, shuningdek, qolgan ikkita motiv orqali esa ish joyini tanlash motivlari ham yuzaga keladi. Mehnat faoliyati motivlari xilma-xil bo'lib, ular O'ziga xos omillar bilan belgilanadi. Birinchi guruh omillariga jamoaviy xarakterning uyg'onishi bilan bog'liqlari kiritilib, bunda jamoaga foyda tegishini anglash, boshqa insonlarga yordam berish istagi, mehnat faoliyatida ijtimoiy ustanovkaning zarurligi va boshqalarga nisbatan tobelikni hohlamaslik kabi motivlar hisoblanadi. Ikkinchi guruh omillari O'zi va oilasi uchun moddiy mablag'ning orttirilishi, moddiy va ma'naviy ehtiyojlarning qondirilishi uchun pul ishlab topish motivlaridir. Uchinchi guruhga O'zini O'zi faollashtirish, rivojlantirish, O'zini namoyon qilish ehtiyojlarining qondirilishi va boshqalar kiradi. Ma'lumki, insonlar tabiatdan biror-bir faoliyat bilan shug'ullanmasdan turolmaydilar. Inson nafaqat iste'molchi balki yaratuvchi bo'lib, yaratish jarayonida u ijoddan ilhom oladi. Bu guruhga mansub motiv jamiyat tomonidan ehtiyojlarning qondirilishi va boshqalarning hurmatini qozonish bilan bog'liq. Maktab O'quvchilarining mehnat tarbiyasi ham shu motiv bilan bog'liq ravishda shakllantiriladi. Mehnat faoliyatining umumiy motivlari yuqorida aytib O'tilganidek, aniq kasblar doirasida amalga oshadi. Kasb tanlash anchagina qiyin va motivasion jarayondir. Axir shaxsning to'g'ri kasb tanlashi ko'pincha insonning hayotdan qoniqishga ham sabab bo'ladi. Insonning qaysi faoliyatini tanlashi ko'proq tashqi omillar haqidagi qarorning qabul qilinishi jarayoni haqida to'xtalishi muhimdir. Bu asosan tashqi holat baholariga, O'zining imkoniyat va qobiliyatlariga, kasb tanlashdagi qiziqish va moyilliklariga bog'liqdir. Tashqi holatini baholash, ijobiy ta'sir ko'rsatadigan omillar, O'zida ishlab topiladigan pul miqdori, imtiyoz, taklif etilayotgan korxonalar, muassasaning yashash joyiga yaqin bo'lishi, transport aloqalarining qulayligi, ish joyi estetikasi va ishlab chiqarishning zararli tomonlari, jamoadagi psixologik iqlim, maqtov va tartibga chaqirish kabilarni qamrab oladi. O'z imkoniyatlarini baholash sog'lomligi, ishga yaroqliligi, kasbi bo'yicha muhim sifatlarga egaligi, bilim darajasi, stresslarsiz ishga moyilligi, yuqori shovqinli ishda talab etilgan temp va xotirjam ritm bilan ishlay olish imkoniyati kabilarni O'z ichiga oladi. Qiziqishlarga mos ravishda tanlangan ish joyini baholash, ayni vaqtda ishlayotgan muassasasi, korxonadagi imkoniyat to'siqlari, ishni boshqarish, kasbiy O'sish,

tashabbusning paydo bo'lishi muhim ahamiyatga ega. Ba'zan qiziqish bo'yicha ish joyini tanlash muhim ahamiyat kasb etadi. Ish joyini va kasbni tanlash motivlari E.S.Chuchunay tomonidan klassifikasiya qilingan. U kasb motivlarini quyidagilarga ajratadi:

- 1) Dominant (kasbga qiziqishning ustun turishi).
- 2) Vaziyat bilan bog'liq (har doim insonni qiziqtirib kelgan shart sharoitlarni ro'yobga chiqarish).
- 3) Komformist.
- 4) Kasbiy motivasiyalar (O'ziga yaqin ijtimoiy olamning ya'ni yaqinlarini, do'st va tanishlarining maslahatlari bilan).

L.I.Bamburova musiqa ijrochilik kasbini tanlashga sabab bo'luvchi omillar sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatadi:

Ijod va musiqa ijro etishga bo'lgan qiziqish. Musiqadan zavqlanishga bo'lgan ehtiyoj. Musiqa asarlarini ijro etishda O'zi tashabbus ko'rsatishga intilish. Tinglovchilarning qadriyatini ko'tarish, ularga rohat baxsh etish hohishi. Albatta yuqoridagilar musiqa ijrochilik faoliyatining to'liq motivlari emas. Ular faqatgina musiqachilik faoliyatini boshlashga olib keladi. A.P.Vasilev tibbiyot xodimi kasbini tanlashning quyidagi asosiy motivlarini keltirib O'tadi:

- 1) Insonlarni davolash istagi.
- 2) Og'ir kasalliklar, qariya, yosh bolalarni og'riqlardan xalos etish istagi.
- 3) O'z yaqinlarining sog'lig'i haqida qayg'urish imkoniyati.
- 4) Ilmiy tibbiyot muammolarini hal etish.
- 5) O'z sog'lig'i haqida qayg'urish.
- 6) Moddiy qiziqishlar.

Motivlarning mustahkamlanishi mehnat faoliyatida ishlovchilarning ko'pgina omillarini qondirilishiga bog'liq bo'ladi. G'arb psixologlaridan V.Vrum va E.Disi mehnat faoliyati motivasiyasini tarkibiy qismlarini ajratadilar. Unga ko'ra insonlar qanchalik O'z ishidan qoniqsa, shunchalik ular O'z ishlarini bajarishga kuchliroq harakat qiladilar. Ularni faoliyat jarayonida rag'batlantirib borilsa, shunchalik qattiqroq ishlaydilar. Bunday yondashuvda amalga oshiriladigan rag'batlantirish ishchilar faoliyatining mahsuldorligiga bog'liq. Bunda ular faoliyat ko'rsatadigan

firma, kompaniya va tashkilotlardan kuch oladilar. Bu turli qo'shimcha imtiyozlar nafaqat ta'lim olish uchun intilish, dam olish, korxonada tomonidan tashkillashtiriladi. SO'rovnoma natijalariga muvofiq ishdan bo'shashning turi – ob'ektiv, ob'ektiv – sub'ektiv va sub'ektiv ko'rinishlarga ajratiladi. Ob'ektiv sabablarga sog'lig'ning yomonligi va jismoniy holati, turar joyini O'zgarishi, ta'lim olishni davom ettirish, tuqish va bolani parvarishlash kabilar kiradi. Ob'ektiv – sub'ektiv sabablarga mehnat shartnomasining shartlari, kasbiy O'sish, yuksalish imkonining yo'qligi va boshqalarni kiritishimiz mumkin. Sub'ektiv sabablarga jamoadagi psixologik iqlim, shaxslararo munosabatlar va boshqalar kiradi. Ishsizlarning ish qidirish motivasiyalari haligacha ham O'rganilmayotgan muammo bo'lib qolmoqda. SHu bilan birga ishsizlarning axloqi, yangi ish joyini topish bo'yicha faoliyati ko'p jihatdan uning motivasion jabhalariga, ularning tuzilishiga kam hollarda hayot mazmunining shart sharoitlariga bog'liq. M.V.Dmitriy ta'kidlaganidek, ishsizlarning motivasion jabhalarini O'ziga xos xususiyatlari ish izlashdagi faoliyatlari motivasion tuzilishlarining hamma ko'rsatkichlariga bog'liq holda namoyon bo'ladi. Ular ijtimoiy O'zgarishlardan mustaqil bo'lish uchun qayta harakat qilishda O'z imkoniyatlaridan foydalanishga turtki beradi. Passiv ishsizlarning motivasion imkoniyatlarini tuzilish xususiyati alohida motivlarning ham harakatlanuvchanligi bilan tavsiflanadi. Kasbiy faoliyat motivlari

tuzilishining tavsifnomasi uchun B.N.Dadanov taklif qilgan usullarni qO'llash mumkin. U istalgan faoliyatning sabablari sifatida quyidagi omillarni O'zida aks ettiradi, deb kO'rsatadi:

1. Ayni faoliyat jarayonidan rohatlanish.

2. Faoliyatning tO'g'ri natijalari (yaratiladigan mahsulot O'zlashtirilayotgan bilim va hokazo).

3. Faoliyatni rag'batlantirish (maosh, mansabni oshirish, sO'z vositasida va hokazo).

4. Bosh tortish hollarida yoki faoliyat yaxshi bajarilmaganda beriladigan jazodan O'zini olib qochishga intilish. Bu sabablar salbiy "valentlikka" ham ega bO'lishi mumkin. Masalan, faoliyatdan uzohlashib, qiziqishlarini sO'ndirishi mumkin. Salbiy valentlikni maxsus belgi bilan izohlab, ularni quyidagicha ifodalash mumkin:

T-insonga ish jarayonining mashaqqatli, yoqimsiz bO'lishi;

R-erishishi kerak bO'lgan natijaga intilishdan uzohlashish;

V-ishdan bosh tortish uchun rag'batlantirish-taklif etish;

G-ayni ish faoliyati uchun jazo belgilashi.

Pedagogik oliy O'quv yurtlariga kirish va pedagog kasbini tanlash motivlari (O'qituvchi, boqcha tarbiyachisi va b.) turli xil bO'lib, bunda ulardan bir qanchasi pedagogik faoliyat bilan bog'liq bO'ladi. Bu jihat anchadan beri pedagogik, jamoatchilik va oliy O'quv yurtlarini O'ylantirib keladi. O'tkazilgan kO'pgina sO'rovlar bO'yicha olingan natijalarda (pedagogik oliy O'quv yurtiga kirganlarning) O'qituvchi kasbiga ijobiy munosabat bildirgan. Taxminan 40 % u yoki bu narsa yoki predmetlarga qiziqq ani tufayli O'qituvchilik faoliyatiga qiziqmagan holda 13 % dan 22 % talabalar esa na O'qituvchilik faoliyatiga va na kasbiy fanga ijobiy munosabat bildiradi. Ularni oliy O'quv yurtiga kirishidan maqsad ayni vaqtda harbiy xizmatdan qochish yoki oliy ta'lim nufuziga ega bO'lish hisoblanadi. KO'pgina, talabalarning pedagogika O'quv yurtiga kirish sabablari shu dargohning

ularning turar joyiga yaqinligi bO'ladi. Bu kO'rsatkich, bunday moyillik kO'p yillar davomida saqlanib kelmoqda. Ongli ravishda kasb tanlash insonning ijtimoiy mavqei bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Agar inson uchun asosiysi ijtimoiy nufuz hisoblansa, unda kasb hozirda mavjud bO'lgan qoidalar, shuningdek, jamiyatdagi nufuzli kasblardan kelib chiqib tanlanadi. KO'pchilik kasb tanlayotganda bu kasb ularga qanchalik moddiy rag'bat keltirishiga tayanadi. Insonlar orasida qiziqishlari tufayli kasb tanlovchilar ham bO'ladi va bu qiziqish kamdan-kam hollarda romantik xarakter kasb etadi. Kasb mansabga intilish asosida, haqiqiy tashqi taassurotlar zahirida, ota-ona, dO'stlarining maslahatlari orqali yoki omadga bog'liq holda tanlashi mumkin. Lekin kasbdagi romantika odatda tezda yo'qoladi va uning O'rnida inson hali na hissiy, na jismoniy va na psixik jihatdan tayyor bO'lmagan "og'ir ish kunlari" qoladi. Tanlagan kasbi O'zi uchun qiyin bO'lib, kO'p hollarda turli tO'siqlarni yuzaga keltiradi va ayrim hollarda O'z kasbini O'zgartirishiga tO'g'ri keladi. Bunday hollarda kasb tanlash kO'pgina sharoitlarga bog'liq bO'lib qoladi. Lekin hammasidan oldin kasb tanlashga e'tiborni tortish kerak. KO'pgina, tanlangan faoliyatlar insonning qobiliyat va moyiligiga muvofiq bO'ladi. A.K.Baymetov pedagogik faoliyat motivlarini O'rganib, ulardan 3 ta asosiyalarini birlashtiradi: a) muqarrarlik motivi (burchli); b) O'qitilayotgan predmetlarning qiziqarliligi va e'tiborni tortish; v) bolalar bilan muloqatga kirishish. Bu motivlarning ustunlik qilish xarakteriga kO'ra mualliflar 4 guruhga mansub O'qituvchilarni ajratadilar:

Burch hissining ustunligi bilan (43 %); O'qitilayotgan fanlarga qiziqishning ustunligi (39 %); O' bolalar bilan muloqotga kirishish ehtiyojining ustunligi (11 %); O'zi hohishlarini ruyobga chiqarish motivi. O'rganilgan manbalarga kO'ra motivasiya tiplari O'qituvchilarning O'quvchilarga bO'lgan pedagogik talablarining yo'nalishi va xarakteriga ta'sir kO'rsatadi. O'qituvchining turli tomonli motivasiyasi O'quvchilarning axloqiga va ularning

O'quv materialini O'zlashtirishga talabning uyg'unligi bilan tavsiflanadi. O'qituvchilardagi majburiyat motivlarining ustunligi O'quvchilarga faqatgina katta talablar qO'yib qolmasdan, balki, qat'iy intizomni ham talab qiladi. O'quv faniga bo'lgan qiziqish motivlari ustun turuvchi O'qituvchilarda O'quv materialini O'zlashtirishga bo'lgan talab ko'zga tashlanadi, chunki bunda eng ko'p talab O'quvchi shaxsiga qaratilgan bo'ladi.

A.K.Baymetov ta'kidlab O'tganidek, avtoritarlikka moyillik motivining ustunligi avtoritar O'qituvchilarda muloqat motivining ustunligi liberal O'qituvchilar u yoki bu motivlardan hech birining ustun bo'lmasligi demokratik uslubli xos O'qituvchilarga xos jihat hisoblanadi. Pedagog kasbini O'zlashtirishda kasbiy bilimlarga bo'lgan ehtiyoj oshadi. V.N.Nikitenko va B.Fidlerlarning ma'lumotiga ko'ra 25-30 yoshli O'qituvchilarda oliy O'quv yurtida O'qiyotgan chog'ida unchalik ahamiyat bermagan pedagogik va psixologik bilimlarni egallashga bo'lgan ehtiyoj uyg'onar ekan N.V.Jurinin O'qituvchilarning pedagogik faoliyatidagi turli xil omillarga munosabatini O'rgangan. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, O'qituvchilarning O'z kasbi va ish joyidan qoniqishi ba'zilarida birinchi navbatda maktabning moddiy bazasiga bog'liq bo'ladi, boshqalarida esa pedagogik faoliyatda yaxshi natijalarga erishishga, uchinchi xilida ma'muriyat bilan O'zaro aloqa O'rnatishga, to'rtinchi kishida oylik olish bilan bog'liq bo'ladi. O'quv faoliyati motivasiyasining xususiyatlarini O'rganishda 2 jihatni farqlab olish lozim: Birinchi jihat - O'quv faoliyatini tanlash motivasiyasi. Ikkinchisi nima uchun olim aynan shu mavzuni O'rganib chiqishga qO'l urgani sababini aniqlash. Fan bilan shug'ullanish bir necha sabablarga bog'liqligi bilan belgilanadi. Ularga yangilikka intilish va ularni yaratish, aniq fanlarga qiziqish va qandaydir aniq masalalarga qiziqish, O'z kashfiyotlari bilan insoniyatga foyda keltirish, istagan yoki qandaydir xalq xo'jaligiga doir masalalarni hal etish yoki shunchaki O'z ishi bilan O'zidan tarixda

nom-nishon qoldirish; aniq bir ijtimoiy statusga intilish (ilmiy darajalariga ega bo'lish) mashhurlikka intilish kabilar bilan belgilanadi. Pedagogik faoliyatning muhim qismlari bo'lib, uning motivasiyasida ko'rinadi. Pedagogik faoliyat O'quv faoliyatidagi kabi motivasion orientasiyalarga ajratiladi. Ular tashqi motivlar bo'lib, bunga O'z faoliyati natijasi va jarayonini orientasiya qilishni misol qilish mumkin. Aniq ta'lim muassasasidagi ish nufuzining tashqi motivlari, mehnatga xaq to'lashdagi adekvatlik motivlari, ko'pincha kasbiy va shaxsning O'sish motivlari bilan mos O'zaro bog'liq. G.A.Myurrey hokimiyatga intilishning asosiy motivlarini ularning faoliyati bilan bog'lagan holda ajratadi. Ehtiyojning belgi yoki samaralari quyidagi istaklarda namoyon bo'ladi;

1. O'z ijtimoiy olamini boshqarish;
2. Boshqalar xulqiga ta'sir O'tkazish va O'z maslaqatlari bilan yo'lga solish, buyurish, O'z so'ziga ishonirish;
3. O'z e'tiqodiga yo'naltirish.

Motivasiyaning barcha omillarini moddiy va nomoddiy stimullarga ajratish mumkin. "hayot faqat eb ichishdan iborat emas". Boshqa so'z bilan aytganda pul bilan xodimlarni jalb etishning O'zi etarli emas. Korxonada moddiy rag'batlantirishdan tashqari xodimlar jalb qilinadiganlar motivasiyasining qO'shimcha, nomoddiy tizimi ishlab chiqilgan bo'lishi mumkin. Bu ularni psixologik tashqi iqtisodiy jihatlardan muhim ehtiyojlarni qondirishga mo'ljallangan bo'lishi kerak. Tamoyilni amalga oshishi, yuqori natijalarga erishgan ishchilarning rag'batlantirilishiga qaratilgan ijobiy motivasiyalarning ishlab chiqilishi bilan belgilanadi. Past ega bo'lgan ishchilarga beriladigan jazolar tizimidan joy olgan "Salbiy motivasiyalarni" aks ettiradi. Motivlarning qaysi biri ustunlik qilishi ijobiymi yoki salbiymi degan savolga javobni aniq bir korxonada ishlash va xodimlar bilan munosabatga kirishish jarayoniga bog'liq holda hal qilish

mumkin. SHunday ekan, motivasiya adekvat bO'lishi, korxonada xodimning ish natijalariga mos bO'lishi kerak. Agar olinda xatolarga, hayot, ish natijalariga va tartibbuzarliklarga jazo kO'zda tutiladigan bO'lsa, motivasiya tizimi samarali bO'lmaydi. Bundan tashqari, motivasiyaning tashqi omillari xodimlarni O'z natijalarini baholashga O'rgatuvchi va korxonada xodimlarining ishdagi muvaffaqiyati darajalari bilan bog'liq ichki motivasiya omillarini ham ajratish mumkin. Agar rahbarning bahosi, rahbarlarning O'z natijalarini baholashni shakllantirsa, bu yaxshi kO'rsatkich hisoblanadi. Bunda rahbarning tashqaridan beradigan bahosi va xodimlarning O'z-O'ziga beradigan bahosi muvofiq keladi.

V.A.Kruteskiy O'spirinlarda uchrash mumkin bO'lgan motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab O'tadi:

- biror O'quv faniga nisbatan O'spirinning qiziqishi;
- Vatanga foyda keltirish istagi;
- shaxsiy qobiliyatini rO'kach qilib kO'rsatish;
- oilaviy an'analariga rioya qilishi;
- dO'stlari va O'rtoqlaridan O'rnak olganligi;
- ish joyining va O'quv yurtining uyga yaqinligi;
- moddiy ta'minlanganlik;
- O'quv yurti kO'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishining osonligi singari motivlardir. YUqoridagi fikrlardan kO'rinadiki, ilk O'spirinlik davrida kasbiy motivlarning shakllanishi bir qator tashqi va ichki omillarga bog'liq. SHuningdek, kasb tanlashga bO'lgan intilish ishtiyoqlar negizida kasbiy motiv va motivasiya shakllanadi. Aynan xorij psixologlari kasbiy motivlar tarkibini ishlab chiqishda kasb tanlashgacha bO'lgan va kasb tanlab bO'lgandan keyingi jihatlarini kO'rsatib O'tadilar.

KASBIY SHAKLLANISH JARAYONIDA SHAXS TARAQQIYOTI

Shaxsning mutaxassis sifatida shakllanish jarayoni xususida mualliflik qarashlari keltirilgan. Ilgari ishlab chiqilgan shaxsning mutaxassis sifatida shakllanishi yosh xususiyati va ish stajiga bog'liq degan qarashlardan farqli ravishda muallif tomonidan shaxsning kasbiy mahorati bu parametrlarning funksiyasi hisoblanmasligi, aksincha individning kasbiy shakllanishining qaysi boSHichida ekanligiga qarab aniqlanishini kO'rsatib bergan. Kasbiy faoliyatni turli darajada O'zlashtirgan mutaxassislar haqidagi tasavvurlar, qolaversa, kasbiy shakllanish mezonlarining tavsifi keltirib O'tilgan. Malakali kadrlar tayyorlash tizimini uzluksiz ravishda rivojlantirish ehtiyoji va turli ishlab chiqarish sohalarida kO'p yillik ish staji bilan faoliyat yuritayotgan shaxsning O'z imkoniyatlarini tO'liq amalga oshirmasligi shaxsni har tomonlama kasbiy faoliyatda O'zini namoyon qilishi muammosini yuzaga keltirdi. Bu muammolarni hal qilmasdan turib kelgusi kasbiy faoliyatdagi muvaffaqiyatli sifatli ta'limni va rejalashtirishni amalga oshirish mumkin emas. Bu muammoning amaliy ahamiyati uni turli fan doiralari qatorida psixologiya doirasida ham O'rganishni muhimligini kO'rsatib berdi. Kasbiy shakllanish jarayonini O'rganishdagi qiyinchiliklar qobiliyatlar va kasbiy qobiliyatlarning ishni bajarishning muayyan bir usuliga asoslangan normativ faoliyatga yo'naltirilganligidadir. SHuning uchun ham kasbiy etuklik darajasi ajratib kO'rsatilmaydi, balki faqatgina yosh xususiyati va mutaxassis sifatida yuritilayotgan vaqt inobatga olinadi. SHaxsning kasbiy shakllanishi masalasi kO'pgina mualliflar tomonidan tadqiq qilingan. Bu inson taraqqiyotida tez-tez uchraydigan jarayondir. KO'pincha mutaxassis shaxsining tO'la taqlil qilish tushib qoladi, shaxsning kasbiy shakllanish boSHichi esa hayot yo'li boSHichi bilan muvofiq tarzda kO'rib chiqiladi. SHuning uchun vaqt doirasida qat'iy chegaralanib qoladi. Ijtimoiy sohalarda faoliyat yurituvchi shaxsning kasbiy shakllanishini O'rganishda insonning imkoniyatlarini tO'liq ochib

beruvchi sub'ekt va ijtimoiy muhit orasidagi turli ijtimoiy aloqalar tipiga ahamiyat berish muhimdir. Har bir ijtimoiy aloqalarning yana odamovilik va muloqotchanlik kabi kichik tiplarga bO'linishi biz uchun muhim ahamiyatga egadir. Birinchi tipda sub'ekt O'zini "topgan", O'zida va faoliyatida O'zini O'zgartirishni hojlamasligi bilan tavsiflanadi. Ikkinchi tip esa sub'ektning O'zini O'zi "qidirishi" bilan izohlanadi. Bu O'tish, oraliq holat hisoblanadi. Individ (yoki jamiyat) bir shaklni tark etib jamiyatning boshqa yuqori darajasiga erishadi. Garmonik aloqalar uchun sub'ekt yaxlit shaxs sifatida namoyon bO'ladi, u sub'ekt-predmet tartibi - rolli niqob sharti bilan belgilanadi. Bu erda inson "taraqqiyotning absolyut harakati holatida" bO'ladi. Keyinchalik shaxsni kasbiy shakllanishi borasidagi qarashlarga S.L.Rubinshteyn ishlari asos bO'lib xizmat qildi. S.L.Rubinshteyn insonning hayotga munosabatini ifodalovchi ikki usulni ajratib ko'rsatgan. Birinchi usul - bu insondagi barcha munosabatlar tO'liq emas, balki alohida hodisalariga munosabat doirasiga kiruvchi hayotdir.

Bunday munosabatda inson hayot sub'ekti hisoblanmaydi, shu bilan birga undan alohida ham bO'lmaydi. Bu erda hayotning O'zi "tabiiy jarayon sifatida" namoyon bO'ladi, inson hayot tarzi bilan uni tO'ldiradi. Ijtimoiy hayot insonni O'rniga sub'ekt sifatida namoyon bO'ladi. Bu erda axloq, beayblik, yomonlik qilmaslik, tabiiylik, insonning tabiiy holati sifatida namoyon bO'ladi va shu bilan bir qatorda bu erda yaxshilik va yomonlik O'zaro bog'liqdir. Bu usul insonning hayoti O'zidan O'zi kechadigan hayot-avtomat aloqalariga kiruvchi xususiyat sifatida tavsiflanadi. Ikkinchi usul ichki refleksiyaning namoyon bO'lishi bilan bog'liq bO'lib, u "hayotning bu uzluksiz jarayonini tO'xtatib qO'yishi, uzib qO'yishi mumkin va insonning g'oyalar dunyosidan chiqarib yuboradi. Inson g'oyalar dunyosidan tashqaridagi pozitsiyani egallaydi. "Bunday refleksiyaning namoyon bO'lishi hayotiy qadriyatlar tizimini aniqlash bilan bog'liqdir. S.L.Rubinshteyn aynan shu holat bilan voqelikning yangi usuliga O'tish imkoniyatini bog'laydi.

Bevosita aloqalarni uzish va ularni yangi negizlar asosida tiklash ikkinchi usulga O'tish bilan yakunlanadi. SHu vaqtdan boshlab "ruhiy bO'shliqqa, axloqiy skeptizmga, axloqiy beqarorlikka yoki boshqa - yangi anglangan sharoitda axloqiy inson hayotini qurishga yo'l ochila boshlaydi". Sanab O'tilgan fenomenlar yangi usulning mavjudligini tavsiflamaydi, balki, shaxsIlgarigidek yashash imkoniyati yo'q bO'lgan vaziyatda qolganda O'zining beqaror "Men" tizimini buzilishlardan saqlab qola olmasligini anglatadi. Bu vaziyat ba'zida "O'zini safarbar etish" holati deb nomlanadi. Biroq bu holatni O'zining namoyon bO'lishiga ko'ra O'zini O'zi safarbar etish deb nomlab bO'lmaydi: tabiatdan, boshqalardan alohida tarzda anglanmagan voqelikni yo'qotish mumkin emas. SHunchaki, birinchi usulda turmush tarzining hayot-avtomatdan ajratilmaganligi hech qachon axloqiy beqarorlikni keltirib chiqarmaydi. Hayotiy faoliyat modusi - bu insonning tashqi dunyo bilan O'zaro hamkorligini, inson turmush tarzi qanday tuzilganligini aniqlab beruvchi ko'pgina munosabatlarning O'zaro bog'liqligini tO'liq xarakteridir. hayotiy faoliyat modusi faqatgina inson turmush tarzini turli voqeliklarga munosabatini ifodalab qolmasdan, balki individning turli individual qobiliyatlarini ham faollashtiradi. Uning ta'sir ostida shaxs qadriyatlari, ehtiyojlari sohasi va boshqalar shakllanib boradi. Turli hayotiy faoliyat moduslaridagi munosabatlar tizimi haqidagi tushunchalarning mazmuni quyidagi jadvalda keltirilgan.

Turli hayotiy faoliyat moduslaridagi shaxs munosabatlari tizimi

SHaxs munosabatlari Egalik qilish modusi Ijtimoiy intilishlar modusi Xizmat qilish modusi O'ziga munosabat

Boshqalarga munosabat Ishga munosabat Jangari, 'changalzor qonunlari" asosida yashovchi. Ishbilarmon: "sen-menga, men-senga".

Tartibli. Muqitga bog'liqlik, "qurbon" tamoyili. Qizqanchilik, raqobat, antogonizm. "KO'z bo'yamachilik". Taqdir va yaratganning irodasi.

Muhabbat. Masuliyat, ijodkorlik. Egalik qilish modusida predmet yoki boshqa insonlarga egalik qilish nazarda tutiladi. Bu tip ehtiyojlari muayyan bir davr ehtiyojlari bilan hamohangdir. Ular kamchilik, etishmovchilik sifatida yuzaga keladi. Nimagadir yoki kimgadir egalik qilish ehtiyoji inson ehtiyojlarining begonalashgan shaklidir. Bu modusda individga tegishli bo'lmagan barcha narsalar ular tomonidan vosita darajasigacha ko'tariladi. Kasbiy faoliyat san'at darajasigacha ko'tariladi va shaxsning zaruriy ishtiroki natijasiga ko'ra predmetli yoki to'liq predmetli ko'rinishlarga ajratiladi. SHunga muvofiq tarzda, hech qanday faoliyat motivga ega emas, chunki hech qanday motivning O'zi yo'q, faqatgina muayyan faoliyatga egalik qila olinsa bo'ldi. Bu boSHichda ham boshqalar singari ikkita chiziqni ajratib ko'rsatish mumkin, ulardan biri kasbni endi O'zlashtirayotgan insonlarga xosdir. Bu shunday holatki, bunda shaxs muayyan bir boSHichni bosib O'tgan, lekin yuqoriroq darajaga erishmagan. Birinchi chiziq O'zining natijasiga ko'ra ikkita imkoniyatga ega.

Ulardan **biri** - bu keyingi boSHichga (ijtimoiy intilishlar modusiga) O'tish. **Ikkinchisi** - bu boSHichda izlanish va "to'xtab qolish"dan bosh tortishdir. SHaxsning kasbiy shakllanishini boshqa vektori inson allaqachon O'zini "topganligi", uning O'zini va O'z faoliyatini O'zgartirishni istamasligi bilan yakunlanadi. SHaxs faoliyatga nisbatan O'z ehtiyojlarini qondiruvchi vosita sifatida qaraydi.

4-Mavzu: Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar

4/2-dars Shaxsning bilish jarayonlari va individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni.

Reja:

1. Shaxsning bilish jarayonlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni.
2. Shaxsning individual xususiyatlarining kasb tanlashga ta'siri

Asosiy tushunchalar:

Diqqat, sezgi, idrok, xotira, tafakkur, temperament, qobiliyat, o'spirin, faoliyat, faollik, o'qish faoliyati..

Shaxsning bilish jarayonlari va individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni.

O'spirinlarning bilish jarayonlari va temperament xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo'llash maqsadga muvofiq.


Sezgilar deganda, moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va hodisalar insonning sezgi organlariga ta'sir etib, muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o'tgandan keyin uning ongida aks ettirilishi tushuniladi. Boshqacha so'z bilan aytganda, sezgi insonlarning tashqi ta'sirni qabul qilish qobiliyati va shunday ta'sirdan olingan his - tuyg'u, bilish jarayonining sodda va boshlang'ich shakli, bosqichi hisoblanadi. Sezgilar uch guruhga bo'lib o'rganilinadi: a) ko'rish, his bilish, tam sezish, tuyush - eksteroretseptiv sezgilar; b) organik sezgilar, ya'ni ichki organlarning faoliyati to'g'risida xabar berib turuvchi - interoretseptiv sezgilar; v) kinestetik (harakat), muvozanat, tebranish (vibratsiya) - proprioretseptiv sezgilar.

Sezgirlik deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Kasb tanlashda shaxsning sezgirliigi muhim rol o'ynaydi. Havo musaffo paytda ko'zimiz 25 kilometr masofadagi shamning yorug'ini ilg'aydi. Buyumning og'irligiga atigi 3-4 gramm qo'shilishi bilan sezgi organlarimiz og'irlik o'zgarganligini seza oladi. Sezgi organlarining farq sezish chegarasi yorug'lik uchun - ko'zg'alish (ta'sir) ning yuzdan bir, tovush uchun - o'ndan bir, bosim uchun uchdan bir birligiga teng. Insonning ko'zi yarim millionga yaqin

rang - tusni ajrata oladi. Bundan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish chegarasining past yoki yuqori bo'lishi ko'pchilik kasb - hunarlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Sezgirlik shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo'lib, ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanish sezgirlikni oshiradi. Buning uchun inson muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikka nisbatan talabni oshira borishi, ishda sustlikka yo'l qo'ymaslik zarur. o'spirinlarning ruhiy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb - hunarga qiziqtirish ularning sezgirligi, ziyrakligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta'sir etayotgan ob'ektni mavjud narsa va hodisalarning inson ongidagi in'ikosi idrok deb ataladi. Verbal va noverbal xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks ettirishning sezgiga nisbatan yuksak shakli bo'lib, hodisalar, narsalar va ob'ektlarning yaxlit obrazini yaratadi.



O'spirinlarning o'qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Har qanday kasb - hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur'ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsan kasbga yo'llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi alohida rol o'ynaydi. Ba'zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo'lsa, boshqalar psixologik jihatdan kuzatuvchandir. Shaxsning atrof muhitdagi narsa va hodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog'liq bo'lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Idrok - sezgilarga nisbatan murakkab va mazmundor psixik jarayon bo'lib hisoblanganligi sababli barcha ruhiy holatlar, hodisalar, xususiyatlar xossalari va inson ongining yaxlit mazmuni, egallangan bilimlar, tajribalar, ko'nikmalar bir davrning o'zida namoyon bo'lad va aks ettirishda ishtirok qiladi. Idrokning predmetliliigi ob'yektivlashtirish hodisasi deb atalmish hodisada, ya'ni tashqi dunyodan olinadigan axborotning o'sha dunyoga mansubligida ifoda etadi. Bu xildagi mansublik bo'lmasa, idrok kishining amaliy faoliyatida o'zining mo'ljal oldirish va yo'naltirishdan iborat vazifasini bajara olmaydi. Idrokning predmetliliigi tug'ma xislatga kirmaydi. Predmetlilik idrokning belgisi sifatida hatti-harakatni boshqarishda alohida rol o'ynaydi. Idrokning yana bir xususiyati uning yaxlitligidir. Sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan narsaning ayrim xususiyatlarini aks ettiradigan sezgilardan farqli o'laroq, idrok narsaning yaxlit obrazi hisoblanadi. O'z-o'zidan ravshanki, bu yaxlit obraz narsaning ayrim xususiyatlari va belgilari haqida turli xil sezgilar tarzida olinadigan bilimlarni umumlashtirish negizida tarkib topadi.

Idrokning yaxlitligi uning strukturaliligi bilan bog'langandir. Idrok ma'lum darajada bizning bir lahzalik sezgilarimizga javob bermaydi va ularning shunchaki oddiy yig'indisi ham emas. Biz ana shu sezgilardan amalda mavhumlashgan va birmuncha vaqt davomida shakllanadigan umumlashgan strukturani idrok etamiz. Agar kishi birorta kuyni tinglayotgan bo'lsa, oldinroq eshitgan ohangi yangisi eshittira boshlangandan keyin ham uning qulog'iga chalinayotganday tuyulaveradi.

Idrokning yaxlitligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'yektlarning o'ziga xos xususiyatlarida va, ikkinchi tomondan, insonning aniq faoliyatida gavdalanadi. I.M.Sechenov ta'kidlaganidek, idrokning yaxlitligi va strukturaliligi analizatorlarning reflektor faoliyatining natijasidir.

Idrokning yaxlitligi va strukturaliligi manbalari, bir tomondan, aks ettiriladigan ob'ektlarning o'ziga xos xususiyatlaridir, va ikkinchi tomondan insonning konkret faoliyatida gavdalanadi, ya'ni analizatorlarning reflektor faoliyati natijasidir.

Idrokning doimiyligi, konstantligi narsani idrok qilish sharoitlari o'zgarishiga qaramay, narsaga xos bo'lgan kattalik, shaql, rang va boshqa xususiyatlarning idrokimizga nisbatan bir xilda aks etishidir. Masalan, yoritish darajasi o'zgarishiga qaramay, biz qorni oq, ko'mirni qora narsa sifatida idrok qilaveramiz. qizil chiroq ostida kitob sahifasi qizil bo'lib ko'rinsa ham uni oq deb, samolyotdan qaraganda erdagi odamlar va narsalar kichkina bo'lib ko'rinsa ham ularni odatdagiday kattalikda deb idrok qilaveramiz. Kitob qanday ko'rinsa ham uni to'rtburchak deb, stakandagi qoshiq siniq ko'rinsa ham uni butun deb idrok qilamiz.

Narsalarning shaqli, katta kichikligi, rangini doimo bir xilda idrok qilish amaliy jihatdan nihoyatda katta ahamiyatga egadir. Idrokning konstantliliigi tevarak atrofdagi narsalarni aslida qanday bo'lsa shundayligicha ob'yektiv ravishda bilishga imkon beradi.

Pertseptiv sistemaning faol ta'sir ko'rsatishi idrok konstantliligining haqiqiy manbaidir. Bir narsaning bir necha ko'rinishda bo'lishi uning invariantliligi deb, ya'ni obraz invariantliligi, xilma xilligi deb aytiladi.

Idrok yaxlitligi va konstantligi kishining o'tmish tajribasiga bog'liq bo'lib, bu xususiyat appertseptsiya deyiladi.

Demak, idrok faqat narsaga emas, idrok etayotgan sub'ektning o'ziga ham bog'liqdir. Idrokda hamisha idrok etuvchi kishi shaxsining xislatlari, uning idrok etilayotgan narsalarga munosabati, kishining ehtiyojlari, qizikishlari, intilishlari, istaqlari va his-tuyg'ulari u yoki bu tarzda aks etadi. (qandaydir shaqllarni «uchburchak», «aylana», «krujka» deb idrok qilish).

Shunday qilib, idrokning yaxlitligi va konstantligi uning teskari aloqa mexanizmi mavjud bo'lgan va idrok etilayotgan ob'ektning xususiyatlariga hamda uning hayot sharoitlariga moslashadigan, o'zini-o'zi tartibga soluvchi o'ziga xos hodisa ekanligi bilan ham izohlanadi.

Idrokning anglangan bo'lishi. Garchand idrok qo'zg'atuvchisining retseptorlarga bevosita ta'siri natijasida hosil bo'lsa ham, pertseptiv obrazlar hamisha muayyan ma'noli ahamiyatga ega bo'ladi. Kishining idroki uning tafakkuri bilan, narsaning mohiyatini tushunib etishi bilan, uning ko'plab xossalarini bilishi bilan ham bog'liqdir. Narsani anglab idrok etish - unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfiga kiritish, uni so'z vositasida umumlashtirish demakdir. Shu nuqtai nazaridan olganda goh shaql, goh fon navbatma navbat idrok etish, «Ikki mazmunli» deb ataladigan rasmlar bilan tajribalar o'tkazish diqqatga sazovordir. (Kubiklar nechta?, vaza yoki bir biriga qarab turgan odamlarmi? va hokazo rasmlar.) Shunday qilib, idrok sub'ektning bundan oldingi tajribasiga bog'liq bo'ladi. Kishining tajribasi qanchalik boy bo'lsa, uning bilimlari qanchalik boy bo'lsa, uning idroki shunchalik to'liq bo'ladi, buyumda u shunchalik ko'p narsalarni ko'ra oladi.

Idrokning mazmuni kishi oldiga qo'yilgan vazifa bilan ham uning faoliyati sabablari bilan ham belgilanadi.

Sub'ektning ustanovkasi (yo'l-yo'rig'i) ham, his-hayajonlari ham idrok mazmuniga ta'sir etadi.

Idrok ham sezgi kabi reflektor jarayondir. I.P.Pavlov idrokning negizini tevarak-atrofimizdagi narsalar va hodisalar reseptorlarga ta'sir etishi natijasida bosh miyaning katta yarim sharlari qobig'ida hosil bo'ladigan shartli reflekslar, muvaqqat nerv boshlanishlari tashkil etishini ko'rsatib bergan edi. Idrok sezgilarga qaraganda miyaning ancha yuksak darajadagi tahlil qilish-umumlashtirish faoliyati hisoblanadi. Tahlil qilmasdan turib idrokning anglangan bo'lishi mumkin emas. Idrokning negizi nerv bog'lanishlarining ikkita turidan-bitta analizator doirasida hosil bo'ladigan bog'lanishlardan va analizatorlararo bog'lanishlardan tarkib topadi.

Idrok-sezgi a'zolarimizga ta'sir qilib turgan narsalarning ongda bevosita aks etishidir. Biz narsa va hodisalarni yaxlit holicha idrok qilamiz, narsalarning ayrim xossalarini esa sezamiz. Masalan, quyoshni biz idrok qilamiz, uning yorug'ini esa sezamiz, og'zimizdagi qandni idrok qilamiz, uning shirinligini esa sezamiz.

Kishining idroki uning tafakkuri bilan narsaning mohiyatini tushunib yetishi bilan chambarchas bog'liqdir. Narsani ongli idrok etish-unga fikran nom berish, ya'ni idrok etilgan narsani narsalarning muayyan guruhiga, sinfiga kiritish, uni so'z vositasida umumlashtirish demakdir. Idrok shunchaki sezgi a'zolariga ta'sir qiladigan qo'zg'atuvchilarning oddiy yig'indisi bilan belgilanmaydi, balki mavjud ma'lumotlarni yaxshilab talqin qilish, izohlab berish yo'llarini

Xotira shaxs psixik faoliyatining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri bo'lib hisoblanadi. Shuni alohida ta'kidlash kerakki, xotiraning bosh roli o'tmishda yuz bergan narsa va hodisalarni aks ettirish bilan cheklanib qolmasdan, balki ham hozirgi, ham kelgusida amalga oshirish rejalashtirilgan voqelikning ruyobga chiqishini ta'minlaydi.

Inson ko'rgan, his qilgan va eshitgan narsalarining juda oz miqdorinigina eslab qola oladi. Ma'lum bo'lishicha, bir vaqtning o'zida odam ongida 7 tadan ortiq belgiga ega bo'lgan ma'lumotning qolishi qiyin ekan. Bu ettita so'z, son, belgi, narsaning shakli bo'lishi mumkin. Agar telefon raqamlari 8 ta belgili bo'lganda, uni yodda saqlash ancha qiyin bo'lardi. Demak, ongning tanlovchanligi va ma'lumotlarni saralab, terib ishlatish yana bir psixik jarayonni - xotirani bilishimiz lozimligini bildiradi.

Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv holatni aks ettirish qobiliyati - xotira deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq - atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muhim xislatdir.

Harakat xotirasi (harakatni eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash, tanish, eslash, takrorlash), emotsional xotira (his-tuyg'ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg'unligi) tasavvur xotirasi (buyumlarning ko'rinishi, shakli, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish), so'z - mantiq xotirasi (so'zlar va nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish) boshqalar farq qilinadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatning maqsadiga qarab - ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esda saqlash, muddatiga qarab - qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va boshqa xotira degan turlarga ham ajratiladi. Xotira, o'z navbatida ko'rgazmali, obrazli, so'z - mantiq, abstrakt, harakatli va oraliq tiplarga ham ajratilib o'rganiladi.

Yoshlarni kasbga yo'llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. o'quv materiallarining turli tumanligi xotirani o'tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chunki kasb - hunarning xilma - xilligi xotiraning o'tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o'ziga xos jihatlari kasb-hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli - tuman kasblar to'g'risidagi ma'lumot axborotlarni o'zlashtirish, eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muhim rol o'ynaydi. Biror ixtisosni egallash uchun xotiraning yuqorida ta'riflab berilgan turlaridan birortasi albatta kerak bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida ishning samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarning xotirasi ayniqsa o'tkir bo'lishi lozim.

Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuhur etilgan mavhum va umumlashtirilgan in'ikosi bo'lib, insonning olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo'lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Tafakkur shaxsni bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, qudratli tabiat kuchlarini o'ziga bo'ysundirish uchun imkon tug'diradi. Barcha bilimlar fikr yuritish yo'li bilan

o'zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasida tushunchalar, mulohazalar va xulosalar kelib chiqadi. Inson fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

Aqliy qobiliyat insonga xos yuksak fazilat bo'lib, muayyan operatsiyalar, xatti - harakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Inson mehnat faoliyatining barcha sohalarida o'zining aqliy qobiliyatidan samarali foydalanmogi zarur.

O'spirinlarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri muammoli vaziyatdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yoki talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni echishga o'rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun talabalarga muammoli, jumboqli topshiriqni echish bosqichlarini ta'riflab berish joiz. Bunda qo'yilgan muammoning mohiyati tushuntiriladi, uni echish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib muammo yechiladi, uning to'g'ri

echilganligi tekshiriladi va hokazo.

Ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun bir element ortiqcha berilgan yoki biror sharti etishmaydigan, yo bo'lmasa o'zaro mantiqan bog'lanmagan topshiriq hamda masalalardan muammo sifatida foydalanilsa juda qimmatli natija olinadi. Qo'yilgan muammoning kasb-hunarga aloqador bo'lgani ma'qul. Muammoni hal qilishda tafakkurning mustaqilligi, ixchamligi, tezligi, mantiqiyliigi, izchilligi, o'tkirligi, teranligi, mahsuldorligi juda katta ahmiyatga ega.

Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan ishga solish kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishga ishonchimiz komil. Inson idrok qilgan, xotirasida saqlab qolgan narsalarning barchasi uning uchun ma'lum ma'no va mohiyatga ega bo'ladi. Aks holda u qabul qilingan ma'lumotlarni eslab qolmaydi, keyingi safar analogik obyekt bilan to'qnash kelganda, unga diqqatini qaratmaydi ham, ma'lumot figura fonga aylanib qolaveradi. Ya'ni, biz ko'rgan, eshitgan, his qilgan narsalarimizning barchasi ma'noli, kerak bo'lsa, ma'nili bo'lishini ho'xlaymiz. Shunisi xarakterliki, ana shunday narsa va xodisalarga biz tomondan beriladigan ma'no har bir alohida shaxs tomonidan turlicha aks ettiriladi.

Hayol to'g'risida tushuncha. Hayolning aktiv va passiv turlari.

Hayol - bilish jaryonlari qatoriga kirib, kishining o'ziga xos insoniy harakterga ega bo'lgan faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Mehnatning tayyor natijasini hayolga keltirmay turib, ishga kirishib bo'lmaydi. Hayol yoki fantaziya yordami bilan kutilayotgan natijani tasavvur qilish - inson mehnatining xayvonlar instinktiv faoliyatidan tub farqidir. Istalgan mehnat jarayoni zarur tarzda hayolni o'z ichiga qamrab oladi. Hayol badiiy, konstruktorlik, ilmiy adabiy, muzikaviy va umuman ijodiy faoliyatining zarur tomoni sifatida namoyon bo'ladi.

Hayol tasavvurning avval idrok qilinib xotirada qolgan materiallardan vujudga keladi. Hayolning asosiy vazifasi hamisha sezgi va idrok yo'li bilan hosil qilingan narsalarni qayta ishlovidan iboratdir. Hayol yo'q narsadan ijod qila olmaydi. Tug'ma garang odam tovushni hech tasavvur qila olmagandek, tug'ma ko'r ham hech mahal ranglarni hayoliga keltirib tasavvur qila olmaydi.

Hayolda oddiy bir stol yasash uchun stolning qanday shaklda bo'lishini, uning balandligini, kengligini, oyoqlari qanday maxkamlanishlarini, ovqatlanish stoli, laboratoriya stoli yoki yozish stoli sifatida o'zining belgilangan xizmatiga qanchalik javob berishini oldindan tasavvur qilish lozim. Qisqa qilib aytganda, ishni boshlashdan oldin bu stolni tayyor ko'ra bilish talab qilinadi.

Hayol inson ijodiy faoliyatining zarur elementi bo'lib, mehnatning oxiri va oraliq maxsulotlarda o'z ifodasini topadi, shuningdek muommali vaziyat noaniqlik ko'rsatgan hollarda xulq-atvor dasturini tuzishni tahminlaydi. SHuning bilan birga hayol aktiv faoliyatni programmalashtiruvchi emas, balki uning o'rnini almashtiruvchi timsollar hosil qilish vositasi sifatida yuzaga chiqadi.

Hayol tafakkur bilan chambarchas bog'langandir. Hayol ham tafakkur singari kelajakni oldindan ko'rish imkoniyatini beradi.

Tafakkur bilan hayol o'rtasidagi umumiylik hamda ular o'rtasidagi farqlar nimalardan iborat? Hayol tafakkur singari, muammoli vaziyatda, ya'ni masala yechishning yangi usullarini qidirib topishda yuzaga keladi. Tafakkur singari hayol shaxsning ehtiyojlariga asoslanadi. Ehtiyojlarni qondirishning real jarayonidan oldin ehtiyojlarni qondirishning soxta, hayolij jarayoni sodir bo'ladi, ya'ni bu ehtiyojlarning qondirilishi mumkin bo'lgan vaziyatni jonli, yorqin tasavvur qilish mumkin.

Hayol shunday jarayonki, u xatto tafakkur uchun kerak bo'lgan to'la va zarur bilimlar bo'lmagan joyda ham biror qarorga kelish hamda muommali vaziyatdan chiqish imkonini beradi. Fantaziya tafakkurning qandaydir bosqichlaridan «sakrab o'tish» va so'nggi natijani tasavur qilish imkonini beradi.

Hayol o'zining aktivligi va faoliyati bilan karakterlanadi. Hayolning *passiv hayol formasi* - oldindan o'ylab yuzaga keltirishi mumkin bo'lgan, jo'rttaga yuzaga keltirilgan iroda bilan bog'liq bo'magan, lekin hayotda gavdalanirishga qaratilgan hayolning mana shunday obrazlari shirin hayolga misol bo'la oladi. Qandaydir quvonchli, yoqimli, qiziqarli narsalar xaqida shirin hayol surish hamma odamlarga xosdir. Ammo inson hayolij jarayonlarida shirin hayol kechirish hollari ko'proq bo'lsa bu shaxsning passivligidan dalolat beruvchi nuqson hisoblanadi.

Aktiv hayol formasi qayta tiklovchi va ijodij hayol turlariga bo'linadi. O'z asosida tasviriga muvofiq keladigan obrazlar tizimini yaratuvchi hayol qayta tiklovchi hayol deb ataladi. Ijodij hayol - qayta tiklovchi hayoldan farq qilgan holda, orginal va qimmatli moddiy maxsulotlarda amalga oshiriladigan yangi obrazlarning yaratilishini taqoza qiladi. Mehnatda paydo bo'lgan ijodij hayol ehtiyojlarini qondirish yo'lini izlashda yaqqol tasavvurlar bilan aktiv va maqsadga muvofiq ish tutadigan texnik, badiij va istalgan boshqa ijodiyotini ajralmas tomoni bo'lib qoladi.

Ijodij hayol - tiklovchi hayoldan farqli o'larok orginal va qimmatli moddiy, ijodij maxsulotlarda gavdalanuvchi yangi obrazlarning yaratilishidan iborat hayol turidir. Shu bilan birga, mustaqil ravishda yangi obrazlar yaratish uchun ijodij faoliyatda qatnashgan, ya'ni natijasida qimmatli yangi bir narsa hosil bo'ladigan faoliyatdagi hayolni aytamiz. Yozuvchi, rassom, kompozitor, olim, ixtirochi va boshqa buning kabi kishilarning hayoli ijodij hayoldir.

Ijodij hayol, tasavvur hayoliga qaraganda ancha murakkab va qiyin jarayondir. Hayol muhim rol o'ynamagan xech bir ijod sohasi yo'q.

Hayolning ixtiyoriy va ixtiyorsiz faoliyati. Diqqatning ixtiyoriy va ixtiyorsizi bo'lganidek, xotiralash va xotiraga keltirishning ham ixtiyoriy va ixtiyorsizi bo'lganidek, hayolning ham ixtiyoriligi darajasi turli bo'ladi.

Hayolning mutlaqo ixtiyorsiz ishlashining misoli *tush ko'rishdir*. Tush ko'rgandagi obrazlar kishining xohishi, bilan tug'ilmaydi, ular xohish bilan o'zgarmaydi. Tushdagi obrazlar o'rtasida xech kutilmaganda juda g'alati, bahzida mutlaqo tasavvur qilib bo'lmaydigan munosabatlar tug'ilib, chalkashib ketadi. Kishining uyqusi kelib mudroq bosgan chog'idagi, masalan, kishi endigina uxlay boshlagan vaqtdagi hayolning ishi ham asosi jihatidan ixtiyorsizdir.

Xayolot (fantaziya) ob'ektiv voqelikni inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o'y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Bironta, hatgo eng chalkash farazij tasavvur ham shaxs aqlning faqat sub'ektiv mahsuli hisoblanmaydi, oqibat natijada bu tasavvurda ob'ektiv voqelik aks ettirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra inson faoliyatining qanday turi uchun, shu jumladan olimning faraz yaratishi, voqelikni baShorat qilish, xodisalarning sabablarini taxmin etish uchun xayolot juda zarurdir. o'quvchi yoki talabaning farazij tasavvuri etarlicha rivojlanmagan bo'lsa, ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodij farazsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yangiliq yaratish yo'llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson orzu, ezgu niyat qilmasdan, xayol surmasdan, o'ylamasdan yashay olmaydi. Ijodij izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsning xayol suriyu, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma'navij dunyosi to'g'risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Inson farazij obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mehribon, xushmuomala, saxij bo'ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni inson faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtirok etadi va aks ettirishning mukammal bilish imkoniyatini kafolatlaydi. Bilish jarayonining xususiyatlari, mexanizmlari va qonuniyatlariga tayakib ish tutgan shaxs kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolariga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, yo'l qo'yan kamchiliklarini o'z vaqtida tuzatishiga imkon yaratadi.

Shaxsning xulq - atvori, temperamenti, salohiyati va boshqa xislatlari kasb tanlayuda alohida ahamiyat kasb etadi. Temperament shaxsning ruhiy xususiyatlaridan biri bo'lib, alohida olingan inson shaxsida ruhiy jarayon va faoliyatning vujudga kelishi, o'tishi, kechishi va dinamikasini belgilab beradi. Lekin psixik faoliyat dinamikasi temperamentga emas, balki shaxsiy sabablarga va Shaxsning ruhiy holatiga bog'liqdir. Xuddi shu boisdan inson, temperamentidan qat'iy nazar, mas'uliyat hissini sezsa, o'z kasbida g'ayrat bilan ishlaydi, kasbini yoqtirmasa, aksincha, sustkashlik qiladi.

Temperament inson psixik faoliyatining xususiyati bo'lib, fiziologik asosini, asab tizimining tiplari, oliy asab faoliyati qonuniyatlari tashkil etadi. Temperament to'rtta asosiy tipga ajratiladi: sangvinik (xushchaqchaq), flegmatik (bo'shang, og'ir), melanxolik (g'amgin), xolerik (qiziqqon).

Temperament shaxsning bama'niligini; dunyoqarashi, nuqtai nazari, e'tiqodi, qiziqishlari va hokazolarini ko'rsatuvchi belgi emas.

Hozirga davrda temperament tiplarining psixologik ta'rifi sezitivlik, reaktivlik, aktivlik, ta'sirlanish tezligi, labillik, dinamiklik, reaktivlik bilan aktivlik munosabatlarning muvozanati, harakatning ravonligi, rigidlik (qotib qolganlik), ekstrovertlik va introvertlik kabi xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Psixologiya fanida temperamentning o'ttizdan ortiq (ba'zan qirqdan ko'proq) tipidan olingan. Amaliyotda esa asosan ekstravert va introvert tiplari ko'proq qo'llanadi. Shaxsni kasbga yo'llash jarayonida temperamentning psixologik ta'rifi berilishi shart.

Sangvinik - juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi, yolg'on dalillarga jahli chiqadi. Ob'ektlar, ma'ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo - ishorani ko'p ishlatadi, chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay kuchsiz ta'sir (qo'zg'atuvchilar)ni seza olmaydi, serg'ayrat, ipchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatda, imtizomli, o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti - harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql - idroki tiyrak, topqir, kiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchan. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga (muomalaga) tez kirishadi. Xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlariga hozir javob va hokazo.

Xolerik — sust sezitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va reaktiv. Ko'pincha reaktivligi faolligidan ustun keladi. Betoqat, serzarda, tinimsiz. Sangvinikka qaraganda silliqroq, ammo ko'proq qotib qolgan. Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti - harakatida qat'iylik mavjud. Biroq diqqatini bir ob'ektga to'plashda qiynaladi. Nutq sur'ati tez va hokazo.

Flegmatik - sezitivligi sust. His - tuyg'usi ham o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko'ngilsiz hodisa, xavf - xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam harakat. Imo - ishoralari, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanadi. Lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur'ati sust. Farosati qiyiqroq. Diqqatni to'plash sekin. Qotib qolgan (regid). Diqqatni ko'chirishi qiyin. Intravertlashgan. Ichdan top. Yangilikni qabul qilish qiyin. Tashqi taassurotlariga sustlik bilan javob beradi.

Melanxolik - sezitivligi yuksak. Sezgi chegarasi keng emas. Arazchan, xafaqon. Jimgina

yig'laydi, kam kuladi. Sustkash. Tortinchoq, g'ayratsiz. Qat'iyligi va mustaqilligi kam. Tez toliqadi. Ortiqcha ishchan emas. Diqqati beqaror. His - tuyg'usi sust o'zgaradi. Qotib qolgan. Intravertlashgan.

Temperament tiplari xususiyatlarini faoliyat talablariga moslashtirish mumkin, buning uchun:

1. Kasb - hunarning talabalar temperamentiga mos keladigan turini tanlash kerak. Shaxsning psixik xususiyatlariga mos tushadigan kasbni tanlash, kasbiy saralash deb yuritiladi;

2. Talabalar individual xususiyatlarini hisobga olish lozim;

Z. Temperamentga xos kamchiliklarini (illatlarni) bartaraf etish kerak. Demak, shaxsni qaytadan shakllantirish yo'li bilan temperamentni faoliyat talablariga qisman moslash mumkin;

4. Individual uslubni shakllantirish zarur. Talabaning faoliyatga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo'lishi buning uchun eng zarur shartdir.

Shaxsning xulq-atvor xususiyatlari uni faoliyatiga undovchi asosiy omil hisoblanadi.

Psixologiya fani shaxsning fe'l-atvori xususiyatlarini to'rt guruhga ajratib o'rganadi:

1. Jamoa va alohida shaxsga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi fazilatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, faxrlanish va boshqalar;

2. Mehnatga nisbatan munosabatni bildiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mas'uliyatlilik va hokazo;

3. Narsalarga nisbatan munosabatni anglatuvchi sifatlar: ozodalik, sarishtalik, avaylash va shu kabilar;

4. O'z-o'ziga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: izzat nafslilik, kerilishlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va hokazo.

Xulq-atvor xususiyatlarning shakllanishida o'qish va mehnat faoliyatli etakchi rol o'ynaydi, chunki o'qish va mehnat jarayonida qo'llaniladigan individual usullar xulq-atvorga ta'sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko'pgina xususiyatlar o'zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo'ladi. Xulq-atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Inson umrining ohirigacha o'z xatgi-harakatlarini boshqarib, xulq atvorini o'zi barqarorlashtirgan bo'lsa, kasb-hunar tanlashga shunchalik oqilona va qatiyatlik bilan yondoshiladi.

Talabalar va o'quvchilar qobiliyati, layoqati ta'lim jarayonida va mehnat faoliyatida tobora rivojlanadi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichiga talant, iste'dod deyiladi. Iste'dod murakkab ishni (faoliyat) muvaffaqiyatli, mustaqil va mohirona bajarishga (amalg oshirishga) imkon beradigan qobiliyatlar tizimidir (biologik shartlangan xislatlardan bittasidir).

O'spirinlarning qanchalik iste'dodli ekanligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarga e'tibor bersh lozim:

1. Shaxsning ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, tayyorligi;

2. Shaxsning mehnatga moyilligi, unga ehtiyoj sezishi;

3. Mantiqiy fikr yuritish tezligi, izchanligi samaradorligi, tashabbuskorligi va boshqalar.

Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar tug'ma bo'lmaydi (tabiiy alomatlar, moyilligi mavjuddir), balki ijtimoiy, shaxsiy hayot va faoliyat jarayonida muayyan omillar, manbaalar ta'siri ostida tarkib topadi. Lekin layoqatlilik qobiliyatining tabiiy zamini ekanligi shubhasizdir. U qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Unda miya tuzilishi, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari layoqatga nisbatan beriladi.

Yoshlarni kasbga yo‘llashda ularning his-tuyg‘ulari va irodalarini hisobga olishning ham ahamiyati qiymatli, chunki talabalarning (o‘quvchilarning) his - tuyg‘usi, kayfiyati, stress va ob‘ektiv holatlari o‘rganilmasa va e‘tiborga olinmasa, ko‘zlangan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»dagi ulug‘vor maqsadga erishib bo‘lmaydi. Buning uchun iste‘dodli yoshlarni tanlash, ularni individual o‘qitish, zari shart-sharoitlar yaratish, reyting va modul tizimlari asosida ularga saboq berish ta‘limning davlat standartlari talabiga javob beradigan, komil insonlikka intiluvchi shaxslarni kamol toptirish kafolatidir.

Shunday qilib, kasbga yo‘llash jarayonida shaxsning individual - tipologik xususiyatlari va his - tuyg‘ularini, layoqat, iste‘dodni hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan qurollantirish ularning kasb-hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo‘yiladigan psixografik, professiogramkali talablarga moslashishga imkon beradi.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari muayyan yondashuvlar negizida tadqiq etilgan. Bizningcha (E.G‘), muayyan jamoa a‘zosi, jismoniy, jinsiy, ijtimoiy kamolatga erishgan, biologik va ijtimoiy shartlangan xislatlar egasi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, biliShga intiluvchi, faoliyat, xulq, muomala sub‘ekti shaxs deyiladi. Quyida ayrim psixologlar talqiniga to‘xtalib o‘tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob‘ekti, ham sub‘ektidir.

Yirik rus psixologi **A.N.Leontev** ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta‘rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub‘ektidir. **K.K.Platonovning** talqiniga binoan, jamiyatda o‘z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a‘zosi, shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan **S.L.RubinShteyn** ta‘rificha, shaxs - bu taShqi ta‘sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart - sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir - biriga yaqin, lekin aynan bir bo‘lmagan tushunchalar qo‘llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab beriSh uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qiliSh maqsadga muvofiq.

1. Odam. Sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzot ekanliga odamning o‘ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo‘llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettiriSh qobiliyatidan tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.
2. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidanda ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.
3. Individuallik. Har qaysi inson betakror o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o‘ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual xislatlar shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo‘ladi.

SL.RubinShteyn nazariyasi bo‘yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo‘nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e‘tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarida ifodalanadi.
2. Bilimlar - hayot va faoliyatda ko‘nikmalar malakalar jarayonida egallanadi.
3. Individual - temperament, tipologik xususiyatlar, xarakter, qobiliyatlar aks etadi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo‘nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniklaydi, unga o‘zaro ta‘sir etuvchi har xil xususiyatli g‘oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi.

Ustuvor yo‘nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta‘minlovchi tizim. o‘zaro ta‘sir etuvchi va o‘zaro bog‘liq bo‘lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq - atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo‘ladi. Xarakter tizimidagi irodaviy va ma‘naviy sifatlar.

4. Malakalar tizimi. Hayot va faoliyat, sifatlar xulq - atvorni tuzatish (korreksiyalash), o‘zini o‘zi nazorat qilish, o‘zini - o‘zi boshqarishni ta‘minlaydi.

Kasb tanlashga ta‘sir etuvchi asosiy omillar

Kasb tanlashga ta‘sir etuvchi asosiy omillar mohiyati quyidagilarda o‘z ifodasini topadi:

1) Ta‘lim - tarbiya tizimida kasbga yo‘llash faoliyatining (tadbir va choralarning) mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.

Maktab (qaysi turdaliqidan qat‘iy nazar) ma‘muriyati, sinf rahbarlari, amaliy psixolog va kasbga yo‘llovchi fan o‘qituvchilarining ish rejasida mazkur masala joy olganligi. Shuningdek, bu muammoga taalluqli ishlar, tadbirlar izchil amalga oshirilib turilishi, ularning ta‘sirchanligiga e‘tiborning ortishi tufayli o‘quvchi yoshlar orasida bu sohada tasavvur ko‘lamining kengayishi. Rasmiyatchilikdan chekinib, umumiy va zaruriy masala sifatida qabul qilinishi uning qiymatini ko‘taradi.

2) o‘quvchilarni kasb tanlashga o‘rgatishda o‘qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va samaradorligi.

Alohida olingan fan o‘qituvchilari va turdosh fanlarning namoyondalari jamlanmasi hamkorlik ish rejasida kasbga yo‘llash masalasining izchil ravishda qo‘yilishi, har bir mavzu bo‘yicha mulohaza almashishda, qaysi fan bo‘lishidan qati nazar ixtisosga oid bilimlarga e‘tibor berilishi kasbiy tasavvurni vujudga keltiradi. Kasb-hunar mohiyati bilan tanishish unga nisbatan kiziqishni uyg‘otadi, mustaqil bilim olishga ishtiyoq paydo bo‘ladi va odat maromiga aylana boradi. Maxsus tadbirlar o‘tkazilishi, kasb nufuzi bilan tanishtirilishi kasbiy motivlar va motivatsiyalarni taqomilashtiradi, moyillik tuyg‘usini uyg‘otadi.

3) Sinf rahbarining ota - onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi.

Sinf rahbari ota - onalar bilan individual va guruhlik hamkorlikni amalga oshirishda quyidagilarga e‘tibor qilsa, yuqori ko‘rsatkichga erishishi mumkin: o‘quv fanining kasb tanlash bilan bog‘liqligi, kasbning nufuzi, kasb tanlashning psixologik asoslari, kasbga nisbatan qiziqish, havas, qobiliyat, iste‘dod kasbga yo‘llashning asosiy maqsadi va vazifalari, professiogramma (professografiya) mohiyati, kadrlarga va mutaxassislarga nisbatan ehtiyoj darajalari, kasbning ijtimoiy ahamiyati, layoqatining umumiy va xususiy ko‘rinishlari, o‘quvchilar individual xususiyatlari, kasb tanlashning ilmiy manbalari, maktab psixologining bu sohadagi funksiyasi va boshqalar.

4) Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.

Yoshlar tashkiloti faoliyatida kasb tanlash masalasining ustuvorligi, o‘quvchilarning turli fondlarga jalb qilinishi, iste‘dodlarning saralanishi, mukofotga tortilishi, moddiy va ma‘naviy taqdirlanishi kabilar.

5) Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko‘rsatilishi.

6) Maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko‘lamda yo‘lga qo‘yilishi.

7) Maxsus muassasalar faoliyati.

8) Kasbga oid qo‘rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.

9) Ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchraShuvlar o‘tkazilishi.

10). Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.

Kasbga yo‘llash umumdavlat ahamiyatiga ega muammo hisoblanib, uni bosqichma - bosqich amalga oshirish «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da alohida o‘rin egallaydi. Yuqorida kasb tanlashga yo‘llash omillari faoliyatini hamkorlikka aylantirish yuksak samaralar sari etaklaydi. Kasbiy sifatlar muvofiqlashtiruvchi va qayta tashkil qiluvchi funksiyalarini boshqaradi, ijro etadi: bu funksiyalarning o‘zaro muvofiqligi kasbiy o‘zini o‘zi anglash va kasbiy taraqqiyotni ta‘minlaydi. Kasbiy sifatlarning muvofiqlashtiruvchi funksiyasi kasbiy sentrizm va barqaror kasbiy-mintaqaviy pozitsiyani zaruriy darajasini ta‘minlash bilan belgilanib, u quyidagi mezonlarni o‘z ichiga oladi: **konstantlik** (o‘zgarishlarga qarshilik ko‘rsatish qobiliyati), **moslashuvchanlik** (noadekvat kasbiy stereotiplarni engib o‘tishga qodirlik), **distantlik** (ish joyi haqidagi semantik, informatsion, madaniy tasavvurlarga ega bo‘lish). qayta tashkil qiluvchi funktsiya kasbiy pozitsiyani rivojlantirish va o‘zgartirishga yo‘naltirilgan bo‘lib, kasbiy muhim sifatlar va shaxsning kasb bilan identifikatsiyasi diapozonini o‘zgarishi, o‘z kasbini boshqa kasblardan ajratish, kasbiy sifatlar tizimidagi tartiblilik yoki “tarqoqlik” dan iborat. Professiogenez negizida qayta quruvchi, muvofiqlashtiruvchi va amalga oshiruvchi komponentlarning davriy dinamikasi yotadi. K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan hayot yo‘li tuzilishi (hayotiy pozitsiya, hayotiy chiziq, hayot mazmuni)ga asoslangan murakkab kasbiy sifatlar tipologiyasi ishlab chiqildi. Muallif shaxsning kasbiy faoliyatda o‘zini namoyon qilish xususiyatlariga muvofiq quyidagi kasbiy sifatlar tipologiyasini ajratib ko‘rsatadi:

- 1) Shaxs xarakteriga maksimal darajada yaqin bo‘lgan kasblarni tanlash orqali o‘zligini namoyon qilish sodir bo‘ladi. Bu holatda hayotiy imkoniyatlar shaxs o‘zining imkoniyatlarini to‘liq amalga oshirishiga sharoit yaratuvchi vaziyatlarni qaytarish bilan bog‘liq bo‘ladi.
- 2) Shaxsga kasbiy mahorat pillapoyalaridan ko‘tarilish imkonini beruvchi kasb tanlanadi. Bu holatda kasbiy pozitsiyaning sifatli o‘zgarishi bilan bir qatorda imkoniyatlarning ortishiga olib keluvchi harakat sodir bo‘ladi. Kasbiy yuksalish negizida mehnat faoliyatining talablari va vazifalari, shu bilan bir qatorda shaxs qobiliyatlarining rivojlanishi yotadi.
- 3) Kasbiy faoliyatda o‘zligini namoyon qilish o‘z ustida ishlash hamda shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Kasb potensial holatidagi shaxs qobiliyatlarini faollashtiradi, shaxs taraqqiyoti uchun imkoniyatlar ochib beradi.
- 4) Shaxsning o‘zligini namoyon qilish qobiliyatlari, o‘zini o‘zi nazorat qilish va o‘zini o‘zi tahlil qilishni rivojlantirish hamda ijodiy faollikni rejalaShtirishga asoslangan bo‘ladi: bu holatda shaxs kasbiy o‘zlash va rivojlanishga, qolaversa, shaxsiy qobiliyatlarini amalga oshirish maqsadida mehnat sharoitini qayta qurishga qodir bo‘ladi. Kasbiy sifatlarni tadqiq qilishdagi qiyinchiliklardan biri ushbu fenomenning umumiy shaxs sifatlari tuzilishida qanday joyni egallashi bilan bog‘liqdir. Shunday qilib, “kasbiy sifatlar” tushunchasi shaxsning kasbiy shakllanishi mazmuni va sharoitiga nisbatan aniq shaxs sifatlarni qo‘llash tarzida ko‘rib chiqiladi. Aytish joizki, ko‘pgina tadqiqotlarda ijtimoiy tomonga oqishishlar kuzatiladi. Masalan, L.B.Shneyder kasbiy sifatlarning ikkita muhim aspektlarini ajratib ko‘rsatadi: Kasbiy sifatlar” tushunchasi o‘zi nimani anglatadi. . Ushbu savollarga javob berish asnosida kasb - bu inson hayotining o‘ziga xos tomoni bo‘lib, muayyan bir faoliyat ekanligini eslaymiz. Shu bilan bir qatorda, bu aniq bir faoliyatni bajaruvchi, umumiy talablar, qadriyatlar asosida tarbiyalangan va atrofdagilarning o‘zaro madaniy munosabatlari negizida qurilgan Shaxslar guruhiga sub’ektning daxldorligini anglatadi. Shuning uchun kasbiy sifatlar

faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllansa ham ular shaxsning ijtimoiy muhitdagi o'z o'rnini, mehnat jamoasining xususiyatlarini tushinishi bilan uzviy bog'liqdir. Kasbiy sifatlarning aynan mana shu aspekti tez-tez psixologik tahlil doirasidan chetga chiqib ketadi. Kasbiy sifatlarni o'rganishning qiyin tomoni, birinchidan u shaxsning aynan o'ziga, ikkinchidan esa muayyan bir guruh a'zolariga tegishlidir. Muayyan bir ijtimoiy kategoriyalarga shaxsiy daxldorlikni idrok qilishning identifikasiya jarayoni, shunga muvofiq qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan hamohang tarzda kechadi. Kasbiy shakllanish jarayonida sub'ekt o'zini o'z kasbi vakili, u yoki bu kasbiy sifat sohibi yoxud muayyan bir taraqqiyot bosichidagi mutaxassis sifatida identifikasiyalaydi. Ijtimoiy sifatlarning muammosi psixologiyadagi yangi tadqiqot sohalaridan biri hisoblanib, unda ijtimoiy sifatlarning tuzilishi va turli ko'rinishdagi shaxs sifatlarning muvofiqligi haqidagi tasavvurlar aks etadi. Shuning uchun ham ijtimoiy sifatlarning etnik, kasbiy, madaniy, xududiy va boshqa turlari yaxlit holda o'rganilmagan. Bu ijtimoiy identifikatsiyaning alohida turlarining metodologiyasini o'rganishda o'z aksini topgan. Kasbiy identifikatsiyaning umumiy identifikatsiyalar tuzilishida tutgan o'rnini hali to'liq yoritib berilmagan, lekin fenomen va ijtimoiy identifikatsiya tuzilishi hamda uning alohida turlari haqidagi ilmiy tasavvurlarning rivojlanganligi kasbiy identifikatsiyani ijtimoiy "Men" tuzilishidagi muhim elementlardan biri sifatida o'rganish imkonini beradi. Identifikatsiya jarayonida shaxsning o'zini mutaxassis sifatida anglashi mehnat jamoasi, ish joyini ichida sodir bo'ladi. Bu makon o'zida faqatgina ijtimoiy muhitni - jamoani, xodim va boshqaruvchi mutaxassislarni yoki faqatgina kasbiy normalarning tashuvchilarini emas, balki mehnat ob'ektini, qolaversa inson o'z faolligini yo'naltiruvchi voqelikni mujassamlashtiradi. **E.V.Koneva** "kasbiy makon" tushunchasini mutaxassis, insonlar jamoasi ish olib boruvchi, atrofda voqealarga o'z ta'sirini o'tkazuvchi ob'ektlar tizimi sifatida o'rganadi. Muallifning ko'rsatishicha, kasbiy makon tushunchasiga nisbatan bunday yondoshuv uning kasbiy identifikatsiya bilan aloqalarini osongina o'rnatish imkonini beradi: insonning o'zini mutaxassis sifatida his qilishi - aynan mana shu jihat uni ayrim odamlar, ob'ektlar, voqealar va masuliyat doirasi ichidagi shaxsning o'zi haqidagi tasavvuridir. Demak, kasbiy identifikatsiya zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan predmeti hisoblanadi.

Kasb – hunar to'g'risida har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri – bu maktab o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo'lishidir. Motivlar o'rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo'ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo'lish ob'ektiv va qat'iy qarorni keltirib chiqaradi.

V.A.Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- 1) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi,
- 2) vatanga foyda keltirish istagi (o'zlarining individual -psixologik xususiyatini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda),
- 3) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatish,
- 4) oilaviy an'analarga rioya qilishi (vorislik),
- 5) do'stlari va o'rtog'laridan o'rnatilganligi,
- 6) ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi,
- 7) moddiy ta'minlanganlik,
- 8) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

Bundan tashqari, yoshlarda boshqa turdagi motivlar ham mavjud bo'ladi. Ular qatoriga shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, unga intilishi, qunti,

kasb to'g'risidagi ma'lumoti, uning sihat - salomatligi, asab tizimining xususiyati va temperamentining xususiyatlari kabi motivlarni sanab o'tiSh mumkin. Biroq motivlarning boshqa xillari ham uchraydi. Lekin holatning o'zgarishiga qarab ulardan unisi yoki bunisi bosh maqsadga aylanib turadi.

Mazkur holatni tadqiq etgan yirik psixolog **E.A.Klimov** o'spirinlar kasb tanlash kezida; **birinchidan**, biror kasbning «nufuzli ekanligiga» baho borishdagi dogmalarga asoslanish, **ikkinchidan**, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, **uchinchidan**, biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish, **to'rtinchidan**, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar - pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga mahliyo bo'lish, **beshinchidan**, o'rtoqlarining ta'siri ostida «kompaniya uchun» kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvuriga ega bo'lmaganliklari boisidan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarining talab qilishini tushunib etmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi etmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishligini, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Shuning uchun yuqorida bayon qilib o'tilgan hatolarga yo'l qo'yadilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko'ngilsiz xolatlarning oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik – psixologik va ijtimoiy xususiyatli umumiy tomonlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Kasblarni o'rganiSh metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash.
2. O'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar – maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish.
3. O'spirinlarni kasbning asosiy guruhlarini, turlari bilan yaqindan tanishtirish ; muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlarini hamda kasb o'rganiShning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish.
4. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltiriSh va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.
5. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.
6. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.
7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qiliSh va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilar.

Kasb tanlashga yo'llanma berishning va uni tashviqot qilishning usullaridan biri - ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyiSh kilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmalarga qo'yishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiyalar uyushtiriSh orqali u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltiriSh mumkin. o'spirinlarda hosil bo'ladigan praksik (lazzatlanish, rohatlanish) hislar kasbga mehrini oshiradi va unga nisbatan mustahkamlaydi.

Psixolog **M.G.Davletshin** kasb tanlashni uch bosqichdan kelib chiqqan holda (kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish) Shaxsning kasb - hunarga yaroqliligi (layoqati)ning

ichki tomonlarini ochishga harakat qiladi:) kadr tanlash davrida Shaxsning umumiy yaroqliligi (layoqati); b) kasb- hunar tanlashda uning qaysi kasb turiga loyiqdigi; v) kasbga o'rgatishda shaxs sifatlarini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi haqidagi savollarga javob olishga intiladi. Muallifning fikricha, o'spirinning kasbga yaroqliligini aniqlaganda uch muhim narsaga etibor qilish maqsadga muvofiqdir: kasbga munosabat, qobiliyat, qo'nikma va malakalar. Odamning kasbga yaroqliligini aniqlashda uning qiziqishi, irodasi, qobiliyati, maxsus bilimi, ko'nikmalarining jips aloqasini ifodalagan holda olib qarash oqilona yo'ldir.

Yuritilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb - hunar to'g'risida axborot, kasb haqida maslahat vositalari ongli kasb tanlash uchun etarli emas. Shuning uchun o'spirin o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kasb tanlashda o'z kuchini muayyan faoliyatda sinab ko'rishga imkoniyat yaratadi. Lekin bu bilan kifoyalanish, qanoat hosil qilish shart emas, balki boshqa yo'l va vositalarni qidirish, izlash darkor.

Mehnat psixologiyasi namoyondalari kasb tanlashning o'zgacha usullarini tavsiya qilmoqdalar. Jumladan, barcha fanlarni o'qitishda politexnik xususiyati va xossasini chuqurlashtirish; tabiiy - matematik sohadagi fanlarda atrofda ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanish; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llagan holda faoliyat uyushtirish o'quvchilarning kasbga nisbatan qiziqishini orttirish va mehnat qilishga ularni axloqan tayyorlash; fan asoslarini egallashda kasb haqida axborotlar berib borish; mehnat sohalari to'g'risida kasb tanlovchiga mustaqil tanishish sharoitini yaratishdir.

O'quvchilarni **professiogramma** bilan tanishtirishda bosh maqsad quyidagi tarkibiy qismlarni, jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi:

- a) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayoli - xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak;
- b) asosiy mehnat operatsiyalari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarda ishlatish mumkin ekanligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun harakat qilish;
- v) asosiy qurollar va vositalar: qo'l aslahalaridan - slesar, xirurg, skripkachi, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi;
- g) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini o'rab turgan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazo.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda o'spirinlarning qiziqishi, mayli, ehtiyoji, iqtidori, malakasini hisobga olgan holda to'g'ri yo'naltirish mamlakat taraqqiyoti uchun puxta zamin hozirlaydi. Bu haqda "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi"da ibratli fikrlar bildirilgan.

G.F.Pavlyukning o'qituvchi ixtisosligiga taalluqli ma'lumotnomalar xaritasi alohida ahamiyat kasb etadi ,

- 1) jamiyat ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak darajadagi qarashlar, e'tiqodlar, ideallar shakllanganligi (jamoaviy) yo'nalganlikni ifodalov shaxsning ijtimoiy — siyosiy faolligi;
- 2) bolalarga nisbatan mehr — muhabbat, ularni ehtiyojlari va qiziqishlarini tushuni ko'nikmasining mavjudligi;
- 3) pedagogik kuzatuvchanlik (persektiv qobiliyat)
- 4) hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalar odamlar xatti -harakatlarining xususiyatlari

oqilona tushunish va izohlashga qobillik;

5) o'zgaruvchan shart - sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish qobiliyati;

6) tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarga ega;

7) umumiy va bilishga oid qiziqishlarning ko'pqirraliligi;

8) maqsadga erishish yo'lida irodaviy zo'r berishga tayyorlik va sobitqadamlilik kabilar.

O'qituvchilik kasbiga nomunosiblik xaritasida quyidagi omillar o'z aksini topadi (modifikatsiya bizniki - E.G'):

1) qarashlar, e'tiqod (maslak), ideallar ko'rsatkichining pastligi;

2) o'zgaralar hisobiga o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga tayyorlik, shaxsiyatparast, g'arazgo'y yo'naliShga egalik, o'z qiziqishlarini umumiyatdan ustun ko'rish;

3) bolalar (o'qituvchilar)ga loqayd, befarq munosabat;

4) aqliy taraqqiyot (intellektual) darajasining quyiligi (pastligi);

5) chidamlilik, topqirlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, sobitqadamlilikning mavjud emasligi, irodasizlik;

6) ayrim ruhiy kasalliklar alomatlarining mavjudligi;

7) nutq faoliyatida sezilarli nuqsonlarga egalik, eshitish sezgisi va qabul qilish, payqash hissining etishmasligi va boshqalar.

Professiogrammaning psixologik jihatlari to'g'risida mulohazalar yuritilganda mana bu tomonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1. O'qishga munosabat va intellektual sifatlari: bilimlarning chuqurligi, turli o'quv fanlarini o'zlashtirishning intellektual (aqliy) imkoniyatlari, salohiyatlilik va qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga qobillik, ma'naviy qiziqishlarning ko'lami, fikrni bayon qila olish uquvi, o'qiganlilik, ma'lumotlilik.

2. Axloqiy - irodaviy fazilatlar: serharakatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, hissiy faollik, irodaviy qat'iyatlilik, odoblilik, ezgulik, mehr- muhabbat, dilkaShlik, rostgo'ylik, haqgo'ylik, kamtarlik, xushmuomalalilik, vazminlik (bosiqlik).

3. Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so'ziga sodiqlik, o'ziga tanqidiylik, prinsipallik, qiyinchilikni engish uquvi, tashabbuskorlik, amaliyotchanlik, do'stlar orasida nufuzga egalik.

4. Pedagogika institutiga kiruvchilar uchun tavsiya motivlari: maktabdagi fan to'garaklari mashg'ulotlariga turg'un (barqaror) qiziqish; maxsus sinflar - (maktablar) mashg'uloti bilan ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish; havas va ota - onaga munosabat: jismoniy mehnatga munosabat; o'qituvchilik kasbiga moyillik va barqaror qiziqish: institutga kirish uchun tavsiya qilingan ixtisos va fakultet abituriyentni o'ziga tortuvchi (jalb qiluvchi) sevimli o'qituvchi va uning shaxs fazilatlarini; sevimli fan uni o'zlashtirishdagi yutuqlar; maktab va maktabdan tashqari o'qituvchining ijtimoiy va kasbiy faoliyati: ijtimoiy faoliyatda tashabbuskorlik va faollik darajasi; qaysidir masala bo'yicha o'quvchilar davrasida ma'ruza va chiqishlar qilish; qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish; kasb va ixtisoslik tanlashda mustaqillik va tashqi omillarning unga ta'siri; hukm va xulosa chiqarishda mustaqillik: o'qituvchi mehnatining hajmi bo'yicha tasavvur hosil qilish.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sanab bering..?

2. Shaxsning biliSh jarayonlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni..?

3. Diqqat nima?

4. Idrok va uning turlari ?

- 5.Xotiraning kasbiy faoliyatda tutgan o‘rni?
- 6.Tafakkurning inson faoliyatidagi o‘rni ?
- 7.Shaxsning individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o‘rni?.
- 8.O‘spirinlarda faoliyat va faollikning o‘ziga xosligi nimada?.
- 9.Xarakterning kasbiy faoliyatda namoyon bo‘lishini izohlang?
- 10.Temperamentning kasbiy faoliyatga ta‘siri qanday?
- 11.Qobiliyatning tug‘ma va orttirilgan sifatleri.. ?

Kasb tanlashga ta‘sir etuvchi asosiy omillar

4-2-dars Shaxsning bilish jarayonlari va individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o‘rni.

Reja:

- 1.Shaxsning bilish jarayonlarining kasbiy faoliyatdagi o‘rni.
2. Shaxsning individual xususiyatlarining kasb tanlashga ta‘siri
- 3.O‘spirinlarda faoliyat va faollikning o‘ziga xosligi.

Asosiy tushunchalar:

Diqqat,sezgi,idrok,xotira,,tafakkur,temperament,qobiliyat,o‘spirin,faoliyat,faollik,o‘qish faoliyati..

Shaxsning bilish jarayonlari va individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o‘rni.

O‘spirinlarning bilish jarayonlari va temperament xususiyatlarini hisobga olgan holda kasbga yo‘llash maqsadga muvofiq.

Sezgilar deganda, moddiy dunyodagi narsalarning ayrim xossalari va hodisalar insonning sezgi organlariga ta‘sir etib, muayyan tanlovdan (seleksiyadan) o‘tgandan keyin uning ongida aks ettirilishi tushuniladi. Boshqacha so‘z bilan aytganda, sezgi insonlarning tashqi ta‘sirni qabul qilish qobiliyati va shunday ta‘sirdan olingan his – tuyg‘u, bilish jarayonining sodda va boshlang‘ich shakli, bosqichi hisoblanadi. Sezgilar uch guruhga bo‘lib o‘rganilinadi: a) ko‘rish, his bilish, tam sezish, tuyush - eksteroretseptiv sezgilar; b) organik sezgilar, ya‘ni ichki organlarning faoliyati to‘g‘risida xabar berib turuvchi - interoretseptiv sezgilar; v) kinestetik (harakat), muvozanat, tebranish (vibratsiya) - proprioretseptiv sezgilar.

Sezgirlik deganda, sezish qobiliyatining yuksak darajada rivojlanganligi tushuniladi. Kasb tanlashda shaxsning sezgirliги muhim rol o‘ynaydi. Havo musaffo paytda ko‘zimiz 25 kilometr masofadagi shamning yorug‘ini ilg‘aydi. Buyumning og‘irligiga atigi 3-4 gramm qo‘shilishi bilan sezgi organlarimiz og‘irlik o‘zgarganligini seza oladi. Sezgi organlarining farq sezish chegarasi yorug‘lik uchun - ko‘zg‘alish (ta‘sir) ning yuzdan bir, tovush uchun - o‘ndan bir, bosim uchun uchdan bir birligiga teng. Insonning ko‘zi yarim millionga yaqin rang - tusni ajrata oladi. Bundan chiqadigan asosiy xulosa shundan iboratki, farqni sezish chegarasining past yoki yuqori bo‘lishi ko‘pchilik kasb - hunarlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Sezgirlik shaxsning muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ma‘lum faoliyat turi bilan shug‘ullanish sezgirlikni oshiradi. Buning uchun inson muntazam ravishda mashq qilishi va mashq jarayonida sezgirlikka nisbatan talabni oshira borishi, ishda sustlikka yo‘l qo‘ymaslik zarur. o‘spirinlarning ruhiy tetikligini, jismoniy faolligini oshirish, mehnatga, kasb - hunarga qiziqtirish ularning sezgirliги, ziyrakligini oshirish garovidir.

Ayni paytda sezgi organlariga ta'sir etayotgan ob'ektni mavjud narsa va hodisalarning inson ongidagi in'ikosi idrok deb ataladi. Verbal va noverbal xususiyatlari bilan boshqa bilish jarayonlaridan farqlanadi. Idrok voqelikni aks ettirishning sezgiga nisbatan yuksak shakli bo'lib, hodisalar, narsalar va ob'ektlarning yaxlit obrazini yaratadi.

O'spirinlarning o'qishi, mehnat faoliyati, muomala jarayoni, kasb tanlashi uchun fazo va vaqtni idrok qilishning katta ahamiyati bor. Har qanday kasb - hunar, ixtisos va mutaxassislik uchun ish sur'ati, vaqt, ish qurollari, vositalarining fazoda qanday joylashganligini aniq bilish talab qilinadi. Shaxsan kasbga yo'llashda uning olamni idrok qilish imkoniyatidan iborat fazilati va kuzatuvchanligi alohida rol o'ynaydi. Ba'zi birovlar moddiy narsalarga nisbatan kuzatuvchan bo'lsa, boshqalar psixologik jihatdan kuzatuvchandir. Shaxsning atrof muhitdagi narsa va hodisalar haqida chuqur fikr yurita bilishi uning idroklilik darajasiga bog'liq bo'lib, bu fazilat kasb tanlashda juda asqotadi.

Biror kimsa, narsa yoki hodisa haqidagi taassurotni esda saqlab, eslab qolish va keyinchalik esga tushirish, reproduktiv va produktiv holatni aks ettirish qobiliyati - xotira deb ataladi. Xotiraning hayot, faoliyat, muomala va xulq - atvor jarayonlarini aks ettirish qobiliyati muhim xislatdir.

Harakat xotirasi (harakatni eslab qolish, esga tushirish, esda saqlash, tanish, eslash, takrorlash), emotsional xotira (his-tuyg'ular bilan aloqador emotsional kechinmalarning voqelik bilan uyg'unligi) tasavvur xotirasi (buyumlarning ko'rinishi, shakli, qiyofasini eslab qolish va esga tushirish), so'z - mantiq xotirasi (so'zlar va nutq bilan uzviy bog'liq bo'lgan fikrlarni eslab qolish hamda esga tushirish) boshqalar farq qilinadi.

Bundan tashqari, xotira faoliyatning maqsadiga qarab - ixtiyoriy va ixtiyorsiz eslab qolish va esda saqlash, muddatiga qarab - qisqa muddatli, uzoq muddatli, operativ va boshqa xotira degan turlarga ham ajratiladi. Xotira, o'z navbatida ko'rgazmali, obrazli, so'z - mantiq, abstrakt, harakatli va oraliq tiplarga ham ajratilib o'rganiladi.

Yoshlarni kasbga yo'llashda ularning xotirasidagi shaxsiy farqlarni hisobga olish maqsadga muvofiq. o'quv materiallarining turli tumanligi xotirani o'tkirlashtirish, rivojlantirish uchun qulay sharoit yaratadi. Chunki kasb - hunarning xilma - xilligi xotiraning o'tkirligini talab qiladi.

Xotiraning hamma turlari, o'ziga xos jihatlari kasb-hunar, ixtisos, mutaxassislik tanlashda, turli - tuman kasblar to'g'risidagi ma'lumot axborotlarni o'zlashtirish, eslab qolish va keyinchalik esga tushirishda juda muhim rol o'ynaydi. Biror ixtisosni egallash uchun xotiraning yuqorida ta'riflab berilgan turlaridan birortasi albatta kerak bo'lib qoladi. Bu esa, o'z navbatida ishning samarali bajarilishini ta'minlaydi.

Aqliy mehnat bilan shug'ullanuvchilarning xotirasi ayniqsa o'tkir bo'lishi lozim.

Tafakkur voqelikning miyada bevosita zuhur etilgan mavhum va umumlashtirilgan in'ikosi bo'lib, insonning olam haqidagi bilimining asosiy manbai bo'lgan sezgilari, idroki va tasavvurlari hamda amaliy faoliyati bilan bog'liqdir. Tafakkur shaxsni bilimlar tizimi bilan qurollantiradi, qudratli tabiat kuchlarini o'ziga bo'ysundirish uchun imkon tug'diradi. Barcha bilimlar fikr yuritish yo'li bilan

o'zlashtiriladi. Bilimlarni anglash natijasida tushunchalar, mulohazalar va xulosalar kelib chiqadi. Inson fikrlash, mulohaza yuritish, ijodiy izlanish natijasida muammolar va muammoli vaziyatlar hal qilinadi, yangilik yaratadi, ijod (kreatsiya) qiladi.

Aqliy qobiliyat insonga xos yuksak fazilat bo'lib, muayyan operatsiyalar, xatti - harakatlar yordami bilan ro'yobga chiqadi. Inson mehnat faoliyatining barcha sohalarida o'zining aqliy qobiliyatidan samarali foydalanmog'i zarur.

O'spirinlarning fikr yuritish qobiliyatini aniqlovchi muhim mezonlardan biri muammoli

vaziyatdir. Ta'lim jarayonida o'quvchilarni yoki talabalarni muammoli vaziyatni, topshiriqni echishga o'rgatish ularning bu aqliy qobiliyatini rivojlantirishga katta yordam beradi. Buning uchun talabalarga muammoli, jumboqli topshiriqni echish bosqichlarini ta'riflab berish joiz. Bunda qo'yilgan muammoning mohiyati tushuntiriladi, uni echish usullari, vositalari qidiriladi, tanlangan usul hamda vositalardan foydalanib muammo yechiladi, uning to'g'ri echilganligi tekshiriladi va hokazo.

Ta'lim oldiga qo'yilgan maqsadga erishish uchun bir element ortiqcha berilgan yoki biror sharti etishmaydigan, yo bo'lmasa o'zaro mantiqan bog'lanmagan topshiriq hamda masalalardan muammo sifatida foydalanilsa juda qimmatli natija olinadi. Qo'yilgan muammoning kasb-hunarga aloqador bo'lgani ma'qul. Muammoni hal qilishda tafakkurning mustaqilligi, ixchamligi, tezligi, mantiqiyliigi, izchilligi, o'tkirligi, teranligi, mahsuldorligi juda katta ahamiyatga ega.

Xullas, tafakkurning hozirgacha foydalanilayotgan imkoniyatlarini zudlik bilan ishga solish kasb tanlash samarasini oshirish ishiga xizmat qilishga ishonchimiz komil.

Xayolot (fantaziya) ob'ektiv voqelikni inson ongidagi o'ziga xos in'ikosi, real yoki noreal hodisalar haqidagi o'y, fikr, farazga asoslangan tasavvurlar majmuasidir. Birona, hatgo eng chalkash faraziy tasavvur ham shaxs aqlning faqat sub'ektiv mahsuli hisoblanmaydi, oqibat natijada bu tasavvurda ob'ektiv voqelik aks ettirilgan bo'ladi. Shunga ko'ra inson faoliyatining qanday turi uchun, shu jumladan olimning faraz yaratishi, voqelikni baShorat qilish, xodisalarning sabablarini taxmin etish uchun xayolot juda zarurdir. o'quvchi yoki talabaning faraziy tasavvuri etarlicha rivojlanmagan bo'lsa, ta'lim jarayonida ko'zlangan maqsadga erisha olmaydi.

Yangilik yaratishga intilgan har qanday shaxsni ijodiy farazsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Yangiliq yaratish yo'llari faraz qilish jarayonida vujudga keladi. Inson orzu, ezgu niyat qilmasdan, xayol surmasdan, o'ylamasdan yashay olmaydi. Ijodiy izlanish shaxsning psixologik tavsifi uchun katta ahamiyatga ega. Shaxsning xayol suriyu, faraz qilish, tasavvur etish qobiliyatiga qarab uning ma'naviy dunyosi to'g'risida muayyan darajada aniq fikrga kelish mumkin. Inson faraziy obrazlar, timsollar, tasvirlar tufayli tobora sezgir, mehribon, xushmuomala, saxiy bo'ladi.

Shunday qilib, faol bilish jarayoni inson faoliyatining hamma turlarida bir tekis ishtirok etadi va aks ettirishning mukammal bilish imkoniyatini kafolatlaydi. Bilish jarayonining xususiyatlari, mexanizmlari va qonuniyatlariga tayakib ish tutgan shaxs kamroq xato qiladi. Bu omillar uning xatolariga nisbatan ongli munosabatda bo'lishiga, yo'l qo'ygan kamchiliklarini o'z vaqtida tuzatishiga imkon yaratadi.

Shaxsning xulq - atvori, temperamenti, salohiyati va boshqa xislatlari kasb tanlayuda alohida ahamiyat kasb etadi. Temperament shaxsning ruhiy xususiyatlaridan biri bo'lib, alohida olingan inson shaxsida ruhiy jarayon va faoliyatning vujudga kelishi, o'tishi, kechishi va dinamikasini belgilab beradi. Lekin psixik faoliyat dinamikasi temperamentga emas, balki shaxsiy sabablarga va Shaxsning ruhiy holatiga bog'liqdir. Xuddi shu boisdan inson, temperamentidan qat'iy nazar, mas'uliyat hissini sezsa, o'z kasbida g'ayrat bilan ishlaydi, kasbini yoqtirmasa, aksincha, sustkashlik qiladi.

Temperament inson psixik faoliyatining xususiyati bo'lib, fiziologik asosini, asab tizimining tiplari, oliy asab faoliyati qonuniyatlari tashkil etadi. Temperament to'rtta asosiy tipga ajratiladi: sangvinik (xushchaqchaq), flegmatik (bo'shang, og'ir), melanxolik (g'amgin), xolerik (qiziqqon).

Temperament shaxsning bama'niligini; dunyoqarashi, nuqtai nazari, e'tiqodi, qiziqishlari

va hokozalarini ko'rsatuvchi belgi emas.

Hozirga davrda temperament tiplarining psixologik ta'rifi senzitivlik, reaktivlik, aktivlik, ta'sirlanish tezligi, labillik, dinamiklik, reaktivlik bilan aktivlik munosabatlarning muvozanati, harakatning ravonligi, rigidlik (qotib qolganlik), ekstrovertlik va introvertlik kabi xususiyatlariga asoslanib tuziladi. Psixologiya fanida temperamentning o'ttizdan ortiq (ba'zan qirqdan ko'proq) tipidan olingan. Amaliyotda esa asosan ekstravert va introvert tiplari ko'proq qo'llanadi. Shaxsni kasbga yo'llash jarayonida temperamentning psixologik ta'rifi berilishi shart.

Sangvinik - juda faol, har bir narsaga ham qattiq kulaveradi, yolg'on dalillarga jahli chiqadi. Ob'ektlar, ma'ruzalar diqqatini tez jalb etadi. Imo - ishorani ko'p ishlatadi, chehrasiga qarab kayfiyatini anglab olish qiyin emas. Juda sezgir bo'lishiga qaramay kuchsiz ta'sir (qo'zg'atuvchilar)ni seza olmaydi, serg'ayrat, ipchan, toliqmas. Faollik bilan reaktivlik munosabati muvozanatda, imtizomli, o'zini tiya biladi, boshqara oladi. Xatti - harakati jo'shqin, nutq sur'ati tez, yangilikni tez payqaydi, aql - idroki tiyrak, topqir, kiziqishlari, kayfiyati, intilishlari o'zgaruvchan. Ko'nikma va malakalarni tez egallaydi. Ko'ngli ochiq, dilkash, muloqotga (muomalaga) tez kirishadi. Xayoloti (fantaziyasi) yuksak darajada rivojlangan, tashqi ta'sirlariga hozir javob va hokazo.

Xolerik — sust senzitivlik xususiyatiga ega. Juda faol va reaktiv. Ko'pincha reaktivligi faolligidan ustun keladi. Betoqat, serzarda, tinimsiz. Sangvinikka qaraganda silliqroq, ammo ko'proq qotib qolgan. Qiziqishlari, intilishlari barqaror, xatti - harakatida qat'iylik mavjud. Biroq diqqatini bir ob'ektga to'plashda qiynaladi. Nutq sur'ati tez va hokazo.

Flegmatik - senzitivligi sust. His - tuyg'usi ham o'zgaruvchan, shunga ko'ra bunday shaxsni kuldirish, jahlini chiqarish, kayfiyatini buzish qiyin. Ko'ngilsiz hodisa, xavf - xatar haqidagi xabarga xotirjamlik bilan munosabatda bo'ladi. Vazmin, kam harakat. Imo - ishoralari, mimikasi ko'zga yaqqol tashlanadi. Lekin serg'ayrat, ishchan, faol, chidamli, matonatli. Nutq va harakat sur'ati sust. Farosati qiyiqroq. Diqqatni to'plash sekin. Qotib qolgan (regid). Diqqatni ko'chirishi qiyin. Intravertlashgan. Ichdan top. Yangilikni qabul qilish qiyin. Tashqi taassurotlariga sustlik bilan javob beradi.

Melanxolik - senzitivligi yuksak. Sezgi chegarasi keng emas. Arazchan, xafaqon. Jimgina yig'laydi, kam kuladi. Sustkash. Tortinchoq, g'ayratsiz. Qat'iyli va mustaqilligi kam. Tez toliqadi. Ortiqcha ishchan emas. Diqqati beqaror. His - tuyg'usi sust o'zgaradi. Qotib qolgan. Intravertlashgan.

Temperament tiplari xususiyatlarini faoliyat talablariga moslashtirish mumkin, buning uchun:

1. Kasb - hunarning talabalar temperamentiga mos keladigan turini tanlash kerak. Shaxsning psixik xususiyatlariga mos tushadigan kasbni tanlash, kasbiy saralash deb yuritiladi;

2. Talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olish lozim;

3. Temperamentga xos kamchiliklarini (illatlarni) bartaraf etish kerak. Demak, shaxsni qaytadan shakllantirish yo'li bilan temperamentni faoliyat talablariga qisman moslash mumkin;

4. Individual uslubni shakllantirish zarur. Talabaning faoliyatga ongli, faol va ijodiy munosabatda bo'lishi buning uchun eng zarur shartdir.

Shaxsning hulq-atvor xususiyatlari uni faoliyatiga undovchi asosiy omil hisoblanadi.

Psixologiya fani shaxsning fe'l-atvori xususiyatlarini to'rt guruhga ajratib o'rganadi:

5. Jamoa va alohida shaxsga nisbatan munosabatlarini ifodalovchi fazilatlar: yaxshilik, mehribonlik, talabchanlik, faxrlanish va boshqalar;

6. Mehnatga nisbatan munosabatni bildiruvchi xususiyatlari: mehnatsevarlik, yalqovlik, vijdonlilik, mas'ulyatlilik va hokazo;

7. Narsalarga nisbatan munosabatni anglatuvchi sifatlar: ozodalik, sarishtalik, avaylash va shu kabilar;

8. O'z-o'ziga nisbatan munosabatni ifodalovchi xususiyatlar: izzat nafslilik, kerilishlik, dimog'dorlik, kamtarinlik va hokazo.

Xulq-atvor xususiyatlarning shakllanishida o'qish va mehnat faoliyatli etakchi rol o'ynaydi, chunki o'qish va mehnat jarayonida qo'llaniladigan individual usullar xulq-atvorga ta'sir etib, uning ayrim xususiyatlarini keltirib chiqaradi. Ko'pgina xususiyatlar o'zgaga taqlid qilish natijasida ham paydo bo'ladi. Xulq-atvorga janjalli (nizoli) vaziyatlar ham ta'sir ko'rsatadi. Inson umrining ohirigacha o'z xatgi-harakatlarini boshqarib, xulq atvorini o'zi barqarorlashtirgan bo'lsa, kasb-hunar tanlashga shunchalik oqilona va qatiyatlik bilan yondoshiladi.

Talabalar va o'quvchilar qobiliyati, layoqati ta'lim jarayonida va mehnat faoliyatida tobora rivojlanadi. Qobiliyat taraqqiyotining yuksak bosqichiga talant, iste'dod deyiladi. Iste'dod murakkab ishni (faoliyat) muvaffaqiyatli, mustaqil va mohirona bajarishga (amalga oshirishga) imkon beradigan qobiliyatlar tizimidir (biologik shartlangan xislatlardan bittasidir).

O'spirinlarning qanchalik iste'dodli ekanligini aniqlash uchun ushbu xususiyatlarga e'tibor bersh lozim:

4. Shaxsning ziyrakligi, jiddiy sinovga shayligi, tayyorligi;
5. Shaxsning mehnatga moyilligi, unga ehtiyoj sezishi;
6. Mantiqiy fikr yuritish tezligi, izchanligi samaradorligi, tashabbuskorligi va boshqalar.

Shaxsiy xususiyatlar va qobiliyatlar tug'ma bo'lmaydi (tabiiy alomatlari, moyilligi mavjuddir), balki ijtimoiy, shaxsiy hayot va faoliyat jarayonida muayyan omillar, manbaalar ta'siri ostida tarkib topadi. Lekin layoqatlilik qobiliyatining tabiiy zamini ekanligi shubhasizdir. U qobiliyat taraqqiyotining dastlabki tabiiy sharti sifatida namoyon bo'ladi. Unda miya tuzilishi, sezgi a'zolari va harakatlarning morfologik hamda funksional xususiyatlari layoqatga nisbatan beriladi.

Yoshlarni kasbga yo'llashda ularning his-tuyg'ulari va irodalarini hisobga olishning ham ahamiyati qiymatli, chunki talabalarning (o'quvchilarning) his - tuyg'usi, kayfiyati, stress va ob'ektiv holatlari o'rganilmasa va e'tiborga olinmasa, ko'zlangan «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»dagi ulug'vor maqsadga erishib bo'lmaydi. Buning uchun iste'dodli yoshlarni tanlash, ularni individual o'qitish, zari shart-sharoitlar yaratish, reyting va modul tizimlari asosida ularga saboq berish ta'limning davlat standartlari talabiga javob beradigan, komil insonlikka intiluvchi shaxslarni kamol toptirish kafolatidir.

Shunday qilib, kasbga yo'llash jarayonida shaxsning individual - tipologik xususiyatlari va his - tuyg'ularini, layoqat, iste'dodni hisobga olish, shuningdek, yoshlarni fan asoslari va psixologik bilimlar bilan qurollantirish ularning kasb-hunar, ixtisoslik, mutaxassislik oldiga qo'yiladigan psixografik, professiogrammalari talablarga moslashishga imkon beradi.

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari muayyan yondashuvlar negizida tadqiq etilgan. Bizningcha (E.G'), muayyan jamoa a'zosi, jismoniy, jinsiy, ijtimoiy kamolatga erishgan, biologik va ijtimoiy shartlangan xislatlar egasi, o'z imkoniyatlarini ro'yobga chiqaruvchi, biliShga intiluvchi, faoliyat, xulq, muomala sub'ekti shaxs deyiladi. Quyida ayrim psixologlar talqiniga to'xtalib o'tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob'ekti, ham sub'ektidir.

Yirik rus psixologi **A.N.Leontev** ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday

ta'rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub'ektidir. **K.K.Platonov**ning talqiniga binoan, jamiyatda o'z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a'zosi, shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan **S.L.RubinShteyn** ta'rificha, shaxs - bu taShqi ta'sirlar yo'nalishini o'zgartiruvchi ichki shart - sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir - biriga yaqin, lekin aynan bir bo'lmagan tushunchalar qo'llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab beriSh uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qiliSh maqsadga muvofiq.

1. Odam. Sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzot ekanliga odamning o'ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo'llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o'ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettiriSh qobiliyatidan tashqari o'z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o'zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

4. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidani ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi, til yordami bilan boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

5. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. Shaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual xislatlar shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

SL.RubinShteyn nazariyasi bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarida ifodalanadi.

2. Bilimlar - hayot va faoliyatda ko'nikmalar malakalar jarayonida egallanadi.

3. Individual - temperament, tipologik xususiyatlar, xarakter, qobiliyatlar aks etadi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniklaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshirishini ta'minlovchi tizim. o'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

5. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq - atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimidagi irodaviy va ma'naviy sifatlar.

6. Malakalar tizimi. Hayot va faoliyat, sifatlar xulq - atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini - o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar mohiyati quyidagilarda o'z ifodasini topadi:

1) Ta'lim - tarbiya tizimida kasbga yo'llash faoliyatining (tadbir va choralarning) mazmuni va metodikalari majmuasi mukammal ravishda mujassamlashganligi.

Maktab (qaysi turdaligidan qat'iy nazar) ma'muriyati, sinf rahbarlari, amaliy psixolog va kasbga yo'llovchi fan o'qituvchilarining ish rejasida mazkur masala joy olganligi. Shuningdek, bu muammoga taalluqli ishlar, tadbirlar izchil amalga oshirilib turilishi, ularning ta'sirchanligiga e'tiborning ortishi tufayli o'quvchi yoshlar orasida bu sohada tasavvur ko'lamining kengayishi. Rasmiyatchilikdan chekinib, umumiy va zaruriy masala sifatida qabul qilinishi uning qiymatini ko'taradi.

2) o'quvchilarni kasb tanlashga o'rgatishda o'qituvchilar jamoasi faoliyati hamkorligi va

samaradorligi.

Alohida olingan fan o'qituvchilari va turdosh fanlarning namoyondalari jamlanmasi hamkorlik ish rejasida kasbga yo'llash masalasining izchil ravishda qo'yilishi, har bir mavzu bo'yicha mulohaza almashishda, qaysi fan bo'lishidan qati nazar ixtisosga oid bilimlarga e'tibor berilishi kasbiy tasavvurni vujudga keltiradi. Kasb-hunar mohiyati bilan tanishish unga nisbatan kiziqishni uyg'otadi, mustaqil bilim olishga ishtiyoq paydo bo'ladi va odat maromiga aylana boradi. Maxsus tadbirlar o'tkazilishi, kasb nufuzi bilan tanishtirilishi kasbiy motivlar va motivatsiyalarni taqomilashtiradi, moyillik tuyg'usini uyg'otadi.

3) Sinf rahbarining ota - onalar bilan hamkorligi ongli kasb tanlash negizi ekanligi.

Sinf rahbari ota - onalar bilan individual va guruhlik hamkorlikni amalga oshirishda quyidagilarga e'tibor qilsa, yuqori ko'rsatkichga erishishi mumkin: o'quv fanining kasb tanlash bilan bog'liqligi, kasbning nufuzi, kasb tanlashning psixologik asoslari, kasbga nisbatan qiziqish, havas, qobiliyat, iste'dod kasbga yo'llashning asosiy maqsadi va vazifalari, professiogramma (professografiya) mohiyati, kadrlarga va mutaxassislarga nisbatan ehtiyoj darajalari, kasbning ijtimoiy ahamiyati, layoqatining umumiy va xususiy ko'rinishlari, o'quvchilar individual xususiyatlari, kasb tanlashning ilmiy manbalari, maktab psixologining bu sohadagi funksiyasi va boshqalar.

4) Kasb tanlashda yoshlar tashkilotining ishtiroki.

Yoshlar tashkiloti faoliyatida kasb tanlash masalasining ustuvorligi, o'quvchilarning turli fondlarga jalb qilinishi, iste'dodlarning saralanishi, mukofotga tortilishi, moddiy va ma'naviy taqdirlanishi kabilar.

5) Sinfdan va maktabdan tashqari olib boriladigan ishlar mazmunida kasb tanlashning alohida ajratilib ko'rsatilishi.

6) Maktablarda ishlab chiqarish kombinatlarida ommaviy va keng ko'lamda yo'lga qo'yilishi.

7) Maxsus muassasalar faoliyati.

8) Kasbga oid qo'rgazmalar, sayohatlar uyushtirilishi.

9) Ijodkor, nufuzli, mahoratli kishilar bilan uchraShuvlar o'tkazilishi.

10) Kasb tanlashda mahalliy matbuot, radio va televideniening ishtiroki.

Kasbga yo'llash umumdavlat ahamiyatiga ega muammo hisoblanib, uni bosqichma - bosqich amalga oshirish «Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da alohida o'rin egallaydi. Yuqorida kasb tanlashga yo'llash omillari faoliyatini hamkorlikka aylantirish yuksak samaralar sari etaklaydi. Kasbiy sifatlar muvofiqlashtiruvchi va qayta tashkil qiluvchi funksiyalarini boshqaradi, ijro etadi: bu funksiyalarning o'zaro muvofiqligi kasbiy o'zini o'zi anglash va kasbiy taraqqiyotni ta'minlaydi. Kasbiy sifatlarining muvofiqlashtiruvchi funksiyasi kasbiy sentrizm va barqaror kasbiy-mintaqaviy pozitsiyani zaruriy darajasini ta'minlash bilan belgilanib, u quyidagi mezonlarni o'z ichiga oladi: **konstantlik** (o'zgarishlarga qarshilik ko'rsatish qobiliyati), **moslashuvchanlik** (noadekvat kasbiy stereotiplarni engib o'tishga qodirlik), **distantlik** (ish joyi haqidagi semantik, informatsion, madaniy tasavvurlarga ega bo'lish). qayta tashkil qiluvchi funksiya kasbiy pozitsiyani rivojlantirish va o'zgartirishga yo'naltirilgan bo'lib, kasbiy muhim sifatlar va shaxsning kasb bilan identifikatsiyasi diapozonini o'zgarishi, o'z kasbini boshqa kasblardan ajratish, kasbiy sifatlar tizimidagi tartiblilik yoki "tarqoqlik" dan iborat. Professiogenez negizida qayta quruvchi, muvofiqlashtiruvchi va amalga oshiruvchi komponentlarning davriy dinamikasi yotadi. K.A.Abulxanova-Slavskaya tomonidan hayot yo'li tuzilishi (hayotiy pozitsiya, hayotiy chiziq, hayot mazmuni)ga asoslangan murakkab kasbiy sifatlar tipologiyasi ishlab chiqildi. Muallif shaxsning kasbiy faoliyatda o'zini namoyon qilish

xususiyatlariga muvofiq quyidagi kasbiy sifatlar tipologiyasini ajratib ko'rsatadi:

1) Shaxs xarakteriga maksimal darajada yaqin bo'lgan kasblarni tanlash orqali o'zligini namoyon qilish sodir bo'ladi. Bu holatda hayotiy imkoniyatlar shaxs o'zining imkoniyatlarini to'liq amalga oshirishiga sharoit yaratuvchi vaziyatlarni qaytarish bilan bog'liq bo'ladi.

2) Shaxsga kasbiy mahorat pillapoyalaridan ko'tarilish imkonini beruvchi kasb tanlanadi. Bu holatda kasbiy pozitsiyaning sifatli o'zgarishi bilan bir qatorda imkoniyatlarning ortishiga olib keluvchi harakat sodir bo'ladi. Kasbiy yuksalish negizida mehnat faoliyatining talablari va vazifalari, shu bilan bir qatorda shaxs qobiliyatlarining rivojlanishi yotadi.

3) Kasbiy faoliyatda o'zligini namoyon qilish o'z ustida ishlash hamda shaxsiy sifat va qobiliyatlarini rivojlantirish orqali amalga oshadi. Kasb potensial holatidagi shaxs qobiliyatlarini faollashtiradi, shaxs taraqqiyoti uchun imkoniyatlar ochib beradi.

4) Shaxsning o'zligini namoyon qilish qobiliyatlari, o'zini o'zi nazorat qilish va o'zini o'zi tahlil qilishni rivojlantirish hamda ijodiy faollikni rejalaShtirishga asoslangan bo'ladi: bu holatda shaxs kasbiy o'sish va rivojlanishga, qolaversa, shaxsiy qobiliyatlarini amalga oshirish maqsadida mehnat sharoitini qayta qurishga qodir bo'ladi. Kasbiy sifatlarini tadqiq qilishdagi qiyinchiliklardan biri ushbu fenomenning umumiy shaxs sifatlarini tuzilishida qanday joyni egallashi bilan bog'liqdir. Shunday qilib, "kasbiy sifatlar" tushunchasi shaxsning kasbiy shakllanishi mazmuni va sharoitiga nisbatan aniq shaxs sifatlarini qo'llash tarzida ko'rib chiqiladi. Aytish joizki, ko'pgina tadqiqotlarda ijtimoiy tomonga oqishishlar kuzatiladi. Masalan, L.B.Shneyder kasbiy sifatlarining ikkita muhim aspektlarini ajratib ko'rsatadi: Kasbiy sifatlar" tushunchasi o'zi nimani anglatadi. . Ushbu savollarga javob berish asnosida kasb - bu inson hayotining o'ziga xos tomoni bo'lib, muayyan bir faoliyat ekanligini eslaymiz. Shu bilan bir qatorda, bu aniq bir faoliyatni bajaruvchi, umumiy talablar, qadriyatlar asosida tarbiyalangan va atrofdagilarning o'zaro madaniy munosabatlari negizida qurilgan Shaxslar guruhiga sub'ektning daxldorligini anglatadi. Shuning uchun kasbiy sifatlar faoliyatni amalga oshirish jarayonida shakllansa ham ular shaxsning ijtimoiy muhitdagi o'z o'rnini, mehnat jamoasining xususiyatlarini tushunishi bilan uzviy bog'liqdir. Kasbiy sifatlarining aynan mana shu aspekti tez-tez psixologik tahlil doirasidan chetga chiqib ketadi. Kasbiy sifatlarini o'rganishning qiyin tomoni, birinchidan u shaxsning aynan o'ziga, ikkinchidan esa muayyan bir guruh a'zolariga tegishlidir. Muayyan bir ijtimoiy kategoriyalarga shaxsiy daxldorlikni idrok qilishning identifikatsiya jarayoni, shunga muvofiq qadriyatlar tizimining shakllanishi bilan hamohang tarzda kechadi. Kasbiy shakllanish jarayonida sub'ekt o'zini o'z kasbi vakili, u yoki bu kasbiy sifat sohibi yoxud muayyan bir taraqqiyot boschidagi mutaxassis sifatida identifikatsiyalaydi. Ijtimoiy sifatlar muammosi psixologiyadagi yangi tadqiqot sohalariidan biri hisoblanib, unda ijtimoiy sifatlar tuzilishi va turli ko'rinishdagi shaxs sifatlarining muvofiqligi haqidagi tasavvurlar aks etadi. Shuning uchun ham ijtimoiy sifatlarining etnik, kasbiy, madaniy, xududiy va boshqa turlari yaxlit holda o'rganilmagan. Bu ijtimoiy identifikatsiyaning alohida turlarining metodologiyasini o'rganishda o'z aksini topgan. Kasbiy identifikatsiyaning umumiy identifikatsiyalar tuzilishida tutgan o'rni hali to'liq yoritib berilmagan, lekin fenomen va ijtimoiy identifikatsiya tuzilishi hamda uning alohida turlari haqidagi ilmiy tasavvurlarning rivojlanganligi kasbiy identifikatsiyani ijtimoiy "Men" tuzilishidagi muhim elementlardan biri sifatida o'rganish imkonini beradi. Identifikatsiya jarayonida shaxsning o'zini mutaxassis sifatida anglashi mehnat jamoasi, ish joyini ichida sodir bo'ladi. Bu makon o'zida faqatgina ijtimoiy muhitni - jamoani, xodim va boshqaruvchi mutaxassislarni yoki faqatgina kasbiy normalarning tashuvchilarini emas, balki mehnat ob'ektini, qolaversa inson o'z faolligini yo'naltiruvchi voqelikni mujassamlashtiradi. **E.V.Koneva** "kasbiy makon" tushunchasini

mutaxassis, insonlar jamoasi ish olib boruvchi, atrofdagi voqealarga o'z ta'sirini o'tkazuvchi ob'ektlar tizimi sifatida o'rganadi. Muallifning ko'rsatishicha, kasbiy makon tushunchasiga nisbatan bunday yondoshuv uning kasbiy identifikatsiya bilan aloqalarini osongina o'rnatish imkonini beradi: insonning o'zini mutaxassis sifatida his qilishi - aynan mana shu jihat uni ayrim odamlar, ob'ektlar, voqealar va masuliyat doirasi ichidagi shaxsning o'zi haqidagi tasavvuridir. Demak, kasbiy identifikatsiya zamonaviy psixologik tadqiqotlarning ilmiy va amaliy ahamiyatga ega bo'lgan predmeti hisoblanadi.

Kasb – hunar to'g'risida har xil munosabatlar hosil bo'lishining asosiy sabablaridan biri – bu maktab o'quvchilarida kasb tanlash jarayonida turli xil motivlarning namoyon bo'lishidir. Motivlar o'rtasidagi kurash ularning u yoki bu qarorga kelishlariga sabab bo'ladi. Bizningcha, voqelikka ongli munosabatda bo'lish ob'ektiv va qat'iy qarorni keltirib chiqaradi.

V.A.Krutetskiy o'spirinlarda uchrashi mumkin motivlardan quyidagilarni alohida ta'kidlab o'tadi:

- 1) biror o'quv faniga nisbatan o'spirinning qiziqishi,
- 2) vatanga foyda keltirish istagi (o'zlarining individual -psixologik xususiyatini va qobiliyatlarini hisobga olgan holda),
- 3) shaxsiy qobiliyatini ro'kach qilib ko'rsatish,
- 4) oilaviy an'analarga rioya qilishi (vorislik),
- 5) do'stlari va o'rtoqlaridan o'rnak olganligi,
- 6) ish joyining va o'quv yurtining uyga yaqinligi,
- 7) moddiy ta'minlanganlik,
- 8) o'quv yurti ko'rinishining chiroyliligi yoki unga joylashishning osonligi singari motivlardir.

Bundan tashqari, yoshlarda boshqa turdagi motivlar ham mavjud bo'ladi. Ular qatoriga shaxsning biror kasbga, fanga moyilligi, o'z oldiga qo'ygan maqsadi, unga intilishi, qunti, kasb to'g'risidagi ma'lumoti, uning sihat - salomatligi, asab tizimining xususiyati va temperamentining xususiyatlari kabi motivlarni sanab o'tish mumkin. Biroq motivlarning boshqa xillari ham uchraydi. Lekin holatning o'zgarishiga qarab ulardan unisi yoki buni bosh maqsadga aylanib turadi.

Mazkur holatni tadqiq etgan yirik psixolog **E.A.Klimov** o'spirinlar kasb tanlash kezida; **birinchidan**, biror kasbning «nufuzli ekanligiga» baho borishdagi dogmalarga asoslanish, **ikkinchidan**, kasbga uzoq va noaniq tasavvurga binoan baho berish, **uchinchidan**, biror kasb egasi bo'lmish kishiga nisbatan ijobiy yoki salbiy munosabatda bo'lishni tegishli kasbga ko'chirish, **to'rtinchidan**, kasbning oddiy kundalik tomonini nazar - pisand qilmasdan, uning tashqi tomoniga, sirtiga mahliyo bo'lish, **beshinchidan**, o'rtoqlarining ta'siri ostida «kompaniya uchun» kasb tanlash kabi xatoliklarga duch kelishi mumkinligini ta'kidlab o'tadi.

O'spirinlar kasb tanlash to'g'risida yaqqol tasavvuriga ega bo'lmaganliklari boisidan ko'proq xatoga yo'l qo'yadilar. Tanlangan yoki tanlanishi zarur bo'lgan kasb undan qanday shaxs fazilatlarining talab qilishini tushunib etmaydilar. Ular o'z layoqatlarini oqilona baholashga qurbi etmaganligi uchun u yoki bu kasbni egallaganda qanday tezlikda va aniqlikda harakat qilishligini, sezish va idrok qilish xususiyatlarini, asab tizimining muvofiqlashishi mumkinligini bilmaydilar. Shuning uchun yuqorida bayon qilib o'tilgan hatolarga yo'l qo'yadilar. Biroq hozirgi davrda bunday ko'ngilsiz xolatlarining oldini olish imkoniyatlari mavjud. Buning uchun quyidagi pedagogik – psixologik va ijtimoiy xususiyatli umumiy tomonlarga alohida e'tibor berish maqsadga muvofiq.

1. Kasblarni o'rganish metodlarini ishlab chiqish, ularni tasniflash va lo'nda qilib ifodalash.

2. O'qituvchining kasb maorifi yuzasidan tashviqot ishlari olib borish o'qituvchilar bilan kasbga doir individual konsultatsiyalar – maslahatlar uyushtirish, o'spirin va uning ota-onasi bilan kasbga yo'naltirish metodikasini birgalikda ko'zdan kechirish.

3. O'spirinlarni kasbning asosiy guruhlari, turlari bilan yaqindan tanishtirish; muayyan kasb oldiga qo'yiladigan shaxsning fiziologik, psixologik fazilatlarini hamda kasb o'rganishning yo'llari bilan tanishtirishni tashkil qilish.

4. Mehnat ta'limi darslarida o'quvchilarda dastlabki kasbiy tayyorgarlikni yuzaga keltirish va unga nisbatan mehr-muhabbat uyg'otish.

5. Psixodiagnostik va kasb tanlashga doir metodlarni amaliyotga tadbiiq qilishga moslashtirilgan turlarini ishlab chiqish.

6. Tuman va shaharlarda zamon talabiga javob beradigan kasb tanlash markazlarini jihozlash.

7. Kasb tanlashni tashviqot qilish yuzasidan o'spirinlarni ommaviy axborot vositasiga jalb qilish va ularni psixologik jihatdan tayyorlash kabilar.

Kasb tanlashga yo'llanma berishning va uni tashviqot qilishning usullaridan biri - ko'rgazmali vositalar, fotostendlar, kitoblar ko'rgazmasi, yosh rassom va tabiatshunoslar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar ijodiy faoliyatining mahsulotini namoyish qilish, naqqoshlar va texnika to'garagi ishlarini ko'rgazmalarga qo'yishdir. Bundan tashqari, muzeylarga ekskursiyalar uyushtirish orqali u yoki bu kasbga nisbatan qiziqishni vujudga keltirish mumkin. o'spirinlarda hosil bo'ladigan praksik (lazzatlanish, rohatlanish) hislar kasbga mehrini oshiradi va unga nisbatan mustahkamlaydi.

Psixolog **M.G.Davletshin** kasb tanlashni uch bosqichdan kelib chiqqan holda (kasb maorifi, kasbiy maslahat, kasbga yo'naltirish) Shaxsning kasb - hunarga yaroqliligi (layoqati)ning ichki tomonlarini ochishga harakat qiladi: a) kadr tanlash davrida Shaxsning umumiy yaroqliligi (layoqati); b) kasb- hunar tanlashda uning qaysi kasb turiga loyiqiligi; v) kasbga o'rgatishda shaxs sifatlarini shakllantirish imkoniyatining mavjudligi haqidagi savollarga javob olishga intiladi. Muallifning fikricha, o'spirinning kasbga yaroqliligini aniqlaganda uch muhim narsaga etibor qilish maqsadga muvofiqdir: kasbga munosabat, qobiliyat, qo'nikma va malakalar. Odamning kasbga yaroqliligini aniqlashda uning qiziqishi, irodasi, qobiliyati, maxsus bilimi, ko'nikmalarining jips aloqasini ifodalagan holda olib qarash oqilona yo'ldir.

Yuritilgan mulohazalardan ko'rinib turibdiki, kasb - hunar to'g'risida axborot, kasb haqida maslahat vositalari ongli kasb tanlash uchun etarli emas. Shuning uchun o'spirin o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularni mustaqil bilim olishga o'rgatish kasb tanlashda o'z kuchini muayyan faoliyatda sinab ko'rishga imkoniyat yaratadi. Lekin bu bilan kifoyalanish, qanoat hosil qilish shart emas, balki boshqa yo'l va vositalarni qidirish, izlash darkor.

Mehnat psixologiyasi namoyondalari kasb tanlashning o'zgacha usullarini tavsiya qilmoqdalar. Jumladan, barcha fanlarni o'qitishda politexnik xususiyati va xossasini chuqurlashtirish; tabiiy - matematik sohadagi fanlarda atrofda ishlab chiqarishdan ob'ekt sifatida foydalanish; ijtimoiy turkumdagi fanlarni o'qitishda o'lkashunoslik materiallarini qo'llagan holda faoliyat uyushtirish o'quvchilarning kasbga nisbatan qiziqishini orttirish va mehnat qilishga ularni axloqan tayyorlash; fan asoslarini egallashda kasb haqida axborotlar berib borish; mehnat sohalari to'g'risida kasb tanlovchiga mustaqil tanishish sharoitini yaratishdir.

O'quvchilarni **professiogramma** bilan tanishtirishda bosh maqsad quyidagi

tarkibiy qismlarni, jihatlarni o'z ichiga qamrab oladi:

a) asosiy mehnat qurollari - kasb tanlovchining diqqati, shijoati, fikr - xayoli - xuddi shu qurollarga qaratilgan va yo'naltirilgan bo'lishi kerak;

b) asosiy mehnat operatsiyalari: mehnat quroli bilan qanday faoliyatni amalga oshirish imkoniyati mavjudligini aniqlash va qaysi sohalarida ishlatish mumkin ekanligini bilish; ishlab chiqarish jarayonidagi operatsiyalarning rolini to'g'ri tasavvur qila olish; operatsiyalarning yangi variantlarini qidirish va kashf qilish uchun harakat qilish;

v) asosiy qurollar va vositalar: qo'l aslahalaridan - slesar, xirurg, skripkachi, g'ijjakchi, kamon chaluvchi kabi kasb egalari foydalanadi;

g) mehnat sharoitlari: kasb tanlovchini o'rab turgan tabiiy muhit va sharoitlar, kishilar va hokazo.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda o'spirinlarning qiziqishi, mayli, ehtiyoji, iqtidori, malakasini hisobga olgan holda to'g'ri yo'naltirish mamlakat taraqqiyoti uchun puxta zamin hozirlaydi. Bu haqda "Kadrlar tayyorlashning milliy dasturi»da ibratli fikrlar bildirilgan.

G.F.Pavlyukning o'qituvchi ixtisosligiga taalluqli ma'lumotnomalar xaritasi alohida ahamiyat kasb etadi ,

1) jamiyat ehtiyojlariga mos tushuvchi yuksak darajadagi qarashlar, e'tiqodlar, ideallar shakllanganligi (jamoaviy) yo'nalganlikni ifodalov shaxsning ijtimoiy — siyosiy faolligi;

4) bolalarga nisbatan mehr — muhabbat, ularni ehtiyojlari va qiziqishlarini tushuni ko'nikmasining mavjudligi;

5) pedagogik kuzatuvchanlik (perseptiv qobiliyat)

5) hayot va faoliyatning u yoki bu jabhalar odamlar xatti -harakatlarining xususiyatlari oqilona tushunish va izohlashga qobillik;

5) o'zgaruvchan shart - sharoitlarda omilkorlik bilan mo'ljal olish qobiliyati;

6) tashkilotchilik va boshqaruvchanlik qobiliyatlarga ega;

7) umumiy va bilishga oid qiziqishlarning ko'pqirraliligi;

8) maqsadga erishish yo'lida irodaviy zo'r berishga tayyorlik va sobitqadamlilik kabilar.

O'qituvchilik kasbiga nomunosiblik xaritasida quyidagi omillar o'z aksini topadi (modifikatsiya bizniki - **E.Goziyev**):

1) qarashlar, e'tiqod (maslak), ideallar ko'rsatkichining pastligi;

2) o'zgaralar hisobiga o'z shaxsiy ehtiyojlarini qondirishga tayyorlik, shaxsiyatparast, g'arazgo'y yo'naliShga egalik, o'z qiziqishlarini umumiyatdan ustun ko'rish;

3) bolalar (o'qituvchilar)ga loqayd, befarq munosabat;

4) aqliy taraqqiyot (intellektual) darajasining quyiligi (pastligi);

7) chidamlilik, topqirlik, tashabbuskorlik, tirishqoqlik, sobitqadamlilikning mavjud emasligi, irodasizlik;

8) ayrim ruhiy kasalliklar alomatlarining mavjudligi;

7) nutq faoliyatida sezilarli nuqsonlarga egalik, eshitish sezgisi va qabul qilish, payqash hissining etishmasligi va boshqalar.

Professiogrammaning psixologik jihatlari to'g'risida mulohazalar yuritilganda mana bu tomonlarga e'tibor berish maqsadga muvofiq deb o'ylaymiz:

1.O'qishga munosabat va intellektual sifatlari: bilimlarning chuqurligi, turli o'quv fanlarini o'zlashtirishning intellektual (aqliy) imkoniyatlari, salohiyatlilik va qiziquvchanlik, ijodiy faoliyatga qobillik, ma'naviy qiziqishlarning ko'lami, fikrni bayon qila olish uquvi, o'qiganlilik,

ma'lumotlilik.

2. Axloqiy - irodaviy fazilatlar: serharakatlilik, tirishqoqlik, mustaqillik, hissiy faollik, irodaviy qat'iyatlilik, odoblilik, ezgulik, mehr- muhabbat, dilkaShlik, rostgo'ylik, haqgo'ylik, kamtarlik, xushmuomalalilik, vazminlik (bosiqlik).

3. Ishbilarmonlik xislatlari: tashkilotchilik qobiliyati, mehnatsevarlik, so'ziga sodiqlik, o'ziga tanqidiylik, prinsipallik, qiyinchilikni engish uquvi, tashabbuskorlik, amaliyotchanlik, do'stlar orasida nufuzga egalik.

4. Pedagogika institutiga kiruvchilar uchun tavsiya motivlari: maktabdagi fan to'garaklari mashg'ulotlariga turg'un (barqaror) qiziqish; maxsus sinflar - (maktablar) mashg'uloti bilan ta'lim jarayonini muvofiqlashtirish; havas va ota - onaga munosabat: jismoniy mehnatga munosabat; o'qituvchilik kasbiga moyillik va barqaror qiziqish: institutga kirish uchun tavsiya qilingan ixtisos va fakultet abituriyentni o'ziga tortuvchi (jalb qiluvchi) sevimli o'qituvchi va uning shaxs fazilatlarini; sevimli fan uni o'zlashtirishdagi yutuqlar; maktab va maktabdan tashqari o'qituvchining ijtimoiy va kasbiy faoliyati: ijtimoiy faoliyatda tashabbuskorlik va faollik darajasi; qaysidir masala bo'yicha o'quvchilar davrasida ma'ruza va chiqiShlar qilish; qo'shimcha adabiyotlardan foydalanish; kasb va ixtisoslik tanlashda mustaqillik va tashqi omillarning unga ta'siri; hukm va xulosa chiqarishda mustaqillik: o'qituvchi mehnatining hajmi bo'yicha tasavvur hosil qilish.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sanab bering..?
2. Shaxsning biliSh jarayonlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni..?
3. Diqqat nima?
4. Idrok va uning turlari ?
5. Xotiraning kasbiy faoliyatda tutgan o'rni?
6. Tafakkurning inson faoliyatidagi o'rni ?
7. Shaxsning individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni?.
8. O'spirinlarda faoliyat va faollikning o'ziga xosligi nimada?.
9. Xarakterning kasbiy faoliyatda namoyon bo'lishini izohlang?
10. Temperamentning kasbiy faoliyatga ta'siri qanday?
11. Qobiliyatning tug'ma va orttirilgan sifatlarini.. ?

Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillar (davomi)

4.3-dars O'spirinlarda faoliyat va faollikning o'ziga xosligi.

O'spirinlarda faoliyat va faollikning o'ziga xosligi.

O'spirin yigit va qizlar u yoki bu holatni tahlil qilgan kezida uning mohiyatiga, asosiy jihatiga, muhim xususiyatlariga, birlamchi belgilariga sinchkovlik bilan munosabatda bo'ladilar. Mustaqil bilim oliSh kezida tanishgan va ta'lim jarayonida o'qituvchi tomonidan bayon qilingan xabarlar, axborotlar hamda ma'lumotlarga ishonch hosil qilish uchun, shuningdek qanoatlanish maqsadida faol harakat qilishga moyil bo'ladilar. Biroq o'spirinlar o'smirlar kabi obro' nufuz ketidan ko'r - ko'rona ergashmaydilar, agar kasb etsa, faqat shundagina muayyan ialanishga kirishadilar. Har bir darsda tanishishga to'g'ri keladigan materiallarning asl mohiyatiga, inson faoliyati uchun zarur ekanligiga, mavjud xabarlarining ob'ektiv voqelikdan iboratligiga ishonch hosil qilish uchun ijodiy izlanadilar.

Ba'zan ta'lim jarayonida o'spirin o'quvchi tomonidan o'rganilayotgan materiallarga nisbatan e'tiroz yoki shubha tug'lsa, ayrim o'qituvchilar uni nohaq ravishda qoralaydilar, shaxsiyatiga tegishgacha

borib etadilar, hatto «ishonmovchi» likda ayblaydilar. Aslida ilmiy nuqtai nazardan bu holatni o'rganib, o'quvchida aql - zakovatni oqilona yo'llar bilan o'stirish uchun favqulotdagi holatdan uning xarakter xususiyatini qoralamasdan, balki rag'batlantirish, to'g'ri baholaSh kerak. o'spirin davrining ushbu xislatining o'sishi natijasida o'quvchi o'g'il va qizlarda narsa va hodisalarni asoslaSh, dalillash, chin mohiyatiga boshqalarni ishonirish kabi aqliy kamolotga yordam beruvchi, bilimlarni puxta va mustahkam o'zlashtirishga etaklovchi aqliy faoliyatining tarkibiy qismlarini yanada takomillashtiradi.

O'spirinlik yosh davriga kelib, yuqori sinf o'quvchilari aqliy faoliyatdan unumli foydalanish texnikasi va metodikasi bilan etarli darajada qurollangan bo'ladi. Kezi kelganda ular o'z o'quv faoliyatini o'zi boshqarishning ham uddasidan chiqa oladilar. Ushbu yuksalish mavjudligiga qaramasdaya o'spirin yigit va qizlarda mazkur sohada ma'lum darajada xato va kamchiliklar uchrab turadi. Ularda bir tomondan narsa va hodisalarning isbotlanmaslik xususiyati ko'zga tashlansa, ikkinchi tomondan esa, aql - zakovatning tezashtiruvchi, faollashtiruvchi har xil xarakter va xossaga ega bo'lgan o'quv faoliyati usullarini o'zlashtira olmaganlik namoyon bo'ladi. Ma'lumki, o'qish va o'qitish jarayonida fikr yuritish operatsiyasini jadallashtiruvchi omilkor usullardan oqilona foydalanish yuqori samaraga erishtiradi.

Tafakkur qilish faoliyatida mustaqil harakat qilishning yo'qligi va nochor holatda ekanligi yuqori sinf o'quvchilarining eng muhim kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Agarda ularga ma'lum davrga taalluqli badiiy adabiyot rivojiga obzor xarakteristika berish talab qilinganda, mazkur asarlar yuzasidan mustaqil hukm chiqarish topshirilganda, aniq qarorga keliSh talab qilinganda qanday harakat qiladilar?

Olib borgan kuzatishlarning ko'rsatishicha, birinchidan, o'quvchi asar parchasining bir necha bor o'qib chiqishi, lekin hech qanday xulosa chiqarmasligi mumkin. Ikkinchidan, o'qituvchi ma'ruzasining izchil va sistemali esga tushirib, ularni mexanik ravishda, ma'nosiga tushunmasdan so'zlab berishi mumkin. Uchinchidan, o'zi shaxsan o'zga kishilardan uqib olganlari, tinglaganlari bilan o'qituvchi ma'ruzasini o'zaro aralashtirib, qoriShtirib qo'yilgan muammoga javob berishga intiladi. To'rtinchidan, o'z shaxsiy fikrini bayon qilishga qiynalsa, o'z so'zi bilan tushintira olmasa, u holda berilgan asarlardan ko'chirmalar keltirishga harakat qiladi va hokazo.

O'spirin yigit va qizlar goho fikr yuritishga erinib, darslik va qo'llanmalarda bayon qilingan materiallarni hech o'zgarishsiz (ularni tushunib olmasdan) «tayyor holda» egallashga (uqib olishga) intilib, hatto darsliklarda va boshqa birlamchi manbalarda ham javobi kam uchraydigan muammolar yuzasidan ijodiy izlanishlarga harakat qilmaydilar. Lekin o'quvchilar ta'lim mazmuni, shakli va o'quv faoliyatining xakteri, maqomi ularning oldiga yuksak aql - zakovatli bo'lishni talab qilayotganligini xayollariga ham keltirmaydilar.

O'spirinlarning xarakterli xususiyatlaridan yana biri, bu ularning o'zlashtirayotgan o'quv materiallarini mustaqil ravishda mavhumlashtirish (abstraksiyalash) va umumlashtirish imkoniyatiga qodir ekanligidir. Ana shu tariqa fikr yuritish orqali o'quvchilarda nazariy tafakkur vujudga keladi. Bilim va saviyaning kengayishi - o'qishga qiziqishni rivojlantiradi, u asta - sekin o'quv fanlariga qiziqishga o'sib o'tadi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarda nazariy tafakkurning shakllanishida darsdan va sinfdan tashqari mustaqil mashg'ulotlar, mutolaa qilish muhim ahamiyat kasb etadi, jumladan har xil to'garaklarda qatnashish o'kuvchi bilimni chuqurlashtirib, bilim doirasini kengaytiradi. Agarda to'garaklar shaxsiy tashabbus asosida hukm sursa, yigit va qizlar ularga qatnashsalar, ijodiy izlanish zaminiga qurilsa, u holda ko'zlangan natijaga erishiladi. Gumanitar va tabiiy fanlar bo'yicha tuziladigan to'garaklar, olimpiadalar, konkurslar, maktab amaliyotida yaxshi samara bermoqda. To'garaklarning ta'siri ostida o'quvchilarda mustaqil fikr yuritish, aqlning tanqidiyligi, nutq madaniyati va texnikasi, notiqlik san'ati o'sadi.

O'spirin yigit va qizlar tafakkurining mustaqillik darajasini vujudga kelishida o'qituvchi shaxsining roli juda katta. Birinchidan, o'qituvchi o'spirinlarda o'rganilayotgan qonuniyat va xossalarni to'g'riligi haqida ishonch tuyg'usini hosil qiyaaadi, o'tilayotgan mavzular mazmuni bo'yicha qanoatlanish hissini vujudga keltiradi, voqelikni isbot qiliShga, bildirilgan mulohazalarni dalillashga o'rgatib boradi. Shuning bilan birga, sanab o'tilgan jarayonlarni amalga oshirish uchun, qo'yilgan muammoni hal etish uchun qulay usul va metodlardan foydalanish yo'l - yo'riqlari bilan qurollantirib boradi. Ikkinchidan, o'qituvchi o'quvchilarni tanishayotgan narsa va hodisalar bo'yicha original, yangicha fikr yuritishga, har bir holatga ijodiy yondashishga o'rgatadi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun u ularni mantiqiy fikr yuritish usullari bilan tanishtiradi va foydalanshp yo'llarini tushuntiradi. Uchinchidan, o'qituvchi o'spirinlar tomonidan qo'llanaverib, eskirgan, arxaik-eskirgan terminga aylangan so'z va iboralardan kamroq foydalanishga, shablondan-bir xillikdan hamisha qochishga o'rgatadi, ularni ijodiy izlanishlari sari etaklaydi. To'rtinchidan, o'qituvchi o'spirinlar oldiga bilimlarni amaliyotda tatbiq qilish vazifasini muammo tariqasida qo'yadi. Beshinchidan, o'qituvchi o'spirin o'quvchi yigit va qizlarning individual (shaxsiy) xususiyatlarini hisobga olgan holda mavjud aqliy imkoniyatlarini o'qishga, ijodga safarbar qilishga intiladi. Oltinchidan, o'qituvchi yuqori sinf o'quvchilari diqqatiga muammoli vaziyatni, jumboqni va topshiriqni havola qiladi va qo'yilgan masalalarni yechish va hal qilish bosqichlari bilan atroflicha tanishtiradi, shuningdek har qanday qiyinchiliklarni engib o'tishga ularni da'vat etadi. Yettinchidan, o'qituvchi o'quvchilarning his - tuyg'usi va irodaviy xususiyatlarini yanada mustahkamlash uchun yaqqol yo'l - yo'riq ko'rsatadi, maxsus psixologik ko'rsatmalar (ustanovka) beradi, qiyinchiliklarni yengish va ularning oldini olish vositalari bilan o'rtoqlaShadi.

Tafakkur va aql - zakovat boshqa psixik (ruhiy) jarayonlardan ajralgan holda taraqqiy etishi mumkin emas. Ana shu sababdan tafakkurning rivojlanishi bilan bir davrda o'spirinlarning axloqiy sifatlarida ham muhim o'zgarishlar sodir bo'ladi, jumladan, nutq madaniyati o'sadi. Bu esa o'z navbatida, o'quvchida shaxsiy fikrini aniq va to'g'ri ifodalash malakasini tarkib toptiradi, nutq faoliyati tuzilishini mustahkamlaydi, murakkablashtiradi va lug'at boyligini orttiradi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilarning mustaqil fikrlash malakasini egallab olganligi, mustaqil aqliy mehnat texnikasi va metodlari bilan qurollanganligi, mustaqil bilim olish uchun keng imkoniyat ochadi. Biroq tafakkurning mustaqilligi sust rivojlanganligi uchun o'quvchilar ta'lim jarayonida har xil mazmundagi, shakldagi qiyinchiliklarga duch keladilar. Buning yana bir muhim sababi o'quv topshiriqlarini talabalar oldiga noto'g'ri qo'yilishi shuningdek izchil mulohaza yuritishga o'rgatilmaganligidir. Masalaning o'quvchi oldiga metodik jihatdan noto'g'ri qo'yiliShi oqibatida o'spirin «tayyor mulohazalar quli» bo'lib qolaveradi. Shu boisdan o'qituvchi yuqoridagi mulohazali muammolarni o'qitishda e'tiborga olish mutlaqo maqsadga moliqdir. o'spirin aql - zakovatining xarakterli jihatlaridan biri shuki, vujudga kelayotgan vaziyatni to'g'ri aniqlashga, uni asoslashga, isbotlashga butun diqqat - e'tiborini qaratishga mayli kuchli bo'ladi. Ta'lim jarayonida o'rganilayotgan narsa va hodisalarning chin ekanligiga, haqiqiy mohiyatiga ishonch hosil qiliShga intilish bu yo o'quvchilarning muhim fazilati hisoblanadi.

Fikr yuritishning tanqidiyligi - o'spirin yigit va qizlar ruhiyatining muhim xususiyatidan biri bo'lib hisoblanadi. Atrof - muhitga, narsa va predmetlarga, inson xatti - harakatiga, o'z - o'ziga tanqidiy munosabata bo'liSh, fikr yuritish jarayonida aqliy mehnat qilish kezida alohida ahamiyat kasb etib, mustaqil fikr bildirish, shaxsiy nuqtai nazariga ega bo'lish, o'z pozitsiyasini ishlab chiqish, xatti - harakat dasturini vujudga keltirish sari etaklaydi. Aqlning tanqidiyligi mavjud bo'lsa ham qat'iy mulohaza bildirish tajribasining kamligi, umuminsoniy madaniyat hissining zaifligi, tezkorlik bilan aql zakovatdan foydalana olmaslik u yoki bu narsani yuzaki baholashga olib keladi, asl qiymati ro'y - rost ochib berilmay qoladi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchi adabiyot faniga o'smirga qaraganda boshqacharoq maqsadda

yondashadi. Ushbu maqsad ko'p tarmoqli bo'lib, turli xarakterdagi muammo, jumboq va boshqa vazifalarni hal etishni nazarda tutadi. o'spirin o'zini hayajonga solayotgan savollarga kitob sahifasidan javob topishga harakat qiladi, o'z dunyoqarashi va shaxsiy pozitsiyasini qiyoslashga, personajlar ichidan o'ziga ideal izlashga va ana shularni amalga oshirish orqali qoniqish hissini namoyish qilishga intiladi. Undagi aql zakovat xarakteristikasi o'spirin ruhiy dunyosining ko'p jihatlari etukligi bilan oilaviy turmush ostonasiga kirib kelayotganligidan dalolat beradi.

Yuqoridagi mulohazalardan kelib chiqqan holda, o'quvchiga o'qituvchining tayyor bilim berishi, aqlni peshlash mashqlarini o'tkazmasligi uni zeriktirib qo'yadi, natijada o'qishga, ijtimoiy turmushga nisbatan, qiziqishi sovuydi. Bunday ko'ngilsiz holni vujudga kelmasligi uchun o'qituvchi o'quvchini mustaqil fikr yuritishga yo'llashi ayni muddaodir.

o'spirin uchun ma'naviy ozuqa bera olmaydigan darslar fanga nisbatan qiziqishini kamaytiradi, shuning uchun u ma'naviy boylik orttirish yo'lini qidiradi, vujudga kelgan ma'naviy talabni qondirishni istaydi. Tug'ulib kelayotgan ma'naviy ehtiyojni qondirish uchun talaba mustaqil bilim olish yo'l va usullarini qidiradi. Ijodiy izlanishlar, yangi usul, yangicha o'qish uslubi aql - zakovatni o'sishiga eng muhim turtki vazifasini bajaradi.

Katta maktab yoshidagi o'quvchilar xususiyatlaridan yana biri bu darsliqda bayon qilingan fikr va mulohazalardan foydalanib, badiiy asarni mustaqil tushunish sari intilishidir. Ammo bunday intilish, izlanish hamma vaqt ham badiiy did malakasi bilan mustahkam aloqada bo'lavermaydi. Buning asosiy sababi - o'spirinda estetik did, badiiy his - tuyg'usi saviyasining etarli darajada rivojlanmaganligidir.

Agarda adabiyot fani o'qituvchisi yordamida o'quvchiga mehnatning yangilik yaratuvchi, bunyodkorlik hikmati mavjudligi, ijtimoiy turmushning o'zgaruvchi faoliyat ekanligini yaqqol tushuntirish imkoniyatiga ega bo'lsa, shuningdek hayot va turmush shart - sharoitlari, ularning oddiy ko'z bilan ilg'ab bo'lmaydigan jihatlari mavjud ekanligini namoyish qila olsa, nozik ezgu niyat, istak va tilak, nafis his - tuyg'u kabilarga muayyan, aniq yo'l bilan etish sehri bilan qurollantirsa, u holda o'quvchining mazkur fanga nisbatan munosabati ijobiy tomonga o'zgaradi.

O'spirin yigit va qiz har xil badiiy asarni o'qish, tanishish va uning mohiyatiga tushunish orqali mustaqil fikr yuritish, mulohaza qilishga borgan sari uquvi ortib boradi. Unda mustaqil nuqtai nazar, munosabat, shaxsiy pozitsiya shakllanadi. o'z - o'zidan ma'lumki, ushbu fazilat o'spirinning shaxsiy fikrlash, mustaqil o'ylashi va qat'iy qarorga kelishining natijasi bo'lib, o'zgalarning tashqaridan bergan maslahatining mahsuli emasdir. Balkim bu narsa o'spirinda fikr yuritish faoliyatini rivojlanib borayotganligidan dalolatdir.

o'spirinlar tomonidan badiiy asarni baholash, unga nisbatan shaxsiy fikrini bildirish, aks ettirilgan voqelik bilan bevosita munozaraga kirishish kabi xislatlarning mavjudligi tafakkur tanqidiyligining aynan o'zginasidir. No'rin tanqidiylikka kelsak, u esa o'quvchi badiiy didi, nutq madaniyati, tevarak - atrofga nisbatan his - tuyg'usi va turmush tajribasining kamchiligidir.

Ayrim yuqori sinf o'quvchilarida asardagi allegoriyalar, epitet va metaforlarni noto'g'ri tasavvur etish hollari uchrab turadi. Ular shoir yoki adib faoliyatini tahlil qilib, hayotda asardagi voqelikning aslo sodir bo'lmasligida ayblaydilar, bu narsa jo'rtinga to'qib chiqarilgan deb da'vo qiladilar, hatto qattiq «qoralashgacha» borib etadilar. Lekin bu badiiy asar komponentlari (tarkibiy qismi) qahramonlarning ruhiy holatlarini bo'rttiribroq ko'rsatish vositasi ekanligini hali to'la anglab etmaydilar. Shu sababdan «falon narsa bunday bo'lmaydi, unga aql bovar qilmaydi» deb ishonchsizlik kayfiyatini izhor etadilar.

Kuzatishlarimizning ko'rsatishicha, o'spirinlar bir davrning o'zida ham shoir, ham adib bilan munozaraga kirishadilar. Chunonchi, asardagi o'xshatish va taqqoslash, tipiklashtirish kabi badiiy bo'yoqlar negadir ularning hissiyotiga, ichki murakkab kechinmalariga mutlaqo mos tushmas emish. Asarda aks ettirilgan o'ta nafis did, kuchli hissiy pafos bilan olamiga olib kirish, fikran mulohaza yuritish ularda taajjub hissini vujudga keltiradi. Shuning uchun katta yoshdagi

o'quvchilarda adib yoki shoir bilan "kelishmovchilik" g'ovini vujudga keltiradi. Ularning tavvurida aks ettirilgan voqealar juda nursiz yoritilganday tuyuladi. Ular «o'z pozitsiyalari»ning barbod bo'lishiga qarshi «ichki kurash» olib boradilar, ma'lum davrgacha o'z fikrlaridan voz kecha olmaydilar. Mazkur holatda o'qituvchining bosh vazifasi - bu o'quvchilar tafakkurini shaxsning tanqidiy sifati bilan almashtirib, ularni voqelikka odilona tanqidiy nuqtai nazar bilan qarashga o'rgatishdan iboratdir.

Shaxsiy tajribalarimizdan shu narsa ma'lum bo'ldiki, o'spirin yigit va qizlar muayyan obrazni, yaxlit holdagi asarni, muallif ijodiy faoliyatini baholash jarayonida hamma vaqt ham o'z shaxsiy qarashi, mulohazasi va munosabatini aynan shundayligicha qo'llay olmas ekanlar. Bunday fakti biz o'spirinlar mustaqil ishlarini tekshirishda uchratdik. Yozma ishlar bilan o'spirinlarning jonli mushohadasini taqqoslaganimizda, yozma ifoda bilan shaxsiy mulohazalar o'rtasida katta farq mavjudligiga iqror bo'ldik.

Mazkur fenomenni (omilni) aniqlash uchun biz o'spirinlarga ushbu savollarga javob berishlarini talab qildik: «Nega o'z shaxsiy fikringizni yozgan inshoda ifoda etmadingiz?», «Avtorga, asarga nisbatan asl munosabatingiz shundan iboratmidi?», «Erkin temada yozilgan mustakil ishda nega o'z mulohazangizni to'liq ifodaladingiz?», «Agar siz asar qahramoni o'rnida bo'lganingizda qanday yo'l tutgan bo'lar edingiz?», «Absolyut haqiqatni bilishga qay tarzda intilasiz, nega ular sizni tinchlantirmaydi?», «Nima uchun siz har bir narsani o'z aql tarozingiz bilan yana bir marta tortgingiz keladi?». o'quvchilar bilan keng ko'lamdagi savol-javob viktorinasini o'tkazdik. Bundan tashqari, ularning mustaqil yozma ishlari bilan yaqindan tanishib chiqdik.

Tajriba natijalarini tahlil qilganimizda berilgan savollarga ko'pgina o'spirinlar bir - biriga o'xshash, ma'no jihatidan o'zaro yaqin javoblar berishgan. Jumladan ular o'z shaxsiy fikrlarini ro'y - rost ifoda etmaganliklarini quyidagicha isbotlaydilar: «... agar men o'z fikrimni va munosabatimni o'z bilganimcha yozganimda edi, u holda szning ko'ymoqchi bo'lgan bahoyingiz, hozirgi qo'yiladigan bahodan bir - ikki ball past bo'lar edi. Men shunday bo'lishidan qo'rqdim. Chunki mening shaxsiy fikrimga qarshi ekanligingizni bilaman-ku!» deb javob qaytardilar.

Mazkur mulohazalar mualliflari bo'lmish yuqori sinf o'quvchilarida tafakkur tanqidiyligida beqarorlik xususiyati mavjud ekanligidan dalolat bermoqda. Keltirilgan misoldan qhunday xulosaga keliqh mumkinki, bu yoqhdagi o'quvchi o'g'il - qizlarda fikrida to oxirigacha qat'iy turiqhning irodaviy sifati etiqhmasligi, mustahkam "pozitsiyasi" qhakllanmaganligi namoyon bo'lmokda. Shu narsa ochiq, ravshan ko'zga tashlanib turibdiki, yuqori sinf o'quvchisi xususiyatida aqlning tanqidiyligiga murosasizlarcha munosabatda bo'lish mayli kuchlidir. Ularda namoyon bo'ladigan ikkilanish, shubhalanish tuyg'ulari, bizningcha, ikki xil sabab bilan izohlanishi mumkin. Birinchi sabab - voqelik mohiyatini to'g'ri anglab yoki tushunib etmaslikda o'z ifodasini topsa, ikkinchisi - o'quvchining "o'z pozitsiyasi" da bo'sh kelmasligi va hodisalarni fahmlab turib, «o'jarlik» qilishidan iboratdir.

Hozirgi davrning eng muhim muammolar biri - bu o'spirin yigit va qizlarda tafakkur mustaqilligini, aqlning tanqidiyligini darsda va darsdan tashqari vaqtlarda keng jamoatchilik fikriga suyangan holda rivojlantirishdan iboratdir. O'qituvchi butun diqqat - e'tiborini o'spirinlarni narsa va hodisalar to'g'risida shaxsiy fikrini o'zgartirganligi yoki o'zgartirmaganligi, biror narsani tushunib olishga muyassar bo'lganligi yoki bo'lmaganligi, agarda tushunib olishgan bo'lsa, faqat darslikka asoslanibgina anglaganligi, o'z fikrini faqat «dilda» qoldirish shartligi va shart emasligini his etganligi yoki his etmaganligi kabi muammolarga qaratishi maqsadga muvofiq. Ta'lim jarayonining asl maqsadi va mohiyati o'quvchilarda murasosozlik va ikkiyuzlamachilik illatiga yo'l qo'ymasliqdan iboratdir.

O'spirin o'quvchilar ko'pincha voqelik haqida boshqa bir narsani gapirib, haqiqatdan esa

ikkinchi bir narsa to'g'risida mulohaza yuritishga moyildirlar. Ko'pincha, bu holatni favkulotdagi vaziyat belgilab beradi. Buning uchun insho to'g'risidagi o'quvchilar mulohazasini eslatib o'tish kifoya.

O'qituvchi o'spirinlarda vujudga kelayotgan har xil xislatlariga beparvo qaramasligi kerak. Bu yo'lda kamchiliklarga, xatoliklarga yo'l qo'yilsa, inson shaxsini kamol toptirishda qator qiyinchiliklar namoyon bo'ladi. Shu sababdan o'qituvchi - murabbiy ularda shaxsiy qarash, mustaqillik, aqliy tezkorlik, zukkolik, ziyraklik, pozitsiya, barqaror e'tiqod va ilmiy dunyoqarash vujudga kelayotganligidan mutlaqo xavotir olmasligi, sira qo'rqmasligi, cho'chimasligi darkor. Pedagog o'spirinlarda shaxsiy qarashning bo'lmasligidan mustaqil mulohazalardan uzoqligidan, tayyor fikrlar «quli»ga aylanganligidan, to'tiqushday yod olishga odatlanganligidan hadiksirasin, xavotirlansin.

Aqlning tanqidiyligini rivojlantirish va takomillashtirishda o'z - o'zini tarbiyalash alohida ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun o'quvchilar o'zlari bu borada muayyan izlanishlarni amalga oshirsalar nur ustiga nur bo'lar edi.

Aqlning tanqidiyligini taraqqiy ettirish uchun o'qituvchi ta'lim jarayonida o'spirinlarning yosh va individual xususiyatlariga, aqliy qobiliyat imkoniyatlariga, aqliy o'sish ko'rsatkichiga, mazmundorligiga, fikrning teranligi va chuqurligiga, tashabbuskorligi va sermahsulligiga, o'quvchining o'quv predmetlariga qiziqishiga, nutq madaniyati va so'z boyligiga, shaxsiy pozitsiya va nuqtai nazariga, e'tiqodi va dunyoqarashiga, o'quv faoliyatining usullarini egallaganlik darajasiga, o'z - o'zini boshqarish, o'z - o'zini nazorat qilish, o'z - o'zini baholash, o'z - o'zini qo'lga olishga bilimlar tizimining darajasiga, o'quv ko'nikma va malakasini, fikr yuritiSh shakliga (hukm, xulosa chiqariSh, tushuncha, terminlardan foydalaniSh imkoniyatiga), mantiq operatsiyasiga (asoslash, isbotlash, dalillash, izlanish, ishonch hosil qilish) alohida e'tibor berishi o'qitiSh samaradorligini oshirish garovidir.

Aqlning tanqidiyligini shakllantirish o'spirin yigit va qizlarni moddiy dunyoni mustaqil o'rganiShga, murakkab xususiyatlar va xossalari bilan tanishishga, o'zlashtirishga, barcha o'quv predmetlarini anglab egallashga, darsda, mutolaa kezida tashabbuskorlik va faollikni yanada takomillashtirish sari etaklaydi. Shu bilan birga, narsa va hodisalarni isbotlash ko'nikmasini tarkib toptiradi, o'rganilayotgan ob'ekt, material to'g'risida mustaqil ravishda chin hukm chiqarish, xulosaga kelishdan iborat aqliy qobiliyatini taraqqiy ettiradi. Voqelikni ichki bog'lanishlari, munosabatlari, qonuniyatlarini anglashda, shuningdek, o'quvchi ongida, tafakkurida realistik qarashlarni shakllantirishda aql - zakovat hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlaSh uchun savollar:

- 1.Kasb tanlashga ta'sir etuvchi asosiy omillarni sanab bering..?
- 2.Shaxsning biliSh jarayonlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni..?
- 3.Diqqat nima?
- 4.Idrok va uning turlari ?
- 5.Xotiraning kasbiy faoliyatda tutgan o'rni?
- 6.Tafakkurning inson faoliyatidagi o'rni ?
- 7.Shaxsning individual xususiyatlarining kasbiy faoliyatdagi o'rni?.
- 8.O'spirinlarda faoliyat va faollikning o'ziga xosligi nimada?.

5-mavzu. 5.1 Kasblarning psixologik tasnifi va uning mohiyati.

Reja:

1. Kasb tushunchasining mohiyati.
2. Kasblarni psixologik tasniflash.
3. Mehnat ob'ektiga ko'ra kasblarni tizimlash.

Kasb tushunchasining mohiyati .

Kasb jamiyatning mehnatga layoqatli a'zolarini ijtimoiy tashkillashtirishning alohida shakli bo'lib, bunda a'zolar faoliyatining umumiy turi va kasbiy ongi bilan birlashgan. **E.A.Klimov** o'z ishlarida bu borada bir necha ta'riflarni ilgari suradi. Nisbat batafsil ta'rif quyidagicha "**Kasb** - jamiyat uchun zarur va qadriyatli soha bo'lib bunda insondan jismoniy va ruhiy kuch talab etadi" bu kuchlar unga sarflangan mehnat o'rniga yashashi va rivojlanishi uchun muhim vositalar omili sifatida namoyon bo'ladi. Bu ta'rifni yanada batafsil yoritib, E.A.Klimov kasbiy faoliyatning sifatli tarixiy rivojlanuvchi tizim va shaxsning o'zini namoyon etish sohasi deb ta'riflaydi. Yana bir ta'rifni keltiramiz. "jamiyat nuqtai nazaricha kasb bu kasbiy masalalar, kasbiy faoliyat shakllari va turlari, shaxsiy kasbiy xususiyatlari tizimi bo'lib, ular jamiyat ehtiyojlarini qondirish uchun muhim bo'lgan natija masuliyatlarni etkazishni ta'minlab berishi kerak bo'ladi". **V.G.MakuShin** :**kasb** - bu shunday faoliyatki, uning yordamida shaxs jamiyat hayotida ishtirok etadi va uning yashashi uchun moddiy vositalar asosiy manbasi bo'lib xizmat qiladi. Mavjud ta'riflarni umulaShtirib, quyidagilarni xulosa qiliSh mumkin. Kasb mehnat faoliyatining paydo bo'lgan shakllari bo'lib, ularni bajarish uchun inson albatta ma'lum bilimlar va ko'nikmalarga maxsus qobiliyatlar va rivojlangan muhim kasbiy sifatlarga ega bo'lishlari kerak. "Kasb" va "mashg'ulot" tushunchalarini farqlashadi. "Kasb" atamasi kasbiy faoliyatning faqatgina yuqori statusli turlariga nisbatan ishlatiladi. Boshqa faoliyat turlari mutaxassisliklarga yoki ish, mashg'ulot turlariga tegishli bo'ladi. Milliy kasbshunoslikda "**kasb**" va "**mutaxassislik**" tushunchalari farqlanadi. Kasb mutaxassislikka ko'ra kengroq tushuncha, kasbiy salohiyatida tashqari, uning muhim sifatlari - ijtimoiy - kasbiy salohiyat, kasbiy avtonomiya, o'zini nazorat qilish, guruhli mezonlar va qobiliyatlar hisoblanadi. Kasb odatda yaqin mutaxassisliklar guruhini birlashtiradi. **Masalan, kasb shifokor**, mutaxassisliklar - terapevt, pediatr akulist, urolog, va hokazo, **kasb - muhandis**, mutaxassisliklari - konstruktor, texnolog, metallurg va hokazolar. **Mutaxassislik** - kasbiy ta'lim, tayyorgarlik yo'li bilan ish jarayonidagi maxsus bilimlar, ko'nikma va malakalar kompleksi bo'lib, ular u yoki bu kasb doirasida ma'lum faoliyat turini bajarish uchun zaruriy hisoblanadi. Shunday qilib, mutaxassislik - kasb ichdagi kasbiy faoliyat turi bo'lib, u shaxsiy yutuqlarga yoki o'ziga xos vaziyatlar orqali umumiy natijalarga erishishga yo'naltirilgan bo'ladi. Keyingi, ilmiy-texnik rivojlanish kasblar ro'yxatini yangilashga va kengayishiga olib keladi. Xalqaro kasblarni tizimlash stantarti bo'yicha **1988 yilda 9333** kasb ro'yxatga olingan Nashrdan chiqqan ma'lumotnomalar esa korrektilovkaga muhtoj bo'ladi, chunki kasblar dunyosi doim o'zgarib turadi. Yangi kasblar paydo bo'ladi, kasblarning xarakteri mehnat mazmuni yangilanib turadi, past malakali mehnat kasblari yo'qolib boradi.

Kasb nomi ko'pincha o'tgan yillarda shakllangan mehnat xarakterini aks etadi. Rasmiy ma'lumot nashrlari esa mehnat resurslarining rivojlanishiga salbiy ta'sir etishi mumkin. **Masalan** "farrosh" kasbning nomi o'rniga "interer bo'yicha texnik" nomini kiritish mumkin, shunda kasbning qadri, uning malakaviy darajasi ko'tariladi, asosiysi, ishlab chiqarish

rivojlanishi tezlashadi. Ta'kidlash mumkinki, kasblar va mutaxassisliklar odatda texnologiya va mehnat vositalarining eskirib qolgan holatini aks ettiradi. Aniq-ki, ko'p kasblar va mutaxassisliklar nomini o'zgartirganda ham bo'ladi: Shifokor, o'qituvchi, muxandis, muqarrir, zargar, agronom va hokazo. Ularning mehnat mazmuni o'zgaradi, ammo kasbning nomi uning mohiyatini anglatadi va mehnat maxsuldorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, o'ylaymizki aynan shu kasblar va mutaxassisliklar ma'lumotlarning rasmiy ro'yxatini tashkil etish lozim. Ijtimoiy rivojlanish jarayonida yangi kasblar nomini kiritish zaruriyati kelib chiqadi. Yangi kasblar ro'yxati kechikish bilan rasmiy ma'lumotnomalarga kiradi: "**Menedjer**" kasbi bugungi kunda keng tarqalgan ammo rasmiy ro'yxatga kiritilmagan. Kasbiy faoliyatning samaradorligini shartlaridan biri mutaxassisning kasbiy tayyorligi hisoblanadi. Kasbiy tayyorgarlik deganda uning ruhiyati va jismoniy sog'lig'i hamda holati, undagi mavjud sifatlarning bajarayotgan faoliyati talablariga mosligi darajasi tushuniladi. Mashhur rus psixologi **K.K.Platonov** mutaxassisning kasbiy tayyorligi bu o'zining muayyan kasbiy faoliyatini bajarishga qodir va tayyorgarlik ko'rgan deb hisoblovchi va uni bajarishga intiluvchi Shaxsning sub'ektiv holatidir - deb hisoblangan. Mutaxassisning kasbiy tayyorligi murakkab ko'p darajali va ko'rinishli tizimli psixik shaklga ega bo'lib, birinchi navbatda odamning Shaxsiy ko'rinishi asosiy o'rin egallaydi. SHu bilan birga, kasbiy tayyorgarlik mutaxassisda kerakli darajada jismoniy sog'liqni kasbiy faoliyat uchun zarur bo'lgan jismoniy sifatlarni shakllanganligi va rivojlanganligini talab qiladi. CHunki har qanday kasbiy faoliyat insonning qandaydir kuch jismoniy energiya sarflashini ko'zda tutadi. Mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida ikkita o'zaro bog'liq bo'lgan tomonlarni ko'rsatish maqsadga muvofiq. Bu o'zaro bog'liq tomonlar psixologlar **M.I.Dyachenko va A.M.Stolyarenkolar** tomonidan ishlab chiqilgan bo'lib ular quyidagilardan iborat:

1. Shaxsning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi mutaxassisning bu tayyorligi quyidagilardan iborat bo'ladi, ya'ni, statik komponentlar kasbiy faoliyatning psixik asoslari, bilim, ko'nikma, malakalar kasb uchun muhim hisoblangan, Shaxsning sifatlari uning munosabati, mazmun va qadriyatlari, afzalliklari hamda umuman Shaxsning zarur bo'lgan kasbiy imkoniyatlari darajasi;

2. Shaxsning kasbiy faoliyatga bevosita ayni vaqtdagi tayyorligi. Mutaxassisning kasbiy tayyorligining uShbu tomoni tezkorligi, o'zgaruvchanligi, har qanday holat va Sharoitda aniq masalalarni echish, mutaxassisning ruhiy va jismoniy holati, jamoadagi ma'naviy psixologik muhitga bog'liqligi bilan ifodalanadi. Mutaxassisning bevosita psixologik tayyorgarligi dastlabki tayyorgarlikni faollashtirish natijasi sifatida ishtirok etadi. Mutaxassisning kasbiy faoliyatga dastlabki salohiyatli tayyorligi bevosita ayni vaqtdagi tayyorligining asosi hisoblanadi. SHuning uchun mutaxassisni oliy o'quv yurtida tayyorlash unda kasbiy faoliyat uchun etarli bo'lgan sifatlarni shakllantirish lozim. Ba'zi vaqtlarda hatto kasbiy masalalarni hal etishga yaxshi tayyorgarlik ko'rgan mutaxassis ham zarur paytda kerakli faoliyat uchun tayyor bo'lmay qolishi mumkin, ya'ni kasbiy xulqi va faoliyatini ruhiy bo'shqariSh etarli darajada bo'lmaydi. Bunday holatda faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirib bo'lmaydi yoki samarasiz bo'ladi. Ko'rinib turibdiki, mutaxassisning kasbiy tayyorligi unda kasbiy bilimdonlikni kerakli darajasini kasbiy mahoratini hamda o'zini bo'shqariSh, o'zini kerakli faoliyatga yo'naltirishga, o'zining kasbiy (ma'naviy Shaxsiy va jismoniy) imkoniyatlarini hal etishga yo'naltira bilish qobiliyati mavjudligini nazarda tutadi.

Mutaxassisning kasbiy tayyorligining asosiy va eng murakkab tomoni (psixologik tomoni) - mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorgarligi hisoblanadi. Bu mutaxassis psixikasi ruhiy kuchlarining kasbiy masalalarni hal etishga o'zining vazifalarini bajariShga tayyorligi va

yoʻnalganligi darajasidir. Mutaxassis ruhiyatining kasbiy tayyorligining asosiy tarkibiy qismlari quyidagilardan iborat:

- **yoʻnaltiruvchi intellektual biliSh.** Bu tarkibiy qismi mutaxassis Shaxsining biliSh sohasini oʻz ichiga oladi: kasbiy idrokini, fikrlaShi, tasavvur, xotirasi, diqqatini va ular birgalikda mutaxassis Shaxsining kasbga intellektual tayyorligini taShkil etadi.

- **motivatsion tayyorligi.** Mutaxassisning motivatsion tayyorligining asoslari oʻz kasbi mutaxassisligini tuShuna oliShi oʻzida pozitiv munosabatni tarkib toptira oliShi, oʻzini baholay oliShi, biliSh faoliyatiga qiziqiShlari hisoblanadi. Oliy oʻquv yurti Sharoitlarida mutaxassisni tayyorlaShda kasbiy faoliyatga motivatsion tayyorligi talabalarning kasbiy va Shaxsiy rivojlaniShiga va taʼlim oliSh jarayonida oʻzini rivojlantiriShga mavjud motivatsion doiraning yoʻnaltirilganligida namoyon boʻladi.

- **ijrochilik.** Bu tarkibiy qismi kasbiy mahoratni (bilim, malaka, koʻnikmalar) kasbiy xulq odatlari kabi muhim kasbiy sifatlarning toʻplami, kasbiy qobiliyatlarni rivojlanganlik darajasi va mutaxassisning irodaviy tayyorligi uning xulqi va faoliyati davomida oʻzini boShqariShga qodirligi, operatsional funksiyali tayyorgarlikni oʻz ichiga oladi. Hozirgi zamon mutaxassisning kasbiy tayyorgarligida uning kommunikativ tayyorligi aloqida ahamiyatga ega. Bunday tayyorgarlik mutaxassisda odamlar bilan kasbiy muhit bilan konstruktiv va samarali oʻzaro yaqin aloqalar xodimlar va rahbarlar bilan amaliy va Shaxsiy oʻzaro munosabatlarga tayyorligi va bunday oʻzaro munosabatlarni oʻrnata oliShga va rivojlantiriShga qodirligini koʻzda tutadi. SHaxsning kommunikativ tayyorligi faqatgina odamning nutqiy madaniyati etarlicha darajada rivojlanganligida u soʻz va tildan toʻgʻri foydalaniShni bilganidagina mavjud boʻladi. Shaxsning nutqiy madaniyati uning fikrlaSh madaniyati rivojlanganligining koʻrsatkichi hisoblanadi. Shuning uchun mutaxassisning Shaxsiy va kasbiy kamol topiShini muhim Shartlaridan biri uning kasbiy nutqiy madaniyatini rivojlantiriSh hisoblanadi. Mutaxassisning kommunikativ tayyorligi unda empativlikni, xuShmuomalalikni, doʻstonalilikni, oʻrtoqlik hissini, jamoatchilikni rivojlantiriShni, kasbdoShlari bilan oʻzaro aloqalar munosabatlariga tayyorligi va qodirligini, oʻzaro munosabatlarda keraksiz keskinliklarni yuzaga keltirmaslikni, yuzaga kelgan qiyinchilikni toʻgʻri hal eta bilihni, ihhda, xodimlar, kasbdoShlari bilan munosabatlarda murosaga keliShni koʻzda tutadi. Mutaxassis faoliyati muvaffaqiyatligini yana bir muhim Sharti uning kasbiy va Shaxsiy jihatdan tayyorligi va qodirligi hisoblanadi. Muvaffaqiyat deganda Shaxsning oʻz oldiga qoʻygan maqsadlariga eriShiShi tuShuniladi. Odamning bajarayotgan iShini muvaffaqiyatligini his etiShi ikkita hal etuvchi vaziyatlarga bogʻliq boʻladi:

Haqiqiy natija va uShbu vaziyatlarda uning qiziqiShlari darajasiga. Ular odam oʻz faoliyatida qoʻygan maqsadlarini ifoda etiSh Shakli sifatida iShtirok etadi. SHunga muvofiq muvaffaqiyatga eriShiShning vositalari, Shart-Sharoiatlari iShlab chiqilgan boʻlib u quyidagi formula asosida beriladi.

natija

Muvaffaqiyat = -----
qiziqishlar darajasi

Koʻrinib turibdiki, bir xil natija boʻlganda ham muvaffaqiyat turlicha boʻlishi mumkin (masalan yuqori, oʻrta, past) yoki u umuman boʻlmasligi ham mumkin. Bu odam oʻz oldiga qoʻygan maqsadlarga bogʻliq boʻladi, va aksincha shaxsning qiziqiShlar darajasi bir xil boʻlganda muvaffaqiyat faoliyat natijasiga qarab turlicha boʻliShi mumkin. Kasbiy faoliyat jarayonida muvaffaqiyatga eriShiShda mutaxassisning Shaxsiy xususiyatlari muhim rol oʻynadi. Hayotiy muvaffaqiyatga eriShiSh uchun zarur boʻlgan koʻplab shaxsiy sifatlari haqida

V.Kroford o'zining "Suhbat va munozara" kitobida Konfutsiyning g'oyasiga tayanib, **do'stonalik, donolik va botirlikni** ko'rsatadi. Muallif odamga ishida muvaffaqiyat erishish uchun nima etishmasligini aniqlash uchun qiziqarli metodikani ishlab chiqdi. V.Kroford hozirgi zamon mutaxassisi muvaffaqiyatga erishish uchun ko'rsatilgan 3 ta tushunchadan tashqari **kasbiy mahorat** ham kerakligini aytib o'tdi. Hozirgi zamonaviy tadqiqotlar muvaffaqiyatga erishish uchun quyidagi asosiy shart-sharoitlarni ko'rsatadi:

- mutaxassis o'ziga ishongan bo'lishi kerak;
- maqsadga erishishga kuchli intilish kerak;
- nimaga erishish istagini aniq bilishi kerak;
- ishga pozitiv yo'nalganlik;
- omad alohida muvaffaqiyatlarni ko'ra bilish va shu paytda quvonch va baxtni his etish zarur.

Kasblarni psixologik tizimlash

Kasblarni psixologik tizimlash kasbga yo'naltirish ishlari uchun mo'ljallangan. qayd etilganidek, kasblar olami juda keng bo'lib, unda **20 mingdan ortiq kasb va 40 mingga yaqin mutaxassisliklar** mavjud. Ularning turli belgilariga ko'ra tizimlash mumkin. Psixologik tizimlashning xususiyati shuki, bunda ijtimoiy - iqtisodiy va texnologik belgilardan voz kechiladi. Kasblarni psixologik tizimlashi kasbiy qiziqishlar, qobiliyatlar ta'xisini ta'minlab berish lozim. Shunda kasblarni guruhlarga birlashtiruvchi psixologik muammosi kelib chiqadi. Asosiysi, kasblarni tizimlash shaxsining qoniqtiruvchisi kasb tanlash, ya'ni kasbiy tanlovini engillashtiradi. Kasblarni tizimlashni muhim muammosi - bu kasbni tavsiflovchi ma'lumotlarni to'plash usullaridir. Ularga kuzatish, faoliyatini mustaqil bajariishi (mehnat metod), ishchilar bilan savol-javob, ish-joyidan kuzatuvchi hamda savol-javoblardan iborat. CHet elda qiziqishlar, shaxs qobiliyatlari va temperament xususiyatlarini hisobga olish asosida kasblarni tizimlashi keng tarqalgan. Avvalambor **Dj.Xolland** tomonidan 1966 yilda ishlab chiqarilgan kasblarni tizimlashiShni ajratish mumkin. Uning mohiyati psixolog konsepsiyasiga asoslangan bo'lib, uShbu konsepsiya shaxs nazariyasini kasb tanlash nazariyasi bilan birlashtiradi. Yo'nalishning asosiy komponentlarini o'rganish asosida **Dj.Xolland** shaxsning kasbga yo'naltirilgan turlarini ajratadi: realistik, intellektual, ijtimoiy, konvensional ya'ni, umumiy qabul qilish mezonda va an'analarga asoslangan ish-bilarmonlik va badiiy qobiliyatlar va boShqalar. Har bir shaxs turi ma'lum kasbiy muhitga yo'naltirilgan idealistik tur - moddiy buyumlar yaratishga texnologik jarayon va texnik qurilmalar, iqtidor - aqliy mehnatga, ijtimoiy - iqtisodiy mehnat bilan o'zaro aloqaga, konvensional aniq tuzilgan faoliyatga, ish-bilarmonlik - odamlarga rahbarlik va badiiy - ijodga. har bir shaxs turi modeli quyidagi sxema bo'yicha tuziladi: maqsadlar, qadriyatlar, qiziqishlar, qobiliyatlar, istalgan kasbiy rollar mumkin bo'lgan yutuqlar, karera va boShqalar. Keyingi kasblarning tizimlash qobiliyatlarini hisobga olishga asoslanadi. Talab etiladigan qobiliyatlar bo'yicha kasblarni tizimlash bo'yicha bir necha bor urinishlar bo'lgan. Dastlab, **1953 yilda D Paterson** tomonidan taklif etilgan. Kasblar tizimlashga to'xtalib o'tamiz. U juda keng tarqalgan bo'lib, tizimlash asosini 9 ta turli qobiliyatlar taShkil etadi. E.A.Klimov ishlab chiqqan kasblar tuzilmasi ham keng tarqalgan.

Mehnat ob'ektiga ko'ra 5 ta kasb turlari ajratiladi.

1. Inson - tabiat (T). Bu tur namoyondalari o'simlik va hayvonot mikroorganizmlar va ular yaShaSh sharoitlari bilan ishlaShadi. Masalan, meva - sabzavot ustasi, agronom, zootexnik, veterinar, mikrobiolog.

2. Inson - texnika (T). Ishchilar jonsiz texnik mehnat ob'ektlari bilan ishlaydi. Masalan, texnik, mexanik, muxandis mexanik, muhandis elektrik, texnik texnolog va hokazo.
3. Inson - inson (I) bunda ijtimoiy tizimlar, axloqiy guruhlar, turli yo'shdagi insonlar bilan ishlaydi nazarda tutiladi. Masalan, oziq - ovqat mahsulotlarini sotuvchisi, sartirol, Shifokor, o'qituvchi va bo'shqalar.
4. Inson - belgilar tizim. Tabiiy va sun'iy tillar, Shartli belgilar, ramzlar, raqamlar, formulalar kasb turi namoyondalarini qiziqtiruvchi predmetlar olami va bo'shqalar. Masalan, dasturchi, chizmachi - kartagraf, matematik, tilshunos, naShriyot muqarriri.
5. Inson - badiiy obraz (B). hodisalarni badiiy aks etishi dalillari - mana Shu narsalar bu kasb turi vakillarini qiziqtiradi. Masalan, rassom dekarator, rassom - restavrator, musiqa asboblarni sozlovchi, balet artisti, konsert ijrochisi, aktyor va bo'shqalar.

Bu beshta kasb turlari maqsadlar belgisiga ko'ra 3 ta sinfga bo'linadi.

1. Gnostik kasblar (G) (qadimgi yunonchadan "gnosis" bilim);
2. O'zgartiruvchi kasblar;
3. Qidiruvli kasblar;

Asosiy ish qurollariga ko'ra har qaysi sinf doirasida 4 ta bilimni ajratish mumkin.

1. Qo'l mehnati kasblari;
2. Mashina qo'l mehnati;
3. Avtomatlashgan va avtomatik tizimlar qo'llanishi bilan bog'liq kasblar;
4. Funktsional ish quroli bilan bog'liq kasblar.

Mehnat sharoitlariga ko'ra, E.A.Klimov kasblarni 4 guruhga bo'ladi. Maishiy mikroiqlimga xonakiga yaqin ish(B) har xil ob-havo sharoitida ochiq havoda bo'lish bilan bog'liq kasblar agronom, payvandchi, avtonazorat inspektori. Odatiy bo'lmagan sharoitlarda balandlikda, suv tagida, er tagida baland past darajalarda ishlaydi: havvos, o't o'chiruvchi va hokazo. Insonlar sog'ligi, hayoti uchun yuqori masuliyat sharoitida ishlash: moddiy qadriyatlar, bolalar bog'chasi tarbiyachisi, o'qituvchi, tergovchi. Shartli belgilarni qo'llagan holda, kasblar dunyosi "xaritasini" va ma'lum kasbning na'munaviy formulasini tuzishi mumkin. V.E.Govrilov ijobiy tomonlari bilan birga kamchiliklarini ham ko'rsatib berdi. Masalan, bir guruhdagi kasblar ishchiga qarama - qarshi talablarni oldiga qo'yuvchi komponentlarni o'z ichiga oladi, bu esa kasbga layoqatlilik belgilarini aniqlashni qiyinlashtiradi. Tasniflashning yana bir kamchiligi shundaki, kasblar olami nihoyatda o'zgaruvchan, shunga ko'ra kasblarning mehnat mazmuni ham o'zgaruvchan xususiyatga ega.

Kasbiy ta'lim iqtisodiyotning kasblarga bo'lgan ehtiyoji va tarqalganligi asosida o'quv yurtlarida mutaxassisliklarni tayyorlash uchun mo'ljallangan kasblarni tasniflashga muhtoj. O'quv kasblarini loyihalashtirishda shaxs omili muhim hisoblanadi. Oxirgi yillarda "malaka" tushunchasi ham sezilarli o'zgardi. Ishchi malakasiga ma'lum mutaxassislik bo'yicha bilim, ko'nikmalardan tashqari keng kasblar doirasi uchun zarur bo'lgan muhim kasbiy sifatlar ham kiradi. Muhim kasbiy sifatlarga masuliyat, ishonchlilik, kiritimlilik, hamkorlik qobiliyati, mustaqil qaror qabul qilish qobiliyati kiradi.

Kasb" so'ziga sikveyn namunasi

1. *Kasb*
2. *O'lmas, ma'shaqqatli*
3. *Faoliyat yuritadi, ishlab chiqaradi, yo'naltiradi.*

4. *Egallayotgan kasbingizga yurak qo‘ringizni qo‘Shing; lekin avvalo uning ezgu kasb ekanligiga iShonch hosil qiling*
5. *Malaka.*

Mavzu bo‘yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Qiziqishning psixologik mohiyati ko‘rinishlarini aytib bering.
2. Qiziqish qanday turlarga ajratilishi mumkin?
3. Kasblarni tizimlash deganda nimani tushunasiz ?
4. Kasb va mutaxassislik tushunchalarini tushuntirib bering.
5. E.A.Klimov talqinida kasblar tuzilmasi necha turga bo‘linadi ?

Kasblarning psixologik tasnifi va uning mohiyati.(davomi)

5. 2-dars Kasb va shaxs

Reja:

1. Shaxs va uning shakllanishi
2. Kasb va shaxs

Shaxs va uning shakllanishi

Jahon psixologiyasi fanida shaxsning shakllanishi va rivojlanishi qonuniyatlari hamda ularning mexanizmlari muayyan yondashuvlar negizida tadqiq etilgan. Bu borada psixologlar tomonidan shaxsga nisbatan turlicha ta’rif berilgan va uning tuzilishini o‘ziga xos tarzda tasavvur qilishgan. Bizningcha (E.G‘), muayyan jamoa a’zosi, jismoniy, jinsiy, ijtimoiy kamolotga erishgan, biologik va ijtimoiy shartlangan xislatlar egasi, o‘z imkoniyatlarini ro‘yobga chiqaruvchi, bilishga intiluvchi, faoliyat, xulq, muomala sub’ekti shaxs deyiladi. Quyida ayrim psixologlar talqiniga to‘xtalib o‘tamiz.

A.G.Kovalyovning fikricha, shaxs bu ijtimoiy munosabatlarning ham ob’ekti, ham sub’ektidir.

Yirik rus psixologi A.N.Leontev ushbu masalaga boshqacharoq yondashib, unga shunday ta’rif beradi: shaxs - bu faoliyat sub’ektidir. K.K.Platonovning talqiniga binoan, jamiyatda o‘z rolini anglovchi, ishga layoqatli, yaroqli a’zosi, shaxs deyiladi. Bu muammo mohiyatini chuqurroq ochishga harakat qilgan S.L.Rubinshteyn ta’rificha, shaxs - bu tashqi ta’sirlar yo‘nalishini o‘zgartiruvchi ichki shart - sharoitlar majmuasidir.

Psixologiya fanida bir - biriga yaqin, lekin aynan bir bo‘lmagan tushunchalar qo‘llanilib kelinadi, chunonchi: odam, shaxs, individuallik. Ularning mohiyatini aniqroq izohlab berish uchun har birining psixologik tabiatini tahlil qilish maqsadga muvofiq.

1. Odam. Sut emizuvchilar sinfiga daxldorlik, biologik jonzot ekanliga odamning o‘ziga xos xususiyatidir. Tik yurishlik, qo‘llarning mehnat faoliyatiga moslashganligi, yuksak taraqqiy etgan miyaga egaligi, sut emizuvchilar tasnifiga kirishi uning o‘ziga xos tomonlarini aks ettiradi. Ijtimoiy jonzot sifatida odam ong bilan qurollanganligi tufayli borliqni ongli aks ettirish qobiliyatidan tashqari o‘z qiziqishlari va ehtiyojlariga mutanosib tarzda uni o‘zgartirish imkoniyatiga ham egadir.

6. Shaxs. Mehnat tufayli hayvonot olamidani ajralib chiqqan va jamiyatda rivojlanuvchi,

til yordami bilan boshqa kishilar bilan muloqot (muomala)ga kirishuvchi odam shaxsga aylanadi. Ijtimoiy mohiyati shaxsning asosiy tavsifi hisoblanadi.

7. Individuallik. Har qaysi inson betakror o'ziga xos xususiyatlarga ega. SHaxsning o'ziga xos qirralarining mujassamlashuvi individuallikni vujudga keltiradi. Individual xislatlar shaxsning intellektual, emotsional va irodaviy sohalarida namoyon bo'ladi.

S.L.Rubinshteyn nazariyasi bo'yicha shaxs quyidagi tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - ehtiyojlar, qiziqishlar, ideallar, e'tiqodlar, faoliyat va xulqning ustuvor motivlari hamda dunyoqarashlarida ifodalanadi.

2. Bilimlar - hayot va faoliyatda ko'nikmalar malakalar jarayonida egallanadi.

3. Individual - temperament, tipologik xususiyatlar, xarakter, qobiliyatlar aks etadi.

K.K.Platonov ta'limotiga ko'ra, shaxs tuzilish quyidagi shaklga ega:

I. Yo'nalganlik ong osti tuzilishi – SHaxsning axloqiy qiyofasi va munosabatlarini birlashtiradi. Undan harakatchanlik, barqarorlik, jadallik, ko'lam (hajm) darajalarini farqlash lozim.

II. Ijtimoiy tajriba ong osti tuzilishi - Ta'lim vositasida, shaxsiy tajribada egallangan bilimlar, malakalar, ko'nikmalar va odatlarni qamrab oladi.

III. Psixologik aks ettirish shakllari ong osti tuzilishi - Ijtimoiy turmush jarayonida shakllanuvchi bilish jarayonlarining individual xususiyatlari.

IV. Biologik shartlangan ong osti tuzilishi - Miya morfologik va fiziologik xususiyatlariga muayyan darajada bog'liq bo'lgan patologik o'zgarishlarni, shaxsning yosh, jins xususiyatlarini va uning tipologik xosiyatlarini birlashtiradi.

A.G.Kovalev talqiniga binoan, shaxs mana bunday tuzilishga ega:

1. Yo'nalganlik - voqelikka nisbatan inson munosabatini aniklaydi, unga o'zaro ta'sir etuvchi har xil xususiyatli g'oyaviy va amaliy ustanovkalar, qiziqishlar, ehtiyojlar kiradi. Ustuvor yo'nalganlik shaxsning barcha psixik faoliyatini belgilaydi.

2. Imkoniyatlar - faoliyatning muvaffaqiyatli amalga oshishini ta'minlovchi tizim. O'zaro ta'sir etuvchi va o'zaro bog'liq bo'lgan turlicha qobiliyatlar.

3. Xarakter. Ijtimoiy muhitda shaxsning xulq - atvor uslubini aniqlaydi. Odamning ruhiy hayoti shakli va mazmuni unda namoyon bo'ladi. Xarakter tizimidagi irodaviy va ma'naviy sifatlar.

4. Malakalar tizimi. Hayot va faoliyat, sifatlar xulq - atvorni tuzatish (korreksiyalash), o'zini o'zi nazorat qilish, o'zini - o'zi boshqarishni ta'minlaydi.

Jahon psixologiyasi fanida shaxs to'g'risida o'nlab nazariyalar, qarashlar, yondashuvlar mavjud bo'lishiga qaramay, inson kamoloti yuzasidan hanuzgacha umumiy bir fikrga kelinganicha yo'q. Xuddi shu bois

insonshunoslikda shaxsga oid bir qator terminlar, tushunchalar, atamalar qo'llanilishi an'ana tusiga kirgan, jumladan, shaxs, inson, odam, kishi, sub'ekt, individ, individuallik, komil inson, shuningdek,

unga taalluqli tipiklik va tipologik xususiyatlar shular jumlasidandir. Psixologiya fanida munosabatlar nuqtai nazaridan "sub'ekt – ob'ekt- sub'ektlararo", "sub'ekt – sub'ekt - ob'ektlararo" singari yondashuvlar mavjud bo'lib, ularning barchasi tabiiy (biologik) va ijtimoiy (sotsial) shartlanganlik manbalaridan kelib chiqqan holda tahlil hamda talqin qilishga asoslangandir.

Shaxsga oid psixoanaliz, analitik psixologiya, individual psixologiya,neofreydizm, begonalashish nazariyasi, gumanistik psixologiya, epigenetik nazariya, frustratsiya nazariyasi, rollar nazariyasi, ekzistensial psixologiya, tushunuvchan psixologiya, fransuz sotsiologik maktabi, sobiq sovet psixologlarining har xil nazariyalari mavjuddir.

Lekin bu o'rinda shaxsning tuzilishi, uning tabiiy va ijtimoiy shartlangan xususiyatlari munosabati, tipiklik va tipologik jabhalar, ijtimoiy va tarixiylik, filogenetik va ontogenetik tomonlari bo'yicha konsepsiyalar mohiyatini tahlil qilish masalasi ilmiy izlanishlarimizning maqsadiga kirmaydi. Xuddi shu sababdan ularning mazmuni, tuzilishi to'g'risida mulohaza

yuritish boshqa sahifalarga mo'ljallanganligi tufayli nomlarini ta'kidlab o'tish bilan qanoat hosil qilamiz, xolos.

Uzoq va yaqin chet el psixologlarining qarashlarida kamolot ontogenetik nuqtai nazardan muayyan, qat'iy bosqichlarga ajratilgan holda juda kam tadqiq qilingan. SHuning uchun biz shaxsan o'zimiz taklif qilayotgan sxema bo'yicha mulohaza yuritimiz va kamol topish bosqichlari hamda ularning o'ziga xos xususiyatlarining mohiyatini ochib berishga harakat qilamiz. Ularni quyidagi davrlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiq: murtaqlik (embrional), odam (indivud), inson, shaxs, sub'ekt, komil inson.

Shaxsning kamoloti murtaqlik davrdan boshlanish to'g'risidagi asosli fikrlar A.Vallon, D.Bromley tadqiqotlarida, ayrim psixologlar va psixofiziologlarning maqolalarida uchraydi, xolos. SHu narsani ta'kidlab o'tish joizki, murtaqlik davrining o'ziga xos xususiyatlarini aks ettirish imkoniyati muayyan darajada mavjud ekanligi nafaqat psixologlar, balki tabiatshunoslar, biologlar, fiziologlar tomonidan tavsiflab berilganligi, tibbiyot mutaxassislarining esa bu borada o'zlarining qarashlari, yondashuvlari shakllanganligi nazariy mulohaza yuritish uchun asos bo'lib xizmat qila oladi.

Murtaqlik davrini kamolot bosqichiga kiritgan tadqiqotchilar A.Vallon va D.Bromley bo'lib hisoblanadi. Jumladan, D.Bromley mazkur davrni quyidagi bosqichlarga ajratib tahlil qilishni tavsiya qiladi: zigota - embrional - homila - tug'ilish oldi. A.Vallon esa ontogenezning tarkibiy qismi sifatida uni kamolot bosqichi qatoriga kiritadi. Mazkur psixologlar murtaqlik davrini insonning umumiy kamoloti nuqtai nazaridan tahlil qilmaydilar, balki ular ontogenezning (tug'ilgandan to umrning oxirigacha davr) tarkibiy qismi sifatida talqin etadilar, xolos. Ushbu davrning o'ziga xos tomonlari va xususiyatlarini psixologik jihatdan yoritib berishga intiladilar va bu yo'nalishda ma'lum bir yutuqqa erishishga muayyan bo'ladilar.

Ularning ilmiy - amaliy mulohazalarini asosli dalil sifatida qabul qilgan holda bu boradagi o'z shaxsiy mulohazalarimizni bildiramiz. Buning uchun murtaqlik davrining muayyan tarkiblardan iborat ekanligini izohlash va tavsiflashning, o'zi kifoya. Jahon psixologlari va fiziologlarining fikrlariga qaraganda, mazkur kamolot davrining har bir bosqichi o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ma'lum bir ma'noda qulay (senzitiv) palla sifatida muayyan funktsiyaI bajaradi.

Murtaqlikning zigota (urug'lanish) bosqichi eng mas'uliyatli davrlardan biri bo'lib, u ham tabiiy (biologik), ham sub'ektiv (shaxsiy psixologik), ham ijtimoiy (sotsial) omillar ta'sirida vujudga keladi. Butun mas'uliyat onaning zimmasiga tushadi, binobarin, uning homilaga nisbatan munosabati, unga zarur shart - sharoitlar yaratishi, instinktiv xususiyatli himoya funksiyasining ishga tushishi, og'riq sezgilarining kuchayishi va ularga nisbatan chidam - bardosh, sabr sifatleri bilan qarama - qarshi turi olishlik zigota yashovchanligini ta'minlaydi.

Onaning xotirjamligi, ayrim qiyinchiliklarni engish xohishining mavjudligi, tabiiy ehtiyojlarni qondirish darajasi, nozik ezgu niyatlar va shirin hissiy kechinmalar bilan band ekanligi zigotaning baquvvat o'sishga zamin hozirlaydi. Attraksiya (mahliyo qiluvchi) tuyg'ular olamiga onaning tortilganligi, stress (zo'riqish, tanglik) va affekt (g'azablanish) holatlariga berilmasligi, shijoat, hayajon, tashvishlanish hislaridan uzoqligi tabiiy go'zallik vujudga kelishiga imkon yaratadi.

Organizmning sog'lomligi, tabiiy ehtiyojlar qondirilishi jismoniy o'sishning jadal borishi uchun puxta negiz yuzaga keltiradi, binobarin, komillikka dastlabki asos solinadi.

1. Homilalik bosqichi bo'lg'usi shaxs uchun muhim ahamiyat kasb etib, jismoniy barkamollikning, asab tizimi, bosh miya katta yarim sharlari, hissiy bilish tana a'zolari paydo bo'lishining va o'sishning manbai vazifasini bajaradi. Ushbu bosqichda quyidagilarga e'tibor berish maqsadga muvofiq:

- homilaning jismoniy o'sishini uzluksiz ravishda ta'minlash uchun oqsillar, vitaminlar va boshqa turdagi ozuqalarga nisbatan tabiiy ehtiyojini qondirib turish;

- unga salbiy ta'sir etuvchi qo'zg'atuvchilardan saqlanish, ijobiy his - tuyg'ular uyg'otuvchi hodisalar to'g'risida ko'proq o'ylash;

- qaltis jismoniy va somatik harakatlardan o'zini tiyib turish, zo'riqishning uzluksiz ravishda oldini olish;
- homilaga sensor ta'sir o'tkazishni odatiy psixologik holatga aylantirish;
- kontakt va distant muomala vositalaridan foydalanish;
- shaxslararo munosabatda muloqot maromlariga rioya qilish;
- bioritmika va psixometriya qoidalaridan og'ishmay foydalanish;
- ijtimoiy hodisalarga nisbatan loqaydroq munosabatda bo'lish va hokazo.

Tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zarur shart - sharoit yaratish, nafasat tuyg'ulari bilan hamkorlik, kun tartibi asosida faoliyat va xulq harakatlarini amalga oshirish ham tabiiy, ham ma'naviy go'zallikni

shakllantiradi. Orzu, istak, tilak, xohish tuyg'ulari yordami bilan obrazlarni yaratish tashqi ta'sirning eng kuchli mexanizmi funksiyasini o'taydi. Hujayralar, neyronlar orqali kirib borayotgan axborotlar qanchalik nozik, nafis, go'zal bo'lsa, homilada go'zallikning ham tabiiy shakli, ham xarakterologik jabhasi o'z aksini topadi.

Murtaklikning tug'ilish oldi bosqichi tashqi ta'sirga beriluvchanligi bilan boshqalaridan ajralib turadi, xuddi shu bois bunga alohida ahamiyat berish zarur. Homila o'zining tuzilishi, tana a'zolarining takomilligi, ularning maqsadga muvofiq harakati bilan chaqaloqqa juda o'xshab ketadi. Uning boladan farqli o'laroq tomoni ona organizmi orqali oziqlanish va nafas olishidir. Bu voqelik ilmiy tilda platsentar hodisa deb atalib, jamiiki, narsa bir markazdan boshqarilishi yoki ta'minlanishini bildiradi. Insonda yuz beradigan subsensor, subseptiv yuksak idrok shakllari tug'ilish oldi bo'sag'asida yorqin namoyon bo'la boshlaydi. Harakatning sur'ati, mazmuni, davomiyligi sifatlari bo'yicha bo'lg'usi chaqaloqning temperament xususiyatlarini va uning asab tizimi tipini aniqlash imkoniyati mavjud.

2. Odam (individd)lik davri tug'ilganidan to unda nutq paydo bo'lgunga qadar vaqt birligini qamrab oladi. Uning muhim tomonlari mana bunday holatlarda ko'zga yaqqol tashlanadi:

- embironal davridagi platsentar tizimi o'rnini oral (mustaqil hazm qilish) egallaydi, ya'ni mustaqil nafas olish, qon aylanish va boshqalar tabiiy ravishda chaqaloqda yuz bera boshlaydi;

- tabiiy holatlarga va muhitga moslashish (adaptatsiya) tevarak - atrofni bilish boshlanganligidan dalolat beradi;

- har xil turdagi harakatlarni amalga oshirish, jismlarga chang solish, ularga intilish narsalarni bilishga nisbatan harakatini bildiradi;

- ota - ona va qarindosh - urug'larini tanish, sezgi, idrok, xotira jarayonlari o'sishini anglatadi;

- jismlarga razm solish, uning tuzilishi va rangi bilan qiziqishi yaqqol tafakkurning ifodasidir;

- unda emotsiya va hissiyotning paydo bo'lishi muomalaga kirishi ehtiyojini namoyon etadi;

- emaklash, tik turishga intilish ukuvining payya bo'layotganligi fazoviy tasavvurni aks ettiradi va boshqalar.

Mazkur davrda shaxslararo munosabatga kirishish, mikro va makro muhit xususiyatlari hamda holatlariga bolaning shaxsiy reaksiyasi, ulardagi o'xshashlik va farqni ajrata bilish uning o'sishini bildiradi. So'z orqali narsalar va hodisalarni ifodalash hamda tushuntirish jarayoni yuzaga kelguniga qadar muomala, xulq, harakat orqali tabiat va jamiyatni sodda tarzda bilish amalga oshadi. Xuddi shu sababdan kamolotning dastlabki bosqichlaridan biri sifatida individuallik davri o'zini - o'zi anglashga puxta negiz tayyorlaydi.

3. Inson davri o'zini - o'zi anglashdan boshlanib, jismoniy, aqliy va ijtimoiy kamolotga erishuv jarayoni amalga oshishi bilan tugallanadi. Ushbu davr insoniy xislatlarni etnik guruh a'zosi sifatida mukammal egallash bilan boshqa taraqqiyot pallalaridan ajralib turadi. Alohidalikka oid xususiyatlar quyidagilarda o'z aksini topadi va u ikki bosqichdan iborat bo'ladi:

I. Nutqning paydo bo'lishidan to 6-7 yoshgacha:

- bolada fazoviy muvozanatning vujudga kelganligi;
- o'zini - o'zi anglashdan iborat «Men» davrining mavjudligi;
- nutqda ona tili boyligidan unumli foydalanish imkoniyatining tug'ilishi;
- milliy urf - odatlarga, xulq - atvor qoidalariga rioya qila olishi;
- muomala maromi, ijtimoiy qadriyatlarni egallashi;
- o'yin hamda faoliyatning boshqa turlarini o'zlashtirish negizida milliy va unumbashariy fazilatlarining shakllanganligi;
- individual - tipologik xususiyatlarning aniq namoyon bo'lishi;
- barcha jihatlar bilan maktab ta'limiga tayyorligi;
- guruhii hamkorlik uquvidan xabardorligi.

II. O'smirlik davri xususiyatlarining aks etishi:

- jismoniy jihatdan mukammallikka intilishning mavjudligi;
- faoliyat, xulq va muomala jarayonlarida tipologik xususiyatlarga erishilganligi;
- aqliy, axloqiy, xarakterologik xususiyatlari shakllanganligi;
- turli shakldagi va tuzilishdagi (tengqurlari, katta yoshdagilar, rasmiy va norasmiy, real) guruhlarda o'zini - o'zi anglashning namoyon qilishi;
- ijtimoiy hayotda va faoliyatda o'zini - o'zi tasdiqlashga imkoniyat borligi;
- ijtimoiy turmushning har bir jabhasida faollik ko'rsatishi;
- o'quv fanlariga differensial munosabatning qaror topishi; muayyan e'tiqod, dunyoqarash, shaxsiy munosabatning mavjudligi;
- tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi, xulqi atvoriga qat'iyatlik etishmasligi;
- fantaziya va o'ziga bino qo'yishning ustuvorligi va boshqalar.

Maktab ta'limiga tayyorgarlik bosqichida to'plangan bilimlar qo'lami umrning qolgan yillarida kutilishi taxmin qilingan qismining yarimiga tengdir. Bundan keyingi davrda o'zlashtirilishi mumkin bo'lgan bilimlar shaklan emas, balki mazmunan, sifat jihatidan boyib, takomillashib boradi, xolos. O'smirlik davrida insonga berilgan tabiiy imkoniyatlar ro'yobga chiqadi, ijtimoiylashuv, jismoniy o'sish jadallashadi, natijada etuklikka puxta shart - sharoitlar yaratadi. Tabiatga, jamiyatga va shaxslararo munosabatga nisbatan shaxsiy pozitsiya-munosabat vujudga keladi. Buning natijasida mustaqil fikrlash, qaror qabul qilish, xulq - atvor va faoliyatni amalga oshirish imkoniyati tug'iladi. Bu xolat kamolot ko'rinishini namoyish etadi, insoniy fazilatlar, xislatlar, sifatlar va xususiyatlar tarkib topganligini bildiradi.

4. Inson kamolotining shaxs davri etuklikning muayyan bosqichi hisoblanib, ijtimoiy hayotda alohida ahamiyat kasb etadi va o'zining ko'rsatkichi bilan muhim rol o'ynaydi. SHaxs davri bir necha taraqqiyot bosqichlarini aks ettirib, unda ilk o'spirinlik, o'pirinlik va yoshlikni qamrab oladi.

Uning birinchi bosqichi balog'at deb nomlanib, 15-16 yoshdagi o'g'il - qizlarni o'zida jamlaydi. Bu bosqichda ushbu xususiyatlar ko'zga bevosita tashlanadi:

- jismoniy barkamollikning ifodalanishi;
- ruhiy jihatdan muayyan ko'rsatkichga erishganligi;
- ijtimoiy va ijtimoiy psixologik jihatdan muayyan etuklikka erishuv;
- xulq, faoliyat va muomala jarayonlarida individuallikni shakllanishi;
- e'tiqod, dunyoqarash va pozitsiyada barqarorlikning mavjudligi.

Shaxs tarkib topishining ikkinchi bosqichi ixtisos egallash deb atalib, 17-18 va 21-23 yoshdagi barkamol yigitlar va bokira qizlardan tashkil topadi, kasbiy faoliyatni egallashning o'ziga xosligi bilan boshqa taraqqiyot pallalaridan ajralib turadi. Ushbu holatlar o'ziga xosligi bilan namoyon bo'ladi:

- bilimlar, ko'nikmalar va malakalar egallashdagi individuallik;
- faoliyatning individual uslubining paydo bo'lishi;
- kasbiy motivatsiyaning ustuvorligi;

- ma'naviy ehtiyoj, barqaror qiziqish, qat'iyat etakchiligi;
- mutaxassislikka munosabatning shaxsiy pozitsiyaga bo'ysunganligi;
- kollej va oliy maktab muhitining o'ziga xosligining ular shaxsiyatida ifodalanishi;
- amaliyotga va muhitga moslashishning sifat jihatidan tafovutlanishi.

Shaxs shakllanishining uchinchi bosqichi yoshlik davridan iborat bo'lib, ixtisosiy etuklikni o'zida aks ettiradi. Ko'pincha barkamollik alomatlari quyidagilarda ifodalanadi:

- kasbiy, ixtisosiy individuallik, betakrorlik, o'ziga xoslik yuzaga kelishi;
- kasbiy, ixtisosiy mahorat darajasiga erishuv;
- o'z sohasida tashabbuskorlik xususiyatini namoyish etish;
- ijtimoiy baholash ekspertizasi - tekshirish mezonlariga batamom mos tushishlik.

Shaxsning ma'lumot darajasiga qaramay, yuksak ko'rsatkichlarga erishuvi uning kamolotidan darak beradi. O'z sohasida kasbiy, ixtisosiy mahoratini namoyish etish etuklikning yuksak darajasini bildiradi va jamoatchilik fikrida iliq iz qoldiradi. Tashabbuskorlik takliflari, ixtirolari sohadagi muvaffaqiyatni ifodalab berib, betakror shaxs ekanligini isbotlashga xizmat qiladi. Noyob kasb egasi, fenomenal qobiliyatli, iste'dodli etuk shaxs shakllanganligi ijtimoiy - tarixiy voqelik sifatida yuksak baholanadi.

5. Inson kamolotining navbatdagi davri sub'ekt deb nomlanib, o'ziga xos xususiyatlari bilan umrning boshqa pallalaridan ajralib turadi. Har qaysi shaxs sub'ekt darajasiga o'sib o'tishi mumkin emas, lekin uning ayrim xususiyatlarini egallash imkoniyatiga egadir. Sub'ekt o'zining mana shu xususiyatlari bilan shaxsdan tafovutlanadi:

- xulq - atvorda, faoliyatda, muomalada mustaqillikning ustuvorligi;
- ijtimoiy hayotning har bir jabhasida shaxsiy pozitsiyaga egalik;
- ilg'or insonparvarlik g'oyalari ilgari surish va originalligi, nostandardligi, innovatsion ekanligi bilan ajralib turishlik;
- g'oyalarni qaror toptirishda ob'ektiv va sub'ektiv to'siqlarni engish.

Sub'ektning eng muhim ko'rsatkichi - bu professionalizmga erishuv va ijtimoiy - siyosiy etuklikni namoyish qilishdir. Nomdor mutaxassislar, fan va texnika, jamoat arboblari, ijodiy - tarixiy fikrlovchilar, siyosatchilar, davlat rahbarlari sub'ekt bosqichida faoliyat ko'rsatishlari mumkin. SHuning uchun ushbu vaziyatda ommaviylikka erishuvga intilish jamiyatning taraqqiyotini tezlashtirish sari etaklaydi, fidoyi, toliqmas kishilar safini kengaytirishga xizmat qiladi.

6. Kamil inson g'oyasi insoniyatning asriy orzusi bo'lib hisoblanadi va ushbu darajaga erishish borliqni, tabiatni, jamiyatni bilishning muhim manbai sanaladi. Kamil inson to'g'risida tasavvuf, so'fizm ilmiy maktablari muayyan ma'lumotlar to'plashga muvaffaq bo'lganlar, shuningdek, bu mavzuga oid qarashlar jahonning insonparvarlik g'oyalari bilan qurollangan allomalarning izlanishlarida alohida o'rin egallagan. Ularning nazariyalariga tanqidiy munosabatni bildirish mavrudi bo'lmaganligi sababli faqat ta'kidlab o'tish bilan kifoyalanamiz, binobarin, tariqat, haqiqat, ma'rifat to'g'risida mulohaza yuritmaymiz. Aksincha, bu borada o'zimizning shaxsiy qarashlarimizni bayon qilamiz, xolos. Bizningcha, hozirgi zamon nuqtai nazaridan mazkur muammoga yondashsak, kamil insonlikni to'rt bosqichga ajratib talqin qilish maqsadga muvofiq bo'ladi.

I. Inson kamolotining bu bosqichiga kelib o'zining sohasi bo'yicha piri ixtisos darajasiga erishadi. Buning natijasida etuk inson hayot va faoliyatda ijtimoiy - tarixiy

psixologik namuna bosqichiga o'sib o'tadi, o'zining salohiyati bilan sohani taraqqiy ettirish manbaiga aylanadi. Ivdividuallik namunasi milliy va insoniy ahamiyat kasb etadi, taraqqiyotni harakatlantiruvchi mexanizm vazifasini bajaradi. Bu bosqichdagi insonlarning asosiy xususiyatlari quyidagilarda o'z aksini topadi:

- yuksak aql - zakovatga egalik, intellektual faoliyatda mahsuldorlik;
- antitsipatsiya kundalik faoliyat mahsulolasiga aylanganlik, ya'ni amalga oshirish rejalashtirilgan faoliyat natijasining oldindan modelini yaratish;

- xulq, faoliyat, muomala jarayonlarida o'z imkoniyatini oqilona baholash va o'zgaralar tomonidan xuddi shunday darajaga ershpish;

- sohaga oid talant va salohiyatning amaliy ifodalanishini ta'minlash.

II. Ixtisoslararo bilimdonlik komil inson kamolotining navbatdagi yuksak bosqichi bo'lib, hozirgi davrda bir necha sohalar bo'yicha mukammal bilimlarga, qarashlarga egaligi bilan tavsiflanadi. Sohalarining kengayishi tufayli bu darajaga erishish imkoniyati tobora cheklanib bormoqda, chunki fan va texnika jadal sur'atlar bilan o'sishi, axborotlar salmog'ining soniya sayin ortishi vaqt taqchilligini keltirib chiqarmoqda. Fazoviy va vizual munosabatlar to'g'risidagi miqdor hamda sifat o'zgarishlari inson da'vosi bilan uning imkoniyati o'rtasida ziddiyatli holatlarni vujudga keltirmoqda.

Ixtisoslararo bilimdonlik o'ziga xos ikki xususiyati bilan boshqa kamolot bosqichlaridan ajralib turadi:

uzluksiz ravishda kashfiyotlarni amalga oshirishga qobillik;

- har bir ixtisos predmetiga oid qarashlarda mukammallikka, sermahsullikka va dinamizmga erishish.

III. Komil insonning navbatdagi kamolot bosqichi aqliy donishmandlik deb atalib, tabiatga va jamiyatga, biosfera va noosferaga nisbatan super onglilik ko'rsatkichiga erishish bilan tavsiflanadi.

Aqliy donishmandlik axloqiy madaniyat, yuksak his - tuyg'ular, muomala maromi, tabiat va jamiyat normalariga rioya qilishlik bilan uzviy uyg'unliqda hukm suradi. Axloqiy etuklik siyosiy, huquqiy, iqtisodiy ong ko'rinishlariga oqilona yondashishni ta'minlaydi.

Aqliy donishmandlik axloqiy, intellektual, estetik va praksik (mehnat natijasidan lazzatlanish) yuksak his - tuyg'ular manbasiga bevosita asoslansa, to'kislik, mukammallik namunasini aks ettiradi. Ma'naviy barkamollik etuklikning tarkibiy qismlari bilan bir tekis qurollantiradi, xulq, faoliyat va muomala regulyatori funksiyasini o'taydi.

IV. Umumbashariy daholik jamiyat va taraqqiyot taqozasi bilan vujudga keluvchi imkoniyat yoki zaruriyatning mahsulidir. Fan, texnika, siyosat, din, davlat qurilishi sohasida keskin o'zgarishni amalga oshiruvchi tarixiy shaxslar kamolotning oxirgi bosqichiga erishishi mumkin. Bunday darajaga erishganlar o'zlarining valeligi, bashoratchanligi bilan davrdan, zamondan ancha ilgari ketish hollari bilan tavsiflanadi.

Subsensor, subseptiv xususiyatlari bilan zamondoshlaridan yuksak darajada ustunlikka ega. Subsensorika imkoniyatlariga dahldorlik komillikning yuksak darajasini o'zida aks ettiradi. Ilmiy asoslarga suyanib buyuk bashoratlarni ro'yobga chiqarish uning yangi bir xususiyatidan biri bo'lib hisoblanadi.

Komil insonlik to'g'risidagi mulohazalar ideal sharoitni aks ettirishga qaratilganligini ta'kidlab o'tish joiz. Chunki reallikdan uzoqlashish unga erishish imkoniyati mavjud emasligini bildirmaydi, aksincha, inson o'zini - o'zi kashf qilish, o'zini ro'yobga chiqarish, qulay shart - sharoitlar yaratish orqali yuksak darajaga erishsa bo'ladi. Lekin komil insonlikka qo'yiladigan talablar darajasiga nisbiy yondashish, mezonlarni ixchamlashtirish orqali komil insonni shakllantirish mumkin.

Kasblarning psixologik tasnifi va uning mohiyati (davomi)

5. 3-dars: Kasb va qiziqish.

Reja:

1. Qiziqish va uning insonlar hayoti va faoliyatida roli
2. Qiziqishning psixologik mohiyati

Qiziqish shaxsning muhim psixologik jabhalaridan biri hisoblanib, unda insonning individual xususiyati bevosita mujassamlashadi. Qiziqish - insonlarning dunyoqarash, e'tiqodlari, ideallari, ya'ni uning oliy maqsadlari, ezgu niyatlari, orzu umidlari bilan bevosita bog'liq ravishda aks etadi. Qiziqish insonlar hayoti va faoliyatida muhim rol o'ynaydi hamda ularning muvaffaqiyatli kechishini ta'minlash uchun xizmat qiladi.

Qiziqish bilimlarning ongli, puxta, barqaror, anglangan holda o'zlashtirishda, ko'nikma va malakalarni shakllantirishda shaxs qobiliyati zehni uquvchanligi rivojlanishiga, olamni mukammalroq tushunishga, bilim saviyasini kengayishiga yordam beradi.

Qiziqish motiv singari borliqning mo'jizakor tomonlarini bilishga, fan asoslarini egallashga, faoliyatning turli-tuman shakllariga nisbatan ijodiy yondoshishni vujudga keltiradi. Mehnatga, ta'limga mas'uliyat bilan munosabatda bo'lishni shakllantiradi, har qaysi yakka hol (individual) shaxsda ishchanlik, g'ayrat shijoat, egilmas irodani tarkib toptirishga puxta psixologik shart-sharoitlar yaratadi.

Qiziqishning psixologik mohiyatidan kelib chiqqan holda yondashilganda, qiziqish foyda va manfaatni bildirib, insonda intilish, faollik ichki turtki, ehtiyojni ro'yobga chiqarish manbai rolini bajaradi.

Jahon psixologiya fanining yirik namoyandalari shaxsning qiziqishini uning yaxlit ruhiy dunyosi bilan, binobarin, odamning aqliy faoliyati, bilish jarayonlari, irodasi, xarakteri, temperamenti, hissiyoti, qobiliyati bilan, umuman olganda inson tuzilishining barcha qirralari bilan bog'liq tarzda tushuntirishga harakat qilganlar.

Qiziqish muammosi psixologik nuqtai nazardan N.A.Ribnikov, N.F.Dobrinin, N.D.Levitov, M.F.Belyaev, L.A.Gordon, L.I.Bojovich, N.G.Morozova, M.G.Davletshin, M.Vohidov, V.A.Tokareva, E.G'.G'oziev va boshqalarning nazariy metodologik xususiyatga ega bo'lgan asarlarida va maxsus eksperimental tadqiqotlarida rivojlantirildi.

Hozirgi zamon psixologiyasida qiziqish ob'ektiv borliqning insonlar ongida sub'ektiv tarzda aks etish shakllaridan biri sifatida tan olinadi. Qiziqish shaxsning muayyan voqelikdagi, ma'lum vaziyatdagi turli narsa na hodisalarga tanlab munosabatda bo'lishda, insonning o'ziga xos qaror qabul qilishida, o'zini – o'zi nazorat eta bilishida, maqsadga intiluvchanligida, yuzaga kelgan ob'ektiv va sub'ektiv to'siqlarni engishida ifodalanadi.

Psixologiya fanining yirik namoyandalarining ta'limoticha, qiziqish odamlarning ehtiyojlari negizida yuzaga keladi, yaqqol ijtimoiy tarixiy shart - sharoitda, vaziyatda vujudga keladi, shakllanadi, barqarorlashib boradi hamda ularning shaxsiy turmush sharoitida va faoliyatda, ijtimoiy ishlab chiqarishda qatnashishi singari omillarda gavdalanadi. Umumiy talqinlarga asoslanib mulohaza bildirilganda, qiziqish alohida jarayon, ma'lum psixologik funksiya emas, chunki u his - tuyg'u, iroda, ong, qolaversa jamiki psixik holatlar, hodisalar va ichki kechinmalarning o'zida mujassamlashtirgan, murakkab tizimli ruhiy voqeliqdir.

Qiziqishning psixologik mohiyatining dastl ko'rinishi - bu uni odamlar tomonidan anglab etishi yoki tushunish imkoniyatidir. SHaxs qiziqish mahsulini, uning oqibatini anglash, tasavvur etish orqaligina ob'ektiv borliqdagi narsa va hodisalarga ongli, tanlab munosabatda bo'ladi. Lekin bu voqelik (anglash, tushunish) insonda birdaniga sodir bo'lmaydi, balki muayyan vaqt davomida unda bilish jarayonlari, shaxsiy fazilatlar, individual - tipologik xususiyatlari rivojlanishi tufayli yuzaga keladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, qiziqishning psixologik mohiyati namoyon bo'lishi aqliy jarayonlar muhim o'ynashi hodisasi qayd qilinishi u faqat intellektdan tashkil topadi, degan ma'no anglatmaydi, albatta.

Xuddi shu boisdan, qiziqishni psixologik mohiyatining ikkinchi ko'rinishi - uning his tuyg'ular, emotsional holatlar bilan uyg'unlashgan mujassamlashgan tarzda ifodalanishidir. Ma'lumki his - tuyg'ular, shuningdek, emotsional holatlar (emotsional ton, kayfiyat, shijoat, ehtiros va boshqalar) shaxsning borliqdagi aniq voqelikka, narsa va hodisalarga, muayyan faoliyatga nisbatan intilishni, sa'i - harakatlarni ko'chaytiradi, jadallashtiradi, safarbarlikni ob'ektga yo'naltiradi. Inson o'z shaxsiy qiziqishini qondirgandan keyin unda yoqimli his - tuyg'ular uyg'onadi, ruhiy qoniqish esa o'z navbatida lazzatlanish (praksik) hisni vujudga keltiradi. Aksincha narsaga, hodisaga, faoliyatga qiziqish muvaffaqiyatsizlik bilan yakunlansa, u holda noxush kechinmalarni yuzaga keltiradi, buning natijasida frustratsiya (ruhi tushish) uning shaxsiyatini egallaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining uchinchi ko'rinishi - uning irodaviy sifatleri bilan yoki iroda akti bilan umumlashgan tarzda vujudga kelishidir. Irodaviy zo'r berish, muayyan qaror bo'yicha intilish, ba'zi qiyinchiliklarni engish, mustaqillik namoyon qilish qiziqishni qaror toptiradi, shaxsni maqsad sari etaklaydi.

Qiziqishni psixologik mohiyatining to'rtinchi ko'rinishi - uni oliy asab faoliyati xususiyatlari va temperament tiplari bilan birga mujassamlashgan holda namoyon bo'lishidir.

Qiziqishning asab - fiziologik mexanizmlari to'g'risida mulohaza yuritilganda, dastavval rus olimi I.P.Pavlovning oliy asab faoliyati haqidagi ta'limotini ta'kidlab o'tish joiz. Uning «bu nima?» refleksi, ya'ni orientirovka (mo'ljal olish) refleksi qiziqishning moddiy negizini tushuntirishda muhim ahamiyat kasb etadi. I.P.Pavlov va uning shogirdlaridan keyin P.K.Anoxin, N.A.Bernshteyn, B.M.Teplov, V.S.Merlin, V.D.Nebilitsin va boshqalar insondagi qiziqishning asab - fiziologik mexanizmlarini bosh miya katta yarim sharlari po'stlog'ida orientirovka refleksi negizida murakkab muvaqqat bog'lanishlarining vujudga kelishidir, degan yo'sinda talqin qilmoqdalar. Qiziqishning moddiy asoslari o'zaro induksiya qonuni, po'stloqdagi optimal qo'zg'alish o'chog'i va dinamik stereotiplar (I.P.Pavlov), dominanta (A.A.Uxtomskiy), orientir

murakkab psixofiziologik hodisa ekanligi (E.N.Sokolov) va boshqalar bo'lib hisoblanadi.

Hozirgi davrda qiziqish shaxsning individual psixologik xususiyatidan iboratdir, degan xulosa odatiy narsaga aylanib qoldi. SHunga qaramasdan ba'zi manbalarda qazaqish — muayyan soha bo'yicha to'g'ri mo'ljal olishga, yangi omillar bilan tanishishga, voqelikni to'la va chuqur aks ettirishga yordam beradigan motivdir, degan ta'rifga ham egadir. SHunga mutanosib tarzda qiziqish, bilish jarayoni tusini kashf etadigan, ijobiy his - tuyg'ularga yo'naltirilgan ob'ekt bilan chuqurroq tanishishga, u haqda ko'proq ma'lumotga ega bo'lish, uni mohiyatini anglab etishga nisbatan shaxsning istagida namoyon bo'ladi, qabilida mulohazalar hukm suradi.

Shuni alohida ta'kidlash lozimki, shaxsning ishtiyoqini qondirishga yo'naltirilganligini aks ettiruvchi qiziqishning qondirilishi, hech qachon uning so'nishini ifodalamaydi, aksincha ob'ektning noma'lum kirralarini aniqlashga nisbatan intilish davom etaveradi. SHu bilan birga qiziqishlar bilishning uning jarayonlari funksional holatining doimiy ko'zgartuvchi mexanizmi sifatida vujudga keladi va aks ettirishda davom etadi.

Psixologiyada qiziqish mana bunday turlarga ajratilishi mumkin: 1) mazmuniga ko'ra; 2) maqsadiga binoan: bevosita va bilvosita; 3) ko'lamiga qaraganda: keng va tor; 4) qiziqishlar darajasi bo'yicha: barqaror va beqaror va boshqalar.

Qiziqishlarning mazmun jihatidan o'zaro tafovutlanishi quyidagilarda mujassamlashadi: bilish ehtiyojlarining ob'ektlari qaysilar, bilishning mazkur faoliyat maqsadi bilan mutanosibligi, shaxsning yashayotgan muhitiga nisbatan munosabati kabilar. SHaxsda nimalarga nisbatan qiziqish uyg'onadi, uning bilish ehtiyojlari ob'ektining ijtimoiy qiymati qanday ahamiyat kasb etadi? Insonning shaxsiy qiziqishi kelib chiqishiga ko'ra birlamchi bo'lishiga qaramasdan, u bir davrning o'zida ijtimoiylik xususiyatini kasb etaveradi. Uning kasbiy faoliyatiga nisbatan qiziqishi oxir oqibatda jamiyat uchun naf keltirishi, ravnaqi uchun qiymatlidir. Ijtimoiy xususiyatli qiziqishlarning paydo bo'lishi shaxsiy ahamiyat kasb etish sari etaklashi muqarrar. Chunki umumiylik (ijtimoiylik) bilan xususiylik (shaxsga oidlik) uyg'unlashgan holda hukm suradi va ular doimo o'rin almashtirib turishadi. SHaxs o'z qiziqishi tufayli biron - bir narsani kashf etsa, individual ehtiyojini qondiradi, shuningdek, jamiyat, jamoa uchun ishlab chiqarishni takomillashtirishga bu narsa xizmat kiladi. SHu boisdan jamiyatning, jamoaning eng dolzarb vazifalaridan biri - yoshlarning mustaqil, faol bilishga, ijtimoiy ahamiyatga moillik, mehnat faoliyatiga nisbatan qiziqish uyg'otishdan iboratdir. Toki ularda jiddiy, sermazmun, jamiyat tomonidan rag'batlantiriluvchi, mehr - muhabbatga sazovor qiziqishlar shakllansin.

Qiziqishning maqsad jihatidan farqi bevosita va bilvosita namoyon bo'ladigan qiziqishlarning mavjudligini aniqlaydi. Bevosita qiziqishlar voqelikning, jismlar va hodisalarning emotsional jozibaliligi, his - tuyg'ularga ega bo'lishligi, tashqi ta'sirlarga beriluvchanligi tufayli vujudga keladi. Bevosita qiziqishlar o'rganilayotgan narsaning ma'nosi bilan uning shaxs faoliyati uchun ahamiyati mos tushgan takdirda paydo bo'lishi mumkin. Shuning uchun psixologiyada bevosita kiziqishning yuzaga kelishini faoliyatning maqsadini anglash bilan bog'liq bo'lgan bilishni ehtiyoj deb atash qabul qilingan. Mehnat va o'qish faoliyatida hamma his - tuyg'uga, jozibaga tayanib ish tutish imkoniyati mavjud bo'lmasligi sababli jismoniy va aqliy mehnatni ongli idora qilishda muhim ahamiyat kasb etadigan bevosita kiziqishlarni tarkib toptirish masalasi ishlab chiqarish hamda ta'lim tizimi oldida turgan muhim vazifa hisoblanadi.

Shunday qilib, u yoki bu narsalarni (hodisalar mohiyatini) bilish, ko'rish, idrok etish, anglab etish uchun qiziqarli tuyulgan ichki kechinmalar bevosita qiziqishni aks

ettiradi. Bilvosita qiziqishlar mehnat faoliyati yoki ta'lim olish jarayonining muayyan ijtimoiy ahamiyati bilan uning shaxs uchun sub'ektiv ahamiyati o'zaro mos tushganda bilvosita qiziqish yuzaga keladi. Binobarin, shaxs mazkur jarayonda bu narsalar meni qiziqtirgani uchun juda qiziqarlidir, degan xulosaga keladi. Mehnat faoliyati va ta'lim jarayonini ongli tashkil etishda etakchi va ustuvor rol o'ynaydigan bilvosita qiziqishlarni tarkib toptirish uchun maxsus treninglarga, omilkor yo'l – yo'riqlarga o'rgatish maqsadga muvofiqdir.

Odamlarning qiziqishlari o'zining ko'lami bilan bir- biridan farq qiladi. Shunday shaxslar toifasi ham mavjudki, ularning qiziqishlari faqat birgina sohaga qaratilgan bo'ladi. Boshqa bir toifaga taalluqli odamlarda esa qiziqishlar qator sohalarga, fanlrga, ob'ektlarga yo'naltirilganligini uchratish mumkin. Lekin turli sohaga nisbatan qiziqishlarning biri ikkinchisiga salbiy ta'sir etishi mumkin emas, agarda ular oqilona boshqarish imkoniyatiga ega bo'lsa. Qiziqishning torligi ko'pincha salbiy hodisa sifatida baholanishi mumkin, lekin ayni chog'da ularning kengligini ham nuqson tariqasida tahlil qilsa bo'ladi. Biroq shaxsning barkamol shaxs bo'lib kamol topishini qiziqishlar ko'laminu tor emas, balki keng miqyosda bo'lishini taqozo etadi.

Qiziqishlar o'zlarining darajasiga qarab barqaror va beqaror turlarga ajratiladi. Barqaror qiziqishga ega bo'lgan shaxs uzoq vaqt davomida yoqtirgan predmetlariga, ob'ektlariga, hodisalarga nisbatan o'z maylini hech o'zgarishsiz saklab tura oladi. Shu boisdan, inson ehtiyojlarini o'zida mujassamlashtiruvchi, shaxsning ruhiy fazilatiga aylana boshlagan qiziqishlar barqaror qiziqishlar deyiladi. Barqaror qiziqish odam qobiliyatining rivojlanganligidan darak berishi mumkin. Ana shu nuqtai nazardan olib qaraganimizda, mazkur qiziqish tashxis qiluvchanlik xususiyatiga ega. Biroq insonlarda barqaror qiziqishning mavjud yoki mavjud emasligini aniqlash uchun ularning mehnat faoliyati va o'quv jarayonini qiziqishlarining tashqi ifodasini atroflicha o'rganishga to'g'ri keladi. Odatda qiziqishning tashqi ifodasi shaxsning o'ziga o'zi baho berishi, o'zini o'zi tahlil qilishi faoliyatlarida namoyon bo'ladi. Barqaror qiziqish to'g'risida mulohaza yuritilganda, uning boshqa tarkibiy qismlari va qirralarini hisobga olish lozim, chunki bu narsa ko'p jihatdan shaxsning irodaviy sifatleri, xarakterining vazminligiga bog'liq.

Kiziqishning barqarorligi uning nisbatan jadal tarzda namoyon bo'lishi hamda uzoq davom etishi bilan ifodalanadi. SHaxsning zaruriy ehtiyojlarini yuksak darajada aks ettiradigan, shuningdek, uning psixologik tuzilishiga xos xislatlarga aylanib boradigan qiziqishlari barqaror qiziqish deyiladi. Barqaror qiziqish qobiliyatning bir ko'rinishiga o'xshash bo'lib, maqsadga yo'nalganligi bilan muhim ham individual, ham ijtimoiy ahamiyatta, qiymatga egadir.

Qiziqishlarning ba'zi holatlarda beqaror bo'lishligi insonlarning yosh, jins, tipologik xususiyatlariga bog'likdir. Bunday toifadagi odamlarda qiziqishlar g'oyatda ehtirosli kechadi, biroq qisqa muddatli bo'lishi mumkin. Masalan, bir vaqtning o'zida ular bir nechta fanlarga, tabiat hodisalariga qiziqadi, barcha narsaga ishtiyoq bilan kirishib muammo mohiyatiga chuqur kirib bormasdan, boshqa holatlar bilan mashg'ul bo'lib ketadilar. Unday xususiyatli shaxslar mashg'ulotlarga tez kirishadi va shunday yo'sinda so'nib turadi ham. Qiziqishlar salohiyatli voyaga etgan odamlarning, yoshlarning o'z iste'dodlarini maqsadga yo'naltirilgan tarzda amalga oshishini ta'minlaydi.

Shaxslardagi qiziqishlarni rivojlantirish va barqarorlashtirish uchun ularning negizini tashkil

etadigan faoliyat bilan mashg'ul bo'lishga, maqsadga muvofiq ravishda shug'ullanishga, mayl uyg'otishga puxta zamin hozirlash zarur, toki qiziqishlar motiv, ehtiyoj, e'tiqod funksiyasini bajarishga aylansin.

Shunday qilib, qiziqishlar - shaxs faoliyatini asoslashning tanho jabhasi emas, lekin uning eng muhim jihatidan iboratdir.

Psixologiya fanining so'ngi davrdagi ma'lumotlariga asoslangan holda qiziqishni bir nechta darajalarga ajratish mumkin: a) sinchkovlik; b) qiziquvchanlik; v) bilishga qiziqish; g) turg'un yoki kasbiy qiziqish. Sinchkovlik qiziqishning biror narsaga nisbatan kuchli intilishdan iborat qisqa muddatli turi yoki darajasidir. Qiziquvchanlik shaxsning voqeliqdagi narsa va hodisalarga, ularning bilishga nisbatan faol munosabatidan iborat qiziqish darajasidir. Bilishga qiziqish anglashinilgan darajadagi, maqsadga muvofiqlashgan, jismoniy va aqliy faoliyatlarning yangi qirralarini egallashga yo'naltirilgan qiziqish turidir. Turg'un qiziqish shaxsning kasbiy tayyorgarlik darajasi bilan uyg'unlashgan, maqsadga erishish yo'lida faollik ko'rsatuvchi qiziqish turidir.

Shaxslar ixtiyoriga piktogramma, anagramm turli xususiyatli testlarni havola qilish ularda qiziqishning ichki mexanizmlarini keltirib chiqaradi. Bu narsa o'z navbatida ularda o'z qiziqishini o'zi boshqarish ko'nikmasini shakllantiradi, har qanday qo'zg'atuvchiga javob berishdan iborat stereotip hosil bo'ladi.

Qiziqishning bu turi va uning yuqori bosqichi shaxsning voqelikdagi ichki bog'lanishlarni, munosabatlarni bilib olishga yo'llaydi hamda ruhiy to'siqlarva qiyinchiliklarni engadigan, muvaffaqiyatsizliklardan cho'chimaydigan, qatiyatlik, intiluvchan, toliqmas individual xususiyatni shakllantirishga yordam beradi. Odamlarda o'zini o'zi boshqarish, shaxsiy qiziqishini idora qilish, o'ziga o'zi buyruq berish, o'zini qo'lga olish, o'zini o'zi takomillashtirish singari shaxsiy xususiyatlarini shakllantirish ijtimoiy, tarixiy hamda ijtimoiy psixologik ahamiyat kasb etadi.

6-Mavzu: Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi

Reja:

1. Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi
2. Shaxs psixodiagnostikasi
3. Kasbiy psixodiagnostika

Asosiy tushunchalar:

Psixodiagnostika, psixogramma, test, ishonchlilik, kriteriaviy validlik

Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi

Baxolanishga mo'ljallangan shaxsning xususiyatlari etarli darajada aniq va bir xil ma'noli kilib aniqlanishi shart.

Agarda bir gurux sinaluvchilarni bir necha xususiyatlar, fazilatlar buyicha baxolash zaruriyati vujudga kelsa, u taqdirda yaxlit guruxni xar qaysi xislat buyicha baxolash tavsiya qilinadi.

Turli vaziyatlar va xolatlarni uzoq muddat kuzatishda baxolashning aniqligi yuqori bo'ladi.

O'lchashda xatoga qabul qilingan omillarning farqlanishiga qarab testlar ishonchliligini baxolashga nisbatan uch xil yondashuv xukm suradi.

1. Test - retest ishonchliligi. Test buyicha ayni bir xil odamlarni takroriy o'rganishning

natijalari korrelyasiyasi ishonchlilik koeffitsientiga teng. o'lchashdagi nuqsonlar sinaluvchilar xolatlarining tafovuti, takroriy sinovning sharoitlari va tashkiliy daqiqalari, javoblarni esda olib qolish, matn bilan ishlash ko'nikmalarini egallash jarayonlari bilan tavsiflanadi.

2. Testning parallel shakllarining ishonchliligi. Testning parallel shakllarining korrelyasiyasi ishonchlilik koeffitsientiga teng. o'lchashdagi nuqsonlar yukorida ta'kidlab o'tilganlardan tashqari, testning parallel shakllarini ijro etish bilan alokador operatsiyalar va xarakterlar xususiyatlaridagi farqlar bilan tavsiflanadi.

3. Ishonchlilik testlarning gomogeniligi sifatida qo'llanilishi mumkin. Mazkur xolatda metodikaning qismlari o'rtasidagi interkorrelyasiyasini xisoblash vositasi bilan ishonchlilik baxolanadi, ularning xar qaysisi aloxida test sifatida qaraladi. Olingan korrelyasion ma'lumotlar yaxlit testning ishonchlilik darajasini xisoblashda aniq formulaga asoslanib foydalaniladi.

Ishonchlilikdan farqli o'laroq, validlik testlarini baxolash bilan ularning u yoki bu faoliyatdagi xususiyatlari va roli tug'risidagi tasavvurlar o'rtasidagi muvofiklik o'lchovidir. Validlik kriteriaviy, konseptualli va ma'naviy turlarga ajratiladi xamda ular o'ziga xos talqini bilan o'zaro tafovutga egadir.

Kriteriaviy validlik testning korrelyasiya ko'rsatkichi, aloqalar ko'lami, uning tashqi mezonlari bilan o'lchanadi. Tashqi mezon testga bog'lik bo'lmagan ma'lum faoliyatning o'lchami xisoblanadi. Kriteriaviy validlik test baxolari bilan qay yo'sinda faoliyati xususiyati aloqaga kirishganligini ko'rsatadi. Kriteriaviy validlik ko'pincha korrelyasiya koeffitsienti bilan baxolanadi, vaxolanki boshqa metodlardan foydalansa xam buladi.

Konseptualli validlik test ko'rsatkichi bilan o'lchanayotgan xususiyat mohiyati to'g'risidagi nazariy tasavvurlar muvofiqligi o'lchovi bo'lib hisoblanadi. Konseptualli validlik biron bir statistik ko'rsatkich bilan o'lchanishi mumkin emas, chunki u test to'g'risidagi nazariy va empirik ma'lumotlar umumlashmasini taxlil kilish yuli urnatiladi. Konseptualli validlik metodikasi test buyicha tekshirish natijalari bilan nazariy bashorat ma'lumotlari muvofiqligida tuzilgan bo'lishi kerak. Bunga V.D.Nebilitsin tomonidan taklif kilingan metodika asab tizimi xususiyatini baxolashga xizmat qilishi yorqin misoldir.

Ma'noviy - validlik o'rganilayotgan individual xislatlar xususiyatiga testning tarkibi va mazmunining muvofikligi eksperimental taxlil kilish yuli bilan o'rnatiladi. Validlikning mazkur turi kriteriaviy o'lchash bilan jips aloqaga ega, chunki baxolanishga qaratilgan harakatlar va operatsiyalarning qat'iy xususiyatlari umumiy xislatlari aloqasidan tashqarida olib karaladi.

Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya predmeti va vazifalari. Hozirgi zamon psixologiyasi har xil usullar bilan kishi amaliy faoliyatiga ta'sir qilish imkoniga ega. Shunday usullardan biri, bu turli toifadagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ammo psixologik yordam ko'rsatish uchun, avvalo, ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Bunda biz psixodiagnostika faniga va uning metodlari hamda metodikalariga murojaat qilamiz. O'z-o'zidan savol tug'iladi: «psixodiagnostika» atamasi nimani anglatadi va u nimalarni o'rganadi hamda uning nazariy, amaliy vazifalari nimalardan iborat?

«Psixodiagnostika» atamasi **psixologik tashxis qo'yish degan** ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holati, to'liq biror-bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda «tashxis» shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinaluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor **Rorshaxning «Psixodiagnostika»** asari chop etilishidan so'ng psixiatriyada qo'llanilgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshladi. «Diagnoz»,

ya'ni «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarining konkret taraqqiyot darajasini aniqlash demakdir.

Psixodiagnostika – bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ guruhning psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodikalar majmuini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon psixodiagnostikaning baholash ob'ekti bo'lishi mumkin. Masalan: o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning xatti-harakatlari va muloqotida Yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy- psixologik jarayongacha.

Psixodiagnostika fanining **nazariy vazifalari** quyidagilardan iborat:

psixik ko'rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan printsiplial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish;

hozirgi paytda psixologik ko'rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik holatini o'rganish;

psixodiagnostik usul va uslublarning asosiy metodologik talablari nimalardan iborat;

psixodiagnostik tadqiqotning shart-sharoitlari, natijalarni qayta ishlash hamda ularni interpretatsiya qilish usullarining ishonchliligi nimalarga asoslangan;

test va psixodiagnostik metodlarning tuzilishi hamda ilmiyligini tekshirishning asosiy muolajalari nimalardan iborat.

Psixodiagnostika fanining **amaliy vazifalari** psixolog faoliyatining maxsus sohasiga taalluqli bo'lib, amaliy psixologik tashxis qo'yish bilan bog'liqdir. Bunda masala nafaqat nazariy, balki psixodiagnostik tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazishning amaliy jabhalarini qamrab oladi hamda quyidagi vazifalardan iboratdir:

psixodiagnostga mutaxassis sifatida qo'yiladigan kasbiy talablarni aniqlashtirish;

psixolog haqiqatdan ham u yoki bu psixodiagnostik metodlarni mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli o'zlashtirib olgani haqida minimal amaliy shartlar, ya'ni kafolat sifatida;

psixodiagnostika sohasida o'z ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun psixolog o'zida mujassamlashtirishi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar;

psixologning psixodiagnostika sohasida malakali mutaxassis ekanligini hamda amaliy jihatdan tayyorgarligini baholash mezonlarini hamda dasturlarini ishlab chiqish.

Bu vazifalar majmuasi, ya'ni psixodiagnostika fanining nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan bog'liqdir. Ushbu sohada etuk mutaxassis bo'lib etishish uchun, psixolog nazariyani va amaliy psixodiagnostikaning asoslarini Yuqori darajada o'zlashtirib olgan bo'lishi shart.

Amaliyotda individ, guruhning psixik taraqqiyot darajasi o'rganiladi hamda quyidagi vazifalardan biri amalga oshiriladi:

biror-bir xususiyatga xos taraqqiyot holatini aniqlash;

taraqqiyot dinamikasini va qandaydir vaqt davri mobaynida qayta tarbiyalash imkonini aniqlash;

ta'lim-tarbiya natijasida, o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijasida individ guruh xulqi va ruhiyatidagi real o'zgarishlarni kuzatib borish;

shaxs sifatlarining oldingi taraqqiyot dinamikasi va qonuniyatlari tahlili asosida kelajakdagi taraqqiyotini aniqlab olish;

sinaluvchi kishilar guruhlarini taraqqiyot darajasi natijasiga asoslanib kelajakdagi ishlar uchun toifalarga ajratish;

u yoki bu topshiriqlarni bajara olishiga qarab individ guruhlarining yaroqliligini aniqlash, masalan o'z xizmat vazifasini bajara olishda kasbiy tayyorgarligini tekshirish;

psixokorreksion ishlar olib borish maqsadida individ guruhning ijtimoiy me'yorga mos yoki mos emasligini aniqlash;

individ yoki guruhning kelajak hayot yo'liga yordam berish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar psixodiagnostika fani uchun umumiy hisoblanadi. Bu vazifalardan aksariyati maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktab ta'limida har xil yoshdagi bolalarga mos ravishda olib boriladigan ish jarayonlarida u bu darajada hal qilinadi.

Psixodiagnostika **xususiy** jihatdan quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:

bola tug'ilgandan boshlab maktab ta'lim jarayoniga tayyorgarligi, yosh davrlarining psixologik taraqqiyot dinamikasini o'rganadi (bilish jarayonlari, intellektual qobiliyatlari, shaxs sifatleri hamda shaxslararo munosabatlarini). Bunda har bir bolaga maxsus psixodiagnostik kartochka to'ldiriladi va uning rivojlanish ko'rsatkichlari har oyda yoki yilda qayd qilinib boriladi;

har bir bolaning psixik va xulqiy rivojlanishidagi individual qobiliyatlarini tekshirish, uning o'rtacha standart me'yorlardan chetlashishlari, ya'ni ijobiy (rivojlanishda oldindami), salbiy (rivojlanishdagi qo'liqligi) tomonlarini aniqlash;

bolaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi Yutuqlarini aniqlash maqsadida psixologik xizmat ko'rsatish va uning natijasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

bolani yanada rivojlantirish maqsadida uning iqtidori, layoqati va individual qobiliyatlarini hamda qiziqishlarini tashxislash hamda ilmiy asoslangan psixologik maslahat va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;

bolaning psixologik holati haqida ota-onalarga, o'qituvchilarga zarur bo'lgan har tomonlama ma'lumotlar to'planib, bolaga mos ravishda ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash.

Psixodiagnostika fani psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, aqliy taraqqiyotini aniqlab o'lchash, ya'ni hisoblab chiqaruvchi metodlarini o'rgatuvchi fandır.

Psixodiagnostika – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini (aniqlab o'lchashda) har xil metodlar bilan aniqlab o'lchasa-da, keyinchalik proektiv metodlar, so'rovnomalalar paydo bo'lishi jarayoniga asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga psixodiagnostikaning rivojlanishida nazariy jihatdan metodikalarning kamligi ko'rinib qoldi. Psixodiagnostikaga matematik-statistik metodlar va korrelyatsiya hamda tahlil qilish, faktorli analiz paydo bo'lishi va takomillashuvi, psixometrik tadqiq qilish amaliy jihatdan juda katta samara berdi.

Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun etakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.

Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish.

Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba'zi belgilarining ko'rinishini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funktsiyalari taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalanadi. Masalan: darsda bola diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Ikkala holatda ham u yoki bu o'quvchi o'zlashtirishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi psixologik holat belgilari ham o'rganiladi.

1. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funktsiyalar rivojlanishining dolzarb zonasi aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longitudinal) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishi, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

2. O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishida ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga egadir, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv-tarbiyaviy ta'sirini hisobga olganda shaxs rivojlanishi istiqbollari aniqlash imkoni yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini, yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar mahsus yoki yordamchi maktabda o'qish haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik xay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolalarda paydo bo'lgan etarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqot o'tkaziladi. Bu erda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs psixodiagnostikasi

Psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish jarayonida quyidagi metodlarga, usullarga, mezonlarga alohida ahamiyat berish izlanish ilmiyligini oshirishga xizmat kiladi:

Ma'lumotlar olish metodi;

Shaxs strukturasi o'rganishdan olingan eksperimental ma'lumotlarni taxlil qilish metodi.

Ma'lumotlar to'plash metodiga quyidagicha tavsif berish maksadga muvofiq.

Shaxs to'g'risida uch xil tarzda ma'lumot olinadi va ular uchta manbaga asoslanadi xamda «L» -, «Q» -, «T» - ma'lumotlar, deb ataladi.

«L» - ma'lumotlar. Shaxsning kundalik faoliyatidagi xulq - atvorini qayd qilib borish orqali olinadi . Ammo amaliyotda inson faoliyatini to'liq va batafsil yozib borishning o'zi etarli emas. Shuning uchun sinaluvchi shaxsining alohida bir faoliyati yoki xayoti va faoliyati bosqichini kuzatib borish maqsadga muvofiq. Masalan, necha marta to'g'ri javob berdi, shuncha qoida buzdi. Bu voqelik ko'pincha «L»

- ma'lumotlarda ekspert baholashni taqozo etadi.

«L» - ma'lumotlar boshlang'ich ma'lumot to'plash uchun o'ng'ay metodlardan biri bo'lib xisoblanadi. Ba'zan «L» - ma'lumotlaridan boshqa metodlar yordamida olingan natijalarning validligini aniqlovchi tashqi mezon sifatida foydalaniladi.

«L» - ma'lumotlarning ishonchliligini oshirish maqsadida ekspert baholash jarayonida maxsus talablar qo'yiladi. Jumladan:

1. Baholanayotgan fazilatlar kuzatilayotgan xulq - atvor atamalari orqali aniqlanishi lozim;
2. Ekspert xulq - atvor kuzatishni muayyan vaqt oraligida amalga oshirgani ma'qul;
3. Bir faoliyatni baholashda eng kamida un nafar ekspert ishtirok etishi maksadga muvofiq;
4. Sinaluvchilarni (guruhlash) qilayotgan vaqtda ekspertlardan uning bitta fazilatini yoki bir nechta xislatlarini baholash tavsiya etiladi.

«Q» - ma'lumot. Shaxs to'g'risida so'rovnoma va boshqa o'zini o'zi baholash metodlari asosida olinadigan ma'lumotlarga «Q» - ma'lumot . Instrumental tuzilishi va qo'llanilishining afzalligiga ko'ra «Q» - ma'lumot (so'rovnoma, uziga uzi xisob berish, o'zini o'zi baholash shkalalari) shaxsni tadqiq etishda markaziy o'rin egallaydi. «Q» - ma'lumot olishga muljallangan metodikalar psixologiyada etarli darajada. Ulardan keng ko'lamda foydalanilayotganlaridan biri ko'p omilli shaxs so'rovnomasi (MMR1), Kaliforniya psixologik testi (SR1), 16 - faktorli shaxs so'rovnomasi, temperamentni o'rganish G ilford - Eimmerman testi va boshqalar.

Ularning kamchiliklari: a) sinaluvchilarning quyi intellektual va madaniy saviyaga egaligi; b) maxsus bilimlar va introspeksiya malakalari etishmasligi; v) ishonchsiz etalonlardan foydalanish.

«T» - ma'lumot. Eksperimental vaziyat nazoratini ob'ektiv test bilan olishga asoslangan ma'lumotlar qisqacha «T» - ma'lumot deb nomlanadi. «T» - ma'lumot shaxsni tadqiq etishdagi yangicha radikal yondashuv xisoblanadi. Ular xulq - atvorni o'zini o'zi baholash yoki ekspert baholarsiz ob'ektiv o'rganish orqali (verbal, noverbal, ijtimoiy va

individual)olinadi.

1.Tadqiqotning asosiy maksadini yashirin qoldirish. Bu eng ko'p qo'llaniladigan taktik usul xisoblanadi. Bunda quyilgan maksad sinaluvchiga aytilmaydi. Test va testning ko'rsatmasi tadqiqotning xaqiqiy maqsadini yashirgan holda tuziladi. Sinaluvchiga yolg'on maqsad ochiqdan - ochiq bildiriladi.

2.Vazifani kutilmagan holda berish. Bu usuldan tergovchilar so'rov vaqtida foydalanishadi, ularga uxshash tarzda to'satdan beriladi. Bu vaqtda so'rov qilinayotgan kishi notug'ri ma'lumot berishga intiladi va unga mavzuga bogliq bo'lmagan holda savol beriladi. Bu uning kutayotgan vaziyatlarining buzilishiga va emotsional stressga olib kelishi mumkin.

3.Testlashtirish maqsadi aniqlanmaganligi va noaniqligi. Bunda sinaluvchiga ko'rsatma beriladiki, natijada u eksperimentatorning maqsadini anglab etmasligi zarur bo'ladi uning ijtimoiy talablariga muvofiq keluvchi reaksiyalarida uzgarish yuz beradi. Natijada sinaluvchiga ijro etish sifatini belgilovchi mezonlar berilmagan xolda qanday bajarishi emas, balki nimani bajarilishi aytiladi.

4.Diqqatni chalgitish. Bu topshiriq berish usuli eksperimentator uchun ahamiyatli bo'ulib, eksperimentatorni etarlicha ahamiyat kasb etmaydigan topshiriqlarni o'ylab topishiga yordam beradi. Chalgituvchi topshiriqlar tashqi ko'rinishdan asosiy topshiriqlarga o'xshash tarzda bo'lishi ma'qul. Natijada tashkil etilgan testda sinaluvchi o'z xatti - xarakatlarini kam nazorat qiladi va o'z shaxsining ochilmagan qirralarini urganishlariga shubha uyg'otmaydi.

1.Testlashtirish vaqtida emotsional vaziyatni hosil qilish. Bu usul psixologik amaliyotda keng ko'lamda foydalaniladi. Emotsional zuriqishlar xar xil yullar bilan hosil qilinadi, masalan, berilgan topshiriq notug'ri bajarilganligini ogohlantirish orqali, sinaluvchining tashqi qiyofasi va uning layoqatini baholash.

2.Testlarning emotsional mazmun kasb etishi. Bu usul oldingisiga o'xshab ketadi. Buning farqli tomoni emotsional vaziyatlar ko'pimcha aynan testning o'zida beriladi. Test mazmunan etikaviy bo'lmasligi, aralash, yoqimsiz bo'lishi mumkin.

3.Reaksiyalarning avtomatlashuvi. Yozuv, manera, ekspressiv xarakatlarni nazorat qilish va hohishlarni o'zgartirish shaxslilik testlarida foydalaniladi.

4.Bunda Shaxsning «ixtiyorsiz» indikatorlar sifatida kuzatilayotgan psixik jarayonlarga elektrofiziologik, bioximik va vegetativ o'zgarishlar kiritish orqali foydalaniladi.

5.«Fonli» indikator. «Fonli» indikatorlar sifatida shaxsning xususiyatlari bilan boglanishda bo'lgan organizmning fiziologik va fizik statuslaridan foydalaniladi. «Fonli» indikatorlar sifatida antropometrik o'lchovlar qullaniladi: bo'y, ogirlik, suyak - muskul ogirliqi, tanadagi boshqa ko'rsatkichlar va proporsionalliklarni kiritsa bo'ladi.

Kasbiy psixodiagnostika

Psixologiya fanida bu sohada muayyan ilmiy izlanishlar olib borilgan, uziga xos yondashishlar amalga oshirilgan. B.V.Kulaginining fikricha, kasbiy psixodiagnostika deganda odamning individual xususiyatlarini tadqiq etish va baholash maqsadida kasbga saralash, kasb tanlashga yunaltirish, nomzodlarni (da'vogarlarni) ixtisoslikka oqilona taqsimlash, kasbiy tayyorgarlikni takomillashtirish, kasbiy faoliyatni optimallashtirishning amaliy masalalari tizimini echish tushuniladi.

Individuallikning mohiyatini tushunishga umumiy yondashish kasbga saralash muammosini xal kilishda bevosita ahamiyatga ega. Ma'lumki, kasbga layoqatlilikni tashxis

(diagnoz) qilish insonning kasbiy xislatlarini hisobga olishga asoslanadi. Mazkur jarayonda qiyosiy tahlil orqali shaxsning xususiyatlari ko'rsatkichlari bilan kasbiy faoliyat muvaffaqiyatining mustaqil mezon darajalari aniqlanadi. Hozirgi zamon psixologiyasining ma'lumotlariga qaraganda, tashxis (diagnoz) qilish modeli muayyan matematik algoritmgaga asoslanadi. Gurux uchun o'rtamiyona shaxs imkoniyati tanlanganligi faqat statistik samaraga ega, xolos. Bunday model tashhis (diagnoz) qilishda cheklanganlikka ega bo'lib, tashhisning mutlaq aniqlik darajasidan quyiroqdir.

Kasbiy faoliyatni tahlil qilmasdan turib, professional psixodiagnostika (kasbiy psixologik) muammolarini hal qilish mumkin emas, ya'ni professiografiya mohiyatiga va uning tuzilishiga e'tibor qilish zarur. Faqat shundagina faoliyatli yondashuv amalga oshirilib, uning xarakatlari va operatsiyalari testlar yordamida baholanishi mumkin. Chunki xarakatlar, operatsiyalar mazkur faoliyatning tarkibini tashkil qiladi, ularning qiyosiy tavsifini egallash jarayonini osonlashtiradi, unga layoqatli odamlarni tanlashga negiz yaratadi. Faoliyat samaradorligini tashxis qilish va baholash uchun testlarni saralash, asoslash uning muvaffaqiyati o'lchovi, mezonini aniqlashga imkon beradi. Professiografiya, (professiogramma) natijalarini umumlashtirish natijasida kasblarni tasniflash (klassifikatsiyalash) imkoni vujudga keladi.

Kasbiy faoliyatning taxlili maqsadga yunaltirilgan va tashkiliy jarayon xisoblanib, u uch bosqichdan tashkil topgan bo'ladi: a) kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar to'plash; b) olingan ma'lumot va axborotlarni qayta ishlab chiqish xamda umumlashtirish, ularning negizida professiogramma tuzish; v) amaliy va nazariy masalalarni echish uchun professiogrammadan foydalanish (kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar tanlash, uni baxolash (tashxis qilish) uchun testlar saralash, kasblarni tasniflash va boshqalar).

Kasbiy faoliyat yuzasidan ma'lumotlar (axborotlar) turli manbalardan olinishi mumkin:

1. Muayyan mutaxassislarning kasbiy faoliyatini kuzatish katta axamiyat kasb etadi.
2. Kasbiy faoliyat tugrisida ma'lumotlar to'plashning asosiy metodlaridan biri bo'lib suhbat - intervyu xisoblanadi. Mutaxassislar bilan standart yoki nostandart tarzda intervyu uyushtirish samarali natija beradi.
3. Ba'zan kasbiy faoliyatning u yoki bu qirralari (jabxalari)ni qayd qiluvchi kundaliklar yoki varaqlardan xam foydalaniladi.
4. Kasb - xunar tugrisidagi ma'lumotlar (axborotlar) umumlashtiriladi va xar xil shakllarda mutaxassislar xukmiga xavola qilinadi.

Kasbiy faoliyat shaxsning munosabat va motivlaridan iborat bulib, xarakatlar va operatsiyalarni nazorat qilish xamda boshqarishni qamrab oladi. Faoliyatning dinamik xususiyatlarini o'rganish uchun unga kupyoplama yondashishni amalga oshirish zarur. Faqat motivatsion va regulyativ jabxalarini xisobga olish bilan kasbiy faoliyat mohiyatini tavsiflab bo'lmaydi, modomiki shunday ekan, uning shaxsga oid, emotsional, kognitiv va operatsional, irodaviy jixatlar bilan bogliq tomonlarini xam tadqiqot predmetiga kiritish lozim.

Kasbiy faoliyat muvaffaqiyatini ta'minlovchi mezonlar sifatida shaxsning maqsadga erishuvini tavsiflovchi xar xil ko'rsatkichlardan foydalanish mumkin. Mezonlar tariqasida kasbiy bilimlarga va malakalarga nisbatan uquvchanlik, mutaxassis faoliyatining bevosita va bilvosita ko'rsatkichlari uning xamkorlik faoliyatiga qushgan xissasi qullaniladi. Kasbiy faoliyat muvaffaqiyati mezonlari qatoriga quyidagilar kiritiladi:

- 1) Samaradorlikning to'gridan to'gri ko'rsatkichlari: sifat, ishlab chiqarish salmog'i;

2) Kasbiy tayyorgarlikni aniqlovchi testlar;

3) Kasbiy layoqatini ifodalovchi ma'muriy tadbir va choralar: intizomga taalluqli choralar, mukofotlash, xizmat lavozimidan ko'tarilish, safarga yuborish, namuna tariqasida stendga joylashtirish;

4) Kadrlar qo'nimsizligi;

5) Noxush xolatlar (kechinmalar) va shikastlar (xalokatlar);

6) Faoliyat samaradorligini eksperimental tekshirish va o'zini o'zi baholash kabilar.

Yuqorida bayon qilingan mezonlar ma'lum talablarga javob berishi shart. Mezonlarning relevantlikligi (adekvatligi, validligi) deganda samaradorlik ko'rsatkichi sifatida muhim ahamiyat kasb etishi tushuniladi.

Tanlab olingan mezonlar kasbiy faoliyatning barcha nufuzli tomonlarini aks ettirish lozimligi, ya'ni mezonlar to'laqligi. Ular mutaxassislarning kasbiy layoqatining yuksakligi va quyidagi darajalarini farqlashga xizmat qilishi joiz (mezonlar diskriminativligi). Mezonlar xislatini ochishga yordam beruvchi uning omilkorligi, ya'ni amaliy jixatdan qulayligi muxim o'rin egallaydi va u o'zining soddaligi, kam mehnat talab qilishligi bilan boshqalardan ajralib turadi.

Kasbiy layoqatni (yaroqlilikni) aniqlashda odatda nazorat, sinash natijalari qo'llaniladi (masalan, duradgorning ish sifati, tezkorligi, vaziyatni payqashligi va boshqalar). Ko'pincha mutaxassisning layoqati ma'muriy xujjatlarda o'z ifodasini topadi (muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi qayd qilinadi). Ba'zan kasbiy layoqatni o'rganishda baxtsiz xodisalar (haydovchi, uchuvchi, mashinist, operator va boshqa kasb egalarida) hisobga olinadi va shaxsning individual xususiyatlari baholanadi.

Kasbiy layoqatni aniqlashda uquvchanlik kategoriyasidan (bilim olishga nisbatan zexnlilik) foydalaniladi va o'zlashtirish tezligi, kasbiy tayyorgarligi, erishgan natijasi mezon rolini o'ynaydi.

Psixologiya fanida kasbiy muvaffaqiyat, mahoratning qirralari ekspert baholash metodi yordami bilan o'lchanadi. Buning uchun balli shkala, juft (kush) taqqoslash, tartibga keltirish (ranjirovka qilish) metodlari qo'llaniladi.

Shkalaning sodd ko'rinishi ball bilan baholashga mo'ljallangan. Shkalani baholash o'ziga 5 tadan 7 tagacha gradatsiyani qamrab oladi.

Miqdorning kamligi uning differentsiyasini yanada kuchaytiradi, farqlar aniqligini ta'minlaydi.

Ba'zi hollarda balli baholash grafik shkala tarzida xam uchraydi (kesma, shakl, parametrik ko'rinishi va xokazo). Lekin balli shkala kasbiy muvaffaqiyatni baholashda ayrim nuqsonlarga xam ega. Ayniksa, chet el psixologiyasida qo'llanilib kelinayotgan «galo-effekt» metodikasi bunga yaqqol misoldir. Baholanuvchi bilan baholovchi munosabati bir nechta mustaqil shkalalar negizida umumiylikka bog'lik tarzda baholanadi. Natijada shaxsning xilma-xil xususiyatlarini differensiyalash imkoni yo'qoladi, yuzaki baxolanish jarayoni yuzaga keladi. Buning oqibatida orttirilgan va pasaytirilgan baxolash tiplari, ko'rinishlari namoyon bo'ladi.

Ammo, balli shkala baholash tizimini takomillashtirish uchun uning barcha bosqichlardan, tarkiblardan tuzish ma'qul. Faqat shundagina yaqqol misollar, namunalar negizida kasbiy faoliyatning turlicha samaradorligi namoyon bo'ladi.

Jahon psixologiyasida keng qo'llanilib kelinayotgan metodlardan biri - bu kritik insidentdir. Muayyan o'lchamlarga asoslangan holda ajratilgan insidentlar tasniflanadi (klassifikatsiya qilinadi), ya'ni tahlil qilish orqali insident xususiyati aniqlanadi. Ikkinchi bosqichda (u «pretranslyasiya» deb ataladi) birinchi bosqichdagi mezonlarga asoslanib yangitdan tasnif qilinadi.

Kasbiy layoqatni o'rganishning yana bir metodi tartibga keltirish (ranjirovka qilish) deyiladi. Xar xil vaziyatlarda kuzatilgan shaxslar kasbiy layoqati darajasiga qarab muayyan tartibga solish, jixozlash mumkin. Birinchi rang darajasiga kiritish uchun kasb sub'ekti kasbiy mahoratning maksimal ko'rsatkichini namoyish qilishi lozim. Kamroq muvaffaqiyatga erishsa, u navbatdagi rangga o'tkaziladi.

Mazkur jarayonni osonlashtirish uchun quyidagilar tavsiya qilinadi:

- 1) guruhning alifboviy ro'yxatini tuzish;
- 2) maksimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni alohidalash;
- 3) minimal muvaffaqiyatga erishgan sub'ektlarni guruxlash va boshqalar.

Tartibga solish (ranjirovka qilish) juft (qo'sh) qiyoslash (taqqoslash) metodi yordami bilan amalga oshiriladi. Buning negizida ikki sub'ektning xislatlari, imkoniyatlari o'zaro solishtirilib, umumiy va farqli tomonlari aniqlanadi.

Respublikamiz mustaqillikka erishgandan so'ng davlat va jamiyat ta'lim olishga, kasbiy yo'lni tanlashga, kasbga o'qish va kasb egallashga bo'lgan yoshlarning xuquqlarini amalga oshirishga kafolat beradi.

Ilmiy - amaliy nuqtai nazardan kasb tanlash, kasbiy tayyorlanish, yosh mutaxassisning ishga joylanishi va ishdan qoniqishi o'qish va mexnat motivatsiyasining shakllanishiga ko'p jixatdan bog'liqdir.

Mavzu bo'yicha bilimlarni mustaxkamlash uchun savollar:

1. Kasbiy faoliyat psixodiagnostikasi nima ?
2. Shaxs psixodiagnostikasiga izoh bering ?
3. Kasbiy psixodiagnostika bu..?
4. Psixogramma nima?
5. Ishonchlilik deganda nimani tushunasiz ?
6. Kriteriaviy validlik deganda nimani tushunasiz ?

Psixodiagnostika fanining predmeti va vazifalari.

Reja:

1. Psixodiagnostika fanining predmeti va vazifalari.
2. Psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar sohasi sifatida shakllanguncha bo'lgan davrda psixodiagnostikaga oid bilimlar taraqqiyoti.
3. Psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar mustaqil sohasi sifatida rivojlanish davri.
4. Sobiq ittifoqda psixodiagnostika fanining taqdiri

Tayanch so'z va tushunchalar: shaxs, psixodiagnostika, testlar, didaktik testlar, psixodiagnostik testlar, ilmiy tadkikot, intellekt testlari, psixologik amaliyot, amaliyotchi psixolog, axlokiy-etik me'yorlar, metodika, maxsus testlar.

1. Psixodiagnostika va eksperimental psixologiya predmeti va vazifalari. Hozirgi zamon psixologiyasi har xil usullar bilan kishi amaliy faoliyatiga ta'sir qilish imkoniga ega. Shunday usullardan biri, bu turli toifadagi odamlarga psixologik yordam ko'rsatishdan iboratdir. Ammo psixologik yordam ko'rsatish uchun, avvalo, ulardagi psixik o'zgarishlar sabablarini

va unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash zarurati tug'iladi. Bunda biz psixodiagnostika faniga va uning metodlari hamda metodikalariga murojaat qilamiz. O'z-o'zidan savol tug'iladi: «psixodiagnostika» atamasi nimani anglatadi va u nimalarni o'rganadi hamda uning nazariy, amaliy vazifalari nimalardan iborat?

«**Psixodiagnostika**» atamasi **psixologik tashxis qo'yish degan** ma'noni anglatib, shaxsning ruhiy holati, to'liq biror-bir alohida xususiyati haqida xulosa chiqarishdir, bunda «tashxis» shaxsning taraqqiyot ko'rsatkichi va tavsifnomalarni birgalikda tahlil qilish asosida sinalluvchining holat va xususiyatlari haqidagi xulosalardan iborat. «Psixodiagnostika» atamasi ilk bor **Rorshaxning «Psixodiagnostika»** asari chop etilishidan so'ng psixiatriyada qo'llanilgan bo'lib, u tez orada tibbiyotdan tashqarida ham keng miqyosda ommalasha boshladi. «Diagnoz», ya'ni «tashxis» esa shaxs rivojlanishidagi har qanday og'ishlarni, hattoki uning holat va xususiyatlarining konkret taraqqiyot darajasini aniqlash demakdir.

Psixodiagnostika – bu maxsus bilimlar sohasi bo'lib, individ guruhning psixologik taraqqiyot ko'rsatkichlarini, holat va xususiyatlarini baholash uchun metodikalar majmuini ishlab chiqish bilan bog'liqdir. Psixologiya fani o'rganayotgan har qanday jarayon psixodiagnostikaning baholash ob'ekti bo'lishi mumkin. Masalan: o'zaro hamkorlik qilayotgan shaxslarning xatti-harakatlari va muloqotida Yuzaga keladigan, alohida bir odam sezgisidan boshlab, murakkab ijtimoiy- psixologik jarayongacha.

Psixodiagnostika fanining **nazariy vazifalari** quyidagilardan iborat:

psixik ko'rinishlar tabiati va ularni ilmiy jihatdan printsipial baholashning imkon darajasini aniqlashtirish;

hozirgi paytda psixologik ko'rinishlarning miqdorini baholash va uning ilmiy asoslanganlik holatini o'rganish;

psixodiagnostik usul va uslublarning asosiy metodologik talablari nimalardan iborat;

psixodiagnostik tadqiqotning shart-sharoitlari, natijalarni qayta ishlash hamda ularni interpretatsiya qilish usullarining ishonchliligi nimalarga asoslangan;

test va psixodiagnostik metodlarning tuzilishi hamda ilmiyligini tekshirishning asosiy muolajalari nimalardan iborat.

Psixodiagnostika fanining **amaliy vazifalari** psixolog faoliyatining maxsus sohasiga taalluqli bo'lib, amaliy psixologik tashxis qo'yish bilan bog'liqdir. Bunda masala nafaqat nazariy, balki psixodiagnostik tadqiqotni tashkil qilish va o'tkazishning amaliy jabhalarini qamrab oladi hamda quyidagi vazifalardan iboratdir:

psixodiagnostga mutaxassis sifatida qo'yiladigan kasbiy talablarni aniqlashtirish;

psixolog haqiqatdan ham u yoki bu psixodiagnostik metodlarni mutaxassis sifatida muvaffaqiyatli o'zlashtirib olgani haqida minimal amaliy shartlar, ya'ni kafolat sifatida;

psixodiagnostika sohasida o'z ishini muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun psixolog o'zida mujassamlashtirishi shart bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar;

psixologning psixodiagnostika sohasida malakali mutaxassis ekanligini hamda amaliy jihatdan tayyorgarligini baholash mezonlarini hamda dasturlarini ishlab chiqish.

Bu vazifalar majmuasi, ya'ni psixodiagnostika fanining nazariy va amaliy vazifalari bir-biri bilan bog'liqdir. Ushbu sohada etuk mutaxassis bo'lib etishish uchun, psixolog nazariyani va amaliy psixodiagnostikaning asoslarini Yuqori darajada o'zlashtirib olgan bo'lishi shart.

Amaliyotda individ, guruhning psixik taraqqiyot darajasi o'rganiladi hamda quyidagi vazifalardan biri amalga oshiriladi:

biror-bir xususiyatga xos taraqqiyot holatini aniqlash;

taraqqiyot dinamikasini va qandaydir vaqt davri mobaynida qayta tarbiyalash imkonini aniqlash;

ta'lim-tarbiya natijasida, o'tkazilgan pedagogik eksperiment natijasida individ guruh xulqi va ruhiyatidagi real o'zgarishlarni kuzatib borish;

shaxs sifatlarining oldingi taraqqiyot dinamikasi va qonuniyatlari tahlili asosida kelajakdagi taraqqiyotini aniqlab olish;

sinaluvchi kishilar guruhlarini taraqqiyot darajasi natijasiga asoslanib kelajakdagi ishlar uchun toifalarga ajratish;
u yoki bu topshiriqlarni bajara olishiga qarab individ guruhlarining yaroqliligini aniqlash, masalan o'z xizmat vazifasini bajara olishda kasbiy tayyorgarligini tekshirish;
psixokorreksion ishlar olib borish maqsadida individ guruhning ijtimoiy me'yorga mos yoki mos emasligini aniqlash;
individ yoki guruhning kelajak hayot yo'liga yordam berish maqsadida tavsiyalar ishlab chiqish.

Yuqorida sanab o'tilgan vazifalar psixodiagnostika fani uchun umumiy hisoblanadi. Bu vazifalardan aksariyati maktabgacha tarbiya muassasalarida va maktab ta'limida har xil yoshdagi bolalarga mos ravishda olib boriladigan ish jarayonlarida u bu darajada hal qilinadi.

Psixodiagnostika **xususiy** jihatdan quyidagi **vazifalarni** amalga oshiradi:

bola tug'ilgandan boshlab maktab ta'lim jarayoniga tayyorgarligi, yosh davrlarining psixologik taraqqiyot dinamikasini o'rganadi (bilish jarayonlari, intellektual qobiliyatlari, shaxs sifatleri hamda shaxslararo munosabatlarini). Bunda har bir bolaga maxsus psixodiagnostik kartochka to'ldiriladi va uning rivojlanish ko'rsatkichlari har oyda yoki yilda qayd qilinib boriladi;

har bir bolaning psixik va xulqiy rivojlanishidagi individual qobiliyatlarini tekshirish, uning o'rtacha standart me'yorlardan chetlashishlari, ya'ni ijobiy (rivojlanishda oldindami), salbiy (rivojlanishdagi qo'liqligi) tomonlarini aniqlash;

bolaning ta'lim va tarbiya jarayonidagi Yutuqlarini aniqlash maqsadida psixologik xizmat ko'rsatish va uning natijasida amaliy tavsiyalar ishlab chiqish;

bolani yanada rivojlantirish maqsadida uning iqtidori, layoqati va individual qobiliyatlarini hamda qiziqishlarini tashxislash hamda ilmiy asoslangan psixologik maslahat va kasbga yo'naltirish ishlarini olib borish;

bolaning psixologik holati haqida ota-onalarga, o'qituvchilarga zarur bo'lgan har tomonlama ma'lumotlar to'planib, bolaga mos ravishda ta'lim va tarbiya metodlarini tanlash.

Psixodiagnostika fani psixologiya tarmoqlaridan biri bo'lib, shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini, aqliy taraqqiyotini aniqlab o'lchash, ya'ni hisoblab chiqaruvchi metodlarini o'rgatuvchi fandir.

Psixodiagnostika – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini (aniqlab o'lchashda) har xil metodlar bilan aniqlab o'lchashda, keyinchalik proektiv metodlar, so'rovnomalar paydo bo'lishi jarayoniga asos bo'lib xizmat qildi. Shu bilan birga psixodiagnostikaning rivojlanishida nazariy jihatdan metodikalarning kamligi ko'rinib qoldi. Psixodiagnostikaga matematik-statistik metodlar va korrelyatsiya hamda tahlil qilish, faktorli analiz paydo bo'lishi va takomillashuvi, psixometrik tadqiq qilish amaliy jihatdan juda katta samara berdi.

Bolalarni psixodiagnostik tadqiq qilish yosh xususiyatlariga, u yoki bu yosh davri uchun etakchi faoliyat turining ta'siriga, individual tipologik tavsifnomalarning taraqqiyot darajasiga bog'liq ravishda ba'zi xususiyatlarga ega. Bola taraqqiyotining har bir yosh davri bolalar bilan ishlashning usullari va metodlarini, eksperimental tadqiqotning o'z maqsadlari va vazifalarini talab qiladi.

Diagnostika uchun zarur ma'lumotlarni olish.

Bunda bola psixik holati va shaxsi xususiyatlarining ba'zi belgilarining ko'rinishini o'rganish maqsadida tadqiqot olib boriladi. Tadqiqotda olingan ma'lumotlar yordamchi xarakterga ega bo'lib, bola xulq-atvorining haqiqiy kuzatilgan xususiyatlari, uning psixik funksiyalari taraqqiyot darajasi bilan taqqoslashda foydalanadi. Masalan: darsda bola diqqatining barqaror emasligi, diqqatini bir joyga to'plashga qiynalishi, aqliy ish qobiliyatining pastligi, tez chalg'ishi va boshqalar bilan ajralib turadi. Ikkala holatda ham u yoki bu o'quvchi o'zlashtirishi va intizomining pasayishi tashqaridan sezilsada, psixodiagnostik tadqiqotlarda o'rganilayotgan o'zgarishlar manbalari, rivojlanishi va kelgusida qanday bo'lishi psixologik holat belgilari ham o'rganiladi.

1. Psixik taraqqiyot o'zgarishini o'rganish uchun zarur ma'lumotlarni to'plash. Agar «ko'ndalang kesim» metodlari orqali psixodiagnostik tadqiqot ma'lum bosqichda bola psixik taraqqiyoti darajasini, ya'ni psixik funktsiyalar rivojlanishining dolzarb zonasi aniqlanadigan bo'lsa, «uzunasiga kesim» (longitudinal) psixodiagnostik tadqiqotlarda bola psixik hayoti taraqqiyoti xususiyatlari rivojlanishi, ya'ni ta'lim va tarbiya jarayonida o'rganiladi.

2. O'yin va o'qish faoliyatida ko'p martalab o'tkazilgan eksperimental-psixologik tadqiqotlar bola shaxsini shakllanishi va rivojlanishida ma'lum faoliyatning ta'sir ko'rsatkichi bo'lishi mumkin. Bolada o'tkazilgan psixodiagnostik tadqiqotlar muhim prognostik ahamiyatga egadir, chunki qo'llanilgan turli metodlarning o'quv-tarbiyaviy ta'sirini hisobga olganda shaxs rivojlanishi istiqbollarini aniqlash imkoni yaratiladi.

3. Aqliy zaiflik darajasini, yoki boshdan kechirgan kasallik tufayli psixik kamchiliklarni aniqlashga qaratilgan psixodiagnostik tadqiqotlar mahsus yoki yordamchi maktabda o'qish haqida masala hal bo'layotganda tibbiy pedagogik xay'at (komissiya) tomonidan foydalanishi mumkin.

4. Bolalarda paydo bo'lgan etarlicha o'rganilmagan yangi psixik holatlarni tahlil qilish uchun ilmiy maqsadda psixologik tadqiqot o'tkazish. Vazifa bunday qo'yilganda tadqiqotchini qiziqtirgan masala bo'yicha katta guruhlarda tadqiqot o'tkaziladi. Bu erda olingan natijalarning statistik ishonchliligi muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar sohasi sifatida shakllanguncha bo'lgan davrda psixodiagnostikaga oid bilimlar taraqqiyoti. Psixodiagnostikaning rivojlanish tarixi ko'p asrlarga borib taqaladi. Individual psixologik farqlarni aniqlashga mo'ljallangan dastlabki testlar 4000 yil oldin ma'lum bo'lgan. Qadimgi madaniyat tarixini o'rganish bunga yaqqol misol bo'la oladi. Qadimgi Xitoyda Xristos tug'ilishidan 2200 yil oldin shaxsning ko'p xususiyatlarini qamrab olgan amaldorlarni tanlash tizimi yaratilgan. Bunda amaldorlarning ko'pgina xislatlariga: jumladan, chiroyli yozuvdan - kundalik xulq-atvorigacha e'tibor berilgan. Platon insonlarni bir-biridan farqlaydigan tug'ma layoqatlarning ahamiyatini yaxshi tushungan.

Har uch yilda imperator huzurida olti yo'nalish bo'yicha: musiqa chalish, kamon otish, chavandozlik, yozish, o'qish, marosimlarni bilish kabi sinov mashg'ulotlari amalga oshirib borilgan.

Masalan, eramizdan avvalgi VI-V asr qadimgi Yunonistonda Pifagor o'z maktabiga kelganlarni qabul qilishda ularga dastlab qiyin matematik masala bergan masalani echgan odam darhol o'qishga qabul qilingan, masalani echa olmagan odamni esa maxsus zalga olib kirishgan. Bu erda esa sinov qoidasiga binoan bir guruh odamlar uning ustidan kulishni boshlaganlar, agar sinaluvchi o'zini munosib tutib luqma tashlovchilarga o'rinni javob bera olsa u ham maktabga qabul qilingan.

Qadimgi Misrda esa ruhoniylikka o'qitilgan odamlarning tarjimai holi, ma'lumoti, suhbatlashishi, ko'nikmasi tekshirilgach u qorong'u er to'ladan bir o'zi o'tishi lozim bo'lgan.

XIX asrning birinchi yarmida psixologiyada o'lchash g'oyasi ommalashadi. Bu davrda inson haqidagi empirik psixologik bilimlarni aniqlashda vrachlar katta rol o'ynadilar. Vrach-psixiatrlar Evropa kasalxonalarida ruhiy kasallar va nevrozlarni doimiy kuzatib, o'z kuzatish natijalarini yozib bordilar va bu yozuvlar tahlil qilindi. Bu vaqtda psixodiagnostikaning kuzatish, so'rovnomalar, hujjatlarni tahlil qilish metodlari paydo bo'ldi. Bu davrda psixodiagnostika qat'iy bo'lmagan, ixtiyoriy xarakterga ega bo'lib, bir bemorni bir xil metod yordamida vrachlarning kuzatishlariga asoslangan. Bu davrda psixodiagnostika metodlari sifat xarakteriga ega bo'ldi. Masalan, frantsuz shifokori J.Eskirol aqli zaiflikning har xil shakllarini o'rganib, intellektni o'lchashda nutqning rivojlanishiga e'tibor berish kerak degan xulosaga keldi (E.Segen aqli zaif bolalarni tashxis qilish testini ishlab chiqdi). XIX asrning ikkinchi yarmida psixologiya fani individual farqlarni miqdoriy ifodalash imkoniyatiga ega bo'ladi. Ayniqsa, bunga V.Vundt tomonidan dastlabki eksperimental laboratoriyaning ochilishi va Veber, Fexner ishlari turtki bo'ldi. XX asrning 20-yillarida psixodiagnostika

mustaqil fan sifatida rivojlanadi. Bunga quyidagi tarixiy hodisalar asosiy sabab bo'lib 1884 yil Angliyada F.Galton tomonidan antropometrik laboratoriya tashkil etilishi xizmat qiladi.

3.Psixodiagnostikaning psixologik tadqiqotlar mustaqil sohasi sifatida rivojlanish davri. Psixologik diagnostika fan sifatida XIX asr oxirida eksperimental asosda vujudga keldi.

Psixologik diagnostikaning vujudga kelishida F.Galton (1879); J.Cattell (1890); H.Ebbinghaus (1891); A.Binet va V.Henri (1896); A.Binet va Th.Simon(1905)larning ishlari katta ahamiyatga ega bo'ldi. Bu tadqiqotlarda individual farqlarni o'rganishning yangi statistikaga asoslangan quroli – test ishlatila boshlagan. Psixologiyada ilk bor psixometrik yo'nalish asoschisi F.Galton testlar yaratgan. Dastlabki test aqlni o'lchash metodi sifatida qo'llanildi, keyinchalik esa undan shaxsni, uning reaksiyalarini o'rganishda foydalanila boshlandi. Psixodiagnostikada yangi metodlarni ishlab chiqish psixiatrik shifoxonalarning ehtiyojlari tufayli kuchaytirildi. Keyinchalik esa kasb tanlash ishlari bilan bog'liq psixotexnikaning taraqqiyoti bilan yanada rivojlantirildi.

Psixologik diagnostika fan sifatida 1920-yillarda keng shakllana bordi. Shveysariyalik psixolog va psixiatr H.Rorschach (1921)ning «Psixodiagnostika» asari nashr etilishi bilan psixodiagnostikaga asos solindi. Psixodiagnostika tushunchasi individni o'rganadigan barcha metodlar majmuini o'z ichiga oladi. Bu kitob nashr etilishi bilan psixologik diagnostika taraqqiyotida yangi davr boshlandi, u psixometriyadagi shaxsni o'rganish yangi metodlari bo'lmish proektiv metodlar bilan bog'langan edi. Proektiv psixologiya bir butun shaxsni o'rganish mumkin emas, deb talqin qiluvchi psixometrik nuqtai nazar va bixeviorizmga qarshi e'tiroz bildiruvchi fan sifatida rivojlana boshladi. Keyinchalik psixodiagnostikada yangi metodlar yaratilishi bilan birga birlashtirilgan (kombinatsiya qilingan) testlar qo'llanila boshlandi. Masalan, aqlni o'rganish metodlari orasida amerikalik psixolog D.Wechsler(1939, 1955)ning subtestlari keng tarqaldi. Yangi proektiv metodlar ham yaratilib, keng foydalanila boshlandi. (Amerikalik psixolog G.Murray(1935, 1943)ning Tematik Appertsepsion Testi (TAT), nemis psixologi S.Rosenswegning frustratsiyaga bo'lgan reaksiyani o'rganish bo'yicha testi va boshqalar.) Shaxsiy savolnomalar (MMRI, 16 PF) keng tarqaldi.

4.Sobiq ittifoqda psixodiagnostika fanining taqdiri. Rus psixologiyasida diagnostik metodlardan foydalanish o'z tarixiga ega. Bu jarayonda shartli ravishda 2 bosqichni ajratish mumkin.

Birinchi bosqich o'tgan asr 20-yillarining boshidan 30 yillar o'rtasigacha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi. Bu davrda pedagogika va psixotexnikada test metodlari keng tarqaldi. Bunga bog'liq ravishda pedalogiya – bola haqidagi fan rivojlana boshlandi. Uning predmeti – bolalar hayotini o'rganish, irsiyatning rolini, jismoniy va ma'naviy taraqqiyot qonunlarini aniqlash, bolalar psixikasida kasallik ko'rinishlarini o'rganishdan iborat (K.N.Kornilov, 1917). Bu davrda psixologik diagnostikaning rivojlanishiga M.S.Bernshteyn, L.S.Vigotskiy, P.P.Blonskiy, S.G.Gellershteyn, N.D.Levitov, G.I.Rossolimo, P.I.Shpilreyn, A.M.Shubert va boshqalar katta hissa qo'shdilar. Olimlar tomonidan ilgari surilgan qator ilg'or fikrlar keyinchalik rivojlantirilmadi, chunki 1936 yildan keyin bu sohadagi barcha tadqiqotlar to'xtatildi va psixodiagnostikaning keyingi rivojlanishiga jiddiy to'siq Yuzaga keldi. Mashhur rus psixologi L.S.Vigotskiy shaxs psixik taraqqiyoti xususiyatlarini o'rganishga muhim hissa qo'shdi. Uning ta'limoti insonga xos bo'lgan psixik jarayonlar va inson ongining tarixiy rivojlanishiga bag'ishlandi. Uning fikricha, bolalar psixik taraqqiyoti insoniyat madaniyatini o'zlashtirishi natijasida ro'y beradi. Bunda shaxs shakllanishida ta'lim va tarbiya jarayonlari etakchi rol o'ynaydi.

Psixodiagnostikaning rivojlanishidagi **ikkinchi bosqich 50 – 60-yillarga** to'g'ri keladi. Bu davrda aqliy taraqqiyotni o'rganishga katta e'tibor berildi. Jumladan, A.A.LYublinskaya tadqiqotlarida nutq va uning funktsiyalarining rivojlanish xususiyatlari o'rganilgan. A.R.Luriya rahbarligida faoliyatni boshqarishda nutqning roli o'rganildi. A.N.Leont'ev va A.V.Zaporozets rahbarligida asosiy psixik jarayonlarning rivojlanishida faoliyatning roli o'rganilgan. D.B.Elkonin rahbarligida nutqning rivojlanishi va bog'cha davrida o'yinning

etakchi faoliyat turi sifatidagi roli aniqlandi. Bu tadqiqotlardan olingan natijalar bolalar uchun ta'lim va tarbiya dasturlarini tuzishda asos bo'lib xizmat qildi. Rus psixologlari tomonidan ishlab chiqilgan aqliy taraqqiyotni sifatli tahlil qilish tamoyili qator vazifalarni hal qilishda o'z mahsuldorligini namoyon qildi va ko'pgina tadqiqotlarda o'z aksini topdi (Z.I.Kalmikova, 1975, 1982; G.A.Vardanyan, 1979; L.A.Venger, 1974; K.M.Gurevich, 1980; V.I.Voytko, Yu.Z.Gilbux, 1981; D.B.Elkonin, 1982; V.V.Stolin, A.G.Shmelev, 1987; L.F.Burlachuk, S.M.Morozov, 1989 va boshqalar). Psixologik diagnostikaning kichik amaliy yo'nalishi u yoki bu hodisalarni bilishga va tavsiflashga qaratilgan. B.G.Ananov (1968) psixologik diagnostikani psixologik tadqiqotlarga qaratilgan yo'nalish, deb ta'riflaydi, uning maqsadi, psixofiziologik funktsiyalar, jarayonlar va shaxs xususiyatlari rivojlanish darajasini aniqlash, turli qo'zg'atuvchilar ta'sir qilganda inson holatini bilish, insonning mehnat qobiliyatini, layoqatini aniqlashdan iborat.

K.K.Platonov (1974) psixologik diagnostikani psixik hodisalarning xossa va xususiyatlarini o'rganish haqidagi fan, deb hisoblagan. K.N.Gurevich (1974) esa insonlarni psixologik va psixofiziologik belgilari bo'yicha ajratish va tavsiflash metodlari haqidagi fan deb hisoblaydi. V.V.Stolin va A.G.Shmelev (1984) psixodiagnostikani psixologik diagnoz qo'yish haqidagi fan deb bilishgan. **Diagnoz** (tashxis) – sinaluvchining alohida ko'rsatkich va xarakteristikalarini chuqur tahlil qilish asosida uning xususiyati va holati haqidagi xulosadir. Shu bilan birga psixodiagnostik tadqiqot, eksperimental tadqiqotdan tubdan farq qiladi. Psixodiagnostik tadqiqotda aniq individ, individlar guruhi haqida ma'lumot olinadi, eksperimental tadqiqotda nazariy faraz tekshiriladi. Shuning hisobiga psixodiagnostika maxsus metodik tamoyillarga bo'ysunadi. Lekin psixologik diagnostikaga turlicha ta'rif berishlariga qaramasdan, uning asosiy tushunchasi «psixologik diagnoz» tushunchasi bo'lib qoladi. Hayotda biz kasalxonalarda turli kasalliklarga diagnoz (tashxis) qo'yishlariga o'rganib qolganmiz. Bunda tashxisning to'g'riligi tekshirishning turli klinik metodlaridan foydalanishga bog'liq bo'ladi. Qator hollarda bunday diagnostika murakkab apparaturali test metodlaridan foydalangandan keyingina mumkin bo'ladi. Eksperimental diagnostikada ham tadqiqotchi turli metodlar, apparaturali testlardan foydalanadi. Olingan ma'lumotlar asosida psixolog sinaluvchining xulq-atvori, faoliyati haqida xulosa chiqaradi, ya'ni shaxsga psixologik diagnoz qo'yadi. Psixologik diagnoz qo'yishning umumiy sharoitlariga aloqador asosiy mezonlarni ajratib ko'rsatish mumkin: psixologik diagnoz insonga xos bo'lgan maxsus hodisa va xususiyatlarni ochib berishi kerak; har qanday diagnoz olingan natijalarni bayon qilish bilan chegaralanmasligi, u yoki bu belgining vujudga kelish sababi, oqibati, keyingi rivojlanishi ham namoyon bo'lishi kerak.

material. Sinaluvchining shaxsiy hayot va psixik faoliyati haqida eksperimental tadqiqot yo'li bilan ma'lumotlar asosida psixologik diagnoz qo'yiladi. Tadqiqotchi psixik faoliyat natijalari haqida ma'lumot olish uchun turli psixodiagnostik metodlardan foydalanadi (N.A.Menchinskaya, 1966; Z.I.Kalmikova, 1968; S.Ya.Rubinshteyn, 1970; B.V.Zeygarnik, 1976; V.M.Bleyxer, 1976; L.F.Burlachuk, 1979; M.K.Gurevich, 1984 va boshqalar).

Respublikamizda psixodiagnostikaning rivojlanishiga M.G.Davletshin, B.R.Qodirov, G.B.Shoumarov, E.G.G'oziev, V.A.Tokareva, R.Z.Gaynutdinov, V.M.Karimova, R.I.Sunnatova, Sh.R.Baratov, A.Jabborov, Z.T. Nishanova, S. X.Djalilova, G.To'laganova, A.Rasulov kabi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar.

Shunday qilib, ushbu mavzuda biz psixodiagnostikaning mustaqil fanga aylanguncha bo'lgan rivojlanish tarixi hamda xorijda, Rossiyada, O'zbekistonda rivojlanish tarixi, uning bosqichlari bilan tanishdik.

Bugungi kunda ta'lim tizimi xodimlari oldida tur-gan muhim vazifalardan biri ta'lim-tarbiya jarayoni-da pedagogning talaba yoki uquvchi bilan olib boradigan ishlar samaradorligiga erishish hisoblanadi. Buning uchun ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishda hozirgi zamon psixologiyasi, psixodiagnostikasi yutuqlaridan foydalanish tatsozo etiladi.

Ma'lumki, pedagog o'z ishi, faoliyati natijalarini tahlil qilishi, o'quvchilarda qiyinchilik tugdirayotgan sabablarni o'z vaqtida aniqlashi, bu qiyinchiliklarni o'quvchiga individual

yondashish jarayonida bartaraf qila olishi lozim. Shu sababli o`quv-tarbiya jarayonini boshqarishni takomillashtirish vosita va yo`llaridan biri - ilmiy jihatdan asoslangan psixologik-pedagogik diagnostika-kadir.

Psixologik-pedagogik diagnostika - pedagogika va psixologiya fanlarining ora-lig`idagi soha bo`lib, o`quvchi shaxsi, uning individual xususiyatlari, rivojlanish dinamikasi va ularga ta`sir etish omillarini o`rganadi. Uning maqsadi - ta`lim va tarbiya jarayonida shakllantirilayotgan o`quvchi yoki talabaning individual sifatlarini rivojlantirish yoki shakllantirish lozim bo`lgan xususiyatlarning mavjudligi (boshlang`ich) darajasi va ularning o`quv jarayonidagi o`zgarishlar dinamikasini o`rganishdir.

Shuni ta`kidlab o`tish joizki, hozirgi vaqtda, psixologik xizmat, psixolog mutaxassislar xizmatiga zarurat kundun-kunga ortib bormoqda. Bunday zaruratdan kelib chiqqan holda, turli matbuot nashrlari tomonidan psixologiya, psixodiagnostikaga oid ko`plab materiallar chop etib borilmoqda. Bugungi kunda biror-bir ommaviy axborot vositasi, ilmiy, ilmiy ommabop jurnal, gazeta yuqri, ularda odamlarning psixologik savodxonli-gini oshirishga oid maqolalar, materiallar berib borilmayotgan buo`lsa. Bu ma`lum darajada odat tusiga ham kirib qolmoqda. Lekin bu bilan OAVlarda chop etilayotgan, ayniqsa uzbek tilida chop etilayotgan materiallarning hammasi ham o`zining ilmiy saviyasiga ko`ra barcha talablarga javob beradi, degan mulohazadan uzoqmiz. Lekin hech bo`lmagandan ko`ra ularning ayrimlaridan maxsus ma`lu-motga ega bo`lmagan boshlovchi pedagog, tajriba uchun foydalanib ko`rishi foydadan xoli emas. Faqat bu o`rinda bunday vositalardan foydalanishga ilmiy-ijodiy, bilgan holda yondashish maqsadga muvofiqdir. Aks holda yaxshi niyatni ko`zlab ishga kirishgan pedagog kutilmagan natijalarga erishib qolishi hech gap emas.

Xozirgi zamon psixologiyasida inson omili, shaxsni o`rganishning juda ko`plab vositalari mavjud va ular psixologik amaliyotda keng qo`llanilib kelinmoqda. Shunday vositalardan biri psixodiagnostik testlardir. Ular deyarli hamma sohada, ko`plab fanlar namoyandalari tomonidan ishlatiladi. Jumladan, maqsadi bevosita shaxsni tarbiyalash va shakllantirish muammolarini o`rganish bilan bog`li k bo`lgan pedagogika va psixologiyada hozirgi vaqtda testlardan foydalanish keng yo`lga qo`yilgan. Pedagogikada qo`llaniladigan testlar didaktik testlar x, isoblanadi. Mana bir necha yildirki, res-publikamiz ^ududidagi urta maxsus, kasb-xunar (maktab, litsey, kollej va boshka) va oliy ta`lim muassasalarida bunday testlardan foydalanib kelinmokda.

Didaktik testlar o`z mohiyatiga ko`ra, sinaluvchilarning ayni vaqtdagi (sinala-yotgan vaqtdagi) bilim darajasi, u yoki bu predmet, material, dasturning qay dara-jada o`zlashtirganligini aniqlashga xizmat qiladi. Lekin ular sinaluvchilarning individual-psixologik xususiyatlari (qobiliyati, iqtidori, irodaviy-hissiy jixhat-lari)ni aniqlashga mo`ljallanmagan. Shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini o`rganish uchun psixodiagnostik testlardan foydalanish zarur bo`ladi.

Didaktik testlar va psixodiagnostik test-larning bir-biridan farqi shundaki, ularda bir-biriga o`xshagan, sinaluvchi e`tiboriga havola etiladigan savollar va ularga berila-digan javoblar variantlari berilgan bo`lsa-da, didaktik testlarda savollar ma`lum bir fan va uning dasturi buyicha o`zlashtirilishi (sinaluvchining bilishi) lozim bo`lgan masalalar haqida to`g`ridan-to`g`ri beriladi va bu savollar bo`yicha taklif etilgan javob variantlari «to`g`ri» va «noto`g`ri» javoblarga farqlanadi. Sinaluvchi qanchalik ko`p to`g`ri javob bersa, shunchalik yaxshi, yuqori natija-larga erishadi. Psixodiagnostik (shaxsni va uning u yoki bu masalaga nisbatan munosabati-ni o`rganuvchi) testlarda esa ulardan farqli ravishda, sinaluvchi e`tiboriga havola etiladigan savollar chalg`itib beriladi (aksariyat hollarda sinaluvchi gap nima haqida ketayotganligini anglay olmaydi, chunki savollar-ning aksariyati guyo bir-biriga mantiqan bog`lanmagandek berilishi mumkin). Bu savol, tasdiq, mulohazalarga beriladigan javoblar «to`g`ri» yoki «noto`g`ri» javoblarga emas, balki «samimiy» yoki «nosamimiy» javoblarga farqlanadi (intellektni urganuvchi testlar bundan mustasno) Bu o`rinda sinaluvchi

qanchalik samimiy javob bersa, shunchalik u haqda, uning u yoki bu hodisaga nisbatan munosabati haqida aniqroq ma'lumotni olish imkoniyati tug'iladi. Shuning uchun ham psixodiagnostik testlarda sinaluvchi javoblarining samimiy bulishligiga erishish muhim ahamiyatga ega.

Hozirgi vaqtda psixologik amaliyotda foydalanilayotgan psixodiagnostik testlar-ni shartli ravishda ixcham va ixtisoslashtirilgan chuqur ilmiy tadqiqot psixodiagnostik testlariga farqlash mumkin.

Ixcham testlar o'z nomiga yarasha ixcham, kam hajmli, kam savollardan iborat bo'lib, sinaluvchi shaxsi haqida birlamchi ma'lumotlar-ni olish imkoniyatini beradi. Ulardan har bir pedagog uz faoliyatida o'zini, o'quvchisini va eng muhimi uning ota-onasini o'rganishda foydalanishi mumkin. Ixcham testlarning af-zalligi shundaki, ulardan foydalanish uchun tadqiqotchidan maxsus psixologik tayyorgarlik talab qilinmasligi bilan birga undan olingan natijalarni qayta ishlab, tegishli ma'lumotlarni olish tadqiqotchi va sinaluvchidan ko'p vaqt talab qilmaydi. Ularni dam olish vaqtlarida, shunchaki suhbat chog'larida ham o'tkazib ko'rish mumkin.

Odatda psixologik amaliyotda bunday testlardan sinaluvchilarni asosiy psixodiagnostik tadqiqotga tayyorlash, ularning e'tiborini qozonish, psixolog-pedagogga sinaluvchilarning ishonchini uyg'otish, qiziqishini yuzaga keltirish maqsadida, mashq sifatida foydalaniladi. Ularning kamchiligi shundaki, ulardan olingan ma'lumotlar bir oz sayozligi, yuzakiligi, xatoga yo'l qo'yish ehtimolining yuqoriligi bilan farqlanib turadi. Lekin odam haqida hech nima bil-magandan ko'ra qisman bo'lsada, ma'lum bir ma'lumotga ega bo'lishning o'zi ham u bilan olib boriladigan ish samaradorligini oshiradi. Bunday testlarning xatoga yo'l quyish ehtimoli yuqori bo'lishi bilan birga, ularning sinaluvchi shaxsi, uning taqdiriga (agar g'araz maqsadlarda foydalanilmasa) ziyon etkazish ehtimoli ham kam bo'ladi. Shuning uchun ham so'nggi vaqtlarda ixcham psixodiagnostik testlar ommaviy axborot vositalari (gazeta, jurnallar) sahifalarida ko'plab berilib borilmoqda. Gazeta jurnallar tahririyati xodimlari bu testlardan o'z nashrlariga o'quvchilar qiziqishini oshirish, ularning xaridorgiriligini kuchaytirish maqsadida ham foydalanishmoqda.

Amaliyotchi psixolog-pedagog tomonidan bunday testlardan foydalanish, uning ta'lim-tarbiya jarayoni ishtirokchisi, shaxs kuz ungida e'tiborini oshirish, urganilayotgan shaxsning individual psixologik xususiyatlarini yaxshirok bilib olish, shu bilan birga uning «kungliga kirib borish» imkoniyatini yaratish, uning faoliyati samaradorligini oshirishga xizmat qilishi mumkin.

Shaxs xususiyatlarini o'rganuvchi psixologik testlar bilan tanishib chiqib, ulardan foydalanishni o'rganib olgan amaliyotchi psixolog va pedagog o'z navbatida bunday test-larni boshqa psixologik adabiyotlar, gazeta, jurnallardan xam qidirib topib, ularni o'rganib, uzlashtirib, o'ning psixodiagnostik testlar «banki»ni boyitib borishi, o'zining kundalik ish faoliyatida ulardan samarali foydalanishi mumkin. Tadqiqotchi ixtiyorida bunday testlar miqdori qanchalik ko'p va xilma-xil bo'lsa va ulardan o'z faoliyati, uz-uzini va atrofida qilgan ish urganishda muntazam foydalanib borsa, ulardan tegishli maqsadlarda va urinli foydalana olish ehtimoli yanada ortib boraveradi.

Psixodiagnostik tadqiqotlarni amalga oshirishda psixodiagnostik faoliyatga qo'yiladigan talablar bilan bir qatorda u bilan shug'ullanadigan psixodiagnostik mutaxassis shaxsiga xam aloxida malaka talablari quyiladi. Ular quyidagilardir:

- yaxshi nazariy tayyorgarlikka ega bo'lish;
- psixodiagnostik metodikalar va ularni qo'llash qoidalarini mukammal bilish;

- tegishli metodikalardan amalda foydalanish yuzasidan etarlicha tajribaga ega bo'lish kabilardir.

Ma'lumki, har qanday psixodiagnostik metodika o'z-o'zidan yuzaga kelavermaydi. Ular o'zi o'rganayotgan ob'ektga oid qandaydir bir nazariya zaminida yuzaga keladi va rivojlanadi. Masalan, intellekt testlari, intellekt tabiati, tuzilishi, ahamiyati va xayotiy namoyon bo'lishi xaqidagi ilmiy tasavvurlarga asoslanadi. Shaxs testlari esa shaxsni ilmiy ta'rifi shaxs tuzilishini tushunish, shu shaxs xaqida ob'ektiv mulohaza yuritish mumkin bo'lgan ma'lum bir shaxs nazariyalariga asoslanadi. Xar bir psixodiagnostik metodika ayni vaktida o'zi bog'lik bo'lgan u yoki bu nazariya bilan boyitilgan va chegaralangan bo'ladi. Tegishli nazariyani bilgan holda, shu nazariya doirasida o'rganilayotgan odam xaqida, ko'pincha bevosita psixodiagnostika natijalari doirasidan (chegarasidan) kengroq, uzoqni ko'zlagan xulosalar qilishga erishish mumkin. Masalan, ayrim shaxs nazariyalariga ko'ra shaxsning bir xislati boshqa bir xislati bilan yaqindan bog'lik bo'ladi. Shuning uchun shaxs xislatlaridan birini psixodiagnostika yordamida aniqlash bilan, uning boshqa bir xislatini qay darajada rivojlanganligi xaqida ishonchli muloxazalarga kelish mumkin.

Shundan kelib chiqqan xolda aytish mumkinki, har qanday psixodiagnostik metodikalardan psixodiagnostik amaliyotda foydalanishda mazkur metodika asoslanadigan nazariyani bilish shart. Bularsiz mutaxassis odamlarni tadqiq etish natijalarini tahlil qilish, izohlash va xulosalar chiqarishda jiddiy xatolarga yo'l quyishi mumkin.

Metodikani mukammal o'zlashtirganlik uni sinaluvchi e'tiboriga havola etish, natijalarni tahlil qilish va izohlash tartib-qoidalariga (protseaturalariga) oid bilim va malakalarga ega bo'lishni taqozo etadi. Tadqiqotchi toki psixodiagnostik testni yaxshi o'zlashtirib olmagunicha yoki hech bo'lmasa o'zi qo'llamoqchi bo'lgan testni o'zida yoki o'zi yaxshi bilgan odamlarda o'tkazib ko'rmaguncha, undan boshqalarni o'rganishda foydalanmasligi kerak. Psixodiagnostik metodikalarni qo'llash tartib, talablari, qoidalarini ham bilish juda muhimdir. Bu tartiblarga amal qilish ishonchli natijalarni olish imkoniyatini bersa, ularni buzish jiddiy xatolarga olib keladi. Testning o'zi o'z holicha qanchalik yaxshi bo'lishiga qaramay, undan foydalanish vaqtida albatta sinaluvchilarning individual xususiyatlari, ularning mazkur vaziyatdagi holati va psixodiagnostikaga ta'sir qiluvchi qo'plab omillarni xisobga olish lozim. Bunda psixologik tadqiqotlar olib borishning asosiy tamoyillari bo'lmish determinizm va tizimli yondashish tamoyillariga amal qilish lozim.

Shuningdek, tadqiqotchining tegishli psixodiagnostika metodikasini amalda qo'llay bilish tajribasiga ega bo'lishi ham psixodiagnostik faoliyatda katta ahamiyatga ega. Bunday psixodiagnostik metodikalardan foydalanish tajribasi ham uzluksiz bo'lishi kerak, chunki ulardan foydalanishdagi tanaffusning uzoq vaqt cho'zilishi odatda tegishli bilim, malaka, ko'nikmalarning yuqolishiga va ular bilan ishlash sifatining pasayishiga olib kelishi mumkin. Shuning uchun psixodiagnostik tadqiqotlar o'tkazish vaqtida tadqiqotchi quyidagi axloqiy-etik me'yorlarga amal qilishi lozim, deb o'ylaymiz:

1. Odamni uning ixtiyoriy roziligisiz psixologik tadqiqotga jalb qilmaslik kerak (qonunda belgilangan alohida sud yoki tibbiyot amaliyoti holatlari bundan mustasno).
2. Psixodiagnostik sinash o'tkazishdan ol-din sinaluvchini, u tadqiqot jarayonida o'zi anglamagan (sezmagani, bilmagan) holda o'zi, o'z fikr o'ylari, hissiyoti haqida ayrim ma'lumotlarni berib yuborishi mumkinligi xaqida ogohlantirib qo'yish lozim.
3. Agar bu qonunda ko'rsatilmagan bo'lsa, har qanday odam (sinaluvchi) testlashtirish natijalari va undan olingan ma'lumotlarni va ulardan kim, qaerda va nima maqsadda foydalanishi mumkinligini bilishga haqli.
4. Psixologik sinash natijalari testni o'tkazgan odam tomonidan sinaluvchiga to'g'ri tushuniladigan shaklda berilishi kerak.

5. Voyaga etmagan sinaluvchilarni o'rganishda ularning ota-onasi yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bolani urganish natijalari-ni bilishga haqli.

6. Agar test odamning psixik rivojlanganlik darajasini aniqlash, tanlov asosida

tanlab olish yoki ishga qabul qilish maqsadida o'tkazilayotgan bo'lsa, bunda xam sinaluvchi nafaqat testlashtirish maqsadi, balki u haqda test natijalariga ko'ra qanday asosda xulosa qilinishini ham bilishga haqli.

7. Psixodiagnostik testlardan amalda foydalanish uchun asosiy javobgarlik ular-ni qo'llayotgan psixologlar, shaxslar va tashkilotlarga yuklatiladi.

Yuqoridagilardan xulosa qilib ta'kidlash mumkinki, shaxsni o'rganishda psixodiagnostik vositalardan foydalanishda ularga quyiladigan talablarga rioya qilish - psixodiagnostik faoliyat samaradorligi, ishonchliligini ta'minlovchi asosiy omillardan biri ekanligini unutmasligimiz lozim.

MEHNAT FAOLIYATI DIAGNOSTIKASI

Reja:

1. Qobiliyatlar va mehnat muvaffaqiyatini bashorat va tashxis qilish.
2. Faoliyat muvaffaqiyatini bashorat qilishda bosqichlarni ishlab chiqish.
3. Kasbiy ahamiyatli xususiyatlarga xarakteristika.

Tayanch iboralar: ergonomika, bashorat, kasbiy tanlov, psixik layoqat.

Qobiliyatlar va mehnat muvaffaqiyatini bashorat va tashxis qilish. Faoliyat muvaffaqiyatini prognozlash (bashorat qilish) psixologik ko'rsatkichlar asosida olib boriladi. U faoliyatga o'rgatish jarayonini optimallashtirish uchun muhim. O'quv guruhlarini tuzishda individual yondashishni tashkil etishda va boshqa hollarda muhim.

Ko'pincha faoliyat muvaffaqiyatini bashorat qilish insonning u yoki bu faoliyatga to'g'ri kelishi, kasbiy tanlov o'tkazishni yo'lga qo'yish uchun to'g'ri keladi. Insonning mehnatga jismoniy va psixik layoqatliligi va yaroqliligini ergonomika sohasi o'rganadi. "Ergo" – ingliz tilidan "ish", "nomika" – inson degan ma'noni bildiradi.

Professional tanlovning komponentlaridan biri psixologik tanlov bo'lib, u tibbiy, ta'lim, bilim darajasi bo'yicha tanlovlarni o'z ichiga oladi. Aniq faoliyat turida inson qobiliyatlarini son va sifat ko'rsatkichlari bo'yicha baholash eng oddiy, ammo unchalik mukammal bo'lmagan usuldir. Professional malaka olingan ko'rsatkichlarni boshqalarniki bilan qiyoslash orqali aniqlanadi. Qobiliyatlarni bashorat qilish kasbiy ta'limdan oldin o'tkaziladi va quyidagi xususiyatlari bilan ajralib turadi:

1. Vaqtdan uzilganligi.
2. Vositali usullar.
3. Nisbatan kam ishonchliligi va h.k.lar.

D.D.Jangarov diagnostika va prognozlash tushunchalarini o'zaro bir-birini to'ldiruvchi, ammo eksperimental psixologiyaning alohida mavzulari deb aytadi.

Faoliyat muvaffaqiyatini bashorat qilishda bosqichlarni ishlab chiqish. Faoliyat muvaffaqiyatini bashorat qilish – kelajakda individual xulq ehtimolini dalillash bo'yicha xulosadir. Uni ilmiy asoslash uchun faoliyat muvaffaqiyatini bashorat qilish tizimi ishlab chiqiladi va u quyidagi bosqichlarga bo'linadi:

- faoliyatni psixologik o'rganish;
- yakuniy axborotni olish uchun metodlar tanlash va ishlab chiqish;

- mezonlarni ishlab chiqish;
- yakuniy axborotni diagnostik integral qoidasini ishlab chiqish;
- faoliyatni prognozlash tizimi validligini aniqlash.

Tashxis davomida olingan ko'rsatkichlarni axborotga aylantirish statistik algoritmlar metodi bilan amalga oshadi.

Statistik algoritmlarni beshta guruhga bo'lish mumkin:

1. Quyi va yuqori guruhlarni qiyosiy tahlil qilish.
2. Korrelyasion pleyadalar metodi.
3. Faktorli tahlil.
4. Ketma-ket davomli tahlil.
5. Regression tahlil.

Professional tanlov va qobiliyatlarni diagnostik tahlil qilish talablarini V.A.Bodrov quyidagicha tushuntiradi:

1. Metodikaning prognostik (axborot) qimmati. Bu metodikaning o'rganilayotgan shaxs haqida keng va aniq axborot bera olishi bilan o'lchanadi.
2. Metodikaning ishonchliligi. Bu olingan natijalarning barqarorligi, takror tadqiqotlarda bir xil ko'rsatkichlarni olish, o'lchov xatolari dispersiyasi, juft qatorli korrelatsiya koeffitsienti ko'rsatkichlari bilan aniqlanadi.
3. Metodikaning differensialligi. Bu har bir metodikaning alohida funksiyalar yoki funksiyalar to'plamini baholashga qaratilganligidir. Natijalarni tahlil qilganda ular orasidagi farq kichik bo'lishi metodika to'g'ri tanlanganligini bildiradi. Metodikalar differensialligini aniqlash uchun korrelyasion matritsa o'tkazish lozim.

Kasbiy ahamiyatli xususiyatlarga xarakteristika. Tanlangan va ishlab chiqarilgan metodlarning yuqori prognostik qimmati va ishonchliligini ta'minlash uchun V.A.Bodrov quyidagi tamoyillarni sanab o'tadi:

1. Ilmiy asoslanganlik tamoyili.
2. Ob'ektivlik tamoyili.
3. Amaliyotda qulaylik tamoyili.

Tajribalarni o'tkazishda instruktaj katta ahamiyatga ega. Instruksiya o'zining osonligi, aniqligi, standart shakli bilan ajralib turadi. Instruksiyani eksperimentator yodlashi yoki uni matndan o'qib borishi mumkin. Sinaluvchi va eksperimentator orasidagi psixologik kontakt metodning ishonchliligini oshiradi. Metodika blanklari bir xil o'lchovda, rangda va shriftda tuziladi. Standart sharoitlarda asbob-uskunalar tajriba o'tkazadigan joyning yorug'lik darajasi, shovqin izolyasiyasi va maxsus metodikaning professionalligi va qonuniyligini ta'minlaydi. Faoliyatni bashorat qilish maxsus psixologik tayyorgarlikka ega mutaxassis tomonidan amalga oshiriladi. Qobiliyatlar tashxisini sintetik usulda o'tkazish bashorat ishonchliligini oshiradi, chunki faoliyat adekvat va takroriy sinab ko'riladi.

Mavzuni mustahkamlash uchun savollar:

1. Mehnatni bashorat qilish va tashxis qo'yish qaysi davrdan boshlab va qaysi maqsadlarda amaliyotga kiritildi.
2. Mehnat prognozi va diagnostikasi bo'yicha yaratilgan ilmiy-nazariy asoslar.
3. Qobiliyatlar tashxisi bo'yicha an'anaviy metodikalar qaysi?

Kasbiy faoliyatni psixologik baholash testi

Sizga tavsiya qilinayotgan test savollari pedagogik faoliyatning psixologik diagnostikasiga agʻishlangan. SHuning bilan birga, bu maʼlumotlar malakatimizdagi xalq taʼlimi tizimini takomillashtirishda muhim ahamiyat kasb etadi. SHaxsiy va kasbiy sifatlarinigiz haqidagi maʼlumotlar. Siz uchun quyidagi jarayonlar foydali boʻladi:

- attestatsiyaga tayyorlanish kezida;
 - shaxsiy - kasbiy sifatlarini rivojlanitirishda va oʻz ustingizda ishlashni takomillashtirishda;
 - hayot - faoliyatingizni qanday tashkil qilishni belgilab beruvchi oʻzingizni «Men» - konsepsiya boʻyicha (oʻzingiz haqingizdagi tasavvurni) baholashingizda.
- Ushbu tajribada ishtirok etganingiz uchun sizga oldindan oʻz minnatdorchiligimizni bildiramiz.

Har bir fikrga «HA» (plyus) yoki «YOʻQ» (minus) belgisini qoʻyish bilan javob berishingiz mumkin.

1. Tanishlarimning koʻplari meni yoqtirishsa kerak, deb oʻylayman.
2. Kamdan - kam hollarda gapim ishimga toʻgʻri kelmaydi.
3. Koʻpchilik odamlar oʻzlariga oʻxshash tomonlarini menda koʻrishsa kerak, deb oʻylayman.
4. Men oʻzimni baholashga harakat qilganimda, eng avvalo kamchiliklarimni koʻraman.
5. Men shaxs sifatida odamlarni oʻzimga jalb qila olaman, deb oʻylayman.
6. Oʻzimga meni yoqtirgan odamning koʻzi bilan qaraganimda, shaxsiy obrazim haqiqatdan qanchalik uzoqligi tufayli noxush hislar tugʻiladi.
7. Baʼzan oʻzini- oʻzi ayashni gunoh emas, deb hisoblayman.
8. Menning «MEN»im oʻzim uchun har doim qiziqarlidir.
9. SHaxsiy hayotimda menga haddan ziyod yaqin boʻlgan odamlarim boʻlgan.
10. Oʻzimni - oʻzim hurmat qilishim uchun oʻz imkoniyatimni yanada ishga solishim joiz.
11. Oʻzimni - oʻzim juda yomon koʻrgan vaqtim boʻlgan va u bir marta emas.
12. Men toʻsatdan paydo boʻlgan xohishimga toʻla ishonaman.
13. Oʻzim ham shaxsiyatimdagi koʻp nars oʻzgarishini istayman.
14. Men uchun shaxsiy «Men»im alohida xislatlari hurmatga sazovordek boʻlib tuyulmaydi.
15. Mening hayotimda hamma narsa orzu qilganimdek boʻlishini sidqidildan xohlayman.
16. Men birovga taʼna toshini yogʻdirishdan koʻra, eng avvalo oʻzimni ayblayman.
17. Toʻsatdan tanishgan odam uchun koʻproq yoqimli shaxsday tuyulaman.
18. Men koʻpincha oʻz rejalarimni va xatti - harakatlarimni qoʻllab - quvvatlayman.
19. SHaxsiy zaifliklarim menda gʻazab tuygʻusiga oʻxshash kechinmani uygotadi.
20. Mabodo men ruhan ikki kishi boʻlib qolsam, u holda oʻzimning ikkinchim bilan qiziqarli suhbat qilgan boʻlardim.
21. Oʻzimning baʼzi bir xislatlarim menga begonadek boʻlib tuyuladi.
22. Kimningdir shaxsiyatida menga oʻxshash tomoni borligini his qilolmayman.
23. Oʻylagan rejamni amalga oshirish uchun qobiliyatim va imkoniyatim etarli.
24. Men koʻpincha oʻz ustimdan kulmagan holda oʻzim bilan oʻzim hazillashaman.
25. Insonning shaxsiy hayotida qiladigan eng aqlli ishi - bu oʻz taqdiriga oʻzi tan berishidir.
26. Birinchi qarashda begona odam menga qaraganda oʻzgalar xususiyatlarini topganga oʻxshaydi.
27. Agar men biror vaʼda qilgan boʻlsam, afsuski, bu xuddi aytganimday ish tutaman, degan soʻz emas.
28. Oʻzimga nisbat munosabatimni doʻstlik munosabati, deb atasa boʻladi.
29. SHaxsiy kamchiliklarga muruvvatlilik - bu tabiiy holdir.
30. Sevgan odamim uchun qiziqarli manba boʻlishlik mening qoʻlimdan kelmaydi.

31. Qalbimning tubida men bilan qandaydir muddat falokat yuz berayotganday tuyuladi.
32. Men o'z tanishlarimning ko'pchiligiga yoqimtoy bo'lib tuyulsam kerak.
33. Meni sevadigan odamimning ko'zi bilan o'zimga qarash juda yoqadi.
34. Menda xohish - istak paydo bo'lganda, avvalo o'zimdan - o'zim «bu aqldanmi?» deb so'rayman.
35. Ba'zan menga shunday bo'lib tuyuladiki, qandaydir donishmand ruhiy dunyoni ko'ra olganida edi, o'zimning qanchalik qashshoq ekanligimni darhol anglagan bo'lar edim.
 36. Goho o'zimdan - o'zim faxrlanaman.
 37. Men o'zimni baholayman, desam bo'ladi.
 38. Men haqiqatdan nufuzli odam ekanligimga qalbimning tubi bilan hech ishongim kelmaydi.
- Z9. Begona odamlarning yordamisiz men ko'p narsalarni uddalay olmayman.
 40. Ba'zan men o'zimni - o'zim tushuna olmayman.
 41. Maqsadga yo'nalganlik, irodaviy sifat va quvvatning etarli emasligi menga juda xalal beradi.
 42. Boshqalar meni etarli darajada yuqori baholasalar kerak, deb o'ylayman.
 43. Menning shaxsimda qandaydir boshqalarni o'ta yoqtirmaslik to'g'risiga o'xshash nimadir bor.
 44. Ko'pchilik tanishlarim meni unchalik jiddiy odam deb qabul qilmaydilar.
 45. Menda doimo qo'zg'atuvchanlik hissi mavjud bo'lganligi tufayli o'zimdan - o'zim quvonaman.
 46. Men o'zimni - o'zim hurmat qilaman, deb ayta olaman.
 47. Hatto menga salbiy xislatlar ham begona emas.
 48. Asosan, men qanday mavjud bo'lsam, xuddi shu narsa meni qoniqtiradi.
 49. Meni boshqalar chinakamiga seva olmasalar kerak.
 50. Mening orzularim va rejalarim ushali shiga amaliy ifoda etishmaydi.
 51. Agar mening ruhan ikkinchi «Men»im bo'lganda edi, u muloqotda men uchun eng zerikarli sherik bo'lar edi.
 52. O'ylaymanki, har bir qanday aqlli va bilimli inson bilan umumiy til topishsa bo'ladi.
 53. Mendagi ruhiy kechinmalar, men uchun tushunarlidir.
 54. Mening ijobiy fazilatlarim nuqsonlarimni yopib ketadi.
 55. Meni vijdotsizlikda ayblaydigan odamlar topilmasa kerak.
 56. Menda ko'ngilsizlik sodir bo'lsa, o'zimga - o'zim «Qilmishiga yarasha-da» deb aytaman.
 57. Umuman men o'z taqdirimga befarq emasman, deb ayta olaman.

Javob varaqasi 1- ilovada berilgan.

Natijalar tahlili:

«HA» (+), «YO'Q» (-) deb javob berilganidan qat'iy nazar, javobingizni kalitga mosligi 1 ball olishingiz uchun imkon beradi.

1. O'zimning «Men»dan «Rozi» yoki «Noroz» bo'lish intergal hissi ustuni.

«HA» - 2, 5, 23, 27, 33, 42, 46, 48, 52, 53, 57.

«YO'Q» - 6, 9, 13, 14, 16, 18, 30, 35, 38, 39, 41, 43, 45, 49, 50, 56.

Natijalar tahlili:

0-10 ball - Siz ko'proq o'z «Men»ingizdan norozisiz.

11-20 ball - Siz o'zingiz haqingizda juda yuqori fikrda emassiz, shuningdek, o'zingizga ijobiy mgunosabatingiz saqlangan.

21-28 ball. O'zingiz haqingizda juda yuqori fikrdasiz, o'z «Men»ingizdan to'la rozisiz, ba'zan bu holat o'zlikka tanqidiy yondashmaslikni va o'z atrofingizdagilarga qarshi qo'yishni yuzaga keltirishi mumkin.

2. O'zini - o'zi hurmat qilish ustuni.

«HA» - 2, 23, 53, 57.

«YO‘Q» - 8, 13, 25, 27, 31, 38, 39, 40, 41, 50.

0-5 ball - Sizda mustaqillikka, shaxsiy kuchga, qobiliyat va imkoniyatlarga ishonch etarli emas.

6-10 ball - Siz o‘zingizni etarli darajada hurmat qilsangizda, lekin har qalay o‘zingizga ishonmaslik, o‘zingizga tushunmaslik, izchillikdan chetlashish, shaxsiy imkoniyatlarga shubha bilan qarash holati ba’zida uchrab turadi.

11-14 ball - Siz o‘zingizni yuksak darajada hurmat qilasiz. Siz o‘zingizga ishonasiz va mustaqilsiz.

3. O‘zini - o‘zi yoqtirish ustuni.

«HA» - 12, 18, 28, 29, 37, 46, 48, 54.

«YO‘Q» - 4, 9, 11, 16, 19, 24, 45, 56.

0-5 ball - Siz ko‘proq o‘zingizga «dushman»ga qaragandek araysiz, ijobiy baholaysiz, o‘zingizga ishonasiz, shu bilan birga o‘zingizni ayblashga tayyorsiz.

6-11 ball - Umuman olganda, o‘zingizni qo‘llab - quvvatlaysiz, ijobiy baholaysiz, o‘zingizga ishonasiz, shu bilan birga o‘zingizni ayblashga tayyorsiz.

11-16 ball - Siz o‘z «Men»ingiz bilan «do‘stona» munosabatdasiz. Bunday holda o‘z xislatlaringizni va umumiy xulqingizni yuksak darajada nazorat qilishingiz zarur.

7. Atrofdagilardan kutilayotgan munosabat ustuni.

«HA»- 1,5, 10, 15,42,55.

«YO‘Q» - 3, 26, 30, 32, 43, 44, 49.

0-4 ball - Siz atrofingizdagi odamlardan salbiy munosabatni kutasiz, hatto mehri - muhabbati siz uchun zarur insonlardan ham yaxshi munosab kutmaysiz. Siz o‘zingizga yaxshilikni chinakam ravo ko‘rmaysiz. Vaholanki, o‘zingizni boshqalarga o‘xshamaydigan, alohida shaxs deb hisoblaysiz. Bu holat sizga o‘zlikni hurmat qilishni oshiradigan vazifalarni oldingizga qo‘yishga to‘sqinlik qiladi.

5-6 ball - Atrofingizdagi odamlar orasida sizga salbiy munosabatda bo‘ladiganlari borligini bilsangiz ham, lekin ularning barchasi ijobiy munosabatlar, deb o‘ylaysiz. Bu holat sizda ularning munosabatlarigi munosib bo‘lishiga, ijtimoiy axloq me’yorlariga rioi qilishga, tashqi qiyofangizga e’tibor berishga, o‘zingizni nazorat qilishga intilishni vujudga keltiradi.

10-13 ball - Atrofingizdagi odamlarning sizga ijobiy munosabatda ekanliklariga to‘la ishonasiz. Bu ishonish sizga o‘zingizga nisbatan hurmatingizni tobora orttiradi. Siz shaxsingizni qadr qimmatligiga ishonasiz va faoliyatingizning samarali bo‘lishi atrofingizdagi odamlardan kutayotgai munosabatingizga bog‘liq. Atrofingizdagilarning siz haqingazdagi tasavvurlarini saqlanib qolishi uchui doimo o‘z ustingizda ishlashingiz zarur.

8. O‘z shaxsiyatiga qiziqish ustuni.

«HA» - 7, 17, 20, 33, 34, 52.

«YO‘Q» - 14, 51.

0-2 ball - Siz o‘zingizga (qisman o‘z fikringizga va hislaringizga) o‘zingiz yaqin emassiz (real «Men» va ideal «Men») afsuski, o‘zingizning shaxs sifatida boshqalar uchun qiziqarsiz ekanligingiz haqidagi fikr mavjud.

3-6 ball - Siz o‘zingiz bilan «tenglik» asosida muomala qila olasiz, boshqalar uchun qiziqarli ekanligingizni e’tirof etmaysiz. SHuningdek, siz o‘zingizni atrofdagilar uchun qiziqarli ekanligingizga har doim ham ishonavermaysiz.

O‘ylab ko‘ring, bu balki sizni umuman qanday bo‘lish kerakligini bilmasligingiz bilan bog‘liqdir. Ehtimol, siz u yoki bu sifatlaringizni qay darajada rivojlanmaganligini bilarsiz va shuning uchun atrofdagilar uchun sizning «Men»ingiz qiziqarli ekanligiga shubhangiz mavjuddir.

7-8 ball - Siz o‘zingizni boshqalar uchun va o‘zingiz uchun qiziqarli ekanligingizga ishonasiz. Bu sizning faoliyatingizni samarali bo‘lishiga olib keladi.

6. O‘ziga - o‘zi ishonch ustuni.

«HA» - 2, 23, 34, 42, 46.

«YO‘Q» - 32, 43, 44.

0-2 ball - Siz o'z «Meningizni» salbiy baholashni kutishga tayyorsiz.

3-6 ball - Siz atrofdagi odamlarning o'zingizga nisbatan munosabatlari, fikrlari va xatti - harakatlarini tanqidiy real baholaydigan odamsiz. O'zingizga nisbatan bo'ladigan ichki turtkilaringiz sizning shaxsiy sifatlaringiz va xulqingizdan kelib chiqadi.

7-8 ball - Siz o'z «Men»ingizni atrofdagilar tomonidan ko'proq ijobiy baholanishini kutasiz. Bu holat sizni va o'z meningizga ijobiy yo'naltiradi, faoliyatingizni jadallashtiradi.

7. O'zgalardan kutilayotgan munosabat ustuni.

«HA» - 1, 5, 10, 52, 55.

«YO'Q» - 32, 43, 44.

0-2 ball - Siz o'z «Men»ingizni salbiy baholash kutilmasiga tayyorsiz.

3-6 ball — atrofdagi odamlarning o'zingizga nisbatan munosabati, fikr va xatti - harakatini tanqidiy hamda real baholaydigan odamsiz. O'zingizga nisbatan yo'naltirilgan ichki turtkilaringiz sizni shaxsiy sifatlaringiz va sifatlaridan kelib chiqadi.

7-8 ball - Siz o'z «Men»ingizni atrofdagilar tomonidan ko'proq ijobiy baholashni kutasiz. Bu sizni o'z «Men»ingizga ijobiy yo'naltiradi faoliyatingizni jadallashtiradi.

7. O'zini -o'zi qabul qilish ustuni.

«HA» - 12, 18, 28, 47, 48, 54.

«YO'Q» - 21.

0-2 ball - O'zingiz butun vujudingiz bilan o'zingizga yoqmaysiz. SHaxsiy va kasbiy sifatlaringiz ustida o'ylab ko'rishingiz hamda o'z ustingizda ishlashingiz zarur.

3-5 ball - O'zingiz haqingizdagi fikrlaringizda qarama - qarshiliklar mavjud. O'zingizning «Men»ingizda nima sizga ma'qul va nima noma'qul ekanligini aniqlang. O'z meningiz ustida ishlashingiz o'zingizga nisbatan ijobiy intilishlaringiz shakllanishiga olib keladi .

6-7 ball - O'zingizni qabul qilish o'lchovingiz etarli darajada yuqori. Bu o'zingizni namoyon qilish ehtiyojingiz borligini bildirib o'z meningizga nisbatan ijobiy munosabatingizni qo'llab -quvvatlaydi .

9 . O'ziga o'zi rahbarlik qilish ustuni .

«HA»-50, 57 .

«YO'Q» - 25, 27, 31, 35, 36.

0-2 ball - Siz o'zingizga aytishingiz zarur: «Afsuski, meni biror aytgan gapim, aynan shunday xatti- harakat qilishimni bildirmaydi».

3-5 ball - Siz muvaffaqiyatga faoliyatingizdagi ma'lum izchillikni ta'minlovchi ichki munosiblik orqali erishasiz. SHunga qaramay, sizning «Men»ingizda ba'zi psixologik kelishmovchilik har qalay bor. Nima uchun? Ehtimol, har doim ham xulqingizda izchillik norealligi bunga sababdir.

6-7 ball — Siz faoliyatga nisbatan izchillik, o'z| qobiliyatingiz va imkoniyatingizga ishonch, o'zini tushunish, o'zini nazorat qilish etarli darajada namoyon bo'ladi.

10. O'zini ayblash ustuni.

«HA»-3, 4, 9, 11, 16,24,25, 56.

0-2 ball - Sizda o'zingizga nisbatan hech qanday tanbehingiz yo'q. O'zingizdan ko'nglingiz to'qligi sodir bo'layotgan hodisalar uchun javobgarlikni soqit qilishni va javobgarlikni tashqi omillarga yuklashga moyillikni keltirib chiqaradi. O'zingizga tanqidiy qarashga harakat qiling.

3-6 ball - Sizni har doim ham o'zingizdan ko'nglingiz to'lavermaydi va bu o'zingizdagi mavjud xislatlaringizga mos keladi. Ko'pincha odamda o'zini - o'zi baholash qarama - qarshiliklardan iborat bo'ladi. |SHuningdek, o'zini psixologik himoya qilish o'z aybini e'tirof etishdan tashqari tashqi sabablar orqali o'zini oqlashdan xoli emassiz.

7-8 ball - Siz o'zingizni tanqid qilasiz, vijdonlisiz, o'zingizni kamsitishga, «aybdor» deb his qilishga, o'ziga - o'zi tanbeh berishga moyillik bor. Bu holat o'z imkoniyatlaringizni past baholashni vujudga keltirganligi tufayli har doim sizning faoliyatingizga ijobiy ta'sir etmaydi.

8. O'ziga - o'zi qiziqishni ifodalaydigan ustun.

«HA» - 17, 20, 33.

«YO'Q» - 26, 30, 49, 51.

0-2 ball - Siz o'zingiz uchun qiziqarli emassiz, chunki o'zinigizning ko'pgina shaxsiy

xususiyatlaringizni salbiy baholaysiz. Bu siz uchun boshqalarga ham qiziqarsiz bo'lishingiz omili hisoblanadi.

3-5 ball - Siz atrofingizdagi odamlar uchun ham, o'zingiz uchun ham ma'lum darajada qiziqarlisiz. Vaholanki, sizda shaxsiy xususiyatlaringizdan va ish sifatlariningizdan qoniqmaslik bor. Bu kamchiliklaringiz ustida ishlash va sizni o'zingizga tanqidiy munosabatda bo'lishingiz o'zingizni takomillashtirishingizning asosiy yo'lidir.

6-7 ball - Sizning «Men»ingiz sizni etarli bezovta qiladi. Sizdagi o'ziga - o'zi qiziqish yuksak darajaga ega bo'lib, o'zini - o'zi sevishga aylangan. Umuman olganda, bu yomon emas, agar ushbu faoliyatni bajarilishi jarayonida namoyon bo'ladigan yuqori darajadagi mahorat bilan uyg'unlashgan bo'lsa, zotan atrofingizdagi odamlarning sizga nisbatan tanqidiy munosabatlari va o'zingizga yuqori baho berishingiz zaminida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan nizolarni oldindan bilishingiz sizga xalaqit bermaydi. Ko'proq insonparvarlik va faoliyatingizdagi nazorat siz uchun faqat foydalidir.

9. O'zini - o'zi tushunish ustuni.

«HA» - 53.

«YO'Q» - 6, 8, 13, 15, 22, 40.

0-2 ball - Sizda aniq ichki izchillik, yorqin tasavvurlar, hislar va g'oyalar yo'q. O'zingiz bilan o'zingiz yomon munosabatdasiz.

3-5 ball - O'zingiz bilan o'zingiz yuqori darajada kelishasiz deb aytib bo'lmaydi. Lekin sizda o'zingizni tushunmaslik namoyon bo'lmaydi. O'zingizga ijobiy munosabatni quvvatlash taktikasi sizni hayotingizda hokimlik qiladi.

6-7 ball - Siz o'zingiz bilan ruhan kelishgan holda yashaysiz.

SHunday qilib, sizning to'plangan yig'indingiz quyidagi raqamni tashkil qilsa:

0 ball dan 52 ballgacha, bu ko'rsatkich o'zingizga salbiy munosabatda ekanligingizni bildiradi. Bu holat nisbatan barqaror bo'lgan, ozmi yoki ko'pmi darajada anglangan, individning o'zi haqidagi tasavvurlarining betakror tizimi sifatida his qilingan. «Men-konsepsiyasi»ni salbiy yo'nalishda namoyon bo'lishiga ta'sir qiladi. Vaholanki, buning zaminida, sizni atrofdagilar bilan o'zaro ta'siringiz va o'zingizga munosabatingiz shakllanadi. «Men konsepsiyasi» ichki qarama - qarshiliklarda hal bo'lmagan shaxsiy «Men»ning yaxlit obrazidir.

Salbiy Men - konsepsiyasiga ega bo'lgan odamlar ortiqcha vahimaliligi, tez xafa bo'lishi, o'zini kamsitishiga va e'tirof etishga moyilligi bilan ajralib turadilar. Ular uchun muloqot bilan,

ijtimoiy shaxsiy masalalar bilan bog'liq bo'lgan qiyinchiliklar xarakterlidir.

YUqorida bayon etilganlar, ularning pedagogik faoliyatiga salbiy ta'sir o'tkazmay iloji yo'q. SHuningdek, «Men - konsepsiyasi» bilan kasbiy faoliyat samaradorligi o'rtasidagi munosabatni ularni o'zaro bog'lanish tizimini o'rganmasdan turib, aniq aytib bo'lmaydi.

53 ball dan 105 ballgacha: Bu ko'rsatkich kasb egasining «Men - konsepsiyasi»ni va o'ziga munosabati ijobiy ekanini ko'rsatadi. Atrofingizdagilar orasida siz aytarli darajada obro'lisiz. Bitiruvchilaringiz sizni uzoq vaqtgacha unutishmaydi. Qo'l ostingizdagilar xotirasida shunday qiyofada saqlanib qolasiz; «HA, bizning boshlig'imiz haqqoniy, rahmdil edi, odamlarga g'amxo'rlik qilardi», «U o'z kasbini yaxshi bilardi, muomalani yaxshi tashkil qilar edi, ko'tarinki ruhini saqlab qolardi», «Uning guruhida iliq, yoqimli sharoit mavjud bo'lib, hamma qiziqib ishlardi», «Bizni deb, u juda ko'p tanbeh va gap eshitardi, biz uni tushunardik va o'zimizni tuzatishga harakat qilardik». «U bekorchilarni yoqtirmas edi va kamdan - kam » o'zidan chiqardi va hokazo.

Odatda odamlar bilan muomala qilishni biladigan bunday kasb egasi obro'li bo'ladilar. SHu bilan birga, egiluvchanligini va eksperiment o'tkazishga nisbatan qiziqish mustahkamlash, maqsadga muvofiq bo'lishi, o'ziga ijobiy munosabatni va o'zini haqqoniy baholashni takomillashtiradi.

106 ball dan 134 ballgacha: Kasb egasining «Men -konsepsiyasi» va o'ziga munosabati juda yoqadi. Turgan gap, bunday kasb egalari o'z xulqi va faoliyati natijalari ijobiy bo'lishiga

ishonadilar, lekin har doim shunday emas.

O'zingizni yuqori darajada idrok etishingiz, shaxslarni kamsitish, uyaltirish o'ziga ishonchini yo'qotish mumkin. Ba'zan o'ziga yuqori baho beradigan kasb egasining loqaydligini namoyon qilib, haddan tashqari hukmronlikni yaxshi ko'radilar. SHunday qilib, kasb egasining o'ziga yuqori baho berishi o'quvchilarning "Men - konsepsiyasi" boshliq uchun salbiy bo'lishiga olib keladi. Balki o'zingizga nisbatan talabchanlikni, xurmatni, ichki kelishuvchanlikni bshashtirmay, mahorat darajasini egallagandirsiz, qo'l ostingizdagilarni ham imkoniyat va bilimlarini to'g'ri baholash va ularni muvaffaqiyatga, ijobiy "Men - konsepsiyasi" ga undang.

I V . G L O S S A R I Y

Adekvatlik – teng, o'xshash, muvofiq kelmoq.

Analogiya – psixik xodisalar va xulq-atvor xususiyatlarining o'xshashligi.

Anketa – metodlardan biri bo'lib, respondent to'g'risida aniq ko'zlangan ma'lumotlarni yig'ish maqsadida qo'llaniladi.

Assotsiatsiya – psixik xodisalar orasidagi o'zaro bog'lanish, u ma'lum qonunlar bo'yicha tarkib topadi.

Attraksiya – bir kishini boshqa kishi ko'rib qolganda, idrok etishda yuz beradigan tafakkur turi.

Apatiya – kishining tevarak atrofdagi olamga nisbatan befarqlik xolati.

Astenik – shaxsning faolligini susaytiruvchi kechinmalar.

Audivizual idrok – shaxsning bir vaqtning o'zida ham eshitib, ham ko'rib idrok qilishi.

Autogen mashq – shaxsning o'z-o'zini ishontirish va o'z-o'zini idora qilishga asoslangan psixoterapevtik usul.

Affekt – kuchli, jo'shqin va nisbatan qisqa muddatli emotsional kechinmalar sifatida ro'y beradigan psixologik holat.

Biografik metod – odamni uning tarjimai holi bilan bog'liq bo'lgan xujjatlar orqali o'rganish usuli.

Bixeviorizm – psixologiyaning o'rganish predmeti sifatida odam xulq-atvorini olinishi nazariyasi.

Breyshorming – aqlga xujum – baxslarni tashkil etishda qo'llaniladigan interfaol usuldir.

Bosqichlar – muloqotda mavjud bo'lgan shaxsning o'zi bilan, boshqalar bilan va avlodlar orasida kechadigan jarayoni.

Verbal – og'zaki ifodalangan nutq.

Vegetativ nerv tizimi – nerv tizimining organizm ichki a'zolari faoliyatini va modda almashinuvini boshqarib turadigan bir qismi.

Genotip – ota-onadan farzandga o'tadigan irsiy belgilar majmui.

Gerontopsixologiya–psixologiya tarmog'i, qarilik davri psixologiyasini o'rganadi.

Gnostik – butun borliqni bilishga yo'naltirilgan faoliyat.

Guruh – odamlarning birgalikdagi faoliyat mazmuni yoki muloqotda bo'lish xarakteri kabi qator belgilarga asoslangan ijtimoiy jamoa.

Dunyoqarash – odamning tevarak-atrofdagi oamga va unda o'zining tutgan o'rniga qarashlaridan kelibchiqqan tizim. Uning falsafiy, siyosiy, ilmiy, diniy, aqliy va estetik qarashlari yig'indisi.

Depressiya – tushkunlik kayfiyati.

Diqqatning barqarorligi – diqqatning ma'lum ob'ektga uzoq vaqtdavomida muttasil qaratilishi.

Diqqatning ko'lami – bir vaqtning o'zida diqqatning bir qancha ob'ektga qaratilishi imkoniyati.

Diqqatning taqsimlanishi – diqqatning bir vaqtda bir necha ob’ektga taqsimlanish xususiyati.

Diqqatning ko‘chishi – diqqatni ixtiyoriy ravishda bir ob’ektdan ikkinchisiga ko‘chirish.

Dialog – ikki va undan ortiq kishilarning o‘zaro og‘zaki gaplashishi.

Dialogik nutq – nutq turlaridan bo‘lib, bunda so‘zlovchilar barobar teng, birgalikda faollik ko‘rsatadi.

Dominant shaxs – boshqalar bilan muomala va munosabat o‘rnatishda o‘z fikrini o‘tkazish xislatining yorqin namoyon bo‘lishi.

Yosh psixologiyasi – turli yoshdagi odamlarning psixologik xususiyatlarini va rivojlanish qonuniyatlarini o‘rganadi.

Yosh davri nizolari – o‘ziga xos, uncha uzoqqa cho‘zilmaydigan ontogenez davrlari bo‘lib, bu vaqtda keskin psixik o‘zgarishlar yuz beradi.

Jamoa – maqsadlari jamiyat maqsadiga mos keladigan umumiy faoliyat bilan birlashgan odamlar guruhi.

Jamoaning negizi – umumiy fikr, maqsad va ishlab chiqarishga taalluqli qarorlarni shakllantiruvchi jamoa a‘zolari.

Yo‘nalish – shaxsning xatti-harakati va faoliyatini aniq sharoitlardan qat’i nazar ma’lum yo‘lga yo‘naltiruvchi barqaror motivlar yig‘indisi.

Individuallik – individning boshqalardan farqlanadigan ijtimoiy xususiyatlari va psixikasining o‘ziga xosligi, qaytarilmasligi.

Idrokning konstantligi – idrok sharoiti o‘zgarsa-da, idrok qilishdan hosil bo‘lgan narsa obrazlarning nisbatan o‘zgarmasligi.

Idrokning predmetliligi – jamiki olamdan olingan ma’lumotlarni ichki olam ob’ektiga kiritish xususiyati.

Idrokning butunliligi – sezgi a‘zlariga bevosita ta’sir etib turgan ob’ektlarni, ularning belgi va xususiyatlari bilan birgalikda qo‘shib idrok etish.

Istedod – shaxsning ma’lum faoliyatda ifodalanadigan qobiliyatining yuqori darajasi.

Ijtimoiy psixologiya – psixologiya fanining o‘ziga xos maxsus tarmog‘i bo‘lib, unda psixik va jamiyat taraqqiyoti qonunlari o‘rganiladi.

Ijtimoiylashuv - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o‘zlashtirish jarayoni.

Ijtimoiy tasavvurlar – shaxsga jamiyat orqali ta’sir etgan narsa va xodisalarning yaqqol obrazi.

Ilmiy taxmin – tekshirish va tadqiqot olib borish maqsadida ilgaridan kutilishi mumkin bo‘lgan xolatning bashorat qilinishi.

Ijtimoiy psixologik eksperiment – asosiy metodlardan biri bo‘lib, o‘zgaruvchan mustaqil turli xolat va jarayonlarning boshqa nomustaqil xolat va jarayonlarga ta’sir etishdagi aniq ma’lumotlariga tayanadi.

Interaktiv – shaxslararo munosabatlarda bir-biriga xulq-atvor ta’sir ko‘rsatish jarayoni.

Introvert shaxs - shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o‘z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining nihoyatda pastligi.

Kasb – faoliyat shakllari birlashmasi bo‘lib, mazmun, vositalar, tashkil otlar, mehnat natijalari hamda mehnat sub’ektini tayyorlashga qo‘yiladigan talablar majmui.

Kontent-analiz – tekshirilayotgan matnda so‘z, ibora, abzatslarni ma’no-mohiyatini takrorlanish darajasiga qarab tahlil etish usuli.

Kuzatish – sinaluvchini aniq maqsad, faoliyat, vaqt, guruh bilan bog‘liq ravishda tekshirish, o‘rganish, ma’lumotlar to‘plash metodi.

Kommunikativ – shaxslararo munosabatlarda ma’lumot, axborot, g‘oyalar almashinuvi jarayoni.

Kichik guruh – a‘zolari birgalikdagi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi va bevosita shaxslararo munosabatda bo‘luvchi kishilar guruhi.

Ko‘nikma – odamning ma’lum ishni bajarishga tayyorligida ko‘rinadigan qobiliyati. K. mahoratning asosini tashkil etadi.

Longityud tadqiqot – sinaluvchini uzoq muddat va doimiy ravishda o‘rgansh.

Metod – bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisi.

Metodologiya – tadqiqot, tekshirish usuli bo‘lib, bilishning nazariy va amaliy o‘zlashtirish usullari yig‘indisidir.

Motiv – ma‘lum ehtiyojlarni qondirish bilan bog‘liq faoliyatga undovchi sabab.

Motivatsiya – odamni faol faoliyatga undovchi sabablar majmui.

Malaka – mashq qilish jarayonida ish harakatlar bajarilishining avtomatlashgan usullari.

Mehnat psixologiyasi - kishi mehnat faoliyati psixologik xususiyatlarini, mehnatni ilmiy asosda tashkil etishning psixologik jihatlarini o‘rganadigan fan.

Mehnat faoliyati psixologiyasi – bu psixologiyaning bir sohasi bo‘lib, inson shaxsini mehnat sub‘ekti sifatidagi shakllanishi xususiyatlarini, mehnatning shart-sharoitlari, yo‘llari va usullarini ilmiy jihatdan o‘rganadi.

Mehnat – inson ehtiyojini qondirish asosida tashqi olamni o‘zgartirishga qaratilgan maqsadli faoliyat.

Mutaxassislik – faoliyatning aniq shakli bo‘lib, mehnat egasining kasbiy tayyorligi, mehnat vositalari, mehnat jarayoni va maqsadining maxsus xususiyatlari bilan belgilanadi.

Mehnat sub‘ekti (egasi) – bu faol harakat qiluvchi, anglash va o‘zgartirishga layoqatli, ong va iroda bilan ish olib boruvchi individ yoki ijtimoiy guruh.

Muloqot – ikki yoki undan ortiq odamlarning o‘zaro bir-biriga ta‘sir etishi.

Melanxolik - temperament turlaridan biri bo‘lib, psixik faollikning sust, tez ta‘sirilanuvchanlik, xatto arzimagan narsalar uchun ham juda chuqur ta‘sirotga berilishi bilan xarakterlanadi.

Monologik nutq – bir odamning o‘z fikrlarini og‘zaki yoki yozma ravishda ifodalash nutqi.

Monolog – ma‘ruzachi tomonidan nutq so‘zlanishi, ma‘ruzachi aktiv, tinglovchi passiv bo‘lgan jarayon.

Mobil shaxs - shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish va moslashish imkoniyatining yuqori darajada kuzatilishi.

Negativizm - individning har qanday sharoitda ham guruh fikriga qarshi turishi va o‘zicha mustaqil fikr, mavqeni namoyon qilishi.

Norasmiy – odamlarning birgalikdagi muloqot va faoliyatlarida ular orasidagi munosabatlarning o‘zaro ishonch, bir xil qarash va maqsadlarning ko‘zda tutilishi.

Noverbal - nutqsiz ifodalangan xarakat, mimika, xolatlarning boshqa shaxsga yo‘naltirilishi.

Nizolar – o‘zaro ta‘sir ko‘rsatayotgan kishilarning qarama-qarshi turishi, bunda fikrlar, pozitsiyalar, qarashlar teskariligi kuzatiladi.

Nizo turlari – nizolarning kimlar orasida yuzaga kelishiga ko‘ra farqlari: shaxslararo, guruhlararo, shaxsiy, etnik, milliy; namoyon bo‘lish xususiyatiga ko‘ra: ochiq, yopiq, uzoq muddatli, qisqa; mavqe yoki darajaga ko‘ra: vertikal va gorizontal; yo‘nalishiga ko‘ra: destruktiv va konstruktiv.

Nizo bosqichlari – uch bosqichda, ya‘ni nizo oldi, nizo va nizodan keyingi bosqichlar.

Nizo hal etish yo‘llari – kompromiss, ya‘ni kelishuv; joyida hal etish; nizodan chekinish; orqaga surish; qochish.

Operativ xotira – xotira turlaridan biri bo‘lib, faoliyat bajarish jarayonida uzoq xotiradan vaqtincha foydalaniladi.

Oila – turmush qurish, qarindosh-urug‘chilik asosidagi kichik guruh.

Psixika – yuksak darajada tashkil topgan materiya, miyaning funksiyasi bo‘lib, uning mohiyati tuyg‘ular, idrok, tasavvur, fikrlar, iroda va boshqalar ko‘rinishida aks ettirishdan iborat.

Psixik jarayonlar – u yoki bu psixik maxsul va natijalarni (psixik obrazlar, xolatlar, tushunchalar, xissiyot va x.k.) xosil qiluvchi, shakllantiruvchi va rivojlantiruvchi jarayon.

Psixologiya – odamning ob‘ektiv borliqni sezgi, idrok, tafakkur, tuyg‘u-hissiyot va boshqa psixik xolatlar orqali aks ettirish jarayonini o‘rganadigan fan.

Psixik holatlar – psixik hayot shakllari, diqqat, hissiyot, iroda jarayonlariga aytiladi. P.H. (xushchaqchaqlik, ruhlanish, siqilish, ziyraklik, qat‘iylik, tirishoqlik v.b.) shaxslarda ma‘lum darajada barqaror bo‘lib, ularning muayyan xususiyatiga ham aylanib qoladi.

Pilotaj tadqiqot – tadqiqotning muammoli izlovchi turi, asosiy tadqiqotgacha o‘tkaziladigan va soddalashtirilgan shakli.

Psixodiagnostika – shaxsning individual-psixologik xususiyatlarini aniqlovchi va o‘lchashni ishlab chiquvchi psixologiya usuli.

Psixologiya metodlari – psixik xodisalarni va ularning qonuniyatlarini ilmiy tomondan o‘rganishning asosiy yo‘l-yo‘riq va usullari.

Psixokorreksiya – shaxsning psixik rivojlanishidagi kamchiliklarni tuzatish usullarini qo‘llash jarayoni.

Psixologik xizmat – psixologiyani amaliyotda qo‘llash tizimi. U turli sohalarda diagnostika, konsultatsiya, ekspertiza vazifalarini bajaradi.

Psixologik maslahat – shaxsning turli darajadagi o‘z muammolarini yakka tartibda psixolog bilan tahlil etishga qaratilgan psixologik xizmat turi.

Polilog – guruh ichidagi munozara bo‘lib, barcha ishtirokchilar faolashuvi kuzatiladi.

Perseptiv tomon – shaxslararo munosabatlarda tushunish, his etish, idrok etishga qaratilgan jarayon.

Professiografiya – mehnat sub‘ektining faoliyat tarkiblari (uning mazmuni, vositalari, sharoitlari, tashkil ot) bilan o‘zaro munosabati va bog‘liqligini o‘rganish va aniqlashga qaratilgan kompleks metod.

Professiogramma – kasbning turli ob‘ektiv xarakteristikalarining tasnifi.

Psixogramma – faoliyatning psixologik xarakteristikalarining tasnifi.

Rigid shaxs – shaxsning bir faoliyat turidan boshqasiga o‘tish va moslashish imkoniyatining past darajada kuzatilishi.

Rasmiy – odamlarning birgalikdagi faoliyatlarida, ijtimoiy rollar taqsimotida mavqe, martabaning inobatga olinishi

Real – birgalikdagi faoliyat jarayonida bevosita muloqot amalga oshishi imkoniyati.

Referent guruh – shaxsning har tomonlama ishongan, o‘ziga yaqin tutgan guruhi.

Sangvinik – temperament turlaridan bo‘lib, chaqqon, harakatchan, taassurotlari tez o‘zgaradigan, boshqalarga nisbatan dilkashlik, mehribonlik xislatlari bilan xarakterlanadi.

Sanoat psixologiyasi – sanoat va ishlab chiqarishda turli yuzaga keladigan muammo va xolatlarni psixologik va ijtimoiy omillarini tahlil qilib olishga qaratilgan xizmatlari turi.

Simpatiya – bir kishida boshqasiga nisbatan kuzatiladigan moyillik va yoqimlilik hislarining ichki namoyon bo‘lishi.

Sotsiologiya – jamiyatda yuz beradigan turli-voqea-xodisalarni va o‘zaro munosabatlarni o‘rganishga qaratilgan fan.

So‘rov – asosiy metodlardan biri bo‘lib, nutq muloqoti yordamida bevosita yoki bivosita ma‘lumot olinadi.

Ta‘lim maskanlari psixodiagnostikasi – shaxsni ta‘lim tizimda qobiliyati, iqtidori, iste‘dodini aniqlab olish maqsadida olib boriladigan psixologik xizmat turi.

Test – sinalluvchini tekshirish jarayonida maxsus qo‘llaniladigan metodlardan biri bo‘lib, bu metod orqali aniq bir psixologik xususiyat aniqlanadi.

Tushuncha – narsa va xodisalarning muhim belgi va xususiyatlarini bitta so‘z yoki so‘zlar guruhi bilan ifodalashdan iborat tafakkurning mantiqiy shakli.

Tushunish – biror narsaning ma‘nosi va ahamiyatini anglash qobiliyati, asosiy erishilgan natijasi.

Taxlil – tafakkur qilish usuli, bunda murakkab ob‘ektlar qismlarga bo‘linib o‘rganiladi.

Taqqoslash – narsa va xodisalar o‘rtasidagi o‘xshashlik va tafovutlarni aniqlashga asoslangan fikrlash operatsiyasi.

Trening – mashq qilmoq, guruxlarda muloqotning samarali tashkil etish usuli bo‘lib, shaxsning muloqotga o‘rgatish va obro‘li bo‘lishini rivojlantirish maqsadida o‘tkaziladi.

Temperament – shaxsning individual-psixologik xususiyatlari majmui bo‘lib, u kishida faoliyat va xulq-atvorning dinamik va emotsional tomonlari bilan xarakterlanadi.

Tobe shaxs – muloqot va boshqa jarayonlarda shaxsda ko‘nikuvchanlik, boshqa kishilarga bog‘liqlik, fikriga bo‘ysunish xususiyatlarining tarkib topishi.

Umumlashtirish – voqelikdagi narsa va xodislarni umumiy va muhim belgilariga qarab fikran

birlashtirishdan iborat tafakkur jarayoni.

Uyushganlik - guruh a'zolarining bir-birlarini yaxshi bilishlari, bir-birlarining dunyoqarashlari, hayotiy prinsiplari, qadriyatlarini anglashlari.

Ustanovka – yo'nalish, kishining tevarak-atrofdagi odamlarga va ob'ektlarga nisbatan qanday munosabatda bo'lish, ularni idrok qilish, ularga baho berish va ularga nisbatan xarakatining tayyorlik xolati.

Faoliyat – insongagina xos, ong bilan boshqariladigan ehtiyojlar tufayli paydo bo'ladigan va tashqi olam bilan kishining o'z-o'zini bilishga, uni qayta qurishga yo'naltirilgan faolligi.

Faollik – tirik materiyaning umumiy xususiyati, tevarak muhit bilan o'zaro ta'sirda bo'lishida namoyon bo'ladi.

Flegmatik – temperament turlaridan biri bo'lib, harakatlar sekinligi, barqarorligi, emotsional xolatlarning tashqi ko'rinishlari kuchli emasligida namoyon bo'ladi.

Xarakter – kishidagi barqaror psixik xususiyatlarining individual birligi bo'lib, shaxsning mehnatga, narsa va xodisalarga, o'ziga va boshqa kishilarga munosabatlarida namoyon bo'ladi.

Harakat – maqsadga muvofiq yo'naltirilib, ongli ravishda amalga oshiriladigan harakatlar yig'indisi. H. Ongli faoliyatning tarkibiy qismlari va motivlaridan biridir.

Xulosa chiqarish – tafakkurning mantiqiy shakllaridan bo'lib, bir qancha xukmlar asosida ma'lum xulosa chiqariladi. X.ch. induktiv, deduktiv va analogik turlarga ajratiladi.

Xolerik – temperament turi bo'lib, xissiyot jo'shqinligi, kayfiyatning tezda o'zgarishi, hissiyotning muvozanatsizligi va umuman xarakatchanligi bilan ajralib turishi xosdir.

Shaxs – ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi va ongli faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam.

Shaxs ijtimoiylashuvi - inson tomonidan ijtimoiy tajribani egallash va hayot - faoliyat jarayonida uni faol tarzda o'zlashtirish jarayonidir.

Shaxslararo munosabat – muloqot jarayonidagi o'zaro ta'sir etish natijasida ro'y beradigan ijtimoiy-psixologik hodisalar.

Shakllar – bevosita va bivosita tur bo'lib, yuzma-yuz yoki vosita orqali amalga oshishi ko'zda tutiladi.

Shakllanganlik - odamlarning nima uchun jamoalarda ishlashi, odamlar ichida bo'lishi bilan bog'liq psixologik jarayon.

Shartli – odamlarning turli belgi, faoliyat shakllariga ko'ra biror guruhga taalluqli deb qarash.

Emotsiya – odam va hayvonlarning sub'ektiv ifodalangan ichki va tashqi qo'zg'oluvchilar ta'siriga javob reaksiyasi.

Egotsentrizm – men, markaz ma'nosida individualizm va egoizmning eng tuban turi.

Ekstrovert shaxs – shaxsning xar qanday sharoit va xolatlarida o'z ichida kechayotgan fikrlarini bayon etish ehtiyojining yuqoriligi.

Empatiya – boshqa odamlarning psixik holatini tushunish qobiliyati.

o'qish – shaxsning bilim va faoliyat usullarini egallashga hamda uni mustahkam esda saqlab qolish jarayoni.

O'yin – faoliyat turlaridan biri bo'lib, bolalarning kattalar faoliyatini, ish xarakatlarini aks ettirishda ifodalanadigan va atrofni bilishga qaratilgan faoliyatdir.

O'z-o'ziga baho berish – shaxsning o'z-o'ziga baho berishi.

Qobiliyat – shaxsning ma'lum faoliyatidagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biror faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

Qiziqish – shaxsning o'zi uchun qimmatli va yoqimli narsa yoki xodisalarga munosabati.

Qobiliyatlar – shaxsning ma'lum faoliyatdagi muvaffaqiyatlarini va osonlik bilan biron faoliyatni egallay olishini ta'minlaydigan individual psixologik xususiyati.

ABSTRAKTSIYA - (lot, abstractio- mavxumlashtirish) - narsalarning o'ziga xos belgi va xususiyatlarini, ular o'rtasidagi bog'lanishlarni, narsalarning muhim belgi va xususiyatlarini ajratib olishga qaratilgan fikrlash operatsiyasi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI

TOSHKENT FARMATSEVTIKA INSTITUTI

IJTIMOIIY FANLAR KAFEDRASI



“KASBIY PSIXOLOGIYA”

